

2024-yil. 13-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz



«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



*Yurtim
jamoli.*



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
 НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
 SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
 Yorqinjon Odilov
 Jabbor Eshonqulov
 Baxtiyor Daniyarov
 Abdurahim Nosirov
 To'liqin Saydaliyev
 Barno Buranova
 Zulxumor Mirzayeva
 Qozoqboy Yo'ldoshev
 Bahodir Jovliyev
 Salima Jumayeva
 Qayum Baymirov
 Manzar Abdulxayrov
 Alijon Safarov
 Madina Nuriddinova
 Latifa Xudayqulova
 Barno Kadirova
 Nargiza Mirzayeva
 Guli Shukurova
 To'maris Butunbayeva
 Okila Turakulova
 Yuldosh Raxmatov
 Ramziddin Abdusatorov
 Feruza Manukyan
 Gulsanam Xolikulova
 Komiljon Qarshiyev
 Nigoraxon Ro'zibayeva
 Ra'no Mullaxodjayeva

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
 Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
 Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
 Telefon: (98) 121-74-16,
 (71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
 (71) 233-03-67.

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Mashhura Qodirova. Is'hoqxon Ibrat – avlodlarga ibrat.....3

Gulasal Latipova. Elektron lug'atlarni yaratishda korpusni loyihalash masalasi.....5

Tilshunoslik

Zafar Umurqulov. Qiyosiy konstruksiyalarning funksional-semantik xususiyatlari.....11

Muhabbat Matqurbonova. Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida metonimik va sinekdoxik ko'chimlarning nutqiy voqelanishi.....14

Zayniddin Narmuratov. Frazologik birliklarning yondosh hodisalarga munosabati.....17

Фархад Рустамов. История заимствований в английском языке: эволюция и влияние на лексикографию.....20

Adabiyotshunoslik

Klara Axmirzayeva. O'zbek romanchiligida badiiy-uslubiy izlanishlar.....24

Kumush Abdusalamova. Matnazar Abdulhakim she'riyatiga Ogahiy ijodining ta'siri.....26

Diana Ruzmetova. The role of nature in contemporary American fiction.....29

Adash Rustamova. English reading difficulties: an action research.....32

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Nasiba Nasriddinova. 1–4-sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish metodikasi.....37

Yorqin Djo'rayev. Badiiy asarlarning

falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish.....40

Farangiz G'iyosova. Boshlang'ich ta'limda lug'atlar asosida nutq o'stirishning ahamiyati.....43

Shahnoza Qudratova, Mohisitora Abdusalomova. STEAM ta'limining umumiy tavsifi.....46

Begoyim Yuldosheva. Maktabda omonim so'zlar mavzusini o'qitish usullari.....48

Feruza Xusanova. Talabalarning to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda o'zbek namoyandalari, xalq qahramonlari va madaniy merosni o'rganish.....50

Muborak Sattorova. Nomilliy guruhlarda o'zbek tilini o'qitish usullari.....53

Muxtasar Radjabova. Arab tilida yozma nutq janrlarini o'qitishda integrativ yondashuv.....55

Хилола Очилдиева. Технологии развития специальных компетенций будущих учителей русского языка и литературы.....57

Tadqiqot

Maxbuba Turobova. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari.....60

Saboxat Allanazarova, Dilrabo Elova. O'zbek tili uchun sentiment leksikasini ishlab chiqishning o'ziga xos muammolari va ahamiyati.....63

Umida Xo'jayeva. O'zbek va ingliz tilida "Halollik" leksemasining ma'nodoshlari va ularning ifodalanishi.....67



Aziza Eshdavlatova. Vizual she'riyatning badiiy-tasviriy xususiyatlari.....	70	Madina Muhammadiyeva. Frazologizmlarida lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi.....	89
Ma'rifatxon Abdullayeva. Boshlang'ich ta'limda "tarbiya" fanini o'qitishda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadlari.....	73	Kichik tadqiqot	
Gulhayo Ortiqova. Badiiy adabiyot tarjimasida nazariy yondashuvlar.....	76	Iroda Xojjiyeva. Umumta'lim maktablarda o'zbek tili (davlat tili) fanidan morfologiya mavzusining darsliklarda berilishi.....	93
Odinaxon Azamatova. Artionimlarda so'z birikmalaridan foydalanishning nazariy va ilmiy asoslari.....	79	Malika Eshonqulova. Psixolingvistika orqali bolalarda til tizimi uyg'unligini takomillashtirish.....	94
Shaxribonu Raximova. Chet tili retseptiv ko'nikmalarini o'qitishda deduktiv va induktiv yondashuvlar tatbiqi.....	81	Abera Qahhorova. Boshlang'ich ta'limda badiiy matnlarni tahlil qilish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari.....	96
Gulchiroy Muhiddinova. Yozma nutqni rivojlantirishda nutqiy ko'nikmalarni integratsiya qilish.....	83	Dilnura Madaminova. Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romanida Beruniy obrazi.....	98
Maxbuba Mardiyeva. Frazologizmlarda so'zlarning birikishi va ularning tarjimasini.....	86	Marjona Suyunova. Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari.....	100
		Azizbek Ibragimov. Orzu Urganjiy lirikasida xalq og'zaki ijodining o'rni.....	102



Mashhura QODIROVA,
 Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani 24-maktab
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

IS'HOQXON IBRAT – AVLODLARGA IBRAT

Annotatsiya: Ibrat o'z hayotini ilm-ma'rifat tarqatishga bag'ishladi. Kelajak avlodni savodsiz bo'lib qolmasligi uchun bor kuch-g'ayratini ishga soldi. Maktablar ochdi, qishloq bolalari ham o'qimishli, savodli bo'lishlarini xohladi. Butun umrini til o'ganishga, ziyo tarqatishga bag'ishladi.

Kalit so'zlar: madrasa, ma'rifatparvar, xattot, madaniyat, fozil kishilar.

Аннотация: Ибрат посвятил свою жизнь распространению науки и просвещения. Он приложил все усилия, чтобы следующее поколение не стало неграмотным. Открывали школы, хотели, чтобы деревенские дети тоже были образованными, грамотными. Всю свою жизнь он посвятил изучению языка, распространению знаний.

Ключевые слова: медресе, просветитель, каллиграф, культура, добродетельные люди.

Annotation: Ibrat devoted his life to spreading science and enlightenment. He made every effort to ensure that the next generation would not become illiterate. They opened schools, they wanted the village children to be educated and literate too. He devoted his whole life to learning the language and spreading knowledge.

Keywords: madrasah, educator, calligrapher, culture, virtuous people.



Shoirning asl ismi Is'hoqxon "Ibrat" – uning adabiy taxallusi. Bu haqida shoirning o'zi quyidagilarni yozadi: Ibrat taxallusimdur ahfodi Hazrati Sulton Shuhratda – Hoji To'ra, mavosi – To'raqo'rg'on.

Is'hoqxon To'raning o'ziga "Ibrat" taxallusini olish sababi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va zamona ilmidan ilg'or madaniyatdan o'rnak olishga, ibrat olishga chaqirdi. Shuning uchun ham u o'ziga "Ibrat" taxallusini tanladi.

Is'hoqxon 1279-hijriy (1862-milodiy) yilida Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on (Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanining markazi) qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja Sunnatullaxo'ja o'g'li bilimli sohibkor bog'bon bo'lgan. Uning 3 tanob yeri bo'lib, u yerda dehqonchilik, bog'dorchilik bilan oila tebratar edi. Junaydullaxo'ja adabiyotga ayniqsa, she'riyatga ancha ixlos qo'ygan va "Xodim" taxallusi bilan she'rlar ham yozgan.

Onasi Huribibi davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lib, o'z uyida qishloq qizlarini o'qitar edi. Huribibi ham adabiyotni ancha sevgan va o'zi ham birmuncha she'rlar bitgan. U o'zbek va fors-tojik mumtoz shoirlarining asarlarini ancha mutolaa qilgan ayol edi. Ushbu oilaviy muhit Is'hoqxonda adabiyotga muhabbatning ancha erta paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Is'hoqxonni dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabiga o'qishga beradilar. Bu maktabda 5 yil mobaynida hatto savodini ham chiqara olmagach, o'z uyida, onasining qo'lida o'qiydi. Huribibi o'z maktabida faqat quruq yodlash bilangina cheklanmay, qizlarga yozishni, husnixatni ham o'rgatar edi. O'zi ham ancha savodxon bo'lib, husnixatdan xabardor edi. Shuning

uchun ham Is'hoqxon onasini ko'p o'rinlarda ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. U yoshlik yillarida, ayniqsa husnixatga qiziqdi, bo'sh vaqtini bu san'at sirlarini o'rganishga bag'ishladi.

Adabiyot va san'atga zo'r muhabbat qo'ygan Is'hoqxon mukammal savodga ega bo'lgach, o'qishni davom ettirish uchun uni Qo'qonga yuboradilar. U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga 1878-yilda o'qishga kiradi. Madrasada arab va fors tillarini chuqur o'rganish bilan birga rus tilini mustaqil o'rganadi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat 1886-yilda Qo'qon madrasasini tugatib, o'z qishlog'i To'raqo'rg'oniga qaytib keladi. U madrasani tamomlagan ba'zi kishilar singari masjidga imom bo'lmaydi, o'z ijodini, faoliyatini ilg'or maorifchi sifatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi. O'sha yili o'z qishlog'ida maktab ochadi. Uning maktabi eski usul maktablaridan ancha farq qilar edi, lekin bu maktabida uzoq vaqt ishlay olmaydi. Ba'zi bir johil ulamolalar uning maktabini "Kofirlar maktabi" deb e'lon qiladilar va Chor hukumati amaldorlari yordamida yoptiradilar. Ma'rifatparvar shoir, ilg'or maorifchi Is'hoqxon Ibrat o'zining nazmiy va ilmiy asarlarida, maqolalarida zamondoshlariga Sharq tillari bilan bir qatorda G'arb tillarini ayniqsa Rus tilini o'rganishni targ'ib qilibgina qolmay, o'zining amaliy faoliyati bilan ham juda katta yordam bergan. Rus tili bilan bir qatorda unga yaqin bo'lgan Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgani uchun bu muhim masalada ham o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zadi. U olti tildagi: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, o'zbekcha va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") nomli mukammal lug'at kitobini

yaratdi. Mazkur asarni yaratar ekan birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni ko'zda tutgan. Bu hol kitobning birinchi betidanoq ko'zga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv sistemasini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lsin uchun rus so'zlarini ham arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va yevropa so'zlarini arab yozuvida



ifodalash ancha murakkab ish, lekin Ibrat bu murakkab ishni muvaffaqiyatli hal qilgan.

Ibratning mazkur "Lug'ati sitta al-sina" asari bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901-yilda Toshkentda nashr etildi. Lug'at olti tillik, ancha murakkab bo'lib, o'zbekcha so'zlarning qarshisida arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. Lug'at mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 betdan iborat. Asar ikki qismdan tashkil topgan. Bu asar pedagoglarimiz, mutafakkirlarimiz Abdulla Avloniy va Munavvar qori, Hamza va So'fizoda, Ajziy va Shakuriylar ochgan hamda xalq ma'naviy hayotiga singib borayotgan usuli jadid maktablarida ancha keng qo'llanilgan. Shuningdek, ushbu asar uzbek tilshunosligida ikki tunlik va kun tillik lug'atlar tuzishida dastlabki qadam bo'lib, o'zbek leksikografiyasini rivojlantirishga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Shubhasiz, Ibratning olib borgan ilmiy faoliyati uning ajoyib tilshunos olim ekanligidan dalolat beradi.

Ibrat madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozongan. Uning zamondoshi Ibrohim Davronning tasdiqlashicha, Is'hoqxon zo'r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir, u bu sohada

yaratgan asari uchun 1907-yilda katta mukofotga sazovor bo'lgan.

Is'hoqxon Ibrat chin qalbidan o'z xalqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimini, kuch-g'ayratini ayamadi. U o'zining 1916-yilda yaratgan "Tarixi madaniyat" asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik poetik ijodining majmuasi bo'lmish "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini yaratdi. Uning tilshunoslikka oid "Lug'ati sitta al-sina", "Jom'e ul-hutut" asarlaridan tashqari tarixshunoslikka oid "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Me'zon ul-zamon" ilmiy asarlari bizgacha yetib kelgan.

Is'hoqxon Ibratning ilmiy-tarixiy asarlari vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur, birinchi, mo'tabar manba hisoblanadi. Dunyoda o'qituvchilik ishidan ham og'irroq va sharafliroq, undan ham buyukroq ish bo'lmasa kerak. Chunki o'qituvchi inson farzandini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi. Har qanday jamiyatning inqirozi-yu tanazzuli, ravnaqi-yu istiqboli uning maktabga, ta'lim tarbiyaga va ayniqsa, o'qituvchiga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi.

Is'hoqxon Ibrat ham jamiyatning ravnaqini istiqbolini belgilovchi kasb sifatida muallimlar faoliyatiga, maktablar faoliyatiga butun ma'naviy hayotini, umrini bag'ishladi. Xalq farzandlarining 10-15 yillab eski maktab va madrasa tuprog'ini yalab oxiri savodsiz yoki chalasavod bo'lib chiqishlari Ibratni iztirobga soldi. Eski usul maktablarini tag-tugi bilan tugatish va bunday maktablar o'rnida yangi, zamona talabiga javob bera oldigan, zamonaviy ilmlar o'qitiladigan maktablar tashkil qilish shiori bilan chiqadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek 1886-yildayoq eski maktablarga nisbatan birmuncha ilg'or bo'lgan maktab ochdi. 2-marta 1907-yilda eski maktablardan butunlay farq qilgan, qishloq kambag'al bolalari uchun bepul yangi usuli savtiya maktabini ochdi. Bu maktabda o'z farzandlari Vaqqosxon, Abbosxon, Payozxonlarni hamda 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida - yorug' derazali xonaga joylashgan bo'lib, yangicha o'quv qurollari, parta, stol-stul, yangi kitoblar, darsliklar, daftar, doska kabilar bilan jihozlangan. O'qish-o'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib borgan. Ilg'or maktabdordlardan biri sifatida o'z maktabiga haftalik dars jadvalini joriy qiladi. U haqida mazkur maktabning sobiq o'quvchisi Mirzavoy G'iyosov shunday deydi: "Biz maktabga oldindan tuzib qo'yilgan haftalik dars jadvali bo'yicha darslarga tayyorlanib kelar edik". Ma'rifatparvar Ibrat xalqni ilm-ma'rifatdan bahramand bo'lishi uchun o'z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qiladi va uni "Kutubxonai Is'hoqiya" deb ataydi. Bu kutubxonada nafaqat o'zi, qishloq aholisi ham unumli foydalangan. Kutubxona a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning kitob o'qishlarini Is'hoqxonning o'zi nazorat qilib borgan. Kutubxonadagi kitob fondi yil sayin kattalashib, a'zolar soni ortib borgan.

Ibrat jahon ilmi va madaniyati tomonidan yaratilgan har qanday ilg'or yangilikni bajonidil qabul qilgan va o'z xalqiga namoyish qilishga harakat qilgan. O'z otasidan qolgan 3 tanob yerni xalq uchun gulgubog' qiladi va bog'ga favvora qurdiradi, 150 tup archa, rus va yevropa manzarali daraxtlarini o'tqazadi. Yevropa tipidagi imorat qurdirib, arkiga "Xush kelibsiz, Is'hoqiya bog'iga!" deb yozib qo'yadi.

Ibratning so'nggi yillardagi harakati ancha tahlikali o'tdi. Birinchidan, qarilik, ikkinchidan, 1935-yildan e'tiboran hamma lavozimlardan ozod qilingan, qarilik nafaqasi ham tayinlanmagan edi. Buning ustiga mahalliy hukumat ma'muriyati unga ishonchsizlik bilan qarar edi. Ibrat tepasida ham dahshatli qatag'on bulutlari quyuqlashib bormoqda edi. 1937-yil qatag'on Vatanimizning fozil kishilari qatorida Ibratni ham ajdahoday o'z komiga tortdi. 75 yoshni qoralagan, keksa shoir va bir "qora mashina" to'la kitob Andijon turmasiga olib ketildi, uning sudi ham bo'lmadi. Stalin turmasida ikki oy yotib hayot bilan vidolashdi. Ehtimol, butun umrini xalqining ma'rifati, istiqloli uchun baxsh etgan 75 yoshli nuroniy shoir qamoqning ham jismoniy, ham ruhiy azoblariga bardosh bera olmagan bo'lishi mumkin.

Xulosa. Is'hoqxon To'ra Ibratning ilmiy va adabiy me'rosini o'rganish biz yoshlar uchun ibrat vazifasini o'taydi.

Is'hoqxon Ibrat ham jamiyatning ravnaqini istiqbolini belgilovchi kasb sifatida muallimlar faoliyatiga, maktablar faoliyatiga butun ma'naviy hayotini, umrini bag'ishladi. Xalq farzandlarining yillab eski maktab va madrasa tuprog'ini yalab oxiri savodsiz yoki chala savod bo'lib chiqishlarini Ibrat xohlamadi. Eski usul maktablarini tugatish va bunday maktablar o'rnida yangi, zamona talabiga javob bera oldigan, zamonaviy ilmlar o'qitiladigan maktablar tashkil qildi. Eski maktablardan butunlay farq qilgan, qishloq kambag'al bolalari uchun bepul yangi usuli savtiya maktabini ochdi. Bu maktabda o'z farzandlari qishloq bolalarini o'qitdi. O'qish-o'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Ilg'or maktabdordlardan biri sifatida o'z maktabiga haftalik dars jadvalini joriy qildi. Ma'rifatparvar Ibrat xalqning ilm-ma'rifatdan bahramand bo'lishi uchun o'z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qiladi va uni "Kutubxonai Is'hoqiya" deb ataydi. Bu kutubxonada nafaqat o'zi, balki qishloq aholisi ham unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. Dolimov. "Is'hoqxon Ibrat". – Toshkent, 1994. 7-24-betlar.
2. U. Dolimov. "Istiqloq fidoiylari". – Toshkent, 1994. 97-106-betlar.
3. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" (I harfi 4-kitob). 62-bet.

Gulasal LATIPOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

ELEKTRON LUG'ATLARNI YARATISHDA KORPUSNI LOYIHALASH MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada kompyuter lug'atlarini yaratishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish muhimligi hamda uning yordamida u yoki bu maqola haqida statistik ma'lumot olish, uni ma'lumotlar bazasi sifatida yig'ish, leksikografik manbalarni o'zaro solishtirish, muayyan soha doirasida bilimlar bazasini shakllantirish, lug'at tarkibidagi mikrostrukturaga tegishli ma'lumotlarni doimiy boyitib borish, axborot qidiruv tizimi uchun korpus orqali lug'atlarning semantik munosabatlarini tashkil qilish imkoniyati kengayishi misollar bilan izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: *leksikografik manba, bilimlar bazasi, korpus, regional til, raqamli resurs, sintaktik to'plam.*

Аннотация: в данной статье рассматривается важность использования компьютерных технологий при создании компьютерных словарей и их использования для получения статистической информации о той или иной статье, ее сбора в виде базы данных, сравнения лексикографических источников, формирования базы знаний в определенной области. , Постоянное обогащение информацией, связанной с микроструктурой текста, расширение возможностей организации смысловых связей словарей через корпус для системы поиска информации поясняется на примерах.

Ключевые слова: *лексикографический ресурс, база знаний, корпус, региональный язык, цифровой ресурс, синтаксическая коллекция.*

Annotation: in this article, the importance of using computer technologies in the creation of computer dictionaries and using it to obtain statistical information about this or that article, to collect it as a database, to compare lexicographic sources, to form a knowledge base within a certain field, Continuous enrichment of information related to the microstructure of the text, expansion of the possibility of organizing the semantic relations of dictionaries through the corpus for the information search system is explained with examples.

Key words: *lexicographic resource, knowledge base, corpus, regional language, digital resource, syntactic collection.*

Dastlabki leksikografik tadqiqotlar tahlilga tortilsa, shu narsani qayd etish o'rinli bo'ladiki, u yoki bu so'z uchun olingan turli manbalardagi namunalar kartoteka shaklida tasniflangan hamda ularni muayyan darajada tasniflash leksikografik tamoyil sifatida qo'llangan. Endilikda mana shu mashaqqatli hamda katta vaqt va mehnatni talab etuvchi jarayon korpus lingvistikasining erishgan ilmiy yutuqlari bilan yanada takomillashdi.

Dunyo tilshunosligida leksikografik jarayonlar uchun korpusning xolis baholashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Leksikografik korpusning to'rt asosiy turi haqida E.Walter quyidagilarni bayon etadi:

– Zamonaviy ingliz tilining Longman lug'atining 3-nashrida ingliz tilidagi televideniye kanallaridan olingan og'zaki matnlarning transkripsiyasiga asoslangan ma'lumotlardan lug'at yaratishda foydalanilgan. Ushbu lug'atda og'zaki va yozma matnlardan olingan so'z va frazalar grafik shaklda qiyosiy aspektda tahlilga tortilgan;


– Regional tilning rang-barangligini tavsiflash uchun ham korpusdan foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi. Unda Britaniya, Buyuk Britaniya va Avstraliya hududidagi ingliz tilida so'zlovchilarning til va nutq hodisalarining o'ziga xos jihatlari umumiylik va farqli jihatlarni tahlil qilishda foydalaniladi;

– Korpus tahlili asosida yaratiladigan lug'atning

sinxron yoki diaxron aspektida ekanligi ham inobatga olinishi lozim. Sinxron ma'lumot zamonaviy lug'atlarni yaratishda yaqin kunlarda yaratilgan manbalar orqali yaratiladi. Diaxron korpus esa diaxron manbalar asosida yaratilib, bugungi kunda arxaik qatlamga kirib qolgan leksik birliklarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu kabi korpuslar "monitor korpus", ya'ni har jihatdan teng taqsimlangan korpus bo'lib, asosiy korpus barqaror bo'lsa, ushbu turdagi ma'lumotlar doimiy yangilanib turishi bilan farq qiladi.

– So'zlovchilarning mahalliy til yoki mahalliy til bo'lmasligiga ko'ra lug'at yaratishda korpus turlari ham muayyan darajada farqlanadi. Bunday korpuslar ta'limiy lug'atlar yaratishda ahamiyatli bo'lib, boshqa millat vakillarining o'quv jarayonida yozib olingan turli yozma ishlari, ya'ni esselar asosida korpus yaratiladi.

Lug'atshunoslar uchun korpus kontentidagi qaysi turdagi janrlarning bo'lishi juda bog'liq sanaladi. Zotan lug'atning umumiy yoki sohaviylashtirilganligi namuna uchun olinadigan kontentga bog'liq. Shu bois leksikografik tadqiqotlarda korpus yaratish borasida mana shu maqsadlardan kelib chiqib dastlabki jarayonlar amalga oshiriladi. Masalan, lug'atshunos turizm sohasiga tegishli sohaviy o'quv lug'at yaratmoqchi bo'lsa, shu sohaga tegishi matnlardan tuzilgan korpusning to'liq shakllantirilganligiga e'tibor qaratadi. Agar tarjima lug'atlar bilan shug'ullanayotgan



context.reverso.net/перевод/английский-турецкий/flower

Reverso Перевод Контекст Корректор Синонимы Спряжение ...

flower Английск... Турецкий

Спрягать этот глагол
Предложения: flower shop

flower

Перевод "flower" на турецкий

Сущ. Прил. Глагол

çiçek çiçekçi çiçekli çiçeklenmek Показать больше

All three mangrove species **flower** in the spring and early summer. İlkbahar ve erken yaz aylarında her üç mangrov türü **çiçek**.

Not one credit card receipt, phone call, **flower** order. Bir kredi kartı makbuzu, telefon görüşmesi, **çiçek** siparişi...

Let's start simple, with a pretty little icing **flower**. Pekâlâ, kremayla basit, ufakık bir **çiçek** yaparak başlayalım.

bo'lsa, albatta, tarjima muqobillari segmentlangan parallel korpusdan foydalanish maqsadga muvofiq. Tarjima lug'atlar tilning barcha imkoniyatlarini, ayniqsa har bir leksemaning polisemantik xususiyatlarini ochib berishda u yoki bu so'zning qaysi qatlamga tegishli ekanligini yaxshi anglagan holda uning izohi va namunalarini berishda shunga mos sohaviylashgan korpus uchun matnlarni katta hajmda ma'lumotlar bazasiga kiritishi zarur.

Adam Kilgarrif va uning Leksik hisoblash MCHJ (Lexical computing Ltd) bilan birga Sketch Engine texnologiyasi yaratilgan. Ushbu ko'p tilli platforma lug'atshunoslar uchun konkordanslar orqali web korpusdan olinadigan ma'lumotlarga asosan lug'at yaratish uchun eng muhim lingvistik resurs sanaladi.


Korpusga asoslangan kompyuter leksikografiyasining o'ziga xos jihati shundaki, u kompyuter lingvistikasi va NLP sohasida lingvistik resursni raqamlashtirish va shu orqali tabiiy til imkoniyatlarini modellashtirish uchun lisoniy model yaratish imkoniyatini berdi. Masalan, mashina tarjimasi kabi sun'iy intellektga asoslangan tarjima texnologiyalarida ko'p tilli platformada tillarning

lingvistik qoidalari va ularning semantikasini moslashda katta hajmli korpuslardan foydalanish orqali mashina ta'limi yo'lga qo'yildi.

Korpusga asoslangan elektron lug'atlar tobora takomillashib bormoqda. Bunga bir nechtasini misol sifatida keltiramiz: Context Reverso, Linguee, ABBYY Lingvo, Tatoeba kabilar.

Linguee elektron lug'atiga 2007-yilda asos solingan bo'lib, CRAWLER texnologiyasi orqali saytlardagi bitext, ya'ni tarjima qilingan parallel matnlar asosida lug'at interfeysi tarjima birliklarni kontekst misolida chiqarib beradi. Ushbu tarjima lug'at platformasi DeepL tarjima texnologiyasiga integratsiya qilingan. Bu shuni anglatadiki, korpusning keng imkoniyatlaridan foydalanib, nafaqat lug'atchilikda, balki kompyuter texnologiyalari va NLP sohasidagi til bilan bog'liq qator muammolarni hal qilish mumkin.

Yana bir parallel korpus asosida shakllantirilgan elektron lug'atlardan biri Tatoeba hisoblanadi. Diqqatga molik jihati shundaki, ushbu platformada barcha dunyo tillarining parallel korpusi kiritilgan. Ushbu platformaga o'zbek tili ham kiritilgan bo'lib, bazasi u darajada ko'p emas.



Tatoeba yapon tilidan olingan bo'lib, "namuna" degan ma'noni anglatadi.

Ushbu platforma boshqa til saytlaridan farqli ravishda har bir tilning konstruksiyasi semantikaga asoslanadi, ya'ni onlayn lug'atlardan farqli ravishda fraza, gap va maqollarning qidiruv so'roviga ko'ra aniq topadi. Ushbu loyihaning rahbari Chang Xo bo'lib, tijorat maqsadida emas, balki til parallel korpuslarini rivojlantirishga mo'ljallagan. Ro'yxatdan o'tgan har

bir ishtirokchi lug'atni tahrirlash va uni to'ldirish imkoniyatiga ega. 2019-yilga kelib ushbu platformada 342 ta tilda parallel korpuslar joy oldi. Dastlabki til resursi sifatida ingliz-yapon tilidagi parallel matnlar prof. Yasuxiro Tanaki tomonidan kiritilgan bo'lsa, yildan yilga tillar ulushi va jumlar soni ham ortib boraverdi.

Boshqa til platformalardan farqli ravishda, buning o'ziga xosligi bir vaqtning o'zida ko'p tilli tarjima muhitini yaratish imkoniyatiga egaligidir:

tatoeba.org/ru/sentences/search?query=flower

flower Любый язык Любый язык

Предложения с: flower (1 000 результатов из 2 339 вхождений)

Предложение №23749 — принадлежит СК

Flowers bloom.

Переводы

- الأزهار تتفتح.
- ফুল ফোটে।
- Tijejjigin tjiujjigent.
- Цветята цъфтят.
- 鲜花盛开。
- 鲜花盛开。
- Blomster blomstrer.

Refine search

Предложения

Слова: flower

Введите слово или фразу

Язык: Любый язык

Показать переводы на: все языки

Длина: Не менее 1 Не более

Владелец: Введите имя пользователя

So'zlarni gaplarda ifodalanishi quyidagi ko'rinishda aks etgan:

tatoeba.org/ru/tags/view_all

Tatoeba Просмотр Сообщество РЕГИСТРАЦИЯ ВХОД РУССКИЙ

Помощь Расширенный поиск исходный язык: Любый язык язык перевода: Любый язык

Все теги (всего 10 583) СОРТИРОВАТЬ ПО

1 2 3 4 5 6 7 ... 212

List 907	400 360 предложений
Tanaka Corpus	287 227 предложений
OK	118 170 предложений
presente	93 503 предложения
infinito presente	44 420 предложений
quote	42 819 предложений

Поиск тегов

ПОИСК

Ko'ngilli lug'at tuzuvchilar uchun ushbu platforma har bir foydalanuvchi uchun mos maqom berish orqali ularni rag'batlantiradi:

Har bir kiritgan ma'lumot, qaysi vaqtda va kim tomonidan kiritilganligi qayd etib boriladi. Bu shunisi bilan ahamiyatliki, tilning raqamli resursini doimiy ravishda oshirib borish imkoniyatini yaratadi.

Kompyuter leksikografiyasida so'zning kontekstda to'g'ri tushunilishi, ya'ni mashina ta'limida u yoki bu so'zning boshqa so'zlarga munosabatini (semantik) tahlil qilish uchun lingvistik resurs juda muhim sanaladi. Bu borada kompyuter o'qiy oladigan lug'atlar (machine readable) hamda lingvistik annotatsiyalangan korpuslar zarur. Shuni e'tirof etish joizki, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida berilgan maqolalarga namunalar berish orqali korpusga asoslangan leksikografiyaning shakllanishi uchun ilk manbalardan bo'lgan, desak xato bo'lmaydi. Lug'atning mikrostrukturasida u yoki bu so'zning ma'nosini izohlashda muayyan manbalardan olingan iqtiboslik namunalari ham bugungi kunda korpusga asoslangan lug'atchilikning ilk namunasi hisoblanadi. Fanda B. Atkins "korpus leksikografiyasi"ning o'ziga xos tamoyillari sifatida 1980-yillarda yaratilgan bilingual lug'atlarning yaratilishida kompyuter texnologiyalarning ta'siri haqida mulozalarini bildiradi. Zotan, ingliz tilidagi katta hajmli Cobuild, Longman and Macmillan kabi ta'limiy lug'atlar 100 mln. so'zdan iborat korpuslar yordamida yaratilganligi manbalarda qayd etiladi. Mahalliy til o'rganuvchilariga mo'ljallangan Britaniya milliy korpusi asosida yaratilgan dastlabki ta'limiy lug'at NODE hisoblanadi.

O'zbek kompyuter lingvistikasida ham bu borada turli ishlar olib borilmoqda. Bu borada <https://uzbekcorpus.uz/> orqali tabiiy tilni qayta ishlashda korpusning keng imkoniyatlaridan foydalanib kelinmoqda.


Kompyuter leksikografiyasida omonimiya hodisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, F. Atsushi korpus asosida ko'p ma'noli yoki omonim so'zlarni aniqlash bo'yicha ko'p yillik ilmiy kuzatuvlar olib borgan olim sifatida fanda ma'lum. Uning fikricha, omonim yoki ko'p ma'noli so'zlarni o'xshashlikka asoslangan model (similarity based model) orqali hal qilish mumkin. F. Atsushining qayd etishicha, ushbu tizimda so'zlarning ma'nolarini aniqlashda har bir gap uchun qo'l mehnati orqali annotatsiyalangan ma'lumotlar bazasidan foydalaniladi. Shunga asosan, verbal polisemiyaning hal qilishda olim tomonidan uch asosiy metod taklif qilinadi: 1) har bir so'z o'xshashliklarni hisoblash orqali vazn qiymatini aniqlash; 2) sistema uchun kam miqdorda tanlab olingan namunalarni qo'l mehnati bilan tekshirib ko'rish; 3) avvalgi hisoblangan o'xshashliklardan keyingi qidiruv bosqichlarida ulardan baza sifatida unumli foydalanish.

Shuningdek, kompyuter leksikografiyasida korpus asosida so'zlarning semantik munosabalarini bog'lashga oid tadqiqotlar boshqa xorijiy olimlar tomonidan ham amalga oshirilgan. Matnlarni parsing (sintaktik tahlil) qilish orqali giponimik bog'lanishlarni avtomatik ravishda yaratish haqidagi nisbatan dastlabki ilmiy mushohadalar M. Hearst ishlarida uchraydi. Uning ishlarida cheklanmagan matndan giponimik leksik munosabatlarni avtomatik usulda ajratish masalasi hal qilingan. Tadqiqotchining leksik-sintaktik freymlar orqali matnlarda uchraydigan so'zlarning o'zaro munosabatini aniqlash imkonini yaratish orqali katta hajmdagi qo'l mehnati orqali yaratiladigan tezaurus strukturasi shakllantirish mumkinligi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga

olim mashina o'qiydigan lug'at (machine readable dictionary) muhim ekanligi, lekin ularning ma'nosini berishda tekstual resurslarga murojaat etish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Bizningcha, mana shu yondashuv korpusga asoslangan lingvistik tahlilga ehtiyoj mavjudligini o'z vaqtida ko'rsata olgan.

Bourigault (1993), Justeson va Katz (1995), Daille (1996), Morin (1999) kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarda tezaurusni avtomatik usulda tuzishda alohida so'zlar o'rtasidagi sinflar va semantik bog'lanishlar korpus orqali hosil qilinadi, degan nuqtayi nazar ustunlik qiladi. Unga ko'ra bir-

biriga o'xshash kontekstdagi so'zlarni klasterlash orqali sinflar yaratiladi. So'zlar o'rtasidagi bog'lanishlar sabab oqibat munosabatlariga qurilgan predikativ belgilarga ko'ra ajratiladi. M. Emmanuel bu borada korpusga asoslangan terminologiyani asosiy ikki yo'nalishi mavjudligini ko'rsatadi: 1) muqobil terminlar orqali terminni aniqlash; 2) terminologik ma'lumotlar bazasiga ulangan semantik munosabat orqali avtomatik ravishda tezaurus yaratish. Olim so'zlarni iyerarxik loyihalashtirish uchun quyidagi sistemani taqdim etadi:



Uning fikricha, maxsus konseptual bog'lanish giperonimlar orqali korpusga asoslangan leksik-sintaktik freymlarni topish hamda leksik-sintaktik freym ma'lumotlar bazasi orqali konseptual bog'langan termin juftliklarini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Walter E. Using Corpora to write dictionary / The routledge handbook of Corpus Linguistics New York, 2010. –P. 429.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%8D%D0%B1%D0%B0>
3. Atkins B. T. S. and A. Zampolli Computational Approaches to the Lexicon, Oxford University Press, 1994. — 496 p.
4. Vincent B.Y. Computer corpus lexicography. Edingurg university press, 1998. – P. 37.
5. Krishnamurthy, Ramesh. 2006. "Corpus Lexicography," January. <https://doi.org/10.1016/b0-08-044854-2/00416-8>.
6. Marti A. Hearst. 1992. Automatic acquisition of hyponyms from large text corpora. In COLING'92, pages 539-545, Nantes. Marti A. Hearst. 1998. Automated discovery of wordnet relations. In Christiane Fellbaum, editor, WordNet: An Electronic Lexical Database. MIT Press, Cambridge, MA.
7. Emmanuel Morin and Christian Jacquemin. 1999. Projecting corpus-based semantic links on a thesaurus. In Proceedings of the 37th annual meeting of the Association for Computational Linguistics on Computational Linguistics (ACL '99). Association for Computational Linguistics, USA, 389–396. <https://doi.org/10.3115/1034678.1034739>
8. Сажепин И. И. Корпусные методы в лексикографии: опыт создания модели Словарного корпуса // автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Новосибирск, 2013, 24 с.

Zafar UMURQULOV,
Termiz davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha

QIYOSIY KONSTRUKSIYALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: qiyoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim vositadir. Maqolada qiyoslash, o'xshatish, taqqoslash, solishtirish, chog'ishtirish atamalarining bir-biriga o'xshash tomonlari va borliqni ifodalashda semantik jihatdan farqlanishi mavjudligi haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: qiyoslash, solishtirish, chog'ishtirish, taqqoslash, o'xshatish, zidlanish, bilish.

Аннотация: сравнение является наиболее распространенным способом познания окружающего мира и важным инструментом формирования и развития знаний. В статье высказаны мнения о наличии семантических различий в описании действительности и о схожести терминов сравнение, сопоставление, уподобление и отождествление.

Ключевые слова: сравнение, сопоставление, смешение, уподобление, знание.

Annotation: comparison is the most common way of knowing the outside world and is an important tool in the formation and development of knowledge. In the article, detailed opinions are expressed about the similarities between the terms comparison, simile, contrasting, likening and semantic differences in the expression of existence.

Key words: comparison, contrasting, likening, contrasting, recognition.

Kirish. Tilshunoslikda qiyoslash narsa-hodisalarning muhim belgilarini ajratgan holda farqli va o'xshash, teng yoki tengsizlik jihatlarini aks ettiruvchi muhim ifoda vositasi sifatida talqin qilinadi. Qiyosning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi XVIII asrdan boshlangan bo'lsa-da, qiyosiy ifodaning muhim turi o'xshatish, uning badiiy tasviriy vosita sifatidagi maqomi antik faylasuflar tomonidan qayd etib o'tilgan. O'xshatish badiiy tasvir vositasi sifatida qadimgi grek va rim ritoriklari tomonidan poetik nutqning bezagi sifatida talqin qilingan [2]. Arastu she'riyatida o'xshatish san'at ekanligini alohida qayd etgan. Tasvirning turlari haqida fikr yuritar ekan, Arastu ba'zi kishilar mahorat, ba'zilar malaka sababli, yana ba'zilar tug'ma iste'dodlari tufayli bo'yoqlar va shakllar yordamida ko'p narsalarning tasvirini – o'xshashini tasvirlashini qayd etib o'tadi [3,21]. Shu bilan birgalikda Arastu inson ko'pgina bilimlarni o'xshatishdan olishini ham e'tirof etgan [3,25].

S.L. Nevelova qadimgi hind poetik traktlaridagi o'xshatishlarni muhim badiiy vosita sifatida tahlilga tortgan [4].

Antik davrdan hozirgacha qiyoslash tushunchasi ostida asosan o'xshatish tahlil qilingan. Bu jarayonda asosan o'xshatishning badiiy nutqning tasviriylikini ta'minlovchi vositaligi, poetik nutqning bezagi ekanligi, uslubiylik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Manbalarda qiyos, o'xshatish bir tushuncha sifatida talqin qilingan bo'lib, ular ma'nodosh so'zlar sifatida qo'llanilib kelingan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qiyos:

1. O'zaro chog'ishtirish, solishtirish, taqqoslash, muqoyasa, 2. O'xshash, teng, misol tarzda izohlangan [7]. Darhaqiqat, bu terminlar bir umumiy tushunchani ifodalashi jihatidan sinonim (ma'nodosh) so'zlar bo'lib, har bir so'z ma'no ifodalashdagi alohidaliklari

bilan bir-biridan farqlanadi. Falsafiy qomusiy lug'atda qiyoslashga shunday izoh beriladi: "Qiyoslash narsa va hodisalarni umumiy, o'xshash va farqli belgilarini o'zaro solishtirish orqali narsa va hodisalarni muayyan belgi va xususiyatlarini turkumlashtirish va bir tizimga solish. Bunda ularning an'anaviylik va tafovutlik xususiyatlari hisobga olinadi [6,478]". Bu izohdan ma'lumki, qiyoslash asosi umumiylik, o'xshashlik va farqlilik belgilaridan iborat. O'xshatish ikki narsa yoki voqea hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasviriy vositasi, ko'chimning sodda turi [7,185]. Ko'rinadiki, o'xshatish predmetlar orasidagi o'xshashlikka asoslansa, qiyoslashda esa umumiylik, o'xshashlik va farqlilik belgilariga asoslaniladi. Demak, predmet, narsa-hodisalardagi umumiy belgilarga ko'ra belgining qay darajada ekanligi: o'xshashligi, tengligi, tengsizligi, farqli jihatlarining ifodalanishi qiyoslashdir. Qiyoslash o'xshatish, solishtirish, tenglashtirish atamalarini bilan bir xil ma'noda ishlatilib kelinsa-da, ushbu atamalar uchun umumiy tushuncha, zero, qiyoslash jarayoni o'xshatish, solishtirish, tenglashtirish, taqqoslash kabi hodisalarni qamrab oluvchi jarayon. Shunga ko'ra bu vosita qiyoslash hodisalarini umumlashtiruvchi tushuncha. Ushbu atamalarni semantik jihatdan farqli jihatlarini izohlagan olim Ahmad Abdullayev bu haqida shunday fikr bildirgan. "Qiyoslash tushunchasi ancha keng ma'noga ega bo'lib, o'z ichiga o'xshatish, taqqoslash (qarama-qarshi qo'yish), zidlash, tenglashtirish kabi hodisalarni birlashtiradi [1,25]. Olim ikki narsa-hodisaning belgilarini o'zaro munosabati (nisbatlanishini) qiyoslash deb hisoblab, taqqoslash, o'xshatish va zidlash kabi hodisalarni qiyoslashning turlari, ko'rinishlari deb ta'kidlaydi [1,25].

Asosiy qism. Qiyos, o'xshatish, taqqoslash, solishtirish, chog'ishtirish atamaları ko'pincha manbalarda bir xil ma'noda qo'llanilsa-da, ular ma'no nozikliklari jihatdan farqlanuvchi so'zlar bo'lib, qiyos so'z umumiylik xususiyatiga ega. Masalan, biror masala haqidagi bir fikrning to'g'riligi ikkinchi fikrga qiyoslangan holda aniqlansa, bu fikrlarda o'xshashlik mavjud bo'lmaydi. Yoki mamlakat hayotidagi rivojlanishning bir yili boshqa bir yiliga solishtirilgan holda tahlil qilishda qo'llanilgan uchul ham qiyos hisoblanadi. Bunday qiyoslashda ham o'xshashlik mavjud bo'lmaydi. Darhaqiqat, o'xshatish predmet, narsa-hodisalar biror belgi asosida o'xshatilsa, taqqoslashda o'xshashlik emas, no'o'xshashlik, farqlilik ifodalanadi, solishtirishda, tenglashtirishda esa o'xshash belgilarga asoslanilmaydi, zidlashda ham o'xshash belgi mavjud bo'lmaydi. Bu ifodalarning barchasida predmet, narsa-hodisa solishtirilgan holda biror belgisi izohlanganda qiyoslash mavjud bo'ladi. Masalan, Beti o'zimning bobomnikiga qaraganda katta, soqoli ham qalin, peshonasi keng, burni Esonqul bobomnikiga o'xshab puchuqqina ekan. (X.To'xtaboyev. "Jannati odamlar"), kiyimning yangisi, do'stning eskisi yaxshi, Qarshimda yer sharin suvrati turur, salmog'i Quvvaning anoricha bor. (A.Oripov) kabi gaplar tahlil qilindanda, belgilarning turlicha izohlanganligini kuzatish mumkin.

Birinchi gapda ikkita qiyoslash mavjud bo'lib, uning birinchisida predmetlar farqlanish asosida, ya'ni betning bobonikiga ko'ra kattaligi ifodalangan, bu qiyosning oddiy ko'rinishi bo'lib, unda ikki shaxsning bet tuzilishi bir-biriga taqqoslangan, ikkinchisida esa, burun puchuqlik belgisi asosida boboning burniga o'xshatilgan. Ikkinchi gapda predmetlarning belgisi bir-biriga zid qo'yilishi asosida afzallik izohlangan. Uchinchi gapda esa predmetlar bir-biriga ko'rinishi asosida tenglashtirilgan. Bu ifodaning barchasiga xos umumiylik ularda qiyos komponentlari: qiyoslash belgisi mavjudligi bo'lsa-da, har bir gapda semantik jihatdan turli xil ifodalar izohlangan. Bu qiyoslashning o'ziga xos murakkab tabiatga ega bo'lgan ifoda usuli ekanligini ko'rsatadi. Narsa-hodisa belgilari o'rtasidagi bog'liqlik qiyoslashning vujudga keltiruvchi muhim jihatlaridan hisoblanadi. Chunki qiyosiy ifodalarda biror muhim jihati bilan o'zaro bog'liq bo'lgan narsalar qiyoslanadi. Bu holat hatto tasavvurdagi qiyoslarda ham kuzatiladi. Masalan, yaxshi so'z boldan shirin maqolida so'z bilan bol (asal) qiyoslanar ekan, bunda boldagi shirinlik belgisi qiyoslanayotgan predmetlardagi muhim belgi sifatida nazarda tutilgan. So'zga ushbu belgiga mos keladigan insonni suyuntiradigan, unga xushkayfiyat baxsh etadigan muloqot nazarda tutilgan va shu jihati orqali belgi xos belgi bilan bog'langan. Qiyoslash ifodaning kognitiv modeli, u shaxsdan narsa-hodisa orasidagi bog'liqlikka mantiqiy yondashuvni talab qiladi. Qiyoslashning mantiqiy kategoriya sifatida baholanishi bevosita qiyoslashning tabiatidan kelib chiqqan.

Zero, qiyoslashning har qanday shakli ham mantiqiy mushohadani talab qiladi. Bir qarashda oddiy ifoda usulidek tuyuladigan qiyosiy ifodalar aslida murakkab jarayon mahsuli. Insonning bir narsaga xos bo'lgan belgini ikkinchi bir narsada muhim jihatlarini tasavvur qilishi va qiyoslash zaruriyatining paydo bo'lishi borliqni bayon etishdagi buyuk kashfiyotdir. Zero, nazariy manbalarda qiyoslash orqali bilish, bilishning mukammal usullaridan ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafada borliq shakllari bir-biridan farqlanuvchi, shuningdek, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan turlarga ajratiladi. Birinchidan, borliq insondan, uning ongidan tashqarida obyektiv mavjud bo'lgan narsalar, hodisalar, jarayonlardan iborat bo'lgan moddiy borliq. Ikkinchidan, faqat inson, uning ongi bilan bog'liq subyektiv reallik sifatida mavjud bo'lgan fikrlar, g'oyalar, qarashlar tarzidagi ma'naviy borliq [6,168]. Ma'naviy borliq inson ongi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'naviy hodisalarni, shu jumladan, moddiy borliqni ifoda etishni ham qamrab oladi. Moddiy borliq ma'naviy borliqni vujudga kelishi uchun asosdir. Moddiy borliqni anglash va uni turli usullarda ifodalash inson ma'naviy borlig'ini muhim qismini tashkil etadi. Qiyoslash moddiy borliqni analogiya asosida ifodalash usuli bo'lib, inson biror narsaga xos bo'lgan belgini boshqa predmetdagi belgiga solishtirish asosida xulosa chiqaradi.

Qiyoslash borliqni his etishning mukammal usuli, unda predmetlarga xos inson anglashi mushkul bo'lgan belgilar o'z analoglari orqali oydinlashtiriladi. Natijada, inson ikki predmetga xos bo'lgan o'xshash va farqli xususiyatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu jihatlar bilan ham qiyosiy ifodalar boshqa ifodalarga nisbatan bilishda mukammallikni ta'minlovchi, ifodada tasviriylikni uyushtiruvchi vosita sifatida muloqotning barcha shakllarida mavjud bo'lib, belgilangan obyekt yoki uning biror jihatiga diqqatni jalb etish, obyektini to'liq his etish imkoniyatini yaratadi.

Qiyosiy ifodalar mazmun mohiyatidan bir-biridan farqlansa-da, bu ifodalarning barchasi ifoda asoslari va qiyoslash jarayonlari bilan bir-biriga mos keladi. Ifoda asosiga ko'ra qiyosiy ifodalarning barchasida qiyos subyekt, qiyos etaloni, qiyos asosi va mavjud yoki implitsit (yashirin) holda ifodalangan bo'ladi. Qiyosiy ifodalarning ayrim turlarida qiyosning to'rtinchi komponenti – qiyosning formal ko'rsatgichi mavjud bo'lmaydi. Qiyoslash jarayoni qiyosning barcha turlarida bir-biriga mos keladi. Zero, qiyoslashning barcha turlarida oddiy qiyoslash, mantiqiy qiyoslash va obrazli qiyoslash kabi usullaridan foydalaniladi. Shunga ko'ra qiyoslashning barcha turlarida oddiylik, mantiqiylik va obrazlilik mavjud bo'ladi. Chunki narsa va hodisalar o'zaro qiyoslanganda, oddiy sezgi a'zolar orqali his etiladigan belgilar asosida qiyoslanib, axborot yetkazish vazifasi bajarilsa, mantiqiylik va obrazli qiyoslar orqali badiiy ta'sirchanlik ta'minlanadi.

Qiyoslashdan ko'zda tutilgan maqsad haqida fikr yuritir ekan, A.Abdullayev qiyosning ikki xil maqsadda

yaratilishini ta'kidlab o'tadi. Birinchidan, qiyoslashda predmet, narsa, hodisa o'zaro munosabatda ko'rsatilib, ulardan birining afzal, muvofiq ekanligi betaraf holda ifodalansa, ikkinchisida, shu ma'nolarni bo'rttirib, kuchaytirib, subyektiv munosabat asosida ifodalanadi [1,26]. Masalan, Shu paytda haligi ishchi qorday oppoq paxtani ko'tarib keladi-da, buvimning oldiga qo'yadi. (Oybek. "Bolalik") o'xshatish mazmunli gap, Osmon to'la yulduz. Nazarimda shaharchani yakkam-dukkam lampochkalardan ko'ra shu yulduzlar ko'proq yoritadi. (P.Qodirov. "Qadrim") sof qiyos mazmunli gaplardagi qiyoslar oddiy qiyoslar bo'lib, axborot yetkazish vazifasini bajargan. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalardi, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. (Cho'lpon. "Kecha va kunduz") o'xshatish mazmunli gap va Sotiboldiyev o'ng'aysizlanishdan ko'ra quvonchga yaqin bo'lgan bir tabassum bilan doskaga o'zini ikkichi qilib yozdi va zalga yuzlandi. (P.Qodirov. "Uch ildiz") sof qiyos mazmunli gapi mantiqiy mushohadali qiyosga asoslangan, shunga ko'ra qiyoslashning bu turlarida ta'sirchanlik kuchli, fikr obrazli tarzda ifodalangan.

Qiyoslash ham barcha lingvistik birliklar singari inson muloqot faoliyatining turlaridan biri bo'lib, muloqot maqsadini amalga oshirish vositasidir. Biroq qiyoslash boshqa muloqot vositalaridan olam manzarasini ta'riflash imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu jihat qiyosiy ifodalarni boshqa ifodalardan farqlovchi jihati bo'lib, qiyos asosida narsa-hodisalar ta'riflanganda, shu narsa-predmetga xos muhim belgiga alohida e'tibor qaratiladi va adresatga turli narsa-predmetlar haqida to'liq ma'lumot beriladi. Bu olam manzarasini anglashning jozibador usullaridan biridir. Qiyoslash natijasida ma'lum bir narsa-predmetga xos belgining boshqa narsa-predmetda ham mavjudligi anglanadi. Har ikki narsa-predmet uchun xos bo'lgan belgining aniqlanishi qiyos uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qiyoslash shunday bir ifoda usuliki, insonning tafakkur dunyosi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Masalan, biror qattiqroq turshakni iste'mol qilayotgan shaxs uni toshga qiyoslash uchun (turshak toshdan qattiq) mavjud belgini shu ikki predmetga xosligini anglashi yoki akasidan ukasining bo'yi uzun ifodasini izohlash uchun aka va ukaning bo'yini solishtirib, muayyan belgining qaysisida ortiq, kamligini anglashi kerak bo'ladi. Ko'rinadiki, qiyosiy ifodalar har qanday holatda ham kishidan narsa va hodisalaridagi mohiyatni anglagan holda, tafakkur asosida fikrlarini talab qiladi.

Inson muloqot jarayonida qiyoslash usulidan foydalanar ekan, quyidagilarga amal qilishi lozim bo'ladi. Zero, ifodaning bu shakli insondan bilish qobiliyatining o'tkirligini, topqirlik va kuzatuvchanlikni talab qiladi. Chunki, qiyoslash ikki predmet orasidagi bog'liqlik asosida vujudga kelar ekan, bu bog'liqlik barcha tomonidan bir xilda sezilib, uni ifodalashga

ehtiyoj paydo bo'lmaydi.

Qiyos asosida narsa-predmetlarni ta'riflashda inson quyidagi muhim omillarga duch keladi:

1. Mavjudlikni his etish va tushunish o'zi anglagan narsalar haqida ma'lumot berish hissining paydo bo'lishi.

2. Turli predmetlarga xoslikni anglash va uni boshqa predmetlarga ham uchrashini ilg'ash va turli jihatlarini aniqlash.

3. Fikr almashish.

4. O'z fikrini boshqalarga ta'sir etish darajasida ifodalash.

Ushbu omillardan kelib chiqqan holda qiyoslash orqali obyektiv borliqni ifodalash qiyos turlarida har xil bo'ladi.

O'zaro fikr almashish jarayoni uchun qo'llanilgan qiyoslar semantik jihatdan hammaga ma'lum bo'lganligi bois funksional xususiyatlari ham chegaralangan. Bu turdagi qiyoslarda nominativlik vazifasi yuqori bo'lib, ular, asosan, kommunikativ maqsadlarda foydalaniladi, biroq bu turdagi ifodalar boshqa fikr anglatuvchi birliklarga nisbatan aniq belgilarni, muayyan narsa-predmetga xos muhim jihatlarining ko'rsatilishi bilan farqlanadi, ular oddiy ifoda shaklida bo'lganda ham bir narsa-predmetni ikkinchisiga ma'lum asoslarda bog'liqligining ifodalanishi jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Insonda olamdagi narsa-hodisalaridagi biror jihatni boshqa narsada ham mavjud bo'lishi mumkinligi haqida tasavvur uyg'otishga olib keladi, bu hol inson tomonidan olam va undagi narsalarni, ularning mohiyatini, xususiyatini yaxshiroq anglashga olib keladi.

Qiyos tabiatan ko'p funksiyali ifoda. Unda boshqalar uchun noma'lum bo'lgan mavhumlik ifodalanadi, turli predmetlarning obrazi yaratiladi. Tasavvurdagi noreal bo'lgan narsalarning bog'liqligi ifodalanishi natijasida obrazlilik, ifodadorlik vujudga keladi. Ushbu omillar qiyosiy ifodalarni dunyodagi barcha tillarning muhim ifoda usullaridan biri sifatida qo'llanilishi uchun zamin yaratadi. Zero, qiyoslash tabiat va jamiyat hodisalarini – narsa, belgi kabilarning mohiyatini ochishda, o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi [1,24].

Tilda mavjud qiyosiy ifodalar semantik va funksional jihatdan farqlanadi. Tilshunos A.Abdullayev qiyoslash tushunchasini keng ma'nodagi tushuncha deb hisoblaydi va u o'z ichiga o'xshatish, taqqoslash, zidlash, tenglashtirish kabi hodisalarini qamrab olishini ko'rsatib o'tadi [1,25]. Darhaqiqat, qiyosiy ifodalar qiyoslanuvchi komponentlarning bir-biriga munosabati, qiyos obyektining bir xil yoki turli xil bo'lishi, qiyos obyektining real yoki noreal, qiyos obyektining ochiq yoki yashirinligi kabi jihatlar bilan farqlanib turadi. Shunga ko'ra qiyosiy ifodalarning semantik jihatdan quyidagi turlarini ajratish mumkin.

1. Taqqoslash-qiyos.

2. Qiyos-tenglashtirish.

3. Qiyos-farqlash.

4. Zidlovchi qiyoslar.
5. Qiyos-o'xshatish.
6. Qiyos-metafora.
7. Qiyos-epitet.

Xulosa. Qiyoslash munosabatining mazkur turlarining obyektiv borliqni qiyosiy yo'l bilan ifodalashda bir-biriga o'xshash tomonlari mavjud bo'lganidek, obyektiv borliqdagi narsa-predmetlar orasidagi borliqlikni ifodalashda semantik jihatdan farqlanish mavjud. Muloqot jarayonida lingvistik birliklarning

tanlanishi, ularni qo'llashda nutq sohibining muloqotdan ko'zda tutilgan maqsadga erishishining ta'minlanishi, so'zlovchining fikrga bo'lgan munosabatining ifodalanishi, nutqning muloqot ishtirokchilariga ta'siri kabilar til va inson uyg'unligining belgilari bo'lib, barcha turdagi ifodalarning asosiy mezonidir. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda qiyosiy ifodalarning muhim turlaridan biri sifatida vazifaviy nuqtayi nazardan alohida o'rganishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987.
2. Античные теории языка и стиля. – М. Л.: ОГИЗ, 1936.
3. Арасту Ахлоқу кабир. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2018.
4. Невелова С.Л. Вопросы поэтика древнеиндийского эпоса. – М.: Наука, 1979.
5. Котова А.В. Сравнения в римском героическом эпосе /В.до Н.-/В.Н.Э. Автореф. Дисс. канд. Филол. Наук. Санк-Петербургу. – 2016.
6. Фалсафа қомусий луғат. Масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Тошкент, 2004.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том. – 2020.
8. Umurkulov Z. B. Lexical means expressing comparison //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 237-240.

Muhabbat MATQURBONOVA,
*Toshkent davlat o'zbek tili va
 adabiyoti universiteti
 erkin tadqiqotchisi*

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK ASARLARIDA METONIMIK VA SINEKDOXIK KO'CHIMLARNING NUTQIY VOQELANISHI

Annotatsiya: maqolada ulug' adib Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida qo'llangan metonimik va sinekdoxik ko'chimlarning nutqiy voqelanishi o'rganilgan. Bunda adibning publitsistik maqolalari, hajviyalari matnida ellipsis natijasida nutqiy metonimiyaning yuzaga kelishi, sinekdoxik ko'chimlarning semantik strukturasi va yasaliish asosi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ellipsis, metonimiya, sinekdoxa, siflash, istiora, trop, ramziy ma'no, denotat, konnotativlik, semantika, hosila ma'no, logik urg'u.*

Annotation: the article examines the speech realization of metonymic and synecdochic movements used in the short works of the great writer Abdulla Qadiri. In this, the emergence of speech metonymy as a result of ellipsis in the text of journalistic articles and comics of the writer, the semantic structure of synecdochic movements and the basis of their formation are highlighted.

Key words: *ellipsis, metonymy, synecdoche, qualification, metaphor, trope, symbolism, denotation, connotativity, semantics, derived meaning, logical emphasis.*

Аннотация: в статье рассматривается речевая реализация метонимических и синекдохических движений, используемых в коротких произведениях великого писателя Абдуллы Кадыри. При этом освещается возникновение речевой метонимии в результате многоточия в тексте публицистических статей и комиксов писателя, смысловая структура синекдохических движений и основы их формирования.

Ключевые слова: *многоточие, метонимия, синекдоха, уточнение, метафора, троп, символизм, денотат, коннотативность, семантика, производное значение, логическое акцентирование.*

Leksemalar semantik tabiati uchun xos bo'lgan ko'chimlar matndagi bir fremli strukturaga ega bo'lgan hodisa sanalib, o'ziga xos semantik-stilistik, kognitiv va milliy kulturologik komponentlarning til sathidagi faollashuvi natijasining mahsuli sifatida yuzaga keladi va til lug'at boyligining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Ko'chma ma'no yuzaga kelishi hodisalaridan biri metonimiyadir. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, bu hodisa hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no a'zolarining o'zaro aloqador bo'lishiga asoslangan ko'rinishidir. Ya'ni bir so'z yoki birikma o'zi bilan ma'noviy jihatdan chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa so'z yoki birikmaning o'rnini bosadigan nutq shaklidir. Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni. Bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison

va nutqqa daxldor hodisadir. Boshqacha aytganda, metonimik hosila ma'no sof nutqiy yoki lisoniyilashgan bo'lishi mumkin [128-b]. Bu holatni Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida qo'llangan metonimik ko'chimlar misolida tahlil qilamiz. Demak, metonimiya biror so'z yoki birikmaning o'zi bilan chambarchas bog'liq boshqa so'z yoki birikmaning ma'noviy jihatdan chambarchas bog'liqligi natijasida yuzaga kelar ekan, bu quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1) Biror narsa-predmet nomi bilan shu predmetga aloqador narsa nining tushunilishi: **piyola** – “tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish. Asosan, choy ichish uchun ishlatiladi” [5. 739-b]. Ko'chma ma'noda qo'llanishi: “Zuhurov biroz javobsiz turdi, **piyolasini** ichib bo'shatdi” [4.B.442].

2) Harakat, o'yindagi obyekt nomining shu harakat, o'yinning nomi sifatida ko'chishi: “Bizning Mahkamboy **uloqqajuda** ham ishqiboz-da!” [4.B.16]. Demak, ko'pkari o'yin, musobaqaning obyekti o'rtaga tashlangan uloq. Shu aloqadorlik asosida o'yin, musobaqaning nomi ham uloq deb atalmoqda.


3) Harakat ifodalovchisi bilan uning natijasi yoki unga aloqador bo'lgan jarayonning nomlanishi: “Osh tegsa – **to'y**, tegmasa tafarruj... deb, otalar to'yg'a boradirlar” [4. 211-b]. Mazkur gapdagi to'y leksemasi bosh ma'noda “yeb-ichish natijasida nafsni qondirmoq” semasini ifodalaydi, matn tarkibida esa “**bazm-tomasha bilan ziyofat berib o'tkaziladigan marosim**” ma'nosida metonimik ko'chimni hosil qilgan.

4) Inson tana a'zolari nomining oziq-ovqat nomi o'rnida, shuningdek, belgi ifodalovchi so'z o'rnida qo'llanishi: “**Ertagi go'sh shodligi** ila bu kun kechasi butun uy ichimizda uyqu o'rniga ertaga oladigan go'shning qay xilda **tomoq** qilmoq maslahati edi:...” ([4. 80-b]. Bu misolda **tomoq** leksemasi ovqat, **yegulik** ma'nosida qo'llangan.

5) Predmet, narsa va hodisalarning shakl-ko'rinishini, rangini bildiruvchi sifatlarning shaxs, narsa nomiga ko'chirilishi: “**Bolshevoyning kattasi** o'zimizning musulmondan. ...**Bolshevoyning ulug'i** o'zimizning yigitlardan” [4.B.12]; “U yog'u bu yog'dan qilib deganlaridek, **qizilcha** (qizil vino) ham otilib turildi” [4.B.259].

6) Miqdor-o'lchov ifodalovchi so'z nomi bilan narsa nomining atalishi: “Axir Toshpo'lat akaning ham orqasiga oftob tegar, ul ham sizni yangi chiqq'an qirq gazligi (aroq) bilan mehmon qilar...” [4. 345-b].

7) O'rin-joy, makon ifodalovchi so'zlarning shaxs, narsa nomiga ko'chirilishi: “**Chaplarning avangardlaridan bo'lg'an Fitrat xalfa Buxorog'a ketganidan beri kechakunduz tinmaydi...** Biroq o'nglarning boshliqlaridan sanalg'an Munavvarqori hazrat Shayxovanditahur mozoridan bir qarich ajralmay tunab va kunab chiqqan bo'lsa kerak” [4. 124-b]; “**Tog'amga yalinib-yalpog'lanib oldirgan o'rus yuganni artib-surtib soldim-da, chetroqdan qarab turdim**” [4. 15-b].



8) Umumlashgan leksik ma'noga asoslangan metonimik ko'chim: “**Seshanbalik o'turushimizning biri edi. Jamoamizning barchasi ham hozir bo'lub, dasturxon yer edik**” [4. 316-b].

Adib yaratgan kichik asarlar matnida metonimiya hodisasi, asosan, gap tarkibidagi biror bo'lakning ellipsisga uchrashi natijasida yuzaga kelgan nutqiy metonimiyalardir. Grammatik tarkibi jihatidan qaratqich-qaralmish tipli birikmalarda biror komponent ellipsisga uchragan va metonimik ko'chim hosil bo'lgan. Bu lingvistik hodisaning hosil bo'lishi, semantikasi quyidagicha:

a) belgisiz qaratqich qaralmishdan anglashilgan aholining yashash o'rnini ifoda etgan: “Qishloq tinch uyguda. Olamni to'p gum-gumi bosg'an edi” [4. 299-b]. Bu gapdagi “qishloq xalqi” qaratqichli birikmaning qaralmish komponenti hisoblangan “xalqi” so'zi ellipsisga uchragan, uning ma'nosini qishloq so'zi ifoda etib kelgan;

b) belgisiz qaratqich qaralmishdan anglashilgan obyektning egasi, yaratuvchisi ma'nosini ifoda etadi. Qaralmish ellipsisga uchragach, birikma ma'nosi qaratqichda o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, muallifning nomi asarning nomi o'rnida qo'llangan: “Alo hozal-qiyos “Chahor kitob”, “So'fi Olloyor”, “Xo'ja Hofiz”larni gohi validadin va gohi padardin o'qub, yoshim o'n olti-o'n yettilarga yetdi” [4. 374-b].

d) ellipsis natijasida qaratqichli birikmaning qaratqichi tushirilishi. Bunda birikmaning qaralmish komponenti nutqda saqlangan, biroq uning -si (i) egalik affiksi tushirib qoldirilgan: “Domlamiz masti loya'qil, hozir domlag'a Nekalay zolim, Kerenskiy odili a'dal, ukazning ham bir tiynlik qiymati yo'q, tilasa mudarris, tilasa qozi, tilasa do'mal!” [4. 34b]. Ajratib ko'rsatilgan misolda “duma” so'zi “davlat duması” qaratqichli birikma ma'nosini

ifodalamoqda, ellipsis natijasida birikmaning qaratqichi, ya'ni "davlat" so'zi hamda -si grammatik ko'rsatkichi tushirilgan. Bundan tashqari, tahlillar asosida aytish mumkinki, kichik asarlarda metonimiya hodisasi badiiy nutq ifodaliligi uchun quyidagi ikki vazifani bajarishga ham xizmat qilgan:

a) qisqalik, ixchamlik – muallif metonimiya asosida so'zlovchiga voqea-hodisa yoki predmet haqida uzoq tavsif o'rnida tegishli so'z yoki birikma yordamida qisqa izoh berishga erishgan: "Ul vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! – dedi Sobir tegirmonchining o'g'li" [4. 17-b]. Bu yerda xalq o'yini bo'lgan uloq haqida gap bormoqda, so'zlovchi nazarda tutayotgan odam ko'p uloq o'yin-musobaqalarida ishtirok etib, ko'plab yutuqlarga erishgani birgina uloqning piri birikmasi orqali ifodalab berilmoqda;

b) aniqlik–kichik asarlarda metonimiya hodisasi orqali so'zlovchi va tinglovchilar orasida oson tushuniladigan so'z va birikmalar ishlatilgan, natijada, voqea-hodisa yoki predmet aniqroq tavsiflangan: "Choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim" [4. 15-b]. Ushbu gapda qo'llangan choy so'zi ertalabki nonushtadan keyin ekanligini tushunish shu tilda so'zlashuvchilar uchun umuman qiyinchilik tug'dirmaydi. Demak, hosila ma'no referenti bilan hosil qiluvchi ma'no referentining aloqadorligiga asoslanib yuzaga chiqqan metonimik ko'chimlar adibning kichik asarlarida o'ziga xos tarzda voqelangan. Voqelanishiga ko'ra ularning ayrimlari sof lisoniy mohiyat kasb etgan bo'lsa, ayrimlari nutqiy sathdagina mavjud bo'lib, badiiy matn ta'sirchanligini oshirishga, o'quvchiga ma'noni qisqalik, aniqlik asosida yetkazishda qo'l kelgan.

Ma'lumki, borliqdagi narsa-predmetlar o'zining har qanday tarkibiy qismi nomi bilan atalavermay, shu narsadagi asosiy, uni xarakterlovchi qism nomi bilan atalishi mumkin va bunda bo'lak nomi butunga yoki aksincha butun nomi bo'lakka nisbatan ko'chishi mumkin. Tilshunoslik ilmidagi sinekdoxaga turlicha qarashlar mavjud. Ayrim adabiyotlarda sinekdoxaga metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida baho berilsa, boshqa adabiyotlarda metoforaning bir turi sifatida qaraladi [2.B.283]. Mantiqan kuzatilsa, sinekdoxa tashqi yoki ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi nuqtayi nazaridan metonimiyaga o'xshaydi. Biroq unda narsalarning butun va qismlari orasidagi munosabat aniq anglashiladi. Bu jihatdan sinekdoxani ko'chimning alohida xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil turi deb baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinekdoxik yo'l bilan hosil qilingan ma'noni ham lisoniy va nutqiy ma'noga bo'lish mumkin [1. 128-b]. Masalan, qo'l, tirnoq leksemalarining sinekdoxik ma'nosi sememalashgan. Qo'lini kesib oldi, tirnoqqa zor birikmalaridagi qo'l so'zining "barmoq", tirnoq so'zining "farzand" hosila ma'nolari sinekdoxik ma'noga misol. Lekin har qanday butunlik nomi bilan qismni yoki qismning nomi bilan butunni atab bo'lmaydi: daraxt va

shox, barg, tana, ildiz, meva butun va qismdir. Ammo barg deganda hech qachon daraxt anglashilmaydi. T.Aliqulov sinekdoxani lingvistik va poetik deb ikkiga bo'lib izohlagan [3. 18-b]. Bunda u poetik sinekdoxa deyilganda nutqiy sinekdoxani nazarda tutgan. Kuzatishlarimiz Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida sinekdoxik ko'chimning quyidagi ikki ko'rinishi mavjudligini ko'rsatdi:

1. Bir predmetning nomi sifatida unga xos biror qism nomining ishlatilishi. So'zning hosil qiluvchi ma'no a'zosi bo'lak bo'lib, hosila ma'no butunni ifodalashi bilan bunday ko'chim yuzaga keladi: "Jurnalimiz shu keyingi qo'li qadoqlar sinfining "Mushtum"i bo'lg'onlig'idan uning ma'nosi ham haligi ta'rifning tamoman teskarisidir" [4. 184-b]; "Nabi qizil boshning samovariga bir kelchi, pajalska!" [4. 184-b]; "Haqiqat uchun bel bog'lagan yosh miyalar haligi afsonago'y, oq sallalik "olijanob devlar" bilan panja ba panja olishmoqdalar" [4. 178-b]. Yuqorida keltirilgan jumalardagi qo'li qadoq, yosh miya birikmalari, samovar leksemasi sinekdoxa usulidagi ko'chim sanaladi. Bunda mehnatkash, dehqon leksemasidagi ma'no uning qismi hisoblangan qo'l leksemasi orqali; choyxona leksemasining ma'nosi samovar so'zi orqali; yoshlar leksemasi ifodalangan ma'no esa inson tana a'zosi hisoblangan miya so'zi orqali ifodalangan.

2. Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o'z ichiga olgan butun nomining qo'llanishi. Bunda so'zning ko'chma ma'no hosil qiluvchi a'zosi butun bo'lib, u orqali bo'lak ifodalanadi: "Lekin endi yetti yildirki, na davlatdan xabar bor, na qornim to'yib tomoq yegan kunimni eslay olaman. Ungacha besh qo'lim og'zimda edi" [4. 230-b]; Gapdagi besh qo'l so'zi behta barmoq hosila ma'nosida qo'llangan. Bu o'rinda butun nomi bilan bo'lak anglashilgan.

Butun o'rnida qism yoki aksincha qism o'rnida butun qo'llanishli ma'no ko'chimlari kichik asarlar matnida murakkab gap tuzilishlarining, ortiqcha so'z va ifodalarning oldini olgan, matn jumalalaridagi soddalikni yuzaga keltirgan. Muallifning bu usuldan mahorat bilan foydalanganligi, ayniqsa, so'zning uzual ma'nosi bilan bog'liq bo'lmagan nutqiy sinekdoxik ko'chimlarning o'ziga xos tarzda qo'llanishida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ichgil zahar-zaqqumni yut,

Qirqlik bilan qayg'ung unut! [4.B.324].

Muallifning "Mushtum" jurnalining 1926-yil 8-mart sonida e'lon qilingan "Anov-manov" nomli hajviyasidan olingan mazkur she'riy parchada qo'llangan qirqlik leksemasi "quvvati qirq graduslik aroq" ma'nosida o'ziga xos nutqiy sinekdoxik ko'chim hosil qilgan. Odatda, qirqlik leksemasi tilda aroq leksemasi bilan butun yoki qism munosabatida ko'chim hosil qilmaydi. Yana misollarga murojaat qilaylik: "Bayyonnomaning bu qismida bir-brisiga zid muammolar va haqiqatdan yiroq da'vatlar bor bo'lg'onliqdan ilojsiz tag'in bir

necha yo'llarni qoralamoqqa majbur bo'ldiq" [4. 144-b]; "So'ngra bir nechasi johil qalamlar tomonidan chizilib, olim qalamlar haqqig'a xiyonat qilinadir" [4. 236-b]; "Kamina qulingiz davlatingiz ko'lankasida betashvish Toshkandning to'y-u maraka, gap-u gashtak, isitma-sovutmalarida ishtirok qilsam" [4. 287-b]. Birinchi gapda keltirilgan bir necha yo'llarni qoralamoq birikmasi; ikkinchi gapdagi johil qalamlar, olim qalamlar birikmasi; uchinchi gapdagi isitma-sovutma leksemasi matnda ifodalanayotgan fikrning bir bo'lagi, qismi sifatida nutqiy sinekdoxik ko'chimni hosil qilgan. Ya'ni bir necha yo'llarni qoralamoq – daftardagi chiziq'larga ishora qilingani holda sahifa ma'nosini; isitma-sovutma – to'y-ma'rakalardagi ovqat pishirish jarayoniga ishora qilish orqali biror tadbir ma'nosini; johil qalamlar, olim qalamlar – qalam so'ziga ishora qilingani holda ijodkor, publitsist nomini qism orqali butunni ifodalash shaklida ko'rsatmoqda. Biroq bu

qo'llanishlar ijodkor uslubigagina xos bo'lib leksik sathda bu tarzda voqelanmaydi. Yuqoridagi qo'llanishlarda muallif sinekdoxa yaratish jarayonida subyekt va obyekt munosabatiga diqqat bilan qaraganligi aniqlashadi. Bunda subyektning obrazli ifodasi obyektning birinchi darajada turadigan tomoni orqali butun yoki qism shaklida o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Kichik asarlardagi sinekdoxik ko'chimlar tahlili bu hodisaning katta umumlashtiruvchilik imkoniyatiga ega ekanligini, umumlashtirish qisqalikning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida takrordan qochishga, yaqinlik ma'nosini ifodalashga, ayrim ma'nolarni ta'kidlashga xizmat qilganligini, so'zlarning bu tarzda yangi tushunchalarni ifodalashi til rivoji uchun juda ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi. Abdulla Qodiriy sinekdoxaning ana shu imkoniyatlaridan kichik asarlari tilida unumli foydalangan ijodkor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020-yil. 328-b.
2. Шомақсудов А., Расулов И., Қунғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 283 б.
3. Алиқулов Т. Полисемия существительных в ўзбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент. 1966. – 28 с.
4. Абдулла Қодирий. Диёри бақр. Танланган асарлар. V жилдди. III жилд. (нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий). – Тошкент: Info Capital Group, 2017. – 566 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдди. – Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriёti, 2020.

Zayniddin NARMURATOV,
 Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
zayniddin.tersu@mail.ru

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING YONDOSH HODISALARGA MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklar doirasida ilmiy tadqiqot olib borgan lingvist tadqiqotchilarning tadqiqotlari tahlil qilingan. Frazeologizm tushunchasini keng va tor mazmunda tushunish tendensiyasining mavjudligi sir emas. Qator lingvistlar mazkur til birligini keng ma'noda tushunib, uning obyektini ko'plab birliklar qamrab olishi bot-bot ta'kidlanadi. Har-bir sohada qarama-qarshiliklar bo'lgani kabi ushbu til birliklari haqida ham olimlarning fikr-mulohazalari turlicha ekanligi ma'lum. Ushbu ilmiy izlanishda aynan shu masalalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'z: *frazeologik birlik, maqol, matal, aforizmlar, barqaror birikmalar masal, saying, proverb, idioms.*

Annotation: this article analyzes the researches of linguists who conducted scientific research within the framework of phraseological units. It is no secret that there is a tendency to understand the concept of phraseologism in a broad and narrow sense. A number of linguists understand this language unit in a broad sense, and it is often emphasized that its object is covered by many units. It is known that scientists have different opinions about these language units, as there are contradictions in every field. In this research, these issues are analyzed theoretically and practically.

Key word: *phraseological unit, proverb, saying, aphorisms, saying, proverb, idioms.*

Аннотация: в данной статье анализируются исследования лингвистов, которые проводили научные исследования в рамках фразеологизмов. Не секрет, что существует тенденция понимать понятие фразеологизма в широком и узком смысле. Ряд лингвистов понимают эту языковую единицу в широком смысле, при этом часто подчеркивают, что ее объект охватывается многими единицами. Известно, что мнения ученых по поводу этих языковых единиц различаются, поскольку противоречия существуют в каждой области. В данном исследовании эти вопросы анализируются теоретически и практически.

Ключевые слова: *фразеологизм, пословица, мата, афоризмы, поговорка, пословица, идиомы.*

Jahon tilshunosligida frazeologizm tushunchasini keng va tor mazmunda tushunish tendensiyasining mavjudligi sir emas. Qator lingvistlar mazkur til birligini keng ma'noda tushunib, uning obyektini ko'plab birliklar qamrab olishi bot-bot ta'kidlanadi. Har bir sohada qarama-qarshiliklar bo'lgani kabi ushbu til birliklari haqida ham olimlarning fikr-mulohazalari turlicha.

Tadqiqotchi N.N.Amosova, Y.D.Pinxasov, A.M.Babkinlar frazeologiyani obyektini tor doirada tushunib o'z asarlarida ushbu birliklarni o'z tabiati bilan so'z birikmasidir, degan dalilni keltiradilar va o'z navbatida maqol, matal va aforizmlarni frazeologizmlardan chetda qoldiradilar. V.V.Vinogradov, A.V.Kunin kabi olimlar frazeologiyani keng ma'noda tushunib, maqol va matal kabi birliklarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritadilar.

Rus tilshunosligida bo'lgani singari turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma'noda tushunish hamon davom etib kelmoqda. Jumladan, akademik S.K.Kenesboyevning fikricha, frazeologiya doirasiga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birikmalar, so'zlarning noidiomatik, turg'un frazeologik guruhi va juft so'zlar) kiradi. Ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat turg'unlik va tilda tayyor holda mavjudlikdir.

Tadqiqotchi A.G.Nazaryan ham o'zining "Фразеология современного французского языка" asarida maqol va matallarni frazeologik birliklar tarkibiga kiritib, ularni "maqol-frazeologizmlar" («послови́чные фразеологизмы»), deb ataydi. O'zbekistonlik G'.Salomov ham frazeologik birliklar tarkibiga maqol, matal va idioma larni kiritadi. Ingliz tadqiqotchisi N.R.Norrik ham ko'chma ma'no anglatgan maqollarni ibora lar tarkibiga kiritadi.

Tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor A.Mamatov "ayrim tadqiqotchilar botanika bog'i, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, arifmetik jadval, fan nomzodi kabi ayrim tarkibli terminlarni ham frazeologizmlar tarkibida o'rganib kelishmoqda" deb, ta'kidlaydi.

Maqol, matal, aforizm kabi birliklarni lingvistikaning paremiologiya bo'limi o'rganadi va shu bilan birga paremiologiya frazeologiya kabi tilshunoslikni yangi sohalaridan biridir. Paremiologiya frazeologiya bilan

Frazeologik birlik markazida turgan so'z turkumlari

a) o'tli frazeologik birikmalar:

bag'ri qon , bosh
og'rig'i

og'zi qulog'ida

b) fe'lli frazeologik birikmalar:

kapalagi uchdi , bosh
qo'shdi,

aqlini yegan

chambarchas bog'liq hisoblanadi. Shu bois ham mazkur soha bilan shug'ullanadigan olimlar o'rtasida ularni qo'llash bo'yicha turli qarama-qarshiliklar kelib chiqadi.

N.Uluqovning xulosalariga ko'ra "paremiologiya tilshunoslikning bo'limlaridan biri bo'lib, tildagi barqaror birikmalar maqol, matal va aforizmlar (hikmatli so'zlar)ni o'rganadi". Yana bir manbada maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremlar tizimidir deb zikr etilgan.

Demak, lingvistikada frazemalarning qamrov doirasi haqida rang-barang, turli xil qarashlar mavjud. Dastlab frazeologik birliklar va maqol haqida berilgan tariflarga nazar tashlasak. Xorijiy lug'atlarda ikki yoki undan ortiq so'zning sintaktik jihatdan bog'langan, lekin faqat bir leksik ma'no anglatgan "barqaror birikma"larga ibora deb ta'rif beriladi. Ingliz tilining "Macmillan lug'ati"da phrase is a group words that are used together in a fixed expression [bir nechta so'zning birikuvidan tarkib topgan biroq yaxlit ma'no anglatuvchi so'zlar yig'indisi] deb ta'rif berilgan. Shu ilmiy manbada proverb is a short well-known statement that gives practical advice about life = adage, saying [hayot haqida yaxshi maslahat beradigan qisqacha bayonot] deb izoh berilgan. Mazkur til birligiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bevosita nutq jarayonida hosil bo'lmaydigan, tilda bir butun holda mavjud bo'lib, shundayligicha nutqqa kiritiladigan so'z birikmasi yoki gapga teng jumla deb qayd etilgan. Ushbu manbada maqol hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihati mazmuniga ega bo'lgan ixcham, tugal ma'noli hikmatli ibora, gap deb ta'kidlangan.

Ingliz tilida maqol "proverb", matal "saying"lar

bir-biriga yaqin terminlar hisoblanadi. “Macmillan Dictionary and Thesaurus: Free English Dictionary” lug’atda berilgan ta’rifga ko’ra: Saying – a well-known statement about what often happens in life [matal – hayotda ko’pincha yuz beradigan hammaga yaxshi ma’lum bo’lgan fikr].

Frazeologik birliklarga keltirilgan ta’riflardan ma’lumki, ularning asosiy xususiyati, ularning ko’chma ma’noliligi, inson ongida tayyor holda namoyon bo’lishi kabilardir.

Albatta, boshqa tadqiqotlarda ham frazeologizmlarning nazariy asoslariga to’xtalgan, biz ularga berilgan ta’riflarni tahlil qilib, tadqiqotimizda ularga yangicha yondashgan holda quyidagi ta’rifni taklif qilamiz: ikki yoki undan ortiq (ba’zan bir so’z ham ibora bo’lishi mumkin) til birliklaridan tarkib topgan, komponentlari yagona zanjirga tizilgan, to’liq yoki qisman ko’chma ma’noda qo’llanuvchi, gapda bir bo’lak vazifasida keluvchi so’zlar birikmasidir.

Inglizcha Knowledge is better than riches proverbial frazeologizmida “bilimni boylikdan ustunligi, asl boylik bilim” ekanligi ifodalangan. Inglizcha Seek education from the cradle to the grave – Beshikdan qabrgacha ilm izla zero, “ma’rifatga eltuvchi yo’l ilm yo’lidir ilmdan boshqa najot yo’q” ma’nolari ifodalaydigan maqol ekanligini ko’rishimiz mumkin. Inglizcha Don’t take gold, take knowledge; knowledge is gold – Oltin olma, bilim ol, bilim oltindir, oltin abadiy emas, “bilim abadiy bilimni oltindan afzalligini” ifodalovchi chuqur ma’noga ega bo’lgan hikmatlar ifodalangan.

O’zbek tilida Otanga aql o’rgatma o’zingdan kattaga aql o’rgatma degan mazmunda kelmoqda.

Yana bir ilm istab Chinga bor o’zbekcha proverbial frazeologizmi ilm olishga da’vat qilingan.

Tahlillardan ma’lumki, ikki tildagi proverbial frazeologizmlar ham ko’chma ma’noda kelmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ko’chma ma’noda ishlatiluvchi ta’lim va ilmga oid til birliklari bizning o’rganish obyektimiz bo’ladi.

Ingliz matallaridan biri Build one’s house upon the sandni tarjima qilsak “qum ustiga uy qurmoq” ma’nosini beradi. Agar uni ko’chma ma’nosiga e’tibor qaratsak, “birovning ko’nglini puch yong’oq bilan to’lg’azmoq” ma’nosini anglatadi. Inglizcha Any port in a storm o’z ma’noda “bo’rondagi qaysidir port”, ko’chma ma’noda esa “bo’ronda qolib ketmoq” mazmunida ishlatiladi. Inglizcha As like as two peas o’z ma’nosida “ikki no’xat kabi”, ko’chma ma’noda ikki tomchi suvday o’xshash degan ma’nolarni ifodalaydi.

Ingliz va o’zbek tillarida ta’lim, ilm konseptini ifodalovchi paremiologik birliklar qatorida ham matallar uchraydi. Masalan, inglizcha Every barber knows that matalining o’z ma’nosi “har bir sartarosh uni biladi”, ko’chma ma’noda esa “hamma uni taniydi” degan ma’noni ifodalaydi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, g’arb frazeologiyasida ham iboralar ta’rifiga oid aniq yondashish mavjud emas. Ko’pgina olimlar tarkibidagi komponentlar to’liq ko’chma ma’no anglatgan maqollarni ham iboralar turkumiga kiritishadi. Iboralarning ta’rifi va tasnifi mezonlari hanuzgacha frazeolog olimlar uchun har tomonlama ochiq masala bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство ленинградского университета. 1963. 227- с.
2. Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. 264- с.
3. Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. 170-б.
4. Виноградов В.В., Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: Издательский центр «Феникс», 1972. 206- б.
5. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2019. 16-б.
6. Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. – Москва: 1987. 33-39-с
7. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: 1969. 145-б.
8. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. 118- б.
9. Улуқов Н. Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Баркамол файз медиа”, 2016. 12-б.
10. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. M. Shovel. London. Macmillan Publisher, 2007. 1119-P.
11. Matthews P.H. The Concise Oxford dictionary of linguistics / P.H. Matthews. – Oxford; New York: Oxford University Press, 1997. – 410 p.
12. Norrick N. R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985. 3-p
13. <https://qomus.info>.

Фархад РУСТАМОВ,
 и. о. доцента Совместного Белорусско-Узбекского
 межотраслевого института прикладных
 технических квалификаций в городе Ташкенте

ИСТОРИЯ ЗАИМСТВОВАНИЙ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ЭВОЛЮЦИЯ И ВЛИЯНИЕ НА ЛЕКСИКОГРАФИЮ

Аннотация: в статье рассматривается процесс заимствования слов в английский язык из различных языков, начиная с древности и до современности. Особое внимание уделено историческим событиям, которые существенно повлияли на формирование лексикона и структуры английского языка. Рассмотрены примеры заимствованных слов из немецкого, латинского, французского, греческого, арабского и других языков, а также механизмы, мотивации, социолингвистические последствия, проблемы и критика, связанные с заимствованием иностранных слов в современном английском языке.

Ключевые слова: заимствование, английский язык, история языка, лексика, культурный обмен, глобализация, лингвистические механизмы, лингвистический пуризм, идентитет, социолингвистика.

Annotation: the article examines the process of borrowing words into the English language from various languages, spanning from ancient times to the present day. Special attention is given historical events that significantly influenced the formation of English vocabulary and structure. Examples of borrowed words from German, Latin, French, Greek, Arabic, and other languages are discussed, along with mechanisms, motivations, sociolinguistic consequences, issues, and criticisms related to the borrowing of foreign words in contemporary English.

Keywords: borrowing (loanwords), English language, language history, lexicon, cultural exchange, globalization, linguistic mechanisms, linguistic purism, identity, sociolinguistics.

Annotatsiya: maqolada asosiy e'tibor tarixiy voqealarga beriladi, ular ingliz tilining leksikoni va tuzilmasini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Nemis, lotin, fransuz, yunon, arab va boshqa tillardan olingan so'zlar misollari keltirilgan, shuningdek, hozirgi kunda chet tillardan so'zlar o'tkazishning mexanizmlari, motivatsiyalari, ijtimoiy-tilshunoslik natijalari, muammolar va kritikalar ham taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: so'z o'tkazish, ingliz tili, til tarixi, leksika, madaniy almashish, globalizatsiya, til mexanizmlari, til purizmi, identitet, ijtimoiy-tilshunoslik.

Английский язык, как и многие другие языки мира, обогащен за счет заимствований из различных языков. Этот процесс заимствования слов из других языков обусловлен историческими событиями, такими как вторжения, колонизация, торговля и культурный обмен, которые оказали значительное влияние на формирование современного английского языка. Например, Староанглийский язык в значительной степени заимствовал слова из Старонорвежского в связи с вторжениями викингов, а Нормандское завоевание внесло французские варианты в Среднеанглийский.

Английский язык принадлежит к германской группе индоевропейской языковой семьи и исторически развивался на территории современной Англии и южной части Шотландии. В древности его формирование происходило под влиянием языков германских племен, которые вели с ними свои корни из континентальной Европы. Эти заимствования включали базовую лексику, связанную с повседневной жизнью, природой, семьей и общественными отношениями: Kindergarten

– дошкольное учреждение для детей; Rucksack – рюкзак; Blitz – быстрый или молниеносный нападение, заимствовано из немецкого “Blitzkrieg”; Zeppelin – тип воздушного судна; Waltz – вид танца, Dachshund – такса (порода собаки); Delicatessen – продуктовый магазин со специализированными продуктами, также называемый «деликатесный магазин»; Gesundheit – выражение благопожелания после чиха (пожелание здоровья); Angst – чувство тревоги или страха; Hamburger – вид бургера, названный по имени Гамбурга, немецкого города; Poltergeist – злой или шумный призрак; Kindred – родственные связи или родственники.

Эти слова и выражения вошли в английский язык из-за культурного и языкового взаимодействия между немецким и английским языками.

С римским завоеванием Британии в I веке до н.э. началось влияние латинского языка на местные германские диалекты. Латинские заимствования включали термины, связанные с администрацией, юриспруденцией, архитектурой и военными терминами, что отразилось в лексике

английского языка: Etcetera (etc.) – и так далее; Circa (с.) – примерно, около (используется в датировке); Per capita – на душу населения; Status quo – текущее положение вещей, существующее состояние; Et cetera – и так далее, и прочее; De facto – фактически, по факту; Ad litem – для судебного разбирательства (для дела); Habeas corpus – необходимо представить тело (юридический термин, гарантирующий защиту от незаконного задержания); Pro bono – бесплатно (о юридической помощи); Quid pro quo – услуга за услугу; Coliseum – коллизей; Forum – форум; Portico – портик; Antebellum – до войны; Post mortem – после смерти.

Однако наиболее значительное влияние на английский язык оказал нормандский завоеватель Уильям Завоеватель в 1066 году, когда Нормандия подчинила Англию. Этот период привел к большому количеству заимствований из французского языка, которые касались особенностей феодальной системы, права, религии, моды и культуры: Beef – говядина (от нормандского "boeuf"); Pork – свинина (от нормандского "porc"); Chivalry – рыцарство (от нормандского "chevalerie"); Garrison – гарнизон (от нормандского "garisun"); Surgeon – хирург (от нормандского "cirurgien"); Castle – замок (от нормандского "castel"); Duke – герцог (от нормандского "duc"); Ransom – выкуп (от нормандского "ransoun"); Feudal – феодальный (от нормандского "feodal"); Squire – оруженосец (молодой дворянин, служащий рыцарю; от нормандского "esquier"); Monk – монах (от нормандского "monk"); Abbey – аббатство (от нормандского "abbei"); Duchess – герцогиня (от нормандского "duchesse"); Courtier – придворный (от нормандского "cortois"); Regal – королевский (от нормандского "reial").

Влияние французского языка в течение следующих столетий привело к формированию двуязычности в английском языке, где существовали параллельные термины для описания одних и тех же явлений.

В эпоху Возрождения в XVI веке английский язык начал активно заимствовать термины из латыни и греческого языков, что связано с развитием науки, философии и литературы. Из латинского языка: Aqua – вода; Mater – мать; Pater – отец; Natura – природа; Felix – счастливый; Veritas – истина; Aurum – золото; Persona – личность; Locomotive – локомотив ("loco" – место, "motivus" – движущийся); Civitas – город. Из греческого языка: Bios – жизнь; Logos – слово, разум; Philosophy – философия (от греческого "φιλοσοφία"); Theater

– театр (от греческого "θέατρον"); Democracy – демократия (от греческого "δημοκρατία"); Geometry – геометрия (от греческого "γεωμετρία"); Astronomy – астрономия (от греческого "ἀστρονομία"); Biology – биология (от греческого "βιολογία"); Psychology – психология (от греческого "ψυχολογία").

Заимствования из классических языков дали английскому языку обширный словарный запас для описания новых идей и концепций.

С развитием индустриализации и расширением международной торговли в XIX веке английский язык начал активно заимствовать термины из различных языков мира, особенно из языков стран бывших колоний Британской империи, таких как индийские языки (с санскрита и хинди): Yoga – йога; Karma – карма; Guru – гуру; Bungalow – бунгало; Jungle – джунгли; Sari – сари; Caste – каста; Nirvana – нирвана. Из арабского языка: Alcohol – алкоголь (от арабского "al-kuḥl"); Coffee – кофе (от арабского "qahwa"); Sugar – сахар (от арабского "sukkar"); Sofa – диван (от арабского "ṣuffa"); Safari – сафари (от арабского "safariya"); Lemon – лимон (от арабского "līmūn"); Cotton – хлопок (от арабского "quṭun"); Admiral – адмирал (от арабского "amīr al-baḥr"); Cipher – шифр (от арабского "ṣifr"). Из китайского языка: Typhoon – тайфун (от китайского "tai fung"); Tea – чай (от китайского "chá"); Silk – шелк (от китайского "si"); Mandarin – мандарин (диалект китайского языка); Gung-ho – гунг-хо (от китайского "gōng hé"); Feng shui – фэн-шуй; Kung fu – кунг-фу (от китайского "gōngfu").

Этот процесс привел к обогащению английского языка и его адаптации к новым культурным и технологическим реалиям.

Заимствования являются важным лингвистическим процессом, который активно влияет на развитие и богатство лексики английского языка. Они представляют собой заимствование слов и выражений из других языков и культур, что делает английский язык многослойным и культурно разнообразным.

Заимствование происходит через несколько лингвистических механизмов:

1. Заимствование (loanwords): прямое введение иностранных слов без перевода (например, «суши» из японского).

2. Переводы-кальки (loan translations): перевод иностранных выражений на английский (например, "brainstorm" от немецкого "Gehirnsturm").

3. Фонетическое заимствование: принятие иностранных слов с незначительными фонетическими адаптациями для соответствия фоноло-

гии английского языка (например, «круассан» из французского).

4. Семантическое заимствование включает заимствование слов из других языков с изменением или расширением их значений в английском языке (например, “cul-de-sac” – это заимствование в английский язык из французского. Оно буквально означает «тупик» или «закрытая улица». Этот термин используется для обозначения улицы или проезда, который заканчивается тупиком или не имеет выхода на другую улицу).

Глобализация, технологические достижения и культурный обмен играют важную роль в процессе заимствования. Английский язык, как глобальный язык общения, адаптирует иностранные слова для включения новых концепций, продуктов питания, технологий и культурных практик (например, «караоке» из японского).

Некоторые заимствованные слова несут коннотации престижа или изысканности (например, “rendezvous” из французского), что влияет на их принятие в английском языке.

Заимствования могут быть также результатом социолингвистических факторов, таких как престижность языка, его статус в международных отношениях и политике. Например, английский язык как язык международного общения заимствует термины из различных языков, чтобы удовлетворить потребности глобальных профессиональных и социальных сообществ. Пополнение словаря заимствованными словами обогащает лексикон английского языка, отражая разнообразие языкового пейзажа. Это также способствует культурному пониманию и интеграции в глобальных сообществах.

Вот несколько примеров заимствований социолингвистических факторов в английском языке:

1. Политические термины: *democracy* (демократия) – термин, который в английский язык был заимствован из греческого (δημοκρατία) через латынь, а затем и в современный английский язык; *Revolution* (революция) – также заимствован из латинского “*revolutio*”, обозначающего вращение или изменение.

2. Религиозные термины: *angel* (ангел) – из греческого “ἄγγελος” (*angelos*), что означает посланника или вестника; *Cathedral* (собор) – из греческого “καθῆδρα” (*kathedra*), обозначающего сиденье или трон епископа.

3. Экономические и коммерческие термины: *Bank* (банк) – заимствовано из итальянского “*banco*”, что означает скамью или стол; *Credit* (кредит) – из латинского “*creditum*”, что означает займ или доверие.

4. Термины из культуры и искусства: *Opera* (опера) – из итальянского “*opera*”, что означает работа или творение; *Ballet* (балет) – из французского “*ballet*”, обозначающего танец.

5. Термины из социальной и политической сферы: *propaganda* (пропаганда) – заимствовано из латинского “*propagare*”, что означает распространять или расширять; *Sociology* (социология) – из латинского “*socius*” (друг, товарищ) и греческого “λόγος” (логос, знание).

Эти примеры демонстрируют, как социолингвистические факторы, такие как политические, религиозные, экономические, культурные и социальные влияния, формируют и обогащают лексический состав английского языка. Заимствования этих терминов отражают межкультурные обмены и взаимодействия, которые играют важную роль в его развитии.

Заимствование иностранных слов вносит свой вклад в изменение языка, отражая изменения в общественных ценностях, установках и идентичности.

Заимствования из других языков не только расширяют лексический запас английского языка, но и обогащают его культурно и литературно. Например, заимствования из языков культурно богатых регионов мира вносят элементы их традиций, обычаев и истории в английский язык.

Вот несколько примеров таких заимствований:

Из французского языка: *cuisine* (кухня) – например, “*French cuisine*” (французская кухня); *Déjà vu* (дежавю) – ощущение, что уже видел или делал что-то ранее; *Fiancé/fiancée* (жених/невеста) – обрученные пары; *Rendezvous* (свидание) – место встречи.

Из итальянского языка: *pizza* (пицца) – известное итальянское блюдо; *Piano* (пианино) – музыкальный инструмент; *Gelato* (мороженое) – традиционное итальянское мороженое; *Soprano* (сопрано) – женский голосовой диапазон.

Из испанского языка: *Fiesta* (праздник) – например, “*fiesta atmosphere*” (атмосфера праздника); *Taco* (такос) – мексиканское блюдо; *Sombrero* (сомбреро) – традиционная мексиканская шляпа; *Siesta* (сиеста) – дневной отдых или вечерний отдых.

Из арабского языка: *algebra* (алгебра) – математическая наука; *Algorithm* (алгоритм) – последовательность операций или инструкций; *Coffee* (кофе) – напиток, происходящий из арабского “قهوة” (*qahwah*); *Safari* (сафари) – экспедиция или путешествие, особенно в Африке.

Эти слова и выражения стали неотъемлемой частью английского языка благодаря культурным

обменам, торговле, исследованиям и другим формам межкультурного взаимодействия. Они обогащают лексический состав английского языка, отражая многообразие мировой культуры и исторические взаимодействия.

Некоторые критики выступают за лингвистический пуризм, противостоящий избыточному заимствованию, которое может размывать лингвистическую целостность английского языка. Лингвистический пуризм – это стремление сохранять чистоту языка путем избегания заимствований из других языков и привнесения в него элементов, которые могут считаться чуждыми или коррумпированными. Это явление часто связано с культурным и национальным идентитетом (осознание себя, как нации, своей принадлежности к нации), а также с идеями о красоте и правильности языка.

Примеры лингвистического пуризма могут включать:

1. **Создание новых слов и выражений** на основе корней и элементов родного языка, вместо заимствования иностранных слов.
2. **Сопrotивление изменениям в грамматике и правописании**, которые могут быть восприняты как иностранные или нетрадиционные.
3. **Активное использование устаревших или архаичных форм** вместо современных заимствований.
4. **Протест против употребления иностранных слов в повседневной речи**, особенно в областях, связанных с национальной культурой или важными институтами.

Лингвистический пуризм может оказывать влияние на стандарты обучения языку, правописание, публичное общение и социокультурные

нормы. Однако в реальности языки постоянно эволюционируют под влиянием межкультурного взаимодействия, и заимствования из других языков часто невозможно полностью исключить.

Современный английский язык продолжает динамично развиваться как результат межкультурного взаимодействия и глобализации, активно заимствовать новые термины и выражения из различных языков мира, что отражает его многообразие и глобальное использование. Такие процессы заимствования не только обогащают лексический состав английского языка, но и подчеркивают его способность адаптироваться к изменяющимся условиям мирового общества.

Лингвистические процессы заимствования играют ключевую роль в развитии английского языка, делая его одним из самых динамичных и универсальных языков мира. Они отражают богатство культурного наследия и межкультурного взаимодействия, которые лежат в основе современной многоязычной и мультикультурной английской лексики. История заимствований в английском языке является ключевым аспектом его эволюции и культурного наследия.

Интеграция иностранных слов в современный английский язык – это сложный, но естественный процесс, обусловленный культурным обменом, технологическими достижениями и глобальной взаимосвязью. Понимание механизмов и мотиваций заимствования предоставляет понимание того, как языки эволюционируют и адаптируются под изменяющиеся потребности говорящих. По мере того, как английский язык продолжает развиваться, постоянное включение иностранных слов обеспечивает его устойчивость и актуальность в мировом масштабе.

Использованная литература:

1. Crystal, David. Английский как мировой язык. Cambridge University Press, 2003.
2. Эйчисон, Джин. Артикулированный млекопитающий: Введение в психолингвистику. Routledge, 2016.
3. Crystal, David. Английский язык: путеводитель по языку. Penguin Books, 2002.
4. Haspelmath, Martin и Uri Tadmor (ред.). Заимствования в языках мира: сравнительный справочник. De Gruyter Mouton, 2009.
5. Ostler, Nicholas. Империи слова: языковая история мира. Harper Perennial, 2005.
6. McWhorter, John H. Сила Вавилона: естественная история языка. Harper Perennial, 2002.

Klara AXMIRZAYEVA,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani
maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi 52-AFChO'SM maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'ZBEK ROMANCHILIGIDA BADIY-USLUBIY IZLANISHLAR (To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" asari asosida)

Annotatsiya : ushbu maqolada Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi yutuqlari va ular haqidagi tadqiqotlar yuzasidan so'z yuritiladi. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligining bir necha bosqichlari mobaynida shu janr orqali samarali qalam tebratgan adiblarimiz ijodi bilan hamnafas bo'lmagan kitobxon bo'lmasa kerak. 1990-2000 – yillarda yaratilgan Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", "Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" kabi asarlari qatorida To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" nomli romani ham yaratildi. Asar keyinchalik, "Dengizni ko'rmagan odamlar" nomi bilan ham qayta nashr etildi. Asarda Baqahovuz majoziy makonida bo'layotgan voqealarning qahramonlari hamda ular zamonidagi mutanosibliklar, shuningdek nomutanosibliklar o'ziga xos uyg'unlikda tasvirlanib keltirilgan. Asar teran ruhiy tahlil talab qiladi, shu bois yuksak majoziylikka asoslangan.

Kalit so'zlar: roman, uslub, metod, modern adabiyot, badiiy-uslubiy qarash, zamon va makon, badiiy-ijodiy maqsad, badiiy voqelik, poetika, badiiy-estetik tafakkur, ilmiy tafakkur.

Аннотация : в данной статье речь пойдёт об узбекской романистике периода Независимости, о её успехе исследовании. Трудно найти читателя, который не бы знаком творчеством литераторов данного периода. Наряду с произведениями, созданные в период с 1990-2000 года, такие как « Поля, доставшиеся от отца», « Тюльпановы поля» Мурода Мухаммада Дуста, «Базар» Хуршида Дустмухаммада, «Гуругли» Назара Эшанкула, «Игра бабочек» Тухтамуроода Рустама.


Позже последнее произведение было переиздано под названием « Люди не увидевшие море». Действия происходят в местечке фигурально так называемо Бака ховуз (Жабий пруд). В произведении описаны своеобразие отношений героев. Произведение требует глубокого психологического анализа.

Ключевые слова: роман, способ, метод, модернисткая, литература, литературно-стилистический взгляд, время и место, художественно- творческая цель художественное событие, поэтика, художественно-эстетич.

Annotation: this article talks about the achievements of Uzbek novelists during the period of independence and their research. There is probably no reader who is not in tune with the work of our writers, who have worked effectively in this genre during several stages of the Uzbek novel during the period of independence. Among the works created in 1990-2000 are Togay Murad "Fields left by my father", Murad Muhammad Dost's "Lolazor", Khurshid Dotmuhammad's "Bazar", Nazar Eshanqul's "Goro'gli". Khtamurod Rustam's novel "Butterfly's Game" was also created. The work was later republished under the name "People who have not seen the sea". In the work, the heroes of the events taking place in the figurative space of Bahahovuz and the proportions and disproportions of their time are described in a unique harmony. The work requires deep spiritual analysis, therefore it is based on high imagery.

Key words: novel, style, method, modern literature, artistic-stylistic view, time and space, artistic-creative goal, artistic reality, poetics, artistic-aesthetic thinking, scientific thinking.

Kirish. Mustaqillik yillarida davlatimizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan ishlar, badiiy adabiyotda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, tahlil qilinayotgan asar - "Kapalaklar o'yini" romani poetikasi bugungi kun nuqtayi nazaridan qaralsa, o'zining o'quvchisiga ega, shu bilan birga yangicha ruh hamda yangicha tafakkur mahsulidir. Bunday ruhdagi asarlarning yaratilishi, tabiiyki, har bir davr o'z talab va imkoniyati hamda ehtiyojiga ko'ra, jamiyatdagi badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Mustaqillik davri romanlari tahlili haqida so'zlasak, T. Rustamning ijodida noan'anaviy roman poetikasi shakllanar ekan, u qo'llagan uslub,



badiiy maqsad individualligi bilan roman o'ziga xos poetik tizimni namoyon etadi. Romanchilik an'anasida noan'anaviy talqin yo'llarining shakllanishida modern romanlarning, mumtoz o'zbek adabiyoti hamda xalq og'zaki ijodi an'analarning ham ta'siri beqiyos deyish mumkin. T. Rustamning "Kapalaklar o'yini" romani orqali absurd g'oya bugungi kun misolida

yoritilishi o'zbek romanchiligida noan'anaviy romanlarning yuzaga kelishi, yangilanishi, boshqacha talqinda isloh qilinishi kitobxonni bee'tibor qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Hozirgi davr romanchiligida kechayotgan evrilishlar, adabiy jarayonning yangicha tus olishi bugungi zamon kishilarining dunyoqarashi bilan o'lchanib, tahlil, talqin qilinib, ertangi yangi kunga boshqacha munosabat bilan yondashish bugungi yaratilayotgan badiiy asarlarning estetik-badiiy maqsadiga aylanmoqda. Bu maqolamizdagi ana shu bugungi qarashlar insonlarning hayotini badiiy-estetik jihatdan talqin qilayotgan ijodkorlar, xususan, T.Rustamning "Kapalaklar o'yini" romani qahramonlari bugungi kun yangicha odamlarining tipik obrazidir, desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Adib ushbu asari orqali romanchilik va uning tegrasida kechayotgan bahs-munozaralar, ilmiy tadqiqotlar rivojlanayotgan jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizning ham badiiy-estetik tafakkurining yuksalishi, aynan shu muallifning romani inkishof etilishi bugungi muntazam yangilanayotgan, o'zgarayotgan adabiy jarayonda ushbu romanning o'rni va ahamiyati beqiyos. Roman syujeti hamda qahramonlarining tasvirlanishi, ruhiy kechinmalari bugungi modern adabiyot mahsuli ekanligiga aminmiz.

Asosiy qism. Bugungi kundagi global o'zgarishlar, tabiiy ofatlar, siyosiy ziddiyatlar va ularga qarshi kurashish hamda ziddiyatlarni yengish bugungi ijtimoiy hayotning dolzarb masalalariga aylanmoqda. Buning yechimi chiroyli va xayrli ishlar, ezgu his-tuyg'ular bilan sug'orilgan badiiy asar qahramonlari bilan tasvirlanmoqda. Fikrimizning dalili sifatida roman qahramonlarining ruhiyati, xarakteri va Baqahovuz odamlarining tabiati, syujet liniyalarini misol qilishimiz mumkin. Qahramonlar talqinining bunday ifodalanishi, ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida faollashdi. Bunday murakkab tizimli poetikani zohir qilgan romanlarni talqin va tahlil etishda o'zgacha fikrlash talab etiladi. To'xtamurod Rustamning "Kapalaklar o'yini" nomli romanini bugungi kunda juda ko'p adabiy tanqidchilar o'qib tahlil qilmoqdalar. Ayni vaqtda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida taniqli adabiyotshunoslar tomonidan bir qator jiddiy kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan "Kapalaklar o'yini" romani modern uslubda yozilgani uchun "Adabiyotning yangi romani" deb baholandi. "Kapalaklar o'yini" yozuvchi To'xtamurod Rustamning birinchi yirik asari ekani bois tanqidchi S.Sodiq asarni suyak va ayab tahlil qiladi. Romanda hali ongi shakllanmagan yoshlarni yo'ldan ozdiradigan va hayotdan bezdiradigan illatlar fosh etilganini, shu bilan birga muallif uslubida hajviy yo'nalish kuchli ekanini o'z nuqtayi nazarida ko'rsatib o'tadi. Shuni ta'kidlash lozimki, T.Rustamning "Kapalaklar o'yini" asarida absurd g'oya bugungi kun misolida ochib

berilishi romanchiligimizda noan'anaviy romanlarning yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo'lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o'zbek romaniga xos xususiyatdir. Ana shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, T.Rustamning "Kapalaklar o'yini" asari yangicha, noa'naviy romanlar sirasiga kiradi.

Adibning "Kapalaklar o'yini" asarini o'qir ekanmiz, asardagi zamon va makonning o'zgacha ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bir voqeaning boshqa bir holatga o'tishi tasvirlari uchraydi. Bunda adib uslubining o'ziga xosligi ko'rinadi. Asarning bunday nomlanishi o'quvchining qiziqishini orttiradi. Bu haqida tadqiqotchi E. Ibrohimova shunday ta'kidlaydi: "Jamiyatdagi asli oshkor qilinmas o'yinlar ramzimi?! Yoki ularning "tartib qoidalari"ga amal qilinmagan holatdagi o'yinlarimi?! Asar qahramonlari Badal Armon, Shoshiy kabi kamyob insonlarning boshqalardak, kimgadir ergashib emas, ulardan farq qilishi sababli unib o'sgan boshqadek uzib olish holatini asar qahramoni Sardorga qilingan tuhmat orqali ko'rish mumkin. Asarning nomlanishi esa zulm bilan qurilgan jamiyatdagi har qanday o'yinlarning kapalak umridek qisqaligiga ishoradir, balki..."

Asardagi bosh qahramon deb qaralgan Badal Armon atrofidagi tor, biqiq muhitga qarshi, boshqalardan farqli o'laroq, fojea girdobida yashashga ko'nikishni istamaydi. Shu boisdan jamiyatdan ajratilgan siymo sifatida gavdalanadi. Asardagi Baqahovuzga e'tibor bersak, davr ijtimoiy muhitiga ko'z yumgan beparvolar ramzi desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Adib qahramonlarining atrofga munosabatini ifodalar ekan, ularning xatti-harakati orqali ichki noroziliklar faqatgina Badal Armon emas, boshqa qahramonlar: Shoshiy, Suval Abdal, Hayratiy obrazlari uchun ham xos ekanligini kuzatish mumkin.

Asarni tahlil qilgan bir necha tadqiqotchilar fikrini umumlashirib, shuni ta'kidlab o'tish joizki, asarda xronotoplarning makon va zamonda mutanosibliklarining ifodalanishi ham o'quvchini qiziqtiradi. Badiiy asarda vaqt va makon badiiy obrazning asosiy qismining tashkil etib, ular badiiy voqelikni yaxlit idrok etishga yordam beradi. Shubhasiz, ijodkor ijod mahsuli atalmish asar yaratishda unga makon va vaqtni muallifning dunyoqarashini aks ettiruvchi subyektiv detallar bilan beradi. Shu bois aynan bir badiiy asarning makoni va vaqtiga o'xshamaydi. Eng asosiysi, asarda keltirilgan vaqt hamda makon ko'proq haqiqiy makon va vaqtdan ham biroz yiroq bo'ladi.

Xulosa. Badiiy adabiyot, xususan, o'zbek romanchiligi bugungi globallashuv jarayonida insoniyat madaniyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, To'xtamurod Rustam ijodidagi yangicha uslub va

yondashuvlar, adabiy-estetik, badiiy-uslubiy tamoyillarning izchil takomillashuvi asar zamiridagi badiiy tafakkurning o'sishiga omil bo'ladi. Hozirgi adabiy jarayonda kechayotgan janr talablari va badiiy mezonlar o'zbek adabiyoti romanchiligining yanada rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Fikrimizning yakuni sifatida, adib asarini o'qish davomida erkinlikka erishish yo'lida sarguzashtlarni boshidan kechirgan qahramonlar taqdiri, kechmishlari, insonning erkinlikka erishish yo'lida bir qancha sinovlarda toblanishi va ezgu niyat orqali so'lim maskan tomon intilib, dadil qadam tashlashiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev S. O'zbek romani. – T., 1969.
2. Baxtin M., Epos i roman, M., 1970.
3. Pardayeva Z., O'zbek romani poetikasi, – T., 2003.
4. T. Rustam. "Kapalaklar o'yini", – T.: "Sharq" nashriyoti, 2000.
5. T. Rustam "Dengizni ko'rmagan odamlar". – T.: Global books. 2020.

Kumush ABDUSALAMOVA,
ToshDO'TAU 2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIGA OGAGHIY IJODINING TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli o'zbek shoiri Matnazar Abdulhakim she'riyatiga Muhammad Rizo Ogahiy ijodining ta'siri masalasi o'rganilgan. Unda ko'plab misollar asosida M. Abdulhakim she'riyatining Ogahiyga mushtarak jihatlari o'rganiladi. Shu asosda shoir mahoratining o'ziga xos qirralari tadqiq etiladi. Muallif kuzatishlari natijasida shoir ijodidagi an'ana va novatorlik masalasi bo'yicha muayyan xulosalarini ifoda etadi.

Kalit so'zlar: *she'r, shoir, misra, lirik qahramon, an'ana, o'ziga xoslik, adabiy ta'sir, mushtaraklik, badiiy mahorat.*

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние творчества Мухаммада Резы Огахи на поэзию известного узбекского поэта Матназара Абдулхакима. На основе множества примеров изучаются общие черты поэзии М. Абдулхакима с Огахи. На этой основе исследуются конкретные стороны творчества поэта. В результате своих наблюдений автор высказывает определенные выводы по вопросу традиции и новаторства в творчестве поэта.

Ключевые слова: *поэзия, поэт, стих, лирический герой, традиция, своеобразие, литературное влияние, общность, художественное мастерство.*

Annotation: this article examines the influence of Muhammad Reza Ogahi's work on the poetry of the famous Uzbek poet Matnazar Abdulhakim. On the basis of many examples, the common aspects of M. Abdulhakim's poetry with Ogahi are studied. On this basis, the specific aspects of the poet's skill are explored. As a result of his observations, the author expresses certain conclusions on the issue of tradition and innovation in the poet's work.

Keywords: *poetry, poet, verse, lyrical hero, tradition, originality, literary influence, commonality, artistic skill.*

She'riyatda necha asrlardan beri shoirlar qalamga oladigan an'anaviy mavzular bor. Bularning ichida albatta ogohlik, uyg'oqlik mavzusi keng ko'lamga egadir. Matnazar Abdulhakim she'riyatida ham mumtoz adabiyotdagi mana shu an'anaviy mavzular bo'rtib ko'rinadi.

Matnazar Abdulhakim suhbatlardan birida bunday degan edi: "Ogahiy she'rlarini mutolaa qilyapman. Men bunday damlarni o'ziga xos bir ma'naviy bayram, inson ruhiyatining foniy dunyo anduhlari ustidan g'alabasi, ezgulikning kayfiyatimdagi barqaror bir muzaffariyati sifatida nishonlayman. She'riyatning tip-tiniq hamda sohir parvarishidan aqlimni va tuyg'ularimni takror-takror bahramand etib, manfiyliklarning murdor hamlalarini daf etishdek qutlug' jahd-u jadallarga hozirlanaman. Yana ham insonroq bo'lib qolgim keladi". Ushbu fikrlar Matnazar Abdulhakim ma'naviy dunyosida Muhammad Rizo Ogahiyning o'zni beqiyosligini anglatadi.

Matnazar Abdulhakim she'riyatiga Xorazm adabiy muhitining ta'siri



МЕН УЧУН СЎЗДАН ОФИРРОҚ НАРСА ЙЎҚ

Матназар Абдулҳаким. Мангулик жамоли

bo'lmashligi mumkin emas, albatta. Ammo bunda butun boshli "Ogohnoma" yozgan Ogahiy ijodini birinchi o'ringa qo'ymay ilojimiz yo'q. Matnazar Abdulhakim ogoh bobosining yo'lini davom ettirgan holda xalqni ogoh va bedor yashashga undaydigan she'rlarni ko'proq yozdi.

Matnazar Abdulhakim yana bir suhbatda bunday degan edi: "Hazrat Ogahiyning butun bir bahaybat merosiga sarxat bo'ladigan mashhur e'tirofnomasi bor:

Ogahiy, kim topgay erdi sozi nazmingdin navo,

Bahra gar yo'qdir Navoiyning navosidin sango.

Ogahiy Hazratlari hatto taxallus tanlaganida ham mana shu hikmatga sodiq qolgan, ya'ni o'z taxallusini Navoiy bobomiz ijodiy merosidan kelib chiqib tanlagan. Alisher Navoiyning "Xamsa"sida mana bunday misralar mavjud:

Erursen shoh, agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen, shohsen sen".

Hazrat Alisher Navoiydan boshlangan ogohlik mash'alasi Hazrat Ogahiy orqali shoirimiz Matnazar Abdulhakimga berilgan bo'lsa, ne tong. Chunki shoirning "Tanlangan asarlari"ni varaqlay turib ko'zimiz tushadigan eng ko'p so'zlar bu – "ogohlik", "bedorlik", "uyg'oqlik", "loqaydlik", "beparvolik", "uxlamoq" so'zlari bo'ldi.

Shoirning "Tog' sog'inchi" she'ridagi aso ham aynan shu – loqayd bo'lmashlik:

Asrlar dastidan nuramas tog'lar,
Tog'lar loqaydlikdan yemiriladi.

Shoir nazarida loqaydlik shunday kuchki, hatto tog'ni ham yemiradi. Ushbu ikki satr butun boshli tarixni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Loqaydlikka berilib, tog'day davlatchiligi qilagan xonliklar davrini ayniqsa esga soladi.

"Ko'chki" ("Yatim ad-dahr" ohanglarida") turkumiga kiruvchi "Go'zalim, sen juda go'zalsan..." deb boshlanuvchi she'rda lirik qahramon to'g'ridan to'g'ri o'z yoriga nisbatan:

Sovuq, loqayd bo'lma bunchalik,

Bo'l sal yashin, bo'l sal chaqmoqroq, deb baralla aytadi. Lirik qahramon hattoki o'z yorini ham ogohlikka chaqiradi.

Shoirning yana bir "Alla ayt" deb boshlanuvchi she'rda o'qiymiz:

O'z allangdan o'zing uxlab qolma faqat,
bosib o'ldirasan
bolangni.

Allaning vazifasi uxlatish ekanligini bilamiz. Ammo shoir mudroqlikka berilgan inson o'z bolasini bosib o'ldirishi mumkinligi asnosida farzandni tarbiya qilmaslik, befarq bo'lishni nazarda tutayotgandek. Ushbu satrlarda ham ogohlikka da'vatni ko'ramiz.

Aslida buyuk bobomiz Jaloliddin Manguberdi bilan faxrlanishga Matnazar Abdulhakim ko'proq haqlidek nazarimizda. Shoirimiz ham aynan Xorazm diyorida tug'ilgan. Ammo Matnazar Abdulhakim tamoman boshqa yo'ldan boradi. Aniqroq qilib aytsek, sultonni ko'klarga ko'tarib maqtashdan ko'ra uning aslini, anglaganlarini, hayotiy tamoyillarini ochib berishga harakat qiladi. Buni uddalaydi ham. "Jaloliddin" she'rda lirik qahramon tilidan quyidagilarni o'qiymiz:

Ogahiy ham ko'b asarlarida zohiran majozni kuylasa-da, aslida botinan haqiqat oshuftasi ekanligini e'tirof etgan:

*Hamisha botinan rog'ib haqiqat soridur ko'nglum,
Nechakim, zohiran da'bi oning mayli majoz o'lsun*



O'ZBEK MUMTOZ
SHE'RIYATIDAN

Mardlik hamda nomardlik chekin
llg'amadim, to'kib shuncha qon.
Tavba degan hassa bor... lekin
Tayanmayman unga hech qachon.

Jang to'xtadi. Olar barcha tin.
Lab tekkizdi otim maysaga.
Men xoridim. Yomon charchadim.
Suyanaman birpas nayzaga.

Jaloliddinning hassaga emas, nayzaga suyanishi zamirida yana o'sha ogohlik, sergaklik yotadi. Hatto jang tugasa ham, qattiq charchagan bo'lsa ham lirik qahramon o'z nayzasiga suyanib hordiq chiqaradi. Jang bu biz boshdan kechirgan mustabid tuzum ramzidir. Shoir esa har birimiz Jaloliddin bo'lishimizni istaydi. Bir daqiqa bo'lsa ham sergaklikni yo'qotmasligimizni, ya'ni qo'lga kiritilgan erkni qo'rishimiz zarurligini eslatmoqchi bo'ladi.

Yosh shoir Suhrob Ziyoning "Jaloliddin Manguberding Temur Malikka aytganlari" she'rda ham "Shamshiringni quchib uxla, Tushingda ham yovni o'ldir" satrlarini o'qiymiz. Bu bog'liqlik Jaloliddin shaxsiyatining aslida shunday bo'lganligi bilan izohlanadi nazarimizda.

Shoirning yana bir "Hali kechagina yulduzlar

bilan...” deb boshlanuvchi she’riga e’tibor qarating:

*Holbuki, Alpomish his-hayajonlar,
Jaloliddin tuyg’u, Temurmaliq ruhlar
Nayzasini shundoq yoniga qo’yib
Sening yuragingda dong qotib uxlar.*

*Holbuki, ko’zlarga bedorlik darmon
Holbuki, ko’zlarga uyg’oqlik malham.
Uyg’ot hayajonni. Tuyg’uni. Ruhni.
Uyg’ot. Kech bo’lmadi hali ham.*

Mana shu ikki bandda shoirning asl lirik kechinmalari va ijoddan ko’zlagan eng baland cho’qqisi anglashiladi. Ya’ni yurt o’g’lonlari yuragida uxlab yotgan Alpomishni, Jaloliddin-u Temur Maliklarni uyg’otibgina o’zbek millatini asrab qolish mumkin. Shoir hali ham kech bo’lmaganligini eslatmoqchi bo’ladi.

Matnazar og’aning “O’yin tamom bo’ldi” deb boshlanuvchi she’rida esa mana bu satrlarga guvoh bo’lamiz:

*Xavfsinma. Biz ham bir ishqibozlarmiz.
Shundaydir davrning yalpi holati.*

Ishqibozlik qilayotgan odamlarni kuzatganmiz. Ikkita jamoaga ishqibozlik qilayotgan odamlar, ikki jangchiga yoki bironta hayvonning jangiga ishqibozlik qilayotgan odamlar omma holatida bo’ladi. Baqiradi, chaqiradi va boshqa narsalardan butkul uzilgan holatda bo’ladi. Shoir Matnazar Abdulhakim butun davr odamlarining ishqibozlik qilayotganini, ya’ni ommaga aylanib qolayotganini nazarda tutmoqda. Mana shu ikki satrda Abdulla Oripovning “Qachon xalq bo’lasan, ey sen olomon?” chaqirig’i mujassam bo’lgandek.

Matnazar Abdulhakim faqatgina xalqni uyg’otishni emas, balki o’z safdoshlari – shoirlarni ham uyg’otishni maqsad qiladi. “Gujumlar qo’shig’i” she’rida mana shu badiiy g’oya ustunlik qiladi. She’r yakunida gujum tilga kirib quyidagilarni so’zlaydi:

*Qutqaring! Kuylamang shunchaki maqtab,
Yo’qsa, biz ko’rk emas, boltalar sopi.
Dahshatga soladi bizni biz haqda
Beozor qo’shiqlar azobi.*

Anglaganingizdek, gujum bu yerda Vatan ramzidir. Ya’ni Vatanni maqtab, u haqida beozor qo’shiqlar aytish Vatanni dahshatga soladi. Sinchkov shoir gujum daraxtining tanasini qurtlar yeyishi kabi tabiiy holatdan kuchli ijtimoiy she’r yaratadi. Biz esa “yozadi” so’zidan ko’ra “yaratadi” so’zini qo’llashni o’rinli deb topdik.

Matnazar Abdulhakimning “Arz” she’rida o’tmishda karvonsaroyda yuz bergan voqea tasvirlanadi:

- *Uyim kuydi mening, xon og’a!*
- *Ne bo’ldi? Kim buzdi insof – burchini?*
- *Karvonsaroyda bir uxlab – uyg’onsam,
Yonimda yo’q tilla to’la xurjunim.*
- *Shunchalik ham qattiq uxlaysanmi, g’ofil!*
Qilasan-a yana uyalmay hasrat.
- *Bir qoshiq qonimdan o’ting-u, lekin.*

*Sizni uyg’oqmikan debman, onhazrat.
She’r davomida o’zaro suhbat davom etadi. So’ngra lirik qahramonning o’y-kechinmalari beriladi.
Bizlar ham ko’p yomon qattiq uxladik.
Dohiyalar uyg’oq deb ko’ngil bo’lgach to’q.
Uyg’onib qarajak – yo’qdir daryolar.
Uyg’onib qarajak – dengizimiz yo’q.*

Shoir “yo’lovchi”, “karvonsaroy”, “tilla to’la xurjun”, “xon” obrazlari orqali butun boshli Orol dengizining qurib qolganligi va butun xalq g’afatda qolganligi manzarasini mohir rassom kabi chizadi.

Matnazar Abdulhakim she’riyatida “Go’janing bog’i” she’ri alohida ahamiyat kasb etadi. Bir qarashda she’rda ekologik muammolar aks ettirilgandek ko’rinsada, aslida bog’ nomining majburan o’zgartirilishi, unga “G’alaba” deb nom berilishi zamirida xalqimizni ildizlaridan uzishga bo’lgan harakat yotganligi seziladi. Hech kimga sir emaski, sobiq ittifoq davrida xalqimizning yurak-yuragiga singigan, xalq badiiy tafakkurining mahsuli bo’lgan joy nomlari ma’lum siyosiy-strategik maqsadlarni ko’zlagan holda “kommunizm”, “leninizm”, “g’alaba”, “gagarin” kabi so’zlarga o’zgartirildi. Shoir katta afsus va nadomat bilan bunday deydi.

*Har anjir – bir oftob, har olu – bir tun,
Chayqalib turardi noklari larzon.
Boshlanib ketdi-yu yalpi loqaydlik,
Bog’ni sal vaqtda yo’q etdi xazon.*

*O’tkazdilar keyin na bir tup nihol,
Aqalli na bitta danak qadaldi.
Aylandi ship-shiydam, katta maydonga,
Va “G’alaba” nomi bilan ataldi.*

Demak, bog’ nomining o’zgartirilishi xalqning bog’ga bo’lgan mehrini ham yo’qqa chiqargan. Natijada bog’ga yangi daraxtlar ekilmagan, borlari parvarish qilinmagan. Sobiq Ittifoq tomonidan “Turkiston” nomining yo’q qilinishi, bo’lib tashlanishi ham Vatan degan ezgu g’oyaning zaiflashuviga xizmat qildi. Matnazar Abdulhakim ushbu she’rda Xorazmdagi kichik bir bog’ni emas, butun bir mamlakatni, butun Markaziy Osiyoni nazarda tutgan bo’lishi ham mumkin.

Bilamizki, shoir 1948-yilda tug’ilib, 2010-yilda vafot etgan. Demak, shoirning ijodiy kamolotga yetgan pallasi yurtimizda nisbatan sokinlik va o’z-o’ziga mahliyolik, o’zbo’larchilik davriga to’g’ri keladi. Xalqni ommaviy ravishda erishilgan mustaqillikdan masrurlik kayfiyati egallab olgan paytda Matnazar Abdulhakim zamonaning larzaga muhtojligini qalamga oldi:

*Na’ralar quloqqa shipshib aytilar,
Holbuki, zamona muhtoj larzaga.
Po’latdek bo’g’izlar yaramaydilar
Yegulik yutmoqdan boshqa narsaga.*

“Bahorning so’nggi qo’shig’i” she’rida o’qiyamiz:

*Garchi menga anduh butkul begona,
Loqaydlardan nolib-nolib ketaman.*

Shoir nazdida hatto bahor ham o'lkamizga kelganda loqaydlardan nolib ketadi. Shoir eng inja tabiat tasvirlaridan ham ijtimoiylikni, dardni topa oladi. Bunda shoir tashxis, ya'ni jonlantirish san'atidan san'atkorona foydalangan.

"Tazarru" she'rida ham xuddi shu chaqiriqni ko'ramiz:

Yetar endi loqaydlik, g'afat,
Yetar endi lol, karaxt uxlash.
Demak kerak zabunni – zabun,
Ulug'larni esa – ulug'lash.

Minbarlardan o'tmish u-bu deb,
Byron sayrar ming-minglab sa'va.
Ko'p muqaddas yalovlar bugun
Murtad oyoqlarda paytava.

Shoir Matnazar Abdulhakimning ma'shuqaga atab yozilgan aruz vaznidagi g'azallarida ham loqaydlikdan

qochish mavzusini ko'ramiz:

*Ko'ngil bir saltanatdir, sen agar loqayd bo'lib
qolsang,
Tanazzul bundan ortiq bo'lmag'ay, bu inqirozimdur.*

Lirik qahramon o'z yoriga agar loqayd bo'lsang, ko'ngil saltanatim tanazzulga yuz tutadi, bu mening inqirozim bo'ladi demoqda. "Ko'ngil"ni "saltanat"ga tashbeh qilgan shoirning nazdida loqaydlik tanazzuldir.

Matnazar Abdulhakimning "jim" radifli g'azalidagi maqta' ham e'tiborimizni tortdi:

*Matnazar, bir lahzalik g'ofilsan-u, ko'p so'ylading,
Nur sochar osmonda oftob manguga bedor, jim.*

Shoirimiz kamtarinlik bilan o'zini "bir lahzalik g'ofil" deb ataydi. Quyosh umri bilan solishtirganda inson umri bir lahzalik bo'lib tuyulishi tabiiy hol. Ammo osmonda quyosh bedor nur sochgan kabi tadqiq etayotganimiz ijodkor ham bir umr bedor ravishda ma'rifat nurini sochib yashadi. Undan qolgan barhayot ijod namunalari esa hamon nur sochishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – T.: Sharq, 2008.
2. Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. – Xiva: Xorazm Ma'mun Akademiyasi nashriyoti, 2009.
3. Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo'shig'i. – T.: G'afur G'ulom, 1986
4. "Sharq yulduzi" jurnali, 2016-yil, 9-son.
5. (<https://khdavron.uz/kutubxona/multimedia/matnazarabdulhakim-bedil>) 2022-yil 19-fevral.
6. Nurboy Jabborov. Zamon, mezon, she'riyat. – T.: G'afur G'ulom, 2015.

Diana RUZMETOVA

Act.assoc.prof (PhD),

Chirchik State Pedagogical University

THE ROLE OF NATURE IN CONTEMPORARY AMERICAN FICTION

Annotation: the natural world has long been an important part of American literature, acting as a setting, a character, and a metaphor for a wide range of concepts and ideas. The depiction of nature in contemporary American fiction has developed over time to represent the shifting interaction that exists between people and the natural world. The purpose of this abstract is to investigate the portrayal of nature in contemporary works of American fiction, with a particular focus on the role that nature plays in the formation of characters, plotlines, and overarching narratives. We are able to obtain insights into contemporary viewpoints on environmental challenges, human connectivity with the natural world, and the intricacies of modern life by analyzing the ways in which authors express their engagement with nature in their writing. Through an examination of a few works of literature, the purpose of this abstract is to throw light on the everlasting importance and significance of nature in the process of building the landscape of contemporary American fiction.

Keywords: *environmental issues, American fiction, nature explorations, changing relationship, American literature.*

Аннотация: природа всегда играла важную роль в американской литературе, служа фоном, персонажем и метафорой для множества тем и идей. В современной американской художественной литературе изображение природы эволюционировало, чтобы отразить меняющиеся отношения между человеком и окружающей средой. В этом реферате рассматривается, как природа изображена в последних произведениях американской художественной литературы, подчеркивая ее роль в формировании персонажей, сюжетов и общего повествования. Изучая способы взаимодействия авторов с природой в своих работах, мы можем

получить представление о современных взглядах на проблемы окружающей среды, взаимодействии человека с миром природы и сложностях современной жизни. Посредством анализа избранных литературных произведений эта реферат призвана осветить сохраняющуюся актуальность и важность природы в формировании ландшафта современной американской художественной литературы.

Ключевые слова: экологические проблемы, американская художественная литература, натуралисты, изменение отношения к природе, американская литература.

Annotatsiya: tabiat har doim Amerika adabiyotida muhim rol o'yagan va turli mavzular va g'oyalar uchun fon, xarakter va metafora bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy Amerika fantastikalarida tabiat tasviri inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zgaruvchan munosabatlarni aks ettirish uchun rivojlandi. Ushbu maqolada amerika fantastikasining so'nggi asarlarida tabiat qanday tasvirlanganligini o'rganadi, uning personajlar, syujetlar va umumiy hikoyalarni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Mualliflarning o'z asarlarida tabiat bilan munosabatda bo'lish usullarini o'rganish orqali biz atrof-muhit muammolari, insonning tabiiy dunyo bilan o'zaro bog'liqligi va zamonaviy hayotning murakkabliklariga oid zamonaviy qarashlar haqida tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin. Tanlangan adabiy asarlarni tahlil qilish orqali ushbu abstrakt zamonaviy Amerika fantastikasi landshaftini shakllantirishda tabiatning doimiy dolzarbligi va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit muammolari, Amerika fantastikasi, tabiatni o'rganuvchilar, tabiatga munosabatlarning o'zgarishi, Amerika adabiyoti.

Introduction

Nature has long played a crucial role in American literature, serving as a catalyst for inspiration, self-reflection, and symbolic representation across several generations of writers. In the realm of contemporary American fiction, the portrayal of nature remains a vibrant and varied motif that alters storylines, characters, and the whole fabric of storytelling. This is due to the fact that nature is a subject that is continuously undergoing changes and developments. Given that authors are currently dealing with urgent environmental issues, changing human interactions with the natural environment, and the intricacies of contemporary life, the portrayal of nature in literature has evolved to mirror these diverse viewpoints. In this research on the role of nature in modern American fiction, we explore how authors engage with the natural environment to convey deeper meanings, evoke emotions, and provoke contemplation. Our objective is to explore the integration of nature into storytelling by examining a curated collection of contemporary works. This will enable us to explore how environment enhances tales through its aesthetic appeal, influence, and symbolic significance. By analyzing how contemporary American writers depict nature in their writings, we can gain a deeper understanding of the broader cultural and environmental influences that shape these narratives. The portrayal of nature in fiction, ranging from urban to rural settings, from wilderness expeditions to dystopian futures, provides a lens for exploring our connection with the environment and contemplating our position in the natural world. This lens enables us to examine the natural world from many viewpoints. The objective of this study is to emphasize the enduring importance of nature in contemporary American fiction. It aims to showcase how nature has the ability to motivate, confront, and prompt readers to contemplate their personal

connections to the surrounding environment. We invite readers to accompany us on this literary journey across the realms of fantasy. We aim to examine the diverse and intricate connection between nature and the narratives that define our era.

Methodology

A literature review entails a thorough examination of scholarly papers, books, and critical essays that analyze the representation of nature in modern American fiction. This will establish a conceptual framework for comprehending the importance of nature in literature. Select a collection of modern American fiction novels that prominently incorporate nature as a central theme. This encompasses literary works such as novels, short stories, and essays that have been published within the last few decades. Conduct a detailed analysis of the chosen literary pieces to determine how the authors depict, symbolize, or make use of nature. Examine the linguistic, visual, and storytelling methods employed to portray nature and its connection to the creation of characters and plot. Identify prevalent themes and motifs pertaining to nature in the selected works. Examine the utilization of nature to communicate concepts on human existence, individuality, community, and the natural world.

Contextual analysis examines the portrayal of nature in relation to the wider cultural, historical, and environmental circumstances of present-day America. Examine the impact of social perspectives on nature, climate change, conservation, and urbanization on the representation of nature in literature. Examine the authors' origins, views, and motives in order to comprehend the reasons behind their inclusion of nature in their writing. Examine how individuals' personal experiences, environmental concerns, and artistic objectives influence their portrayal of the natural world.

Comparative analysis is a method that examines

and juxtaposes the portrayal of nature in various works in order to emphasize differences in style, theme, and perspective. Analyze the methods employed by authors from various backgrounds and genres when portraying nature in their works of fiction. Examine the way readers interact with and understand the portrayal of nature in modern American literature. Examine how readers' personal experiences, values, and attitudes towards nature impact their comprehension and admiration of these literary pieces. Utilize knowledge from disciplines like Eco critique, environmental humanities, cultural studies, and literary theory to enhance the examination of nature in modern American fiction. Utilizing an interdisciplinary strategy can yield a more intricate comprehension of the correlation between literature and the natural world. Integration and Analysis Combine the results of the textual, thematic, contextual, and reader reaction analyses to form a unified view of the importance of nature in modern American fiction. Contemplate the wider significance of these interpretations in relation to comprehending current literary patterns, awareness of the environment, and cultural principles.

Results and discussions

The examination of current American fiction demonstrates a wide array of methods in which nature is depicted in writing. Authors utilize vibrant portrayals, elaborate visual representations, and symbolic interpretations to illustrate the natural world as a dynamic and essential component of the story environment. Key recurring themes and motifs in contemporary American fiction about nature are the interdependence of humans and the environment, the consequences of environmental deterioration on communities, the quest for significance and comfort in nature, and the juxtaposition of urbanization and wildness. Authors depict nature in their works from different angles, utilizing personal encounters, environmental worries, cultural backgrounds, and literary customs. Certain authors employ nature as a setting to delve into human emotions and relationships, while others utilize it as a tool to scrutinize society ideals and standards. Individual readers' reactions to the portrayal of nature in modern American literature are shaped by their personal experiences, values, and attitudes towards the natural world. Certain individuals may derive comfort and motivation from the aesthetic depiction of the natural world in literature, while others may be inclined to contemplate urgent ecological concerns and the imperative for conservation endeavors.

The portrayal of the natural world in modern American literature mirrors an increasing awareness of the environment in both literary works and society. Authors employ their literary creations to heighten consciousness regarding ecological concerns,

champion sustainable behaviors, and delve into the intricate interconnection between humans and the natural environment.

Literary depictions of nature function as a reflection of present-day American society, exposing its perspectives on the environment, technology, consumerism, and industrialization. By using fiction as a perspective, readers are encouraged to contemplate their personal connection with nature and contemplate the moral consequences of human activities on the world. The inclusion of nature as a theme component in modern American fiction mirrors wider literary movements towards eco-literature, environmental narrative, and eco-criticism. Authors actively interact with nature, not just as a backdrop or scenery, but as a prominent character that molds the storyline and impacts the growth of characters. Literary portrayals of nature enable authors to delve into topics of aesthetics, tenacity, delicacy, and metamorphosis. Through the use of language and imagery, writers are able to capture the true nature of the world around us. This evokes strong emotional reactions in readers and encourages them to reflect on the mysteries and marvels of the environment. To sum up, the examination of nature's significance in modern American literature demonstrates the diverse methods through which writers interact with the environment to communicate significance, stimulate reflection, and incite transformation. Authors enhance our comprehension of humanity's connection with nature and inspire readers to value and save the environment for future generations through their creative creations.

Conclusion

Upon deeper examination of the significance of nature in contemporary American fiction, it becomes clear that authors utilize the natural world as a versatile instrument to tackle urgent societal concerns, contemplate individual experiences, and question traditional storylines. By employing detailed portrayals of geographical features, ecological systems, and fauna, authors construct captivating environments that not only function as mere settings for their narratives but also actively engage with the storyline, exerting influence on characters and molding plot developments. Furthermore, in contemporary American fiction, the depiction of nature frequently functions as a metaphor for more extensive concepts such as endurance, metamorphosis, and the interdependence of all living organisms. Authors incorporate elements of the natural world into their writing to encourage readers to reflect on their personal connection with the environment, stimulating self-reflection and cultivating a greater admiration for the beauty and intricacy of the world surrounding us. To summarize, the use of nature in modern American literature not only enhances literary pieces with vibrant visuals and profound symbolism

but also emphasizes the significance of environmental care and preservation. Authors enhance the recognition of ecological concerns and motivate readers to develop a stronger bond with the natural world by emphasizing the inherent worth of nature and its significant influence on human existence. These authors use their stories to emphasize the lasting influence of nature in inspiring, healing, and changing us, highlighting its pivotal role in developing our shared awareness and comprehension of the world we live in.

REFERENCES

1. Ruzmetova D. K. IMPROVING STUDENTS' READING COMPREHENSION VIA COMICS ILLUSTRATIONS //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1. – C. 409-413.
2. Ruzmetova D. K. MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACH ENGLISH GRAMMAR FOR EFL STUDENTS //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1. – C. 405-408.
3. Rahmonova H. S. K., Ruzmetova D. K. THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL MANAGEMENT FACULTY: A COMPARATIVE STUDY OF DIFFERENT APPROACHES //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1 Part 2. – C. 46-49.
4. Baxtiyorova M., Ruzmetova D. K. FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1 Part 2. – C. 611-612.
5. Turg'unboyeva P. A. Q., Ruzmetova D. K. MODERN METHODS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY //Academic research in educational sciences. – 2024. – T. 5. – №. CSPU Conference 1 Part 2. – C. 630-632.
6. RUZMETOVA D. EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE IMPLEMENTATION OF THE METHOD OF PREVENTING GRAMMATICAL INTERFERENCE //YOUNG. – C. 15-19.
7. qizi Mamasoliyeva D. B., Akmalxonov S. F. A. NATURE'S ROLE IN CONTEMPORARY AMERICAN FICTION //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 7. – С. 19-23.
8. qizi Mamasoliyeva D. B., Akmalxonov S. F. A. USE OF FANTASY IN CHILDHOOD WRITING //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 7. – С. 52-55.
9. qizi Raxmatova I. I., Akmalxonov S. F. A. THE SECOND WORLD WAR IN AMERICAN LITERATURE //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 21. – №. 7. – С. 44-48.

Adash RUSTAMOVA

PhD, associate professor

Samarkand state institute of foreign languages, Samarkand, Uzbekistan

ENGLISH READING DIFFICULTIES: AN ACTION RESEARCH

Annotation: the goal of this study was to improve the reading skills of kids who did not have any physical or mental problems but were having difficulty reading. The study approach involved the use of repeated reading, paired reading, and word repetition techniques. Furthermore, the meaning analysis, word map, and vocabulary notebook approaches were applied since extensive vocabulary knowledge has a favorable influence on resolving reading issues and enhancing reading fluency.

Key words: *analyzing; reading; teachers' difficulties.*

Annotatsiya: ushbu tadqiqotning maqsadi jismoniy yoki aqliy muammolari bo'lmagan, lekin o'qishda qiynalayotgan talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bunda takroriy o'qish, juftlab o'qish va so'zlarni takrorlash usullaridan foydalanish tekshirilib ko'rildi. Bundan tashqari, ma'no tahlili, so'z xaritasi va lug'at daftari ishlab kabi yondashuvlar qo'llanildi

Kalit so'zlar: *tahlil qilish; o'qish; o'qituvchilarning qiyinchiliklari.*

Аннотация: целью данного исследования было улучшение навыков чтения у детей, у которых не было физических или умственных проблем, но были трудности с чтением. Подход исследования включал использование методов повторного чтения, парного чтения и повторения слов. Кроме того, были применены подходы анализа значений, карты слов и словарного блокнота, поскольку обширные знания словарного запаса благоприятно влияют на решение проблем с чтением и повышение беглости чтения.

Ключевые слова: *анализ; чтение; трудности учителей*

From the advent of writing to the present, humans have been reading to understand and adapt to society's continually changing structure. "Reading may be characterized as the process of creating sense in a regular context using an appropriate technique and purpose, based on successful communication between the author and the reader, and including cognitive and psychomotor abilities". When the definitions are analyzed, we may describe

reading as the act of producing meaning in the mind through the exposure of text and symbols to cognitive processes. "Reading, defined as the act of making sense of texts and symbols, must be approached as a fluent, sense-making, strategic, motivation-based, and lifelong process. The abilities required in this process comprise the five fundamental principles of reading. Individuals must develop fluent reading skills, which are basic to reading, in order to read successfully and at the anticipated level. Fluent reading is the student's capacity to read the text at an acceptable speed, without hesitating when he or she notices a sound, syllable, or word, as if he or she spoke in his or her everyday life in an emotive and harmonic manner" .

Accuracy is defined as reading sounds, syllables, and words quickly and without committing addition, subtraction, or inversion mistakes. "Reading speed entails automating the word encounter, and the errors they make in word recognition are summarized as an inability to comprehend the relationship between symbol and sound, confusion of words and letters, spelling difficulty, changing the position of letters in words, incorrect reading, adding and subtracting, and reading by inverting and repeating. When the literature on reducing word recognition errors and boosting fluency in reading aloud is analyzed, it is clear that several approaches and techniques are employed, such as repeated reading, partnered reading, reader theaters, word repetition technique, and choral reading. People communicate by using their linguistic expertise to comprehend and explain something. A word may be described as a name for feelings, ideas, and attitudes made up of sounds or sound groups that have meaning or grammatical function and can be used on their own" . Vocabulary knowledge is another facet that contributes to reading fluency. "Vocabulary is a key aspect that influences reading and writing, along with the basic language abilities of comprehension and expression, as well as the sub-language skills of listening and speaking. A student's state within the psychology defined in the first sentence of this paragraph should be determined so that he or she is not negatively impacted in the future, and an intervention program should be developed that includes the appropriate methods and techniques for him or her to overcome his or her problems. Recommendations for reading difficulties include assessing language comprehension and decoding separately for screening, diagnosis, and progress monitoring, as they contribute differently over time. For example, phonemic awareness, decoding, and sight recognition should all be evaluated independently" . "Assessing these areas individually provides further insight into the root

cause(s) of the student's difficulties:

- Phonemic awareness examinations may be used to examine the decoding component, which includes activities such as blending and analysis (segmenting and manipulating phonemes), word reading, and nonsense word reading. Nonsense word reading activities are most effective for assessing a student's



reading ability. Assessing language understanding can be challenging since it develops throughout elementary and high school, but decoding becomes routine earlier in development. Nonetheless, oral language development (vocabulary depth and breadth, words per utterance, and syntactic complexity) and background knowledge development are crucial considerations, since these aspects might lead to particular comprehension problems.

- Interventions and goals should be designed to address a child's specific needs rather than comprehension or reading levels. Comprehension goals are difficult to quantify, and comprehension exams vary widely in what they evaluate. Reading level tests confuse language comprehension with decoding, making it impossible to determine the source of a student's difficulties. Furthermore, leveled reading tests may employ predictable material, making it simpler for pupils to guess at words, and they may not be nationally normed or grade-level appropriate" .

Screening is a risk assessment tool. "Screeners for reading issues can accurately indicate which pupils would fail to read fluently owing to dyslexia, developmental language disorder, or another impairment. Screening promotes a prevention-based strategy by allowing kids at risk of reading issues to get help and intervention before they begin to struggle, rather than after they have failed. Indeed, early and regular screening is a critical characteristic of a preventative paradigm as opposed to a "wait to fail" model. The "wait to fail" method is distinguished

by a diagnosis of a reading impairment, usually dyslexia, as late as second grade, when the time window for the most effective remediation has closed. Furthermore, by second or third grade, the gap between competent and bad readers has grown, and the negative implications of reading difficulty such as restricted vocabulary and background knowledge, a lack of enthusiasm or drive to read, and low confidence or self-esteem have become firmly established". Early screening provides several benefits to children that much surpass any logistical, administrative, or financial costs in the near run. "Early screening should encompass the following factors:

- Be brief to administer; - Cover key domains such as phonological awareness, letter knowledge, rapid automatized naming, vocabulary, listening comprehension, and family history; - Begin as early as preschool but no later than kindergarten; - Consider language and dialect diversity.

- Be conscious of neurobiology and genetics by inquiring about a family history of reading problems. The most important parameters for screening differ depending on the stage of development. Family history questionnaires should be included in a reading screener since they frequently provide useful information regarding reading risk. Furthermore, while choosing a validated screener, it is critical to examine its inclusion and knowledge of both language and dialect variety. Students of race are frequently overrepresented in special education overall, but underrepresented in speech and language and particular learning disabilities".

While screeners with high classification accuracy that is, those that accurately identify children in need of assistance while not wrongly identifying students who do not require intervention can anticipate risk, it is critical not to rely judgments just on one assessment. "It is also vital to remember that screeners are most effective when core classroom learning is solid. In other words, if many or most kids are reading below grade level, the efficacy of a screener is undermined, and the core curriculum and instruction must be reevaluated. When developing a plan for administering screeners, it is equally important to consider how to respond to the results. It may be required to schedule time to analyze the results, make data-driven choices, and assign intervention groups. Staff who provide the intervention should be well-versed in evidence-based approaches and treatments. According to the Simple View of Reading (SVR), reading requires two core skills: word recognition and language comprehension. Both are required for reading,

and one cannot substitute for the other. The most prevalent reason of reading difficulty is word identification, often known as decoding. According to some estimates, word recognition issues cause more than 90% of reading challenges in grades K-2, as well as the majority of reading difficulties in subsequent grades. Word recognition issues, like all other difficulties, are on a continuum".

Dyslexia is a clearly defined and diagnosed impairment with word recognition. A student's dyslexia symptoms may be mild, moderate, or severe. "What is dyslexia?" Dyslexia is a unique learning problem with a neurological cause. It is characterized by difficulty with accurate and/or fluent word recognition, as well as poor spelling and decoding skills. These challenges are often caused by a weakness in the phonological component of language, which is frequently surprising in comparison to other cognitive talents and the provision of competent classroom education". Secondary implications may include difficulties with reading comprehension and a lack of reading experience, which can hamper the development of vocabulary and background information. "In 2002, the International Dyslexia Association collaborated with top experts and scientists to develop this definition:

- Neurobiological: Dyslexia is a brain-related condition. It is unrelated to environment, speech, or vision. It should also be highlighted that a family history of dyslexia is connected. Children of dyslexics have a greater prevalence of dyslexia, yet there is no direct genetic link or cause. Dyslexia exists in all languages and may be diagnosed regardless of the student's first language.

- Accurate and/or fluent word recognition: While the major cause of reading problems is a weakness in the phonological component of language (described below), the learner also exhibits incorrect or dysfluent reading.

- Deficit in the phonological component of language Functional Magnetic Resonance Imaging (fMRI) research have showed that individuals with dyslexia exhibit a "deficit in the processing of phonemes - the elementary constituents of spoken words." During reading, a region in the left hemisphere responsible for phoneme processing, or speech sounds, is insufficiently active. This is a neurobiological marker that is not influenced by the environment or past learning.

- Unexpected: Students with dyslexia can achieve at or above-average levels on other educational measures, particularly language comprehension, which may be a relative strength. While various

educational tests (such as passage comprehension or spelling) may be influenced by their underlying reading handicap, the reading deficiency is unusual in comparison to other cognitive talents” .

- Cognitive talents include planning, memory, visual perception, and others. Scientists and academics disagree on the prevalence of dyslexia, maybe because it exists on a continuum. “Students may come with extremely minor, moderate, or severe impairment symptoms. However, the most frequently accepted estimate is that 10% of all kids have dyslexia. It is crucial to remember that the vast majority of kids with a Specific Learning Disability have a Specific Language or Reading Disability, sometimes known as dyslexia. Dyslexia is a neurological condition with varying degrees of severity. Thus, dyslexia is often detected when a learner exhibits particular academic characteristics before, during, or after beginning formal reading education” . “The following actions may suggest a pupil has a weakness in the phonological component of language or Looking Deeper into Terms:

- Neurobiological: Dyslexia is a brain-related condition. It is unrelated to environment, speech, or vision. It should also be highlighted that a family history of dyslexia is connected. Children of dyslexics have a greater prevalence of dyslexia, yet there is no direct genetic link or cause. Dyslexia exists in all languages and may be diagnosed regardless of the student's first language.

- Accurate and/or fluent word recognition: While the major cause of reading problems is a weakness in the phonological component of language (described below), the learner also exhibits incorrect or dysfluent reading.

- Deficit in the phonological component of language Functional Magnetic Resonance Imaging (fMRI) research have showed that individuals with dyslexia exhibit a "deficit in the processing of phonemes - the elementary constituents of spoken words." During reading, a region in the left hemisphere responsible for phoneme processing, or speech sounds, is insufficiently active” . This is a neurobiological marker that is not influenced by the environment or past learning.

- Unexpected: “Students with dyslexia can achieve at or above-average levels on other educational measures, particularly language comprehension, which may be a relative strength. While various educational tests (such as passage comprehension or spelling) may be influenced by their underlying reading handicap, the reading deficiency is unusual in comparison to other

cognitive talents.

- Cognitive abilities: These include planning, memory, and visual perception, among others. Scientists and academics disagree on the prevalence of dyslexia, maybe because it exists on a continuum. Students may come with extremely minor, moderate, or severe impairment symptoms. However, the most frequently accepted estimate is that 10% of all kids have dyslexia. It is crucial to remember that the vast majority of kids with a Specific Learning Disability have a Specific Language or Reading Disability, sometimes known as dyslexia. Structured Literacy consists of five essential components of education for kids with dyslexia” :

- Phonemic awareness: “Because dyslexia is primarily caused by a deficit in the phonological component of language, it is critical that kids with dyslexia get assistance in the phonological component of language, specifically systematic instruction focused at enhancing phonemic awareness.

- Sound/symbol connections, or phonics: In addition to phonemic competence, pupils require assistance with the link between phonemes (speech sounds) and graphemes. Teachers should teach kids letter-sound correlations using a few phonemes at a time. After learning each short vowel and single consonant, experts advocate gradually introducing more complicated patterns such as consonant blends, digraphs, and, eventually, all syllable forms. Phonics teaching cannot cease with the introduction of individual phoneme/grapheme instructions. Teachers must employ word-building exercises to teach kids how to combine sounds together to read fluently :

- Fluency: Teachers should provide opportunities for students to read aloud, learn to self-monitor and get feedback.

- Vocabulary: Vocabulary is essentially a language comprehension ability that kids must master in order to achieve complete literacy. Vocabulary encompasses not just word knowledge but also the entire spectrum of semantics: connotations, word connections, morphology, shades of meaning, synonyms, antonyms, multiple meanings, and more. Students can obtain direct teaching in vocabulary by studying word connections and morphology. Vocabulary education can be delivered orally and then integrated into text-based assignments as the child's decoding skills improve.

- Comprehension: “The ultimate purpose of reading is comprehension, which may also be taught directly. Students may and should learn

that reading should make sense. According to the K-5 Literacy Instruction section, comprehension occurs when a person can properly read a text and utilize their previous knowledge to generate meaning. A comprehensive intervention for dyslexic kids would encompass all five components: phonemic awareness, phonics, fluency, vocabulary, and understanding. Teachers must evaluate the components of each intervention depending on the ones that are present. Phonemic awareness training is sometimes mistaken with phonological sensitivity. Phonological sensitivity is essentially the ability to detect bigger pieces of speech, such as syllables and rhymes. Children frequently acquire this before developing phonemic awareness.

However, it neither a precursor to nor a requisite for the more advanced skill of Phonemic awareness. Phonemic awareness is defined as "conscious awareness of individual speech sounds (phonemes)" and is necessary for learning to read. Many instructors and curriculum spend an inordinate amount of time teaching rhyming and

syllable clapping, yet these abilities are not required for subsequent reading ability. Beginning in late pre-kindergarten, teachers should focus on phoneme awareness" . Phoneme recognition, mixing, segmentation, deletion, addition, and replacement are some examples.

CONCLUSION: In light of the current study's findings, it is suggested that teachers remember that fluent reading is an important component of reading comprehension, that they implement fluent reading activities in their classrooms, and that they use fluent reading skills to measure and evaluate reading and comprehension. Researchers, on the other hand, can perform similar experiments across grade levels by alternating between loud and quiet reading exercises and varying the texts utilized. Teachers and reading experts should remember that word recognition and fluency are critical components of reading comprehension, and vocabulary knowledge has a significant impact on reading and comprehension.

REFERENCES

1. Akyol, H., & Kayabaşı, Z. E. K. (2018). Improving the Reading Skills of a Students with Reading Difficulties: An Action Research. *Egitim ve Bilim*, 43(193). doi:10.15390/EB.2018.7240
2. Armbruster, B. B., Lehr, F., & Osborn, J. (2001). The research Building Blocks for Teaching Children to Read Put Reading First. The Partnership for Reading.
3. Armbruster, B. B., Lehr, F., & Osborn, J. (2010). Put reading first: The research building blocks for teaching children to read (3th ed.). Developed by the Center for the Improvement of Early Reading Achievement (CIERA). Washington, DC: The National Institute for Literacy (NIFL).
4. Balci, E. (2017). Dyslexia: definition, classification and symptoms. *SDU International Journal of Educational Studies*, 4(2), 166-180.
5. Chafouleas, S. M., Martens, B. K., Dobson, R. L., Weinstein, K. S., & Gardner, K. B. (2004). Fluent reading as the improvement of stimulus control: Additive effects of performance-based interventions to repeated reading on students' reading and error rates. *Journal of Behavioral Education*, 13(2), 67-81. <https://doi.org/10.1023/B:JOB.0000023656.45233.6f>
7. Creswell, J. W. (2013). *Araştırma Deseni*. (Demir, S.B. Çev. Ed.). Eğiten Kitap.
8. Dickinson, D. K., & Smith, M. W. (1994). Long-term effects of preschool teachers' book readings on low-income children's vocabulary and story comprehension. *Reading research quarterly*, (29), 105-122. Doi: 10.2307/747807
9. Jenkins, J. R., & Larson, K. (1979). Evaluating error-correction procedures for oral reading. *The Journal of Special Education*, 13(2), 145-156. <https://doi.org/10.1177/002246697901300206>
11. Mokhtari, K., & Thompson, H. B. (2006). How problems of reading fluency and comprehension are related to difficulties in syntactic awareness skills among fifth graders. *Literacy Research and Instruction*, 46(1), 73-94. <https://doi.org/10.1080/19388070609558461>

Nasiba NASRIDINOVA,
Guliston davlat universiteti
"Boshlang'ich ta'lim uslubi" kafedrasida o'qituvchisi

1-4-SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi mazmuni, o'qish savodxonligini oshirishning zaruriyati va metodikasining samarali usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek maqolada umumta'lim maktablarining 1-4-sinf o'quvchilari uchun 2023-2024 o'quv yilida amalda foydalanilayotgan 4K modeliga asoslangan Yangi avlod darsliklarining yaratilish maqsadlari, tuzilishi va mazmuni haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, o'qish savodxonligi, dars, pedagogika, ta'lim, darsning mazmuni, ijodkorlik, intellekt, metodika, salohiyat.

Аннотация: в данной статье рассматривается содержание читательской грамотности учащихся начальных классов, необходимость повышения читательской грамотности и эффективные методы. Также в статье представлена обширная информация о целях, структуре и содержании учебников «Нового поколения» на основе модели 4К, которые используются в 2023-2024 учебном году для учащихся 1-4 классов общеобразовательных школ.


Ключевые слова: учитель начальных классов, читательская грамотность, урок, педагогика, образование, содержание урока, креативность, интеллект, методика, потенциал.

Annotation: this article discusses the content of primary school students' reading literacy, the need to improve reading literacy and effective methods. Also, the article provides extensive information about the goals, structure and content of the New Generation textbooks based on the 4K model, which are being used in the 2023-2024 academic year for students of the 1st-4th grade of secondary schools.

Key words: primary school teacher, reading literacy, lesson, pedagogy, education, content of the lesson, creativity, intelligence, methodology, potential.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrda 726-son qaroriga muvofiq bugungi kunda darslik va o'quv-metodik majmualar sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortishi ularni yaratish jarayoniga matbaa sohasining so'nggi yutuqlarini qo'llash, o'quvchilarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz, foydalanish uchun qulay bo'lgan matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish, ushbu faoliyatni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrda PF 6108-son Farmoniga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda professional ta'lim sohasida foydalaniladigan matbaa mahsulotlarining xavfsizligiga

qo'yiladigan talablarni belgilash, foydalanuvchilarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek, nashr etilayotgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning matbaa sifatini ilg'or xorijiy tajriba asosida yanada oshirish maqsadida hamda ushbu farmonning 1-bandiga muvofiq dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera



oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish



7. Tabiat va hayvonlarni asrash uchun o'z loyihangizni tuzing.

MEN TABIATNI ASRAYMAN

LOYIHA

Tabiatni asrash uchun sizga nimalar kerak?



Ishni nimadan boshlaysiz?



Bu ishlarni qilganingizdan so'ng, nimalar o'zgaradi?



Uyda, oilangiz davrasida o'z loyihangiz taqdimotini uyushtiring. Har bir masalani tartib bilan so'zlab berishga harakat qiling.



49

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilab qo'yilgan[1]. Ushbu bandga ko'ra va 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv metodologiyasi (bu-bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi: kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi) inobatga olinib, 2023–2024 o'quv yilida 1–4- sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab o'quv darsliklari yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi va adabiy tushunchalarni shakllantirish masalalari Q. Abdullayeva, S. Matchonov, Q. Yo'ldoshev, B. Makulova, T. G'afforova, A. Hamroyev, Sh. Sariyev, O. Eshimbetov, G. A. Mamatovalarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari B.Abdullayeva, K.Qosimova, Sh.Yo'ldosheva, X. G'ulomova, A. Q. Nisanbayeva, U. Masharipovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darsliklari orqali o'quvchilarga tilni o'rgatish yuzasidan Katerina Sublett Minardi, M. B. Tunnell, J. S. Jakobs, G. Lazar, M. Lajolo va boshqalar tadqiqot ishlari amalga oshirishgan.

Natijalar va muhokama. Har bir o'quvchi maktabga qadam qo'yar ekan, birinchi navbatda o'qishni, yozishni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi umumiy qilib aytganda savodxonligini oshiradi. O'qish va o'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarida ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish, talqin qilish, va baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri.

O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi. Boshlang'ich savodxonlik tushunchasi o'qish va yozishni dastlabki o'rganish uchun ishlatiladi. Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurni shakllantirish, eshitish qabul qilish sezgisini o'stirishda ham mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

O'qish savodxonligiga o'rgatishda konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha "construct" – yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli

ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

Bolaning matnini to'liq tushunmasligining sabablaridan biri ularda yaratish jarayoni uchun muhim mexanizmlarning kamligi ham bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga "Zumrad va Qimmat" ertagini aytib berayotganda, o'rmon haqida gapirgan paytda o'quvchi bu so'z bilan bog'liq ma'no umumlashmalarini anglab olish uchun o'rmon haqida tushuncha mavjud bo'lishi lozim bo'ladi. Shu yerda o'qituvchining mahorati shundan iborat bo'lishi kerakki, u bir vaqtning o'zida o'quvchilarning tasavvuri bilan ham birdek ishlay olishi lozim. Ya'ni, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nutqini, talaffuzini, bayon usulini moslashtira olishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlarda matnini tushunish to'rtta jarayonga asoslanib baholanadi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doiralarda mavjud darsliklarning eskirganligi, yangi avlod darsliklarini yaratish lozimligi borasida ko'rsatma beriladi. Darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etayotganligi, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish fursati kelganligi ham ta'kidlab o'tiladi.

O'qish savodxonligini o'rgatishda kommunikativ

yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchi hisoblanib, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda tamoyillar belgilangan bo'lib, 4-tamoyilda o'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor



- 1 She'rdagi "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zlari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
- 2 Yana qaysi so'zlarning ohangi bir-biriga o'xshab ketadi?
- 3 Nega bu she'rni osongina qo'shiq qilib aytish mumkin?



Rustanning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz tushuntirib berarsiz?



Ko'kda quyosh gulxan yoqadi,
Soylar yana to'lib oqdi.



Chiqib xazon ko'rpasidan
Boychechaklar kulib boqdi.



- ☹️ Quyosh qanday qilib gulxan yoqadi, axir uning qo'li yo'q-ku?
- ☹️ Boychechakning kulishini ko'rma-gan ekanman. Boychechak ham kuladimi?
- ☹️ Bu she'rning nimasi yaxshi?



4. O'z fikringizni yozib bering.

34



kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarakat-rof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnini o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, pedagoglarimiz uchun bugungi kunda juda ko'p vazifalar yuklatilgan shu jumladan pedagogik mahoratga ega bo'lishi,

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va darsning samaradorligini oshirish uchun turli xil metodlardan foydalana olishi kerak. Shulardan xulosa chiqargan holda o'qish savodxonligini oshirish uchun ham dars davomida PIRLS savollariga tayyorlab borishi kerak. O'qish darslarida biror bir hikoya yoki ertakni o'quvchilar o'qigandan so'ng mustaqil fikrlarini doimiy eshitib borish kerak va bu ham o'z navbatida o'quvchi agar noto'g'ri fikrlayotgan bo'lsa sinfdoshlarining to'g'ri fikrlarini eshitib o'zi uchun kerakli xulosalarni chiqaradi. Chunki har bir o'quvchining fikrlash doirasi har xil bo'ladi. Shu jumladan o'quvchilarning fikrlash doiralari rivojlanishi ya'ni o'sishi uchun badiiy kitoblarni o'qish tavsiya qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.12.2022 yildagi 726-son. Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-6330358>.
2. Asqarova M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matn tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan: 2020. 54-b.
3. A.O'.Mirzayev. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress. Volume 2. ISSUE 8 | 2021. – P. 832.
4. Karima Qosimova, Safo Matjonov "Ona tili o'qitish metodikasi". – Toshkent: "NOSIR" nashr, 2009. 128-bet
5. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. 128-b.
6. Nasriddinova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirishda PIRLS xalqaro baholash dasturining ahamiyati. / J. Ta'lim, fan va innovatsiyalar. – Toshkent: 2023. №5. 410-413 betlar.

Yorqin DJO'RAYEV,
Chirchiq pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

BADIY ASARLARNING FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLILI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA O'QUV-BILUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: badiiy asarlarning falsafiy-psixologik tahlili vositasida o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning metodik jihatlari va motivatsiyani qanday rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Adabiyot darslarida o'quv-biluv motivatsiyasining shakllantirish nazariyasi va metodik usullari tavsiyasi berilgan.

Kalit so'zlar: falsafiy-psixologik tahlil, motivatsiya, ehtiyoj, o'quv-biluv, ta'lim olish.

Аннотация: средствами философско-психологического анализа художественных произведений показаны методические аспекты формирования учебно-познавательной мотивации у учащихся и способы развития мотивации. Дана рекомендация по теории и методическим методам формирования учебно-познавательной мотивации на уроках литературы.

Ключевые слова: философско-психологический анализ, мотивация, потребность, обучение-познавание, получение образования.

Annotation: philosophical and psychological analysis is a methodological analysis of a person's motivation, aimed at shaping his thinking and motivation. At the same time, as with other methods, this method uses motivation techniques and motivation theory.

Key words: philosophical and psychological analysis, motivation, need, training, educational work.

Motivatsiya barcha odamlarni harakatga keltiradigan va uyg'otadigan muhim kuchdir. Bu organizmning xatti-harakatlaridan keyin energiya ishlab chiqaradigan va boshqaradigan tushunchadir. Motivatsiya va ishlash, ta'lim olish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mutanosiblik mavjud. Insonning motivatsiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ishlashi va ta'lim olishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Motivatsiya motiv so'zidan kelib chiqadi va biron harakat sababi ma'nosini anglatadi. Faoliyat asosi sifatida avval odamda u yoki bu ehtiyoj paydo bo'ladi, shundan so'ng ehtiyoj qondirilishi uchun harakat amalga oshiriladi. [1]

Motivatsiyani odatda ikki xil ko'rib chiqish mumkin: "ichki motivatsiya" va "tashqi motivatsiya". Ichki motivatsiya. Uning manbasini qiziquvchanlik, qiziqish, o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va shaxsidan kelib chiqadigan rivojlanish hissi deb hisoblash mumkin bo'lsa, tashqi motivatsiya boshqa birov tomonidan taqdim etilgan va

topshiriqni bajarishda mukofotlar bilan yaratilgan motivatsiyadir.

O'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi ularning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Agar motivatsiya bo'lmasa, o'quvchining harakat qilishini kutish mumkin emas. Tabiiyki, bu jarayonda o'quvchilar o'quv faoliyatida katta ishtiyok bilan ishtirok etishlari kerak.

Xo'sh, o'qituvchilar o'z o'quvchilarini rag'batlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshiradilar? U darsdan oldin va dars davomida motivatsion faoliyat sifatida nimani rejalashtiradi?

O'qituvchilar uchun darsdan oldin o'quvchilarni motivatsiya tadbirlari bilan darsga tayyorlash nihoyatda muhimdir. O'qitish jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilarini qiziqitirish orqali ularni ichki rag'batlantirishi mumkin.

O'quv jarayoni davomida har bir o'qituvchi bir xil o'quv materialining intellektual qobiliyatlarini normal rivojlanish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar tomonidan har xil o'zlashtirilishi muammosiga duch keladi. Ushbu muammoning ildizi ta'lim motivatsiyasini shakllantirishning turli darajalarida yotadi. O'qituvchilarning kuzatishlariga ko'ra, o'quv faoliyatida muvaffaqiyat qozongan o'quvchilarda nafaqat kognitiv motivlar, balki ijtimoiy motivlar (o'zini o'zi anglash istagi, kelajakka e'tibor va boshqalar) ham rivojlangan bo'ladi. O'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarda ko'pincha tor shaxsiy motivlar yetakchilik qiladi (yaxshi baho olish, kattalarning maqtovi va boshqalar).

Adabiyot darslarida o'qituvchilar uchun darsdan oldin va dars davomida o'quvchilar motivatsiyasini shakllantirishlari uchun quyidagicha takliflar berish mumkin: o'quvchilarni rag'batlantirish uchun darsni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni darsga moslashtirishi, badiiy maydon muhitini yaratishi lozim. Masalan, ularning kundalik hayoti haqida kichik suhbat o'tkazish, maqol, she'r o'qish orqali diqqatini jamlash, o'quvchining darsdan tashqari mashg'ulotlari haqida gapirish yoki suhbatga dolzarb muammoni qo'shish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini uyg'otish orqali motivatsiyasini oshirish;

– mavzuni o'quvchilarga taqdim etishda kundalik hayotdan misollar keltirish o'rganishni mazmunli qiladi. O'qituvchi yo'naltiradigan savollar o'quvchilarning kundalik hayotdagi ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelishi;

– o'quvchi o'qituvchi tushuntiradigan adabiy asarni o'rganishga arziydi, deb his qilishi kerak. Asardan olgan tajriba kundalik hayotda qayerda ishlatilishini va nima uchun foydali bo'lishini bilgan o'quvchi osonroq

motivatsiyalanadi.

Masalan 5-sinf adabiyot darsligida berilgan Anvar Obidjonning "Odam bo'laman" she'ri tahlili orqali o'quvchilarni kasbga qiziqish motivatsiyasini shakllantirish mumkin.

– Tag'in o'ylab ko'raman,
Hammasi ham yaxshi ish.
Faqat yalqov bo'lmayman,



Hecham tortmang siz tashvish,
Men... odam bo'laman, dada.

– Balli, azamat! [2]

Motivatsiyani shakllantirishda tahlil yetakchi o'rinda bo'lsa, o'quvchi fikrlashi, mohiyatni anglashi oson bo'ladi. Yuqorida berilgan parchada ham bolaning "Odam bo'laman", deya dadasiga va'da berishiga dadasi "Balli azamat", deya motivatsiya bermoqda. Psixologik tahlil asnosida o'quvchi she'rdagi parchada bolaning yalqov bo'lmaslikka, tashvishlantirmaslikka, yutuqqa erishishga bo'lgan intilishini ko'rishi beixtiyor hayotda o'z o'rnini topishga bo'lgan harakatga undaydi.

O'qituvchi tomonidan dars davomida o'quvchi faolligiga, xatti-harakatiga rag'bat ko'rinishida "Ajoyib!", "Ofarin!", "Balli azamat!" kabi so'zlarni aytishi o'quvchida samarali motivatsiyani shakllantiradi. Muayyan xatti-harakatdan keyin berilgan ijtimoiy ma'qullash juda izchil mustahkamlovchi hisoblanadi. O'qituvchining ijobiy xabarlarini o'z ichiga olgan sharhlari o'quvchining keyingi darsdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.


7-sinf adabiyot darsligida berilgan Nabijon Jaloliddinning "Ota" hikoyasida keltirilgan parchadan quyidagilarni o'quvchi motivatsiyasini shakllantirish uchun tahlil qildirish mumkin.

– Bugun men silarga boshman. Ertaga har biriyiz o'z bollariyizga bosh bo'lasizlar va ular o'z niyatlarini sizning niyatlariyizga to'g'rilaydilar. Bolajonlarim, o'zbekning birligi, kuchi oilada. Eng avvalo oilaga suyaning. Bu millatimizni eng katta fazilati. Axir o'zlaring o'ylang, ministr akang katta rahbar, butun yurtni so'rab turibdi. Ammo meni qoshimda bosh egib o'tiradi. Biron gapimni ikki qimaydi, to'g'rimi? Hatto o'ziga ziyon yetsa ham mening aytganimni qilishga

urinadi. Shuni biliyarkni, otasiga itoat etguvchi millatni hech qachon yengib bo'lmaydi! [3]

Ushbu asardan olingan parchaning falsafiy-psixologik tahlilini o'quvchiga uyga vazifa qilib berilsa, o'quvchi oila davrasida kattalar bilan muhokama qilsa, ota qadri, kattalarga hurmat, oila muqaddasligini tushunadi.

Motivatsiyani shakllantirishda sinfdagi sog'lom muhit



asosiy vazifa bajaradi.

Yaxshi sinf muhitida o'qituvchining har bir harakati muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlanadi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi ustunlik qiladi. Biroq, halollik va ixtiyoriylik ustunlik qiladigan muhit o'quvchilar motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Sevgi, tushunish va hamkorlik asosida yaratilgan sinf muhitida o'quvchilarning maktab va o'qishga bo'lgan his-tuyg'ulari ijobiy bo'ladi va ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi avtomatik ravishda ortadi.

O'quv faoliyati uchun motivatsiya, shuningdek, sinfda ma'lum bir atmosferani shakllantirishni talab qiladi, chunki bu yoshdagi bolalar doimo chalg'ishga moyil bo'lib, o'qishdan bosh tortadilar va bu jarayonga har tomonlama aralashadilar. Bunda o'qituvchi o'quvchini nafaqat qiziqtirishi, balki unga ushbu darsda o'rganilayotgan mavzu qanchalik muhimligini tushuntirishi kerak. Bolalarning o'quv faoliyatini, masalan, muammoli vaziyatni qo'yish yoki mustaqil ish uchun topshiriqlarni taqsimlash orqali rag'batlantirish mumkin [3].

O'qituvchi o'qitish tajribasiga qarab turli usullarni tanlashi va audio-vizual vositalar bilan o'qitishni qo'llab-quvvatlashi o'qituvchilarni boyitilgan muhitda

o'qitish motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Misollar keltirishda o'quvchilar ilgari o'rgangan ma'lumotlardan foydalaning:

O'quvchilar ilgari o'rgangan ma'lumotlardan foydalanib, oldingi bilimlarni mustahkamlashingiz mumkin. Ilgari o'rganilgan tushunchalar, nazariyalar va tamoyillar o'quvchilarning hozirgi bilimlarini ijobiy rivojlantiradi.

O'yin barcha yoshdagi o'quvchilar e'tiborini tortadi va o'quvchining darsga e'tibor qaratishini ta'minlaydi.

O'yinlar va tajribalar o'rganishni qiziqarli va doimiy qiladi. Eng yaxshi bilim olishga ko'rinadigan va aniq vositalar orqali erishiladi. O'quvchilarning o'yinlarda faol ishtirokini ta'minlash, tajribalarda ularning fikr va takliflarini inobatga olish, ijodiy fikrlashdan foydalanish zarur. Adabiyot darslarida ijodiy fikrlashga ko'proq e'tibor berish, asarni anglatish, kerak bo'lganida kelajakning yorqin yo'lini ko'rsatgandek ko'rsata olish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'quvchi motivatsiya olishi uchun kelajagini ko'ra olishi kerak bo'ladi. Shunda u intiladi ustoz etagidan mahkam ushlaydi.

O'quvchilaringizga qisqa muddatli maqsadlarni belgilashga yordam bering.

Qisqa muddatli maqsadlarni belgilash o'quvchilarda o'rganish va motivatsiyani yaxshilaydi. O'quvchining qisqa muddatli maqsadlariga erishishi osonroq. O'qituvchilar o'z darslarini o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab individual o'qitish rejalari bilan rejalashtirishlari o'quvchilarni darsga ko'proq rag'batlantiradi.

O'quvchilaringizga quyidagi majburiyatlarni bering.

Siz o'quvchilaringizning motivatsiyasini saqlab qolishingiz va ularga kichik mas'uliyat yuklash orqali muvaffaqiyat hissini qozonishga yordam berishingiz mumkin. O'quvchilar mashg'ulotlarda navbatma-navbat mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlarini ta'minlash orqali siz o'quvchilaringizning har birini o'zlariga qadri his qildirga olasiz.

O'quvchilarning birgalikda ishlashiga yordam beradigan muhit yaratng.

Ko'pgina o'quvchilar tengdoshlari bilan ishlashni yaxshi ko'radilar. Ular muammolarni hal qilishga harakat qilishni va guruhlarda tajriba o'tkazishni afzal ko'radilar. O'quvchilar bir-biri bilan muloqotda bo'lib, birgalikda maqsadga erishish uchun bir-birlarini rag'batlantiradilar.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, yuqori sinf o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda badiiy asar yetakchilik qiladi, o'quvchilar tahlil qilishni bilishi o'quv

faoliyatida o'quv motivlari va shaxsiy motivlar (farovonlik va muvaffaqiyatga intilish) rivojlanadi. O'quv faoliyati uchun motivatsiya muvaffaqiyatning birinchi va asosiy kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: 2005-yil. 170-b.
2. 5-sinf adabiyot darsligi. Axmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. T.: "Sharq", 2020-yil. 243-b.
3. 7-sinf adabiyot darsligi. Mirzayeva Z., Jalilov K. T.: 2022-yil. 224-b.
4. Маркова А. К., Матис Т. А., Орлов А. Б. Формирование мотивации учения: книга для учителя. Москва: Просвещение, 1990 год. 192-с.

Farangiz G'YOSOVA,
BuxDu mustaqil izlanuvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LUG'ATLAR ASOSIDA NUTQ O'STIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda lug'atlar asosida nutq o'stirishning ahamiyati masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: umumiy o'quv, lug'at, ma'lumot, foydalanish ko'nikmasi, uyga vazifa, lug'at so'zning ma'nosi (izohli lug'at), to'g'ri yozilishi (imlo lug'ati), to'g'ri talaffuzi (orfoepik lug'at), har qanday iboraning ma'nosi (frazologik lug'at) va hokazo.

Аннотация: в данной статье научно и теоретически анализируются вопросы значимости развития речи на основе словарей в начальном образовании.

Ключевые слова: общее образование, словарный запас, информация, навыки употребления, домашнее задание, словарное значение слова (толковый словарь), правильное написание (орфографический словарь), правильное произношение (ортопический словарь), значение какой-либо фразы (фразеологический словарь) и др.

Annotation: in this article, the issues of the importance of speech development based on dictionaries in primary education are analyzed scientifically and theoretically.

Key words: general education, vocabulary, information, usage skills, homework, vocabulary word meaning (explanatory dictionary), correct spelling (spelling dictionary), correct pronunciation (orthoepic dictionary), the meaning of any phrase (phraseological dictionary), etc.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda umumiy o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy o'quv ko'nikmalari orasida turli lug'at va ma'lumotnomalardan foydalanish ko'nikmasi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda kishida lingvistik qiyinchiliklarini anglash va ularni lug'at yordamida hal qilishga intilish ehtiyoji, odatining mavjudligi insonning shaxsiy xususiyati, uning madaniyatlik belgilaridan biridir. Shunday qilib, lug'atlarni o'quvchiga ta'lim berishgina emas, balki tarbiya berish vositasi ham deb hisoblash mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan ko'plab lug'atlar nashr qilingan va nashr qilinmoqda. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi nafaqat imlo lug'atidan, balki izohli, so'z yasalishi, o'zlashma so'zlar, eskirgan so'zlar, sinonim, antonim, omonim va hokazo lug'atlardan foydalanishi mumkin.

Biroq o'quvchi o'zidan bilib lug'atga murojaat qiladimi?!

Bizning kuzatishimizga ko'ra, ko'pchilik



o'quvchi hatto unga zarur bo'lgan lug'atlar yonida, kitob javonida turgan bo'lsa ham, qo'lida bo'lgan boylikdan foydalanmaydi. Bunday hodisaning sabablaridan biri quyidagi hammaga ma'lum jumlada mujassamlashgan: hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolada ta'limning dastlabki bosqichlarida lug'atlarga murojaat qilish ehtiyoji uyg'otilmasa, unda yordamchi vositalarda mo'ljal olish va kerakli ma'lumotni tez topib olish ko'nikmasi shakllantirilmasa, uning mavjud lug'atlar boyligidan to'laqonli foydalanuvchi shaxsga aylanishi gumon. Mana shuning uchun lug'atlar bilan ishlashni boshlang'ich sinflardan boshlash lozimligi allaqachon ayon bo'lgan.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchisining qo'lida turli lug'atlar bor (Biroq yurtimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zarur bo'lgan ma'nodosh, zid ma'noli, uyadosh so'zlar, iboralar lug'ati kabilar hali chiqarilmagan). Yaqin kunlarda ona tili darsining lug'at bilan ishlash qismi har bir sinfda doimiy ish bo'lishi, turli xildagi lug'atlar bilan ishlash esa zaruratga aylanishi lozim. Lug'at bilan ishlash har bir darsga kiritilishi lozim: so'z ma'nosini tushuntirish, so'zni to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz qilish, uning tuzilishi (yasalishi)ni izohlash. Barcha so'zlar oldindan doskaga yozib qo'yiladi. Bolalarning fikri lug'atdagi to'g'ri variant bilan qiyoslanadi. Bu o'rinda bolalarga uyga vazifa ham beriladi: lug'atdan so'zning ma'nosi (izohli lug'at), to'g'ri yozilishi (imlo lug'ati), to'g'ri talaffuzi (orfoepik lug'at), har qanday iboraning ma'nosini (frazologik lug'at) va hokazoni aniqlash. Keyingi darsda topshiriq tekshirilib, yangi topshiriq beriladi. Shunday qilib, o'quvchilarda lug'at bilan ishlash ko'nikmasi, so'ng malakasi ham

shakllanadi. Har bir darsda o'quvchilarga lug'at bilan ishlash uchun individual topshiriq bajarish: o'tilgan mavzu bo'yicha lug'at diktanti tuzib kelishni, keyingi darsda esa o'qituvchi rolini bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday ish turi bolalarda, shubhasiz, qiziqish uyg'otadi.

Buning hammasi o'qituvchining kichik yoshli o'quvchilarda lingvistik lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko'rishini taqozo qiladi. Bu tizim uchun, avvalo, lug'atdan foydalanish murakkab ko'nikmasining tarkibiy ishlari (operatsiyalari) bo'lmish ko'nikmalar sirasini belgilab olish lozim.

Lug'atdan foydalanishga doir elementar ko'nikmalar quyidagilar:

1. Darsliklarga yordamchi lug'atlardan foydalanish.
2. Kirish maqolasi matnini diqqat bilan o'qib chiqish.
3. Lug'atning nomlanishiga qarab tavsiflanadigan til birligini aniqlash.
4. Alifboli so'z ko'rsatkichi bilan ishlash.
5. Lug'at tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
6. Lug'at maqolasi tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
7. Shartli belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar bilan ishlash.
8. Lug'atlar bilan ishlashda o'qish-qarab chiqish va o'qish-izlashdan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

1. Lug'atning nomini.
2. Lug'atning muallifi, muharririni.
3. Nashriyoti va nashr qilingan yilini.
4. Lug'atning turini.
5. Lug'atning vazifasini.
6. Lug'atda so'zlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganini.

Ishni yengillashtirish uchun har bir lug'atga unda qabul qilingan shartli belgi, qisqartmalar yozilgan xatcho'pni eslatma qilib qo'yish tavsiya qilinadi.

O'qituvchilar tajribasini o'rganish natijasida ona tili darslarida lug'at ishi yetakchi o'rin egallamog'i lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Yangi texnologiyalardan foydalanish bolaning darsga qiziqishini oshiradi. Lug'at bilan ishlash esa ona tilini o'rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri madaniyatni o'stirish texnologiyasidir. O'quvchilarda lug'atning barcha turidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bu, shubhasiz, ularning



madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida imlo lug'atidan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini imloga o'rgatishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uchun tuzilgan "Imlo va talaffuz lug'ati" [8] hamda Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyevning "Imlo lug'ati"[7]dan foydalanish mumkin.

Imlo lug'ati bilan ishlash natijasida o'quvchilarda mustaqil ravishda lug'atdan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish kerak. Mustaqil ishlashga o'rgatish murakkab, ziddiyatli jarayon. Shunga qaramay, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

O'quvchilar o'qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab ish ko'radi (taqlid qilish bosqichi).

1. O'quvchi ishning bir qismini mustaqil bajaradi (qisman mustaqil ishlash bosqichi).

2. Boshlang'ich sinf o'quvchisi muayyan ishni ish takrorlangan vaziyatlarda mustaqil bajaradi. Birinchi sinfda lug'at bilan ishlashda quyidagi maqsadlar qo'yiladi:

1. o'quv-biluv motivatsiyasi asoslarini yaratish;
2. maxsus kitob – lug'atga qiziqish uyg'otish.

Bu maqsadlardan kelib chiqib quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. o'quvchilar lug'atda so'zlar birinchi harfiga ko'ra alifbo tamoyili asosida joylashishini bilishi kerak.

2. o'quvchilar lug'atdan so'zni birinchi harfiga qarab topa olishi kerak.

Birinchi sinfda lug'at bilan ishlashning taqlid qilish bosqichida o'qituvchi yordamida tayyor namunaga qarab, qisman mustaqil ishlash bosqichida lug'at sahifasini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Birinchi sinfda imlo lug'ati bilan ishlashni qachon boshlash kerak? Rus tili o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis olim L.N. Kalininaning fikricha, lug'at bilan ishlash ko'nikmasini o'quvchining maktabdagi birinchi qadamlaridan, savod o'rgatish darslaridan boshlash lozim.

Kichik yoshli maktab o'quvchilarida biluv faoliyati shakllari, usullariga qiziqish kuchliligini hisobga olib lug'at bilan ishlashda turli qiziqarli usullar, ta'limiy o'yinlar, musobaqa elementlaridan foydalanish lozim.

Lug'atni darsga olib kirish o'zbek tili alifbosini o'zlashtirishga doir katta tayyorgarlik ishi bilan boshlanadi. Bu vazifani bajarishga qaratilgan o'yinlarga misol keltiramiz.

"Nima nimadan keyin?" o'yini.

Bu o'yinda bolalar hayvonlar rasmi tushirilgan kartochkalarni alifbo tartibida joylashtiradi. Masalan, birinchi o'ringa ayiq rasmini (a harfiga), ikkinchi o'ringa bo'ri rasmini (b harfiga), uchinchi o'ringa delfin rasmini (d harfiga) va hokazo tarzda qo'yib chiqishadi.

O'yinning maqsadi: alifboni mustahkamlash, undan amaliy foydalanishni o'rgatish.

"Kutubxonachining yordamchilari" o'yini.

Jihozlar: kitob dastalari, harflar yozilgan kartochkalar.

O'yinning borishi: o'qituvchi shunday deydi: "Bolalar, biz siz bilan yangi kutubxonadamiz. Kutubxonachiga kitoblarni to'g'ri va tez terib chiqishga yordam berishimiz kerak. Birinchi tokchada familiyasi A dan K gacha, ikkinchi tokchada L dan U gacha, uchinchi tokchada X dan Ch gacha bo'lgan harflar bilan boshlanuvchi mualliflarning kitobi turadi. O'quvchilar dastalardan kitoblarni ajratib, tokchalarga qo'yib chiqadi.

Bunday o'yinlarni har bir darsda o'tkazish mumkin. Lug'at bilan tanishtirish uchun esa maxsus dars ajratish kerak.

Imlo lug'atidan lug'at ma'lumotnoma sifatida foydalanishni namoyish qiluvchi topshiriqlarga misol keltiramiz.

1-sinf. 1-topshiriq. Lug'atdagi dastlabki 10 ta so'zni o'qing, ular qaysi harf bilan boshlanadi? Oxirgi 10 ta so'z qaysi harf bilan boshlanadi?

2-topshiriq. Maktab, o'tob, ozod, umid so'zlarining oxirida qaysi harf yozilishini lug'atdan aniqlang.

Imlo lug'atidan lug'at-darslik sifatida foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchisida u yoki bu lug'atga (muammoga bog'liq ravishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o'z oldiga qo'yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo'lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi, deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurkeldiyeva D. Tafakkur nutqdan boshlanadi. Boshlang'ich ta'lim. 1999. №2. 10-11-bet.
2. Roziqov O. Nutqdan tilga. Boshlang'ich ta'lim. 1992. №3-4. 24-25-bet.

Shahnoza QUDRATOVA,
 TAFU "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"
 kafedrasida o'qituvchisi
qudratovashahnoza768@gmail.com
Mohisitora ABDUSALOMOVA,
 TAFU talabasi

STEAM TA'LIMINING UMUMIY TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqola ta'lim tizimini rivojlantirishda, mamlakatimizda olib borilayotgan innovatsion jarayonlar va STEAM ta'limining umumiy rivojlanish imkoniyatlari, ularni amalga oshirishda oliy ta'lim va boshlang'ich ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlar. Mamlakatimiz Prezidentining Farmoniga binoan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM, yondashuv, ijod, texnologiya, kompetensiya, xalqaro tadqiqot, intellektual, boshlang'ich sinf, hamkor, so'rovnomma, axborot resurslari, mustaqil ta'lim, uzluksiz ta'lim, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat

Annotation : this article is about innovative processes in the development of the education system in our country.

Keywords: STEAM, approach, creativity, technology, competence, international research, intellectual, primary class, partner, survey, information resources, independent education, continuous education, pedagogical technology, problem situation

Аннотация: статья об инновационных процессах в развитии системы образования в нашей стране.

Ключевые слова: STEAM, подход, творчество, технология, компетентность, международные исследования, интеллектуальный, начальный класс, партнер, опрос, информационные ресурсы, самостоятельное образование, непрерывное образование, педагогическая технология, проблемная ситуация

Hozirgi vaqtda ta'limning kelajakli texnologiyasi – "STEAM" texnologiyasidir. STEAM ta'limi asosiy global tendensiyalardan biridir. Hozirgi kunda texnik yo'nalishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ko'pgina bolalar muassasalarida: boshlang'ich ta'limda, to'garaklarda, maktablarda IT texnologiyalari bo'yicha sinflar, STEAM laboratoriyalari va LEGO markazlari yaratilmoqda. Bolalar uchun tashkil etilayotgan qo'shimcha ta'lim va tarbiya formati o'zgarimoqda. STEAM ta'lim modelining mazmuni bugungi kunda amalga oshirilayotgan ko'plab loyihalarning muhim tarkibiy qismidir.

STEAM – ta'lim texnologiyasining maqsadi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarni ilmiy va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan intellektual qobiliyatini rivojlantirishdir. STEAM texnologiyasi AQSH singari Rossiya, Germaniya mamlakatlarida ham qo'llaniladi.

3-7 yosh maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishining muhim bosqichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga qiziqish uyg'otish, ularni turli manbalardan idrok etishga va ma'lumotlardan foydalanishga o'rgatish, atrofda voqelikka qiziqqan savollarga mustaqil ravishda javob topish qanchalik muhimligini tushunadilar.

STEAM-ta'lim o'quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o'z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan

robotlarni o'rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladi.

1. Tabiiy fanlar, muhandislik ijodkorligi, matematika, raqamli texnologiyalar va hokazolarning turli sohalarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan zamonaviy muammolarni hal qilishning integratsiyalashgan yondashuvi ushbu integratsiyaning markazida badiiy izlanishlarga va faoliyat natijasi sifatida muayyan haqiqiy mahsulotga ega bo'lgan loyihalar usuliga asoslangan.

2. Bilim-tadqiqot faoliyati jarayonida nafaqat intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bolalarni ilmiy-texnikaviy ijodga jalb qilishga qaratilgan.

STEAM dasturida asosiy g'oya – "hech qanday so'z yoki vizual tasvirlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo'la olmaydi. Bola barchasini laboratoriyada bajarib ko'rishi kerak". STEAM dasturi orqali tashkil etiladigan faoliyatlarda bola faol bo'ladi.

STEAM dasturida bolalar bilan tajribalar tashkil etish elementar faoliyatlar orqali tashkil etilib, oddiydan murakkabga qarab boradi. Shu tamoyilga amal qilinsa, bola qiyin tajribalarni tashkil etishda, laboratoriyada mustaqil ishlay olishga qiynalmaydi.

«STEM – "boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash" dasturining moduli maktabgacha ta'limning namunaviy asosiy ta'lim dasturining tavsiyalari bilan belgilanadi va maktabgacha ta'lim jarayonining umumiy modelini taqdim etish orqali ta'lim muassasalari, yoshni rivojlantirish normativlarini belgilash, ta'lim faoliyatining tarkibi va besh ta'lim sohasidagi bolaning rivojlanish yo'nalishlari bilan

aniqlanadi.

STEAM dasturi ta'lim dasturi, klublar, studiyalar va to'garaklar, intellektual va ijodiy musobaqalar, ilmiy-texnik ijod va loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, turli bo'limlar tizimi orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

“STEM - maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash” dasturining maqsadi bolalarning bilim faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilishdir.


Bola tomosha qilish, tajriba qilish, jonli tabiat, tabiatshunoslik, matematika va boshqa sohalardan boshlang'ich g'oyalarni faol ravishda shakllantirishga moyil.

STEAM dasturida bola turli tadbirlarda o'z bilim va ko'nikmalariga tayanib, o'z qarorlarini qabul qilishga, turli faoliyatda — o'yin, muloqot, bilim va tadqiqot faoliyati, dizayn va hokazolarda mustaqillikni ko'rsatishga qodir.

Frebelning fikricha, avvaldan tayyorlanib, bolaning faoliyat bilan shug'ullanish va boshqa bolalar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun uni tengdoshlari jamoasida tarbiyalash kerak. Ushbu g'oyani u chuqur pedagogik asos bilan mustahkamladi va uni keng ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirdi. Ayni paytda har bir bolaning individualligini yodda tutishga da'vat etgan. Shu sababli bog'da katta gullar to'plami bo'lgan. Bolalar gullarni guruh bo'lib parvarish qilgan. Ayni paytda bitta bolaga birlashtirilgan o'simlik ekilgan tuvak ham bo'lgan. F.Frebel uslubiyatining g'oyasi – barcha narsalar bolalarga. Olim bolalarga hayvonlar haqidagi voqealarni aytib bergan, zero bolalar hayvonlarni yaxshi ko'rishini tushungan. So'ngra bolalarning gullarga mehri balandligini anglagan. Shu sababli uning tarbiyalanuvchilari gullarni mustaqil parvarishlay boshlagan. Asta-sekin musiqaning bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishini sezgan. Shundan kelib chiqib, bolalar ashula ayta boshlagan va “bog'bon qizlar”ning (ya'ni tarbiyachilarning) ashularini tinglagan. F.Frebel jazolarga, bolalarga nisbatan har qanday shafqatsizlik namoyishlariga qarshi bo'lgan. Fridrix Frebel haqida so'z ketganda, uning “tuhfalari”ni alohida eslatish kerak.

F.Frebelning ulkan yutuqlari bilan birga, tarixdan ma'lumki, uning pedagogik yondashuvlari K.D.Ushinskiy, E.A.Flyorina, G.N.Vodovozova kabi olimlar tomonidan tanqid qilingan. Frebel nazariyasida kamchiliklar ham bor va ular avvalo, quyidagilar:

- bolaning bevosita atrofdagi olam bilan tanishuvi «tuhfalar» tizimiga almashtirilgan;
- bolaning hayoti didaktik material bilan



chegaralanadi;

- bolaning hayoti haddan ziyod tartibga solinadi;
- bolaning erkin ijodi cheklanadi va h.z. Shunga qaramay, F. Frebel fanga katta hissa qo'shgan, zero u nazariya va amaliyotni birlashtirdi, uning maqsadi - bola ijodiy salohiyatining namoyon bo'lishiga ko'maklashadigan sharoitni ta'minlovchi muhitni yaratish bo'lgan. Ayni paytda bu bolada noan'anaviy ijodiy fikrlash qobiliyatini, fantaziyani rivojlantiradi, masalalarni hal etishga noan'anaviy yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa

Ayrim fanlar bo'yicha imtihon hech qanday tarzda loyiha faoliyati bilan birlashtirilmaydi, bundan tashqari, o'rta maktab o'quvchilari imtihonda bo'lmagan narsalarni qilishdan bosh tortishadi. Ular to'g'ridan to'g'ri: "ha, qiziq, lekin universitetga kirish uchun bizga yuqori ball kerak", deyishadi. O'qituvchilar bunday yondashuvlarni faqat darsdan tashqari mashg'ulotlar doirasida yoki boshlang'ich maktabda qo'llaydilar, bu yerda bolalar Oge/use yordamida o'lchanadigan aniq natijalarga unchalik e'tibor bermaydilar. Shuning uchun zamonaviy sharoitda muammoli ta'lim boshlang'ich va asosiy maktabda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qudratova, S. (2024). Problematic education, which is one of the foundations of the STEAM approach in education. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-6.
2. “Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim: kecha, bugun va ertaga” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman. 155-162- betlar
3. Konyushenko S. M. STEAM ta'lim: kelajkdagi matematika va informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi / S. M. Konyushenko, S. V. Kuzmin // Baltiya davlat baliq ovlash floti Akademiyasining yangiliklari: psixologik va pedagogik fanlar. – 2019. – № 4(50). 185-189-betlar
4. Рождественская Л. STEM - STEAM - STREAM на смену предметам и предметникам.../ Л. Рождествен-

ская. – Новатор. – URL: <https://novator.team/post/142> (дата обращения: 12.08.2022)

5.Semenova R. I. STEAM-axborot texnologiyalarida ta'lim va bandlik, Rossiya mintaqalarida iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga moslashish omillari sifatida / R. I. Semenova, S. P. Zemtsov, P. N. Polyakova // innovatsiya. – 2019. – №10. 58-bet.

6.Qudratova S., To'rabekova D. (2023). THE ROLE OF STEAM EDUCATION IN THE FORMATION OF THE FUTURE TEACHER'S PERSONALITY. Modern Science and Research, 2(9) 40-44.

Begoyim YULDOSHEVA,
NavDPI mustaqil izlanuvchisi

MAKTABDA OMONIM SO'ZLAR MAVZUSINI O'QITISH USULLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada omonim va omomorfemalar yoritib berilgan. Omonimlarning faqat leksemalar bilan emas, balki affiks(qo'shimcha)larda ham yuzaga kelishi keltirilgan. Maktab darsliklari asosida omonimlar mavzusiga berilgan mashqlar tahlil qilinib, mashqlar asosida nazariy fikrlar asosanib berilgan.

Kalit so'zlar: omonim, omorfomalar, nutq, omoleksemalar, leksema, affiks.

Annotation: this article explains homonyms and homomorphemes. Homonyms occur not only with lexemes, but also with affixes. On the basis of school textbooks, exercises given on the subject of homonyms were analyzed and opinions were given based on them.

Key words: homonym, omorphemes, speech, omolexemes, lexeme, affix.

Аннотация: в этой статье объясняются омонимы и гомоморфемы. Омонимы встречаются не только с лексемами, но и с аффиксами. На основе школьных учебников были проанализированы упражнения на тему омонимов и на их основе даны мнения.

Ключевые слова: омоним, омorfомы, речь, омoleксемы, лексемы, аффиксы.

Omonimlar mavzusi maktab darsliklarida 5-sinfдан boshlab o'qitilib kelinadi. Ushbu darsliklarda omonimlar mavzusi qisqa va misollar orqali lo'nda qilib yoritib berilgan. Omonimlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan olimlarimizning izlanishlari, fikrlari, sinflar misolida ma'lumotlar berib borilgan. To'g'ri, mazkur ma'lumotlar batafsil emas, o'quvchining yoshiga mos holda, ixcham shaklda aks ettirilgan. Xususan, darsliklarda leksik omonimiya, grammatik omonimiya haqida qisqa ma'lumotlar mavjud.

Leksik omonimiya – leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, o't ("olov") - o't("maysa").[1] Bunda ko'rib turganimizdek leksema dagi harflar soni o'zaro teng va bu leksik omonimiya hisoblanishi ta'kidlanadi. O'quvchilarga mazkur mavzu haqida ma'lumot berilganda ikki jihatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. 1. O'quvchilarning yoshiga mos holda ma'lumotlarni qisqa va sodd shaklda berish ma'qul, ya'ni o'ta ilmiy va murakkab qoidalar mavzu haqida keng ma'lumot berishga xizmat qilmasligi mumkin. Masalan, leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) so'zlardir, ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. [2] Qiyoslang: ot ("ism") – otim, oting, oti; otni, otning, otga kabi, ot ("hayvon") – otim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi. Bu tipdagi omonimlar (omonim omoleksemalar)

turli so'z turkumlariga mansub bo'lishi ham mumkin.

2. Ma'lumotlar berilayotganda yosh xususiyatlarini hisobga olib, matn yordamida qiyosiy o'rgatish mavzuni o'zlashtirishda tez samara beradi. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan so'zlar shakllanish tizimiga ega bo'lsa-da, nutqiy jarayon bilan bog'liq holda yoritilmagan bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy (sifat) va tabiiy (modal so'z): 1. u tabiiy fanlarga ko'proq qiziqadi (Bu gapda tabiiy – sifat, aniqllovchi).

2. so'zamol, badavlat qori tog'aning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababi, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi (Bu gapda tabiiy – modal so'z, kirish so'z) ekanligini tushuntirib o'tish muhim.

Mazvu haqida fikr borar ekan, u bilan bog'liq terminlar haqida ham qisqa ma'lumot berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, omoformalar ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular omoforma omoleksemalar deb ham nomlanadi.[3] Masalan, sur (ot: "qorako'l teri navi") va sur (sifat: "och kulrang") leksemalari ayni shu shaklda lug'atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi sur leksemasi turlanganda (surni, surning, surga... kabi) sur (ot) va sur (sifat) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qoladi. Demak, bu ikki leksema o'rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi sur so'zi bosh kelishik shaklida bo'lgandagina saqlanib, boshqa shakllarida yo'qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemadan farq qiladi. Omoformalarda negizga qo'shilayotgan affikslar ham shakllan teng bo'ladi, shunga ko'ra, bunday qo'shimchalar omoaffikslar

sanaladi. Qiyos qiling: o'ting ("ing" - otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) – o'ting ("ing" — fe'lning buyruq mayliga mansub affiks) kabi.[4]

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlardan shuni bilib olishimiz mumkinki, omonimlik hodisasi faqatgina leksemalarda emas balki affiks(qo'shimcha)larda ham o'zaro omonimlikni hosil qilar ekan. Nazariy bilimlarga tayangan holda, maktab darsliklarida omonimlarga oid mashqlarni quyidagi usulda bajarib o'tish mavzu haqida keng ma'lumot berishga asos bo'la oladi.

5-sinf darsligidagi mashqlar asosida.

267-mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. So'zlar bildirayotgan ma'nolarga e'tibor bering. Masalan: 1. Karam – saxovat. 2. Karam – poliz ekini.

Karam, adash, bo'y, yeng, yot, och, mushak, palla, soz, son, taxt, ter, un, chakka, qil, qovoq, tuz, shim. [3]. Mavzu haqida nazariy bilib olgan o'quvchilar mazkur topshiriqlarni bajarishga kirishib ketadilar. Agar nazariy ma'lumot puxta o'rgatilmasa, mashq natija bermaydi. Shu boisdan maktab darsligidagi qoidalardan tashqari qisqa va lo'nda qilib ma'lumotlar berib borish o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi.

O'quvchilar yuqori sinfga o'ta boshlaganlaridan keyin yangi bilimlar, yangi yo'nalishlar ustida ishlay boshlashadi. Bu ularga nutqlarining o'sib borishida yordam beradi. Yuqorida berilgan mashqni bajarishda o'quvchilarga ular uchun yangilik bo'ladigan bilimlar yordam beradi. Shu bilan birga, ilk marta lug'atlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Aynan omonim leksemalarning lug'ati mavjud bo'lib, bu mashqni bajarishda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda lug'at asosida darsni olib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarga lug'at bilan tanishishga, nutqlarining boyishiga, so'zlarning turli ma'nolari haqidagi bilimlarga ega bo'lib olishadi. Mashqda berilgan so'zlarni omonimlar lug'ati asosida tahlil qilib chiqishadi.

Adash so'zining birinchi ma'nosi – [ot+dosh] ot. Ismi boshqa bir kishining ismi bilan bir xil kishi. Biz ikkimiz adashmiz.

Adash so'zining ikkinchi ma'nosi – fe'l. To'g'ri yo'ldan chiqib boshqa yo'lga yurmoq. O'rmonda adashib qolish hech gap emas.[4]

O'quvchilar berilgan mashqlarni mana shu usulda bajarsalar, yangi bilimlarga ega bo'lib, lug'atlar bilan ham ishlashni o'rganib borishadi. Bir so'zning turli ma'nolari haqida ham bilib, o'z dunyoqarashlari, fikr-mulohazalarni kengaytirib, boyitib borishadi.

268-mashq. She'rni o'qing, undagi g'oya to'g'risida suhbatlashing. Shakldosh (omonim) so'zlar bildirgan ma'nolarni izohlang.

Toshni kesa olmas pichoqning dami, Pok tanga o'tmaydi saraton dami.

Shakldosh – omonim so'zlar

Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi.

I. chang - ...	I. rasm - ...
II. chang - ...	II. rasm - ...
I. suzmoq – fe'l	I. tik – ot
II. suzmoq – fe'l	II. tik – sifat
III. suzmoq – fe'l	III. tik(moq) – fe'l
bir turkum	turli turkum
I. yut(moq) – fe'l	
II. yut(moq) – fe'l	
III. yut - ot	

Ilm va hunarga bag'ishla o'zni, G'animat yoshlikning har o'tgan dami. (A. Shukurov) [5]

Berilgan mashqni bajarishda avvalo, omonim leksemalarning lug'atdagi ma'nolari bilan tanishib olamiz. Dam so'zining lug'atda 4 ma'nosi mavjud:

I. Dam [tojikcha] ot. 1. Havo. To'pning dami chiqib ketibdi. 2. Ichga tortiladigan va chiqariladigan havo, nafas. Damingizni rostlang, keyin gapirib berasiz.

3. Tovush, nutq. Damingni chiqarma. 4. Eskirgan, kasalni o'qiganda aytiladigan "kuf-suf", kasallikni haydovchi nafas. 5. Tinim, istirohat. Xo'kiz ham charchadi, picha dam berish kerak.

II. **Dam** temirchilik termini. O'choqdagi olovga havo puflab beruvchi asbob.

III. **Dam** lahza, nafas; bir marta nafas olish va chiqarishga ketadigan vaqt.

IV. **Dam** (dam ... dam) bog'lovchi. Dam qor yog'adi, dam yomg'ir.[6]

Berilgan omonim leksemalarning ma'nolarini lug'at yordamida o'rganib chiqdik. Shundan foydalanib, mashqni tahlil qilamiz. Birinchi misradagi dami so'zi – pichoqning nafasi, o'tkirligi; ikkinchi misradagi dami – saraton havosi ma'nosida; keyingi misradagi dami so'zi esa yoshlikning har bir dami, lahzasi g'animat ekanligi aytilgan.

Maktab darsligida berilgan mavzularni, mashqlarni bajarishda, asosan, mavzuga tegishli bo'lgan lug'atlar,

yangi bilimlar, mavzu haqidagi olimlarimizning qarashlari, fikr-mulohazalari bilan o'quvchilarni tanishtirib borilsa, bu o'quvchining darsga qiziqishiga, mavzuni faqat darslikdagi bilimlar bilan chegaralangan holda emas, balki kengroq o'rganib olishlariga yordam beradi. Aynan lug'atlar bilan tanishtirib, ular bilan ishlash jarayoni ham o'quvchilarga juda ko'p foydali ma'lumotlarni egallashlarida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Javlon Yaxshiboyev. –Toshkent: 2020. 114-115-bet.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. H. Jamolxonov. –Toshkent: 2005.
3. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarning izohli lug'ati. –Toshkent: 1984.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili. H. Jamolxonov. –Toshkent: 2005.
5. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Javlon Yaxshiboyev. –Toshkent: 2020. 114-115 bet.
6. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarning izohli lug'ati. –Toshkent: 1984.

Feruza XUSANOVA,

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

TALABALARNING TO'GARAKLAR ORQALI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK NAMOYANDALARI, XALQ QAHRAMONLARI VA MADANIY MEROSNI O'RGANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarning to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda o'zbek namoyandalari, xalq qahramonlari va madaniy merosini o'rganish tushunchalari, to'garaklarning asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *to'garak, ijodiy faoliyat, ilmiy, ijodiy, badiiy, ijtimoiy, gumanitar.*

Аннотация : в данной статье показаны концепции изучения представителей Узбекистана, национальных героев и культурного наследия в развитии творческой активности студентов через клубы, основные задачи клубов.

Ключевые слова: *круг, творчество, наука, искусство, общество, гуманитарное.*

Annotation: in this article, the concepts of studying Uzbek representatives, national heroes and cultural heritage in the development of students' creative activity through clubs, the main tasks of clubs are shown.

Key words: *circle, creativity, science, art, society, humanitarian.*



Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda xalqimizning milliy hamda madaniy an'analari, qadriyatlariga daxldor tushunchalarni kelajak avlodga yetkazish, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish" ustuvor vazifalar etib belgilandi[2].

To'garaklar uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning rivojlantiruvchi vazifasini amalga oshirish bo'yicha davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va rejalar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy va ma'naviy jihatdan mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda munosib o'rin egallashini kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat yurituvchi hamda ilmiy-ijodiy ishlarni maqsadli hamda tizimli asosda amalga oshiruvchi amaliy va ilmiy-uslubiy ijodiy uyushmasi hisoblanadi. Yuqoridagi

ko'rsatmalarga asosan, quyidagi tavsiyalarni berish orqali badiiy to'garak ishlarini rivojlantirishga harakat qildik.

Adabiyotlar tahlili. Klassik o'zbek adabiyoti namoyandalari – Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Bedil, Turdi Farog'iy, Maxmur, Munis Xorazmiy, Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Muhammad Sharif Gulxaniy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lishiga munosib hissa qo'shgan adiblar G'afur G'ulom, Mirtemir, Shuhrat, Hamid Olimjon, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf va boshqalarning ijodi O'zbekiston nomini olamga yo'yishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini oshirish tizimi muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Oliy ta'limda talabalarning to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda o'zbek namoyandalari, xalq qahramonlari va madaniy merosni o'rganish tartibi tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Xalq qahramonlarining jasorati to'g'risida Shiroq, To'maris kabi afsonaviy qahramonlar bilan birga Spitamen, Abu Muslim, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, sarbadorlar Najmiddin Kubro, Po'latxon, Qurbonjon Dodho, Dukchi Eshon, Madaminbek qo'rboshi, Shermuhammad qo'rboshi, Sobir Rahimov, Botir Boboyev, Mamadali Topiboldiyev, Ahmadjon Shukurov va boshqalarning jasoratlari bugungi kun yoshlari uchun ibratdir. Ularning faoliyatlarini o'rganish yoshlarni Vatanni sevishga, uning manfaatlarini yo'lida kurashish va jon fido etishga undaydi.

Binobarin, o'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan, o'zida milliy g'urur tuyg'usini namoyon qila olgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo'jayev, Obidjon Mahmudov, Isxoqxon Ibrat, Bobo'xun Salimov, Boboniyoz Xoji Yusupov, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abduqodir Shafuri, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev va Usmon Nosir kabi bir qator buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodini chuqur o'rganish insonda vatanparvarlik tuyg'usini oshiradi.[4]

Milliy qadriyatlarimizda bilim, ayniqsa, bilimdonlik ulug'lanadi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida qadimgi hind xalqining "Kalila va Dimna", Nizomulmulkn

"Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" kabi mashhur asarlarida muhim fikrlar aytilgan. Bu asarlarni o'qib, kerakli va yorqin bilim, tafsiyalar olish zarur.

To'garaklar talaba-yoshlarning optimal yechimlarni izlab topishga oid egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga tadbiiq eta olish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ijodiy uyushma sifatida qiziqishlari o'zaro yaqin bo'lgan bir guruh talabalarning ma'lum fan va yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladi va unga kafedra va bo'linmalarning tajribali professor-o'qituvchilari rahbarlik qilishadi. Zarur hollarda bu ishga tashqaridan sohaning taniqli vakillari taklif etilishi mumkin.

O'zbek millati madaniyati va tarixida juda yuksak ilm sohiblari, shoirlar va yozuvchilar, olimlar, buyuk bobokalonlarimizning ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy, tibbiy, axloqiy, huquqshunoslikka oid va boshqa bir qator asarlari jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ijtimoiy - gumanitar fanlar yoki ta'lim muassasasidan tashqari sharoitda o'quvchilarni milliy hayot tarzi, milliy qadriyatlar mazmunini yorituvchi badiiy asarlar



bilan tanishtirishda qahramonlar timsolida ijobiy xususiyat va salbiy xususiyatlarning qay darajada aks ettirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, shaxs hayoti va faoliyati jarayonida uning qiyofasida aks etadigan barcha ijobiy xususiyat hamda salbiy illatlar har doim ham xarakter xususiyatlari sifatida namoyon bo'lavermaydi. Jumladan, agarda asar qahramonining ma'lum vaziyatdagi xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, atrofdagilar bilan munosabati, o'zini tuta olishi yuzasidan so'z

yuritilganda “U mardlik qildi”, “Beqiyos saxovat, mehr-muruvvat ko’rsatdi”, “Uning bu ishi nomardlikdan o’zga narsa emas edi”, “U atrofdagilarga nisbatan adolatsizlik qildi”, degan iboralar ishlatiladi. Biroq



mazkur iboralar shaxsning mard, saxovatli, nomard yoki adolatsiz ekanligini anglatmaydi, balki uning shaxsi muayyan vaziyat nuqtai nazaridan baholanadi. Mardlik, saxovatlilik, nomardlik yoki adolatsizlik kabilarning aynan badiiy asar qahramoniga xos xarakter xususiyati sifatida ta’riflanishi uchun u talqin etilayotgan voqelikning umumiy jarayonida, turli vaziyatlarda ham ana shu sifat yoki illat sohibi ekanligi ko’rsatib berilishi zarur. Asar muallifi tomonidan qahramon shaxsining xususiyatlarini yaqqol ko’z oldiga keltirilganligi, uning muayyan sharoitlardagi xatti-harakatlari mohiyatini oldindan to’g’ri taxmin qilinganligi talabalarda xarakter xususiyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ayrim asarlarda badiiy qahramonlar fe’l-atvori, xulqining tez-tez o’zgarib turishi xarakter xususiyatlarining betayinligi, mujmalligini bildiradi. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlariga ega qahramonlarning hayoti va faoliyati hech qanday tarbiyaviy ta’sirga ega bo’lmaydi.

Binobarin, bu kabi xususiyatlarga ega shaxslargina o’z xatti-harakatlari, faoliyati natijalarini oldindan ko’ra oladilar, shu bois ularni avvaldan rejalashtirish, bashoratlashning uddasidan chiqadilar. Bunday qahramonlar asrlar davomida xalq tomonidan qo’llab kelinayotgan “yetti o’lchab bir kes”, “sanamay sakkiz dema” tarzida ish ko’radilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. (23.09.2020) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020, 03/20/637/1313-son.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni. // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.
3. Abduquddusov O.A. Kasbiy ta’limda asosiy o’quv materialini o’rganish texnologiyasi // “O’rta maxsus

O’zbek adabiyotida ana shunday sifatlarga ega qahramonlar sirasida Shiroq (“Shiroq” afsonasi), To’maris (“To’maris” afsonasi), Alpomish (“Alpomish” dostoni), Zardusht (“Avesto”), Farhod (Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni), Yusufbek Hoji (Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romani 7-sinf adabiyot darsligi), Otabek (Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romani 7-sinf adabiyot darsligi), Maxamat Chatoq (Odil Yoqubovning “Girdob” romani), Shorahmat (Hamid G’ulomning “Toshkent – non shahri” asari) kabi obrazlarni misol sifatida keltirib o’tish mumkin[4]. Nomlari keltirilgan qahramonlarning har birlari o’z xatti-harakatlarining yo’nalishi, ular negizida kechishi mumkin bo’lgan jarayonlar mohiyati, oqibatlarini to’g’ri baholay olganlar.

Misol uchun, “Shiroq” afsonasining bosh qahramoni – cho’pon yigit Shiroq o’zi tutayotgan yo’lning naqadar qaltis, fojiali ekanligini (eroniyalar qo’shini va uning hukmdori – shoh Doro I ning qahr-u g’azabiga uchrashi muqarrar ekanligi, hatyotining xavf ostida qolishini) yaqqol tasavvur eta olgan. Biroq shunga qaramay, o’z qabilasi saklarning ozodligi, o’zga qabilalar tomonidan qullikka olinishini istamaganligi tufayli juda qaltis qarorga keladi (quloq va burnini kesgan holda Doro I huzuriga borib, o’z qabiladoshlari tomonidan shunday jabr ko’rganligini, shu sababli ulardan o’ch olish uchun eroniylarning ulkan qo’shinini saklar ustiga eng qisqa yo’ldan boshlab borishini bildiradi. Bir hafta qo’shinni sahro o’rtasida sarson qilib olib yurgandan so’ng shu ishni o’z qabilasi ozodligi, hurligi uchun qilganligini ma’lum qiladi). Shiroqqa xos bo’lgan irodaviy xususiyatlar qat’iyatlilik, mardlik, qo’rqmaslik, tahlikaga tushmaslik, hatto o’limni mardona qarshi olishi o’quvchilarda dushmanga nafrat hissini uyg’otibgina qolmay, shu bilan birga ularni afsonaviy qahramondan ibrat olishga undaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, badiiy asarlar va ularda surilgan g’oyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda qahramonlarning o’z faoliyatlarida, shuningdek, atrofdagilarga bo’lgan munosabatlarida aniq maqsadni ko’zlay olishlari, maqsadga erishishning samarali va ta’sirchan yo’l, vositalarini muvaffaqiyatli tanlay olishlari ular xarakterida irodaviy xususiyatlar namoyon bo’lishidan dalolat beradi.

kasb-hunar ta'limi tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari" Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari. - T., 2006. - B. 78

4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2003. -175 b.

Muborak SATTOROVA,
NavDPI O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida katta o'qituvchisi

NOMILLIY GURUHLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nomilliy guruh talabalariga til o'qitishga qo'yilgan talablar, metodlar, tavsiyalar hamda o'qishni, yozishni, og'zaki nutqni shakllantirishni qulay egallash ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr-mulohazalar berilgan. Til o'qitishning samarali va tizimli usullaridan biri bo'lgan "hamkorlikda o'qitish" hamda "O'yin texnologiyasi" usuli to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, integratsiya, hamkorlikda o'qitish, neologizmlar, vulgar so'zlar, til o'rganish, me'yor, o'quv dasturi

Аннотация: в данной статье приводятся отзывы о требованиях, методах, рекомендациях по обучению языку студентов-иностранцев, а также о формировании простых в освоении навыков чтения, письма и формировании устной речи. Обсуждались одни из эффективных и системных методов обучения языку – «обучение в сотрудничестве» и метод «Игровые технологии».

Ключевые слова: сравнительный анализ, интеграция, совместное обучение, неологизмы, вульгарные слова, изучение языка

Annotation: this article provides feedback on the requirements, methods, recommendations for language teaching to non-national students, as well as on the formation of the skills of easy acquisition of reading, writing, and oral speech formation. One of the effective and systematic methods of language teaching, "collaborative teaching" and "Game technology" method were discussed

Key words: comparative analysis, integration, cooperative learning, neologisms, vulgar words, language learning, standard, curriculum

Hozirgi jadal rivojlanish davrida tillar o'rtasidagi aloqa, ularning ijtimoiy ahamiyati, qolaversa, qiyosiy tadqiqi, integratsiyasi soha vakillari o'rtasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiyki, turli sohalar uchun yetuk va sog'lom raqobatga kirisha oladigan kadrlarini tayyorlash davr talabi. Xususan, pedagogika sohasida bu o'zining amaliy ahamiyatini ko'rsatmoqda. Bugun shiddat bilan kechayotgan axborot asrida yashar ekanimiz bularning barchasiga sifatli ta'lim orqali yechim topishimiz mumkinligiga guvoh bo'lib turibmiz.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarining nomilliy guruhlarida tillarni o'qitish bilan bog'liq bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, nizom va dasturlarga o'zgartirishlar kiritilib, tillarni o'qitish jarayonida maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi va oliy ta'lim hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish orqali olingan bilim, ko'nikma va malakalar yanada takomillashtirilmoqda.

Xususan, olib borilayotgan tadqiqotlarda o'rgatilayotgan tilning murakkab deb hisoblangan va umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning dasturiga kiritilmagan yoki ularda to'la yoritilmagan xususiyatlarini takomillashtirish, o'qitish usullarini takomillashtirish, til o'rganishga

bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish borasida amaliy loyihalar ham yo'lga qo'yilmoqdaki, bu bugungi kun yoshlarining hayotida yangi qirralarni ochishga xizmat qilmoqda.

Har bir tilning o'ziga xos leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini bilish muhim jarayon. Ammo davlat tilini amaliy bilish ijtimoiy zarurat ekanini esdan chiqarmagan holda, tillarini taqqoslay olish, ularga qo'yilgan til bilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. O'zbek tilida so'zlash jarayonida o'zga tillarga ko'r-ko'rona taqlid qilmaslikni anglash, tillarning shakl va qoliplarini e'tiborsizlik bilan tarjima qilishga urinmasdan, balki milliy tilimizga xos tarzda fikrlashni yo'qotmaslik davr talabidir.

Nomilliy guruhlarda til o'rgatish tez va oson kechadigan jarayon emas, shu boisdan til o'qitishga o'ziga xos tarzda yondashmoq lozim. Masalan, til o'qitishga asoslangan yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Jumladan, mazkur guruhda turli qobiliyatli, biri ikkinchisiga qaraganda o'zlashtirishi turlicha bo'lgan, bilim hamda ko'nikmalari farqlanadigan, eng asosiysi, o'rgatiladigan tilning grammatik xususiyatlarini chuqur o'zlashtirmagan talabalar bo'lishi mumkin.

Shu boisdan barcha o'rganuvchilarga samarali bo'lgan bir necha yondashuv va usullardan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Quyida mazkur jarayonda qo'llanadigan o'qitish usullari haqida ba'zi mulohazalarimizni keltirib o'tamiz.

Tillarni o'qitishda "Hamkorlikda o'qitish" usuli tizimli kechadigan jarayon hisoblanadi. Bu usul haqida darslik va qo'llanmalarda turlicha qarashlar va tavsiyalar beriladi, ma'lum o'yinlar asosida o'qitish, guruhlariga ajratish kabi jarayonlardan foydalaniladi. Aslida "Hamkorlikda o'qitish usuli"ning imkoniyatlari katta, mohiyati keng. Hamkorlikda o'qitish faqat dars jarayoni emas, uzoq davom etadigan keng va sistemali jarayondir. Xususan, oila, maktabgacha ta'lim muassasasi(MTM), maktab ta'limi va oliy ta'lim hamkorligi "Hamkorlikda o'qitish"ning oliy bosqichi hisoblanadi. Bunda quyidagi jarayonlar uzviyligi muhim hisoblanadi:

- o'quv dasturining hamkorlikda va uyg'unlikda tuzilishi;
- fan dasturining hamkorlikda va uyg'unlikda tuzilishi;
- ishchi rejalarning hamkorlikda va uyg'unlikda tuzilishi;
- davlat ta'lim standarti asosida o'qitishni yo'lga qo'yish.

Bu tizim o'rganilayotgan tilni real muloqot sharoitida hamda amaliy qo'llashga qaratilgan o'qitishni maqsad qilib olishga qaratilgan. Bunda og'zaki va yozma til ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallashga, rivojlantirishga, shuningdek, tilning ichki imkoniyatlarini, ma'no nozikliklarini anglashga e'tibor qaratiladi.

Ushbu tizim nomilliy guruhlarda o'zbek tilini o'qitishga qaratilgan mashg'ulotlarda talabalarning o'zbekcha og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish, ularni til sathlari bo'yicha zaruriy bilimlar bilan qurollantirish hamda shu bilim va ko'nikmalardan o'rinli foydalanish malakasini shakllantirish, mutaxassislik va ish yuritishga oid nutqni boyitish,

davr yangiliklarini aks ettiruvchi matnlarni tanlash, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish kabi vazifalar bajarilishi lozim.

Bugungi kunda ta'limning barcha turlari o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida, shuningdek, oliy o'quv yurti talabasining tilni bilish va erkin muloqot qilishga qo'yilgan talablari asosida o'ziga xos malaka va talablari mavjud. Masalan, so'z qo'llash, so'z yasash, so'zdan turli grammatik shakl yasash, gap tuzish qoliplarini turli xil vaziyatlarda qo'llay olish malakalarini shakllantiradigan kompleks yondashuvni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Shu bois, mazkur dastur, asosan, kommunikativ, qisman an'anaviy tizimli metodlarni uyg'unlashtirgan holda tuzildi. Demak, hamkorlikda o'qitish usulini umumiy va xususiy turlarga ajratsak, mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Nomilliy guruhlarda o'zbek tilini o'qitishda yana bir samarali usul "O'yin texnologiyasi". Bu usul o'quvchilarning so'z boyligini ta'minlashda va lug'at boyligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'rgatilayotgan tilning xususiyatlaridagi o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar va qisqa metrajli filmlardan foydalanib o'tkaziladi. Bu talabalar uchun o'rganayotgan tilning xususiyatlarini qiziqarli va tez o'zlashtirishga hissa qo'shadi. Mazkur texnologiyada o'quvchilar til o'rganishdagi duch kelayotgan muammolarni hal qilishga erishadilar. Bu ularga amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga va o'zlashtirayotgan til xususiyatlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Masalan, foydalanayotgan filmlar, musiqa, kitoblar o'quvchilarga tilni chuqur o'rganishdan tashqari o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati va hayoti haqida ko'proq ma'lumot olishga ham yordam beradi. Tabiiyki, o'quvchi va talabalar o'rganayotgan mamlakat madaniyatini bilishga qiziqadilar hamda taqqoslab o'rganish yordamida so'z boyligini oshirishga muvaffaq bo'ladilar. Bu o'quvchini qiziqtirish bilan birga til o'rganishga bo'lgan xohishini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari". – T., 2004.
2. R. Rasulov, A. Mirazizov. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: "Turon Iqbol", 2013. 240-b.
3. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. Prospects of Development of Science and Education, 1(2), 247- 249.
4. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). – Toshkent: Vneshinvestprom, 2021
5. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Ўзбек тили (таълим бошка тилларда олиб бориладиган мактаблар учун) // Таълим тараққиёти. УзР Халқ таълими вазирлигининг ахборот-номаси, I-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. 262-302.

Muxtasar RADJABOVA,
 O'zDJTU 2- bosqich
 tayanch doktranti

ARAB TILIDA YOZMA NUTQ JANRLARINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqolada arab tilida yozuv malakasi hamda yozma nutq janrlarining o'ziga xosligi yoritilgan. Shuningdek, integrativ yondashuv tushunchasi va uning yozma janrlarni o'rgatishdagi ahamiyatli jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlari: yozuv, yozma nutq, yondashuv, integratsiya, ko'nikma.

Annotation: this article describes the writing skills in Arabic and the uniqueness of the genres of written speech. Also, the concept of an integrative approach and its important aspects in covering written genres are described

Key words: writing, written speech, approach, integration, skill.

Аннотация: в данной статье описываются навыки письма на арабском языке и уникальность жанров письменной речи. Также описывается понятие интегративного подхода и его важные аспекты при объединении письменных жанров.

Ключевые слова: письмо, письменная речь, подход, интеграция, умение.

Bugungi kunda chet tillarini o'rgatishda nafaqat lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirish, balki tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va muloqot kabi ko'nikmalarni ham integratsiya qilish zarurati tug'ilmoqda. Chet tilida samarali yozish qobiliyati akademik va professional sharoitlarda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim malaka sanaladi. Hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi xorijiy tillarda yozuv ko'nikmasini o'rgatishda an'anaviy yondashuvlar samarasiz bo'lib, qolgan nutq faoliyati turlarini o'zida mujassam etgan integrativ yondashuv yozuv malakasini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Garchi xorijiy tillarda yozuv malakasini shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati tobora ortib borayotgani e'tirof etilishiga qaramay, ushbu yondashuvni darsda samarali tadbqiq etish uchun aniq strategiya va usullar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Ushbu tadqiqotning maqsadi arab tilida yozuv malakasini o'rgatishda integrativ yondashuvning samaradorligini o'rganishdan iborat.

Nutq faoliyati turlarining integratsiyalashuvi har bir nutq faoliyatining shakllanish darajasini, shuningdek, chet tilini o'qitishdagi asosiy maqsad bo'lgan kommunikativ kompetensiyani egallash darajasini nazorat qiladi. Sababi u muloqot jarayonida aniq vazifalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. [3:28] Har qanday yozma matnni

gapirish va o'qish, yoki aksincha, og'zaki matnni texnik vositalar yordamida yozma bayon qilish mumkin. Shu sababdan barcha nutq faoliyati turlari haqiqiy muloqot jarayonida bevosita bog'liq holda bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazadi.

Albatta arab tilini o'qitishda til malakalarini teng rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuvning bir qancha afzalliklari mavjud. Bu yondashuv borasida olimlar turli xil fikr yuritadilar. Jumladan, S.A. Larionova o'qitishga integrativ yondashuv – bu yangi umumlashtirilgan, yetarlicha samarali harakatni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim faoliyatida qo'llaniladigan usullarning muvozanatli qo'llanilishi ekanligini, [2:15] A.A. Xarunjev esa bu ta'lim jarayoni fanning turli sohalaridan olingan bilimlarni ajratib olish, keyinchalik yagona falsafiy asosga ega bo'lgan sifat jihatidan yangi tizimga



10

birlashtirish asosida quriladigan yondashuv ekanligini ta'kidlaydilar. [6:62]

Farid Xalfavi arab tilida integrativ yondashuv (تقوي مکتب الکتب) – bu o'qitishda kompleks yondashuv ekanligini va bu yondashuv ta'lim oluvchilarga ko'nikma va malakalarni muvozanatli va samarali egallash imkonini beradi, degan xulosaga keladi. Olim bu maqsadga faqatgina mustahkam asosni ta'minlovchi o'quv rejalar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. [2:109]

Integrativ yondashuv bu til o'rgatishda turli nutq faoliyati turlarini birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda talabalar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida rivojlantiradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u talabalarning o'quv jarayoniga chuqurroq kirishishini va tilni haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda qo'llashini ta'minlaydi.

Albatta, arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish, talabalarga tinglab tushunish, gapirish va o'qish ko'nikmalariga asoslanib, fikrlarni imlo xatolarsiz va nutqiy vaziyatga mos ravishda erkin bayon qilish imkoniyatini beradi. Xususan, arabshunos olim Zekri Munir arab tilida yozuv malakasini shakllantirish nutq faoliyatining boshqa turlari bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi zarurligini, bunda nafaqat vizual materiallardan, balki video darslardan, qo'shiqlardan, she'rlardan ham foydalanish kerakligini, yozuvni takomillashtirishda uni tinglash, o'qish va gapirish bilan birlashtirish haqida unutmazlik kerakligini ta'kidlaydi. [4:23]

Arab tilida yozishni o'rganish eng qiyin ko'nikmalardan biri hisoblanadi, sababi bu tilning o'ziga xos omillari mavjud. Arab tili mutaxassislari arab yozuvini boshqa tillarning yozuvlaridan farqlovchi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatadilar. Birinchi jihat arab orfografiyasi, ikkinchisi talaffuz qilinadigan, lekin yozuvda ko'rinmaydigan unli harflar va uchinchi jihat esa boshqa tillarda mavjud bo'lmagan arab fonemalaridir.

Arab tilida yozma nutq janrlari ham turlicha bo'lib, ularga rasmiy va norasmiy xatlar, insholar, maqolalar, ilmiy izlanishlar, hisobotlar va boshqalar kiradi. Har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari va talablarini tushunish, ularni yozishda to'g'ri qo'llash muhimdir. Integrativ yondashuv bu janrlarni o'qitish, talabalarga har bir janrning o'ziga xosliklarini aniqroq anglashga va ularda yozma ko'nikmalarni samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Arab tili boy tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan tillardan biri bo'lib, uning yozma nutq janrlari ham xilma-xildir. Arabshunos olim Mustafa Lahlali o'zining "How to Write in Arabic" kitobida arab tilida keng tarqalgan quyidagi janrlarni keltirib

o'tadi:

– insho (إنشاء - inshaa) - yozuvchining fikr va his-tuyg'ularini erkin ifoda etishga xizmat qiladi ;

– bayon (بayan - bayan) - ma'lumotlarni aniq va tushunarli bayon qilishga qaratilgan yozma janr bo'lib, unda faktlar, ma'lumotlar va tahlillar ko'proq o'rin oladi;

– xat (رسالة - risala)-shaxsiy yoki rasmiy maqsadda yoziladigan yozma janr bo'lib, u ikkiga bo'linadi: shaxsiy xatlar (رسالة شخصية - rasa'il shahsiya) va rasmiy xatlar (رسالة رسمية - rasa'il rasmiya). Shaxsiy xatlar do'stlar yoki oila a'zolari o'rtasida yoziladigan xatlar, rasmiy xatlar davlat muassasalari yoki rasmiy shaxslar o'rtasida yoziladigan xatlardir. [1:5]

Arab tilida yuqorida qayd etilgan yozma nutq janrlarini samarali o'rgatishda nutq faoliyati turlarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv tinglab tushunish, gapirish, o'qishni yozuv bilan bog'lab, talabalarning arab tilida yozuv malakasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Quyida ushbu integrativ yondashuvning yozma nutq janrlarini o'rgatishdagi ahamiyatli jihatlari to'xtalamiz:

Birinchi jihat, nutq faoliyati turlarini integratsiya qilish, nafaqat yozuv balki tinglab tushunish, gapirish va o'qishni ham birgalikda rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, insho yozish jarayonida talabalar o'qish orqali ma'lumotlarni tahlil qiladilar, bu esa o'z navbatida yozuv malakasini shakllantiradi.

Ikkinchi jihat, integrativ yondashuv orqali talabalar axborotni to'liq va samarali qabul qiladilar. Masalan, maqola yozishda ular o'z fikrlarini to'g'ri ifoda etish uchun tinglangan yoki o'qilgan manbalarni tahlil qiladilar, bu jarayon ularning axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Uchinchi jihat, integrativ yondashuv talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Talabalar insho yozish jarayonida tinglab tushunish va gapirish yordamida o'zaro muhokamalar o'tkazib, ularni o'z yozuvlarida qo'llashlari mumkin.

To'rtinchi jihat, integrativ yondashuv orqali talabalar turli yozma janrlar bilan tanishadilar, bu esa ularning yozuv malakalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda ular o'qish va tinglab tushunish yordamida o'zlarining yozma matnlarini tahlil qiladilar.

Arab tilida yozma nutq janrlarini o'rgatishda nutq faoliyati turlarini integratsiya qilish talabalarning ko'nikma va malakalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv yordamida ular tinglab tushunish, gapirish, o'qishni yozuv malakasini shakllantirishda vosita sifatida qo'llab, turli janrlar bilan tanishish, fikrlarni batafsil va to'g'ri ifoda etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustapha Lahlali. How to Write in Arabic. Edinburgh University Press Ltd, 2021. P. 225
2. Pradi Khusufi Syamsu. Scrutinizing Integrative Learning in Arabic Instruction. International Journal of Islamic Thought and Humanities. Published by Sekolah Tinggi Agama Islam Taruna Surabaya. Vol. 02 No. 01 March 2023, p. 107-123
3. Громова, Д.А. "Интегрированный навык как эффективное средство активизации коммуникации в деловом английском языке". Культура и деловой иностранный язык. • Материалы III конференции. 27-31с
4. Зекри Мунир. Методика обучения письменной речи в проблемы контроля уровня ее сформированности на занятиях по русскому языку в условиях арабской языковой среды. Дисс. канд. пед. – Москва: Наук, 1985. 150-с.
5. Ларионова, С.А. Реализация интегративного подхода в системе обучения первоклассников грамоте. Дисс. канд. пед. – Тамбов: Наук, 2009. 226-с.
6. Харунжев.А.А. Интегративный подход в экономическом образовании старшеклассников. Дисс. канд. пед. – Киров: Наук, 2000.198-с.

Хилола ОЧИЛДИЕВА,
преподаватель кафедры языков КГПИ

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: в статье рассматриваются технологии развития специальных компетенций будущих учителей русского языка, современные подходы в образовательной системе Республики Узбекистан; раскрыты различия компетенции и компетентности учителя, рассмотрен формирование коммуникативной компетенции учителей русского языка и литературы.

Ключевые слова: компетентность, научный подход, профессиональная компетенция, образовательная система, русский язык и литература.

Annotation: the article discusses technologies for the development of special competencies of future Russian language teachers, modern approaches in the educational system of the Republic of Uzbekistan; the differences between the competencies and competencies of the teacher are revealed, the formation of the communicative competence of teachers of the Russian language and literature is considered.

Key words: competence, scientific approach, professional competence, educational system, Russian language and literature.

Annotatsiya: maqolada bo'lajak rus tili o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar; o'qituvchining kompetensiyalari va kompetentsiyalari o'rtasidagi farqlar aniqlandi, rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, ilmiy yondashuv, kasbiy kompetentsiya, ta'lim tizimi, rus tili va adabiyoti.

Современная педагогическая практика требует от педагогов умения учить детей способам добывания знаний, формировать учебную деятельность и мышление школьников. Поэтому проблемы профессиональной компетентности учителя, педагогического мастерства, творчества, педагогической культуры являются сегодня актуальными.

Следует различать компетенции и компетентности учителя. «Компетентностями учителя являются постоянно совершенствующиеся и реализуемые на практике способности, деятельные

возможности, мотивационная направленность и готовность к осуществлению творческой педагогической деятельности с глубоким осознанием социальной значимости этой деятельности и личной ответственности за результаты своих действий и поступков». Любого специалиста можно охарактеризовать по наличию у него профессиональных знаний, профессиональных умений и навыков, опыта работы, профессионального потенциала, по его личным качествам. Я думаю, что все эти показатели составляют понятие профессиональная компетенция.

В педагогической науке существует неоднозначный подход к определению круга професси-



ональных компетенций педагога. Выделены две группы компетенций:

- имеющие личностный характер, предопределяющие профессиональный выбор и являющиеся основой (базой) для формирования профессиональной мотивации, мировоззренческой позиции педагога;

- относящиеся к уровню методической (в т. ч. коммуникативной), предметной, информационной подготовки педагога в рамках его профессиональных компетенций.

По мнению современных ученых в педагогической области (Ларионова О. Г., Вербицкий А. А.) – компетенции учителя – это его права, обязанности и ответственность в сфере педагогической деятельности.

Одной из ключевых компетенций является коммуникативная, которая обеспечивает успешную социализацию, адаптацию и самореализацию личности в современных условиях жизни. Коммуникативная компетенция означает готовность ставить и достигать цели в устном и письменном общении.

Формирование коммуникативной компетенции – процесс длительный и достаточно сложный. Главная роль отводится урокам русского языка. Особую сложность в преподавании русского языка представляет соотнесение предметного курса и реального речевого опыта школьника, процесс

приобретения знаний о языке и процесс овладения языком. Какова же роль предмета «Русский язык» в школе? Что может сделать учитель русского языка и литературы, чтобы обеспечить коммуникативную компетенцию учеников?

Предметные компетенции учителя русского языка состоят из следующих направлений:

- помогать учащимся овладевать учебными навыками и умениями;

- воспитывать эмоционально-ценностного отношения к языку, пробуждать интерес к слову, стремиться научить правильно говорить и писать на данном языке;

- формировать умение работать в сотрудничестве, взаимодействовать с окружающими людьми, получать необходимую информацию;

- развивать коммуникативную компетентность учащихся в урочной и внеурочной деятельности.

Учителя русского языка стараются строить свою работу на уроках так, чтобы были задействованы различные умения и навыки учащихся, а именно:

1. Свободная работа с текстами разных стилей, понимание их специфики; владение навыками редактирования текста, создания собственного сочинения.

2. Осознанное беглое чтение текстов различных стилей и жанров, проведение информационно-смыслового анализа текста.

3. Владение монологической и диалогической речью.

4. Создание письменных высказываний, адекватно передающих прослушанную и прочитанную информацию с заданной степенью свернутости (кратко, выборочно, полно).

5. Составление плана текста, тезисов, конспекта.

6. Приведение примеров, подбор аргументов, формулирование выводов.

7. Умение перефразировать мысль (объяснять «иными словами»); выбор и использование выразительных средств языка.

8. Использование для решения познавательных и коммуникативных задач различных источников информации, включая энциклопедии, словари, интернет-ресурсы и другие базы данных.

Воспитать компетентного гражданина общества может только компетентный учитель. Сейчас много говорится о компетентном подходе. Хочется надеяться, что этот подход будет применен на практике и не останется просто

на бумаге.

При изучении русского языка и литературы с позиции становления компетентностей учителя является освоение учениками:

- приемов поиска информации;
- методов работы с текстами гуманитарного содержания;
- навыков в публичной речи;
- способов установления межпредметных связей.

Проблемным заданием для обучающихся является самостоятельный поиск информации. Эти поиски поручаются и отдельным ученикам, и малым группам из двух-трех человек. Результат поисков может быть представлен в виде реферата, доклада на школьной конференции. Кроме того, такая деятельность является первым шагом в научных исследованиях. Вклад данной технологии в развитие методической и коммуникативной компетентностей обеспечивается педагогическими приемами, помогающими обучать умению выявлять позиции разных авторов по отношению к одним и тем же событиям, сопоставлять и сравнивать их, давать оценку в соответствии с реалиями исторического этапа. Здесь основными методическими компонентами контекстного обучения выступают: ролевые и сюжетные игры, диспуты; дискуссии. В ходе таких мероприятий разные группы выдвигают и отстаивают взгляды своего «героя», обосновывают и уточняют собственные представления о нем и обществе.

Построение и проведение каждого занятия требует творческого подхода. Существует два вида результатов педагогической деятельности. Один из них относится к функциональным продуктам деятельности (уроку, занятию, методу, методике). Другой (и главный) предполагает психологические продукты деятельности (психические новообразования в личности обучающихся). Иначе говоря, основным и конечным результатом педагогической деятельности является сам обу-



чающийся, развитие его личности, способностей и компетентности. Поскольку каждый обучающийся объективно неповторим как личность, результативная педагогическая деятельность является непременно креативной, уже по самому строгому критерию.

Использованная литература:

1. Вербицкий А. А., Ларионова О. Г. Гуманизация и компетентность: контексты и интеграция. – М.: МГПОУ, 2006. – 172 с.
2. Белоусова Л. Е. Формирование положительной мотивации школьников на уроках русского языка через использование педагогических приемов. – М., 2008.
3. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие. – М., 2001.
4. Гин А.А. Приемы педагогической техники: Свобода выбора. Открытость. Деятельность. Обратная связь. Идеальность: Пособие для учителя. – 5-е изд. – М.: Вита – Пресс, 2003.
5. Ахмедова Л. Т., Лагай Е. А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Ташкент, «Фан ва технология», 2016. 325 с.
6. Кларин М. В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. Анализ зарубежного опыта. – Москва, 1995. 124 с.

Maxbuba TUROBOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti o'qituvchisi
 E-mail: sh.turobov@gmail.com

TALABALARNING OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Annotatsiya: ushbu maqola talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi zamonda sodir bo'layotgan madaniy-tarixiy o'zgarishlar va ijtimoiy munosabatlar dinamikasi yoshlarda nikohga tayyorlik muammosini keskinlashtirmoqda. Maqolada yoshlarda nikohga tayyorlikning muhimligi, bu tayyorlikning kelajakdagi er-xotin munosabatlari va oilaviy hayotning barqarorligi uchun asosiy omil ekani ta'kidlanadi. Talabalarni oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlashning ahamiyati va bu jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Oilaviy hayotga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik tahlili bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *oilaviy hayot, nikoh, huquq, oila, psixologiya, oilaviy munosabat, turmush, psixodiagnostik kompleks, talaba.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению психологических аспектов подготовки студентов к семейной жизни. Культурно-исторические изменения и динамика социальных отношений в современном мире обостряют проблему готовности молодежи к браку. В статье подчеркивается важность готовности молодых людей к вступлению в брак, так как она является основным фактором стабильности супружеских отношений и семейной жизни в будущем. Даны выводы и рекомендации по социально-психологическому анализу готовности к семейной жизни.

Ключевые слова: *семейная жизнь, брак, право, семья, психология, семейные отношения, брак, психодиагностический комплекс, студент.*

Annotation: this article is dedicated to studying the psychological aspects of preparing students for family life. Cultural and historical changes and the dynamics of social relations in the modern world are exacerbating the issue of youth readiness for marriage. The article emphasizes the importance of young people being prepared for marriage, as this readiness is a key factor in the stability of future marital relationships and family life. Conclusions and recommendations on the socio-psychological analysis of readiness for family life are provided.

Key words: *family life, marriage, law, family, psychology, family relationships, marriage, psychodiagnostic complex, student.*

Kirish. Oilaviy hayot har bir insonning hayotida muhim o'rin tutadi. U nafaqat shaxsiy baxt va saodat, balki jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ularning kelajakdagi oilaviy munosabatlarning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar turli xil ijtimoiy va psixologik vaziyatlarga duch kelishadi. Ulardan biri turmush qurgan talabalarning hayoti bo'lib, bu muhim masala jamiyat va ta'lim tizimida katta e'tibor talab qiladi. Turmush qurgan talabalarning hayotini psixologik jihatdan o'rganishning dolzarbligi bir qator omillar bilan izohlanadi.

Turmush qurgan talabalar nafaqat ta'lim oluvchi, balki oilaviy majburiyatlarni bajaruvchi hamdirlar. Bu ikki yo'nalishda muvaffaqiyatli bo'lish uchun talabalardan katta miqdorda vaqt, kuch va e'tibor talab etiladi. Ularning psixologik holatini o'rganish, bu jarayonda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularga mos yechimlar topish muhimdir. Turmush qurgan talabalar ko'pincha o'qish va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi

muvozanatni topishda katta stress va bosimga duch keladilar. Ularning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirish, stressni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatish dolzarb vazifadir. Bu yo'lda psixologik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu borada samarali choralarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Turmush qurgan talabalar uchun qo'llab-quvvatlash tizimlari muhimdir. Ularning psixologik ehtiyojlarini o'rganish, o'qish va oilaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Bu orqali talabalar o'zlarini yolg'iz his qilmay, jamiyat va ta'lim muassasalaridan zarur yordamni olishlari mumkin. Turmush qurgan talabalar shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini anglash jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Ularning hayotiy maqsadlari va qadriyatlarini o'rganish, psixologik jihatdan ularga yordam berish, shaxsiy va oilaviy hayotlarini muvaffaqiyatli boshqarishlariga ko'maklashadi. Turmush qurgan talabalar kelajakdagi hayot rejaları va maqsadlariga erishishda turli xil to'siqlarga duch keladilar. Ularning psixologik holatini o'rganish, bu to'siqlarni yengib o'tishda qanday yordam berish mumkinligini aniqlash, kelajakdagi

muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhimdir.

Turmush qurgan talabalarning hayotini psixologik jihatdan o'rganishning dolzarbligi ularning ta'lim jarayonida va oilaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir. Bu o'rganishlar orqali talabalarning psixologik holati, duch keladigan qiyinchiliklari va ehtiyojlari aniqlanadi, ular uchun qo'llab-quvvatlash tizimlari va samarali choralar ishlab chiqiladi. Shu tariqa, turmush qurgan talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashiladi hamda ularning kelajakdagi hayot rejaları muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda yigit va qizlarning nikohga tayyorligi masalasi bugungi kunda madaniy-tarixiy o'zgarishlar, jamiyat munosabatlarining dinamikasi bilan bog'liq. Sotsiologiya, pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar zamonaviy yigit va qizlarning nikoh munosabatlariga tayyorligining muhimligini ta'kidlaydi, chunki bu kelajakda turmush o'rtog'i bilan munosabatlarning barcha bosqichlarida belgilovchi omil hisoblanadi. Nikohga psixologik tayyorlik er va xotin o'rtasidagi uyg'un munosabatlar va oilaviy hayotning asosiy sharti hisoblanadi.[1:7].

Tadqiqotchi E.G'.G'oziyevning fikricha, "Shaxs ulg'ayib, voyaga yetib, jamiyatga manfaati tegadigan bo'lgan sharoitda uning oilaviy hayotida ham salmoqli iz qoldiradi. Shu jihatdan jamiyat shaxs uchun tarbiyachi hamdir" [2: 164].

Talaba-yoshlarni ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari nomli tadqiqot ishida tadqiqotchi M.M.Ishanovaga ko'ra, "Bugungi kunda talaba yoshlarni ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik va psixologik xususiyatlarini o'rgatib borish va ularni oilaviy hayotga tayyorlash juda muhimdir. Chunki bola shaxsini shakllantirish uning tug'ilishidan boshlanadi. Shuning uchun ularni oila muqaddas ekanligi bola tarbiyasida ota-onaning o'rni va vazifalari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitib borish zarur. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan oila qurish yoshidagi talabalarga oilaviy munosabatlar harakteri, ota-onaning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil etilishi ahamiyat kasb etadi" [3: 1129].

AQSH ta'lim muassasalarida o'z tadqiqotlarini olib borgan C.Negyning tadqiqot natijalariga ko'ra "Turmush qurgan talabalar ko'pchilik munosabatlar o'lchovlarida sezilarli darajada yuqori darajadagi turmush ziddiyatini ko'rsatdilar" [4: 1129]. Uning fikricha, oila a'zolari va do'stlarning qo'llovsiz talabalarning psixologik farovonligiga erishib bo'lmaydi.

Olib borgan tadqiqotlarimizga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda 283, 8 mingta nikoh qayd etilgan va 2020-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13, 0 ming birlikka kamaygan. Qayd etilgan nikohlarning o'rtacha

yoshi erkaklarda 27 yoshni va ayollarda 22, 2 yoshni tashkil etgan. Ajralishlar soni esa 49,2 ming birlikni tashkil etib, ularning 50 foizi farzandsiz nikohdan ajralishgan [5].

Xorij olimlaridan oila va oilada shaxsning shakllanishi haqida T.T.Sorokina [6] va O.A.Karabanova [7], oilaviy hayotga tayyorlik shakllanishiga ota-ona oilasining ta'siri haqida O.L.Shilova [8], yosh er-xotinlarning oilaviy hayotga ijtimoiy moslashuvi haqida D.Karder [9] va oilaviy hayotga tayyorlik va uning psixologik mohiyati xususida X.Raximzodalar [10] tadqiqot olib borishgan.



Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: B.S.Kruglovning qadriyat oriyentatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi; M.Snayderning muloqotda o'z-o'zini nazorat qilishni baholash so'rovnomasi; V.V.Boykning shaxslararo muloqotda emotsional to'siqlarni aniqlash so'rovnomasi; A.V.Karpovning refleksivlik rivojlanishi darajasini aniqlovchi so'rovnomasi; O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-diagnostik so'rovnomasi; A.V.Zverkov, Ye.V.Eydmanlarning irodani boshqarishni tadqiq etish so'rovnomasi; Yu.Z.Gilbuxning shaxs yetukligi test-so'rovnomasi.

O'z mohiyatiga ko'ra, oilaviy hayotga tayyorlik talabaning faol harakatli holati, oilaviy hayot tarziga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy hayot qadriyatlarini ongli qabul qilganligi va oilaviy hayotga tayyorlik kabi murakkab va ko'p qirrali omillarni tadqiq etishni talab qiladi.


Tahlil va natijalar.

O'tkazilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi universal metodika mavjud bo'lmagan psixodiagnostika uchun yetarlicha murakkab, integrativ tuzilma sanaladi. Shu bilan bog'liq ravishda, aniqlangan mazmuniy komponentlar, baholash mezonlarini hisobga olgan

holda talabalar oilaviy hayotga tayyorligining rivojlanish darajasini empirik aniqlash uchun o'zining amaliyotda yaxshi isbotini topgan psixodiagnostik kompleks tanlandi va qo'llandi.

Tadqiqotlarimizgako'ra, oilaviy hayotga tayyorlikning mazmuniy komponentlarini o'rganish talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi shakllanganligining hozirgi

holatini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda ishtirok etgan aksariyat talabalarda (55,6 %, 160 nafar) oilaviy hayotga tayyorlik darajasi o'rtadan past va 44,4 % (128 nafar) talabada ushbu belgi o'rta darajada rivojlangan. Shunga ko'ra, oilaviy hayotga tayyorgarligi past, o'rtadan yuqori yoki yuqori darajada bo'lgan talabalar aniqlanmagan (1-rasm).



1-rasm. Talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi qadriyatli-mazmuniy komponenti shakllanganligining miqdoriy tavsifi

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi mazmuniy komponentlarining ochib berilganligi va ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi, o'rganilayotgan hodisa haqida ilmiy tasavvurni aniqlashtiradi, psixodiagnostikasi, shuningdek, talabalarning oilaviy hayotga tayyorligini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ilmiy asoslangan holda yondashish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarning oilaviy hayotga tayyorligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tayyorlangan samarali ijtimoiy-psixologik treningdan foydalanish imkoniyati

bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlari ularning kelajakdagi hayotida mustahkam va baxtli oilaviy munosabatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Emotsional yetuklik, muloqot ko'nikmalari, konfliktlarni boshqarish, mas'uliyat hissi, hamdardlik va qo'llab-quvvatlash kabi omillar talabalarning oilaviy hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim rol o'ynaydi. Bu jihatlari orqali talabalar oilaviy hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish va baxtli hayot kechirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сунтуфи Н.А. "Психологическая готовность к браку у лиц юношеского возраста". – Пенза: 2019. 96-с.
2. G'oziyev E.G'. "Sotsial psixologiya". – Toshkent: Noshir, 2012. 316-b.
3. M. Ishanova (2022). TALABA-YOSHLARNING IJTIMOY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1 (B8), 1128-1130. doi: 10.5281/zenodo.7407811.
4. Negy, C. (2003). Undergraduate students' adaptation to college: does being married make a difference?. Journal of College Student Development, 44(5), 670-690.
5. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_01_2024-uzb.pdf.
6. Сорокина Т.Т. Становление личности в семье. – Минск: Новое знание, 2010. -152- с.
7. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учеб. пособие. – М.: Гардарики, 2005. 320-с.
8. Шилова О.Л. Мотивация вступления в брак и ее влияние на кризис будущей семьи // Вопросы психологии. 2005. №2. 34-37-с.
9. Кардер Д. Семейные секреты, которые мешают жить / Дейв Кардер и др. – М.: Триада, 2016. 464-с.
10. Рахимзода Х. Влияние социальных институтов воспитания на подготовку старшеклассников к семейной жизни: Дис д-ра пед. наук: 13.00.01. – Душанбе: 2002. 324-с

Sabohat ALLANAZAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti,
e-mail: allanazarova.sabosh@gmail.com

Dilrabo ELOVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, PhD, dotsent,
e-mail: dilraboelova@gmail.com

O'ZBEK TILI UCHUN SENTIMENT LEKSIKASINI ISHLAB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: sentiment (hissiy) tahlil qilish – bu yozma tildan odamlarning fikrlari, baholari, munosabati va hissiyotlarini aniqlovchi tadqiqot turi bo'lib, kompyuter lingvistikasi uchun samarali tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. Tadqiqot ishining muhim maqsadi o'rgatilgan resurslari kam tillar uchun tabiiy tillarni qayta ishlash (NLP) texnologiyalaridan foydalanishni yaxshilovchi texnologiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Ma'lumki, o'zbek tilida sentiment tahlili bo'yicha amaliy dasturlarni ishlab chiqish uchun lingvistik manbalar yetarli emas. Ko'zlangan asosiy maqsad emotsional-ekspressivlik jihatdan hissiy baho ifodalovchi birliklarni aniqlash va hissiyot tahlili uchun lingvistik ta'minot ishlab chiqish. Tadqiqot ishining umumiy natijalariga ko'ra, o'zbekcha hissiyot so'zlari, iboralar asosida ishlab chiqilgan lingvistik ta'minot tuzildi. Tasniflash ijobiy, salbiy va betaraf kabi uch toifada amalga oshirildi. Tadqiqot ishining natijalari asosida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining sharhlarini hissiy jihatdan tahlil qilish mahsulot va xizmatlar uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: *sentiment tahlili, fikrlarni aniqlash, ijtimoiy tarmoq, ijobiylik, salbiylik, avtomatik tahlil, xizmat ko'rsatish.*


Annotation: sentiment (emotional) analysis is a type of research that identifies thoughts, evaluations, attitudes, and emotions in written language and is considered an effective research direction for computational linguistics. An important goal of this research is to develop technologies to improve the use of natural language processing (NLP) technologies for languages with few resources. There are not enough linguistic resources to develop practical sentiment analysis programs for the Uzbek language. The primary goal of this study was to identify emotional-expressiveness units that express emotional evaluation and develop linguistic support for emotional analysis. According to the general results of the research, a linguistic resource was developed on the basis of Uzbek emotional words and phrases. Three categories were classified: positive, negative, and neutral. Based on the results of this research, an emotional analysis of the comments of social network users can help develop products and services.

Keywords: *sentiment analysis, opinion detection, social network, positivity, negativity, automatic analysis, service delivery.*

Аннотация: сентиментальный (эмоциональный) анализ — это тип исследования, который идентифицирует мысли, оценки, отношения и эмоции в письменной речи и считается эффективным направлением исследований компьютерной лингвистики. Важной целью этого исследования является разработка технологий, позволяющих улучшить использование технологий обработки естественного языка (NLP) для языков с небольшим количеством ресурсов. Недостаточно лингвистических ресурсов для разработки практических программ анализа настроений на узбекском языке. Основная цель этого исследования заключалась в выявлении единиц эмоциональной выразительности, которые выражают эмоциональную оценку, и развивают лингвистическую поддержку эмоционального анализа. По общим результатам исследования разработан лингвистический ресурс на основе узбекских эмоциональных слов и словосочетаний. Были классифицированы три категории: позитивные, негативные и нейтральные. По результатам данного исследования эмоциональный анализ комментариев пользователей социальных сетей может помочь в разработке продуктов и услуг.


Ключевые слова: *анализ настроений, обнаружение мнений, социальная сеть, позитивность, негативность, автоматический анализ, предоставление услуг.*

Kirish. Sentiment tahlili uchun turli tillarda ochiq manbalar tayyor bo'lsa-da, ular o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri ishlatish uchun yaroqli emas [1;358]. Xususan, ingliz tili uchun o'nlab lug'atlar ishlab chiqilganiga qaramasdan, o'zbek tiliga moslashtirishda bir qator muammolar paydo bo'ladi. Masalan, ikkala tilning grammatik jihatdan (ingliz-flektiv; o'zbek-agglyutinativ) turli xilligi, diniy qarama-qarshilik, mentalitet va urf-odatlardagi keskin farqlar. Quyida sentiment (hissiy) tahlilida qo'llaniladigan lug'atlarining faol ishlatilish darajasini kuzatish mumkin.



1-rasm. Sentiment tahlilida qo'llaniladigan lug'atlarning faol ishlatilish darajasi

Diagrammada SentiWordNet, SenticNet va MPQA eng ko'p ishlatiladigan resurslar ekanligi, boshqa lug'atlar esa nisbatan kamroq qo'llanilishini ko'rish mumkin.



2-rasm. Sentiment leksikasini ishlab chiqishning davlatlar kesimidagi taqsimoti.

Yuqoridagi diagrammadan anglashiladiki, Xitoy va AQSH davlatlarida sentiment tahliliga qiziqish ortgan, natijada, katta miqdordagi lingvistik resurslar ishlab chiqilgan.

Asosiy qism. Sentiment tahlili uchun o'zbek tilida lingvistik ta'minot ishlab chiqishda so'z va iboralar o'zi anglatgan semantik ma'nolari asosida uch guruh (ijobiy, salbiy va betaraf)ga ajratib chiqildi. Tasniflashda

ikkilanishlar bo'lgan so'zlar ustida so'rovnomalar o'tkazildi va shu asosida guruhlarga bo'lindi. Bunda, asosan, sifat, ot, fe'l, ravish va iboralarga e'tibor qaratildi. Ish sinonimik sinsetlar asosida kengaytirildi [2;56]. Mutlaq sinonimlar sinonimik sinsetni tashkil etdi [3;110]. Avtomatik yaratilgan sinsetlar to'plamini yaxshilash uchun qo'lda birlashtirish/ajratish jarayoni bajariladi.

1-jadval. O'zbek tilidagi emotsional-ekspressiv so'zlar:

<i>Emotsional-ekspressiv so'zlar</i>	<i>Betaraf ma'no</i>	<i>Ijobiylik</i>	<i>Salbiylik</i>
<i>badbashara</i>	yuz		salbiy
<i>aft</i>	yuz		salbiy
<i>turq</i>	yuz		salbiy
<i>husn</i>	yuz	ijobiy	
<i>chehra</i>	yuz	ijobiy	
<i>jamol</i>	yuz	ijobiy	
<i>vallomat</i>	avliyo		salbiy
<i>valiy</i>	avliyo	ijobiy	
<i>sh pion</i>	josus		salbiy
<i>ayg'oqchi</i>	josus		salbiy

Sentiment leksikasini ishlab chiqish

I. Sentiment leksikonni ishlab chiqishning tarjimaga asoslangan yondashuvi. Sentiment lug'atini ishlab chiqishning tarjimaga asoslangan yondashuvi matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish orqali hissiyot (pozitiv, negativ, betaraf) belgilovchi so'z va iboralarni aniqlash jarayonini ifodalaydi. Bu yondashuv, asosan, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Mavjud lug'atni ishlatish: birinchi qadamda, birinchi til (masalan, ingliz tili) uchun mavjud sentiment lug'atidan foydalaniladi. Bu lug'atda so'zlar va iboralar ularning sentiment darajasi bilan birga keltirilgan bo'ladi.

2. Tarjima: keyingi qadamda, ushbu sentiment lug'atidagi so'z va iboralar ikkinchi tilga (masalan, o'zbek tiliga) tarjima qilinadi. Bu jarayonda avtomatik tarjima vositalari yoki tarjimonlar yordamida so'z va iboralar yangi tilga o'giriladi.

3. Sentimentni saqlash: tarjima jarayonida sentimentni to'g'ri saqlash juda muhim. Buning uchun tarjimalar kontekstga mos kelishi va tarjima qilingan so'z yoki iboraning asl sentimentni saqlab qolishi kerak.

4. Lug'atni tekshirish va to'ldirish: tarjima qilingan sentiment lug'at qo'lda yoki avtomatik usulda tekshiriladi va to'ldiriladi. Bu bosqichda tarjimonlar yoki lingvistlar yordamida so'z va iboralarning sentiment qayta baholanadi.

5. Mahalliyashtirish: sentiment lug'atini mahalliyashtirish, ya'ni tarjima qilingan so'z va iboralar ikkinchi tilga xos bo'lgan hissiyotlarni aks ettirishi uchun tuzatishlar kiritiladi. Bu bosqichda madaniy va lingvistik farqlar hisobga olinadi.

Ushbu yondashuv sentimentni tahlil qilishda va sentiment lug'atini kengaytirishda samarali bo'lishi mumkin. Tarjima jarayoni va sentimentni saqlash bo'yicha aniq metodlar esa lug'atning aniqligi va foydaliligini oshiradi [4;176].

II. Sentiment leksikonni ishlab chiqishning mashinali o'qitishga (avtomat) asoslangan yondashuvi. Sentiment leksikonini ishlab chiqishning mashinali o'qitishga (avtomat) asoslangan yondashuvi, so'z va iboralarni ularning kontekstidan foydalanib avtomatik ravishda sentiment (ijobiy, salbiy, betaraf) belgilovchi jarayonni anglatadi. Bu yondashuv, odatda, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish: dastlab, katta hajmdagi matnlar to'plami yig'iladi. Ushbu matnlar sentiment belgilari (ijobiy, salbiy, betaraf) bilan belgilanadi. Bu ma'lumotlar to'plami ijtimoiy tarmoqlar, sharhlar, yangilik maqolalari va boshqa manbalardan olinishi mumkin.

2. Ma'lumotlarni oldindan tayyorlash: to'plan-gan matnlar tozalash, tokenizatsiya, stemming yoki lemmatizatsiya kabi jarayonlaridan o'tkaziladi. Bu bosqichda shovqin (keraksiz birliklar) olib tashlanadi va matnlar tahlil uchun moslanadi.

3. Xususiyatlarni chiqarish: matnlardan senti-mentni aniqlashga yordam beradigan xususiyatlar chiqariladi. Bu xususiyatlar oddiy so'z chastotasi, tf-idf, n-gramlar yoki yanada murakkab, matnlarni yashirin qatlamlarda tasvirlovchi ko'rsatkichlar (word embeddings) bo'lishi mumkin.

4. Mashinali o'qitish modeli: tayyorlangan ma'lumotlar va xususiyatlar yordamida mashinani o'qitish modeli yaratiladi. Bu model sentimentni aniqlash uchun algoritmlardan (masalan, logistika regressiya-si, SVM, neyron tarmoqlar) foydalanadi.

5. Modelni o'qitish: modellar yig'ilgan va oldin-dan tayyorlangan ma'lumotlar to'plamida o'qitiladi. Bu jarayonda model so'z va iboralar sentimentini aniqlashni o'rganadi.

6. Modelni tekshirish va optimallashtirish: o'qitilgan model yangi, ko'rilmagan ma'lumotlarda tekshiriladi va uning aniqligi baholanadi. Agar model yetarlicha aniqlikka ega bo'lmasa, uni yaxshilash uchun parametrlar qayta ko'rib chiqiladi va yana o'qitiladi.

7. Leksikani ishlab chiqish: yaxshi natijaga erish-gan modeldan foydalangan holda, matnlardagi so'z va iboralarning sentimentini aniqlab, ularni sentiment leksikoniga kiritish mumkin. Bu leksikon mashinali o'qitish modeli orqali avtomatik ravishda yaratiladi va doimiy ravishda yangilanib borishi mumkin.

8. Leksikani tekshirish va yangilash: yaratilgan leksika doimiy ravishda yangilanib, tekshiriladi. Modelning yangi ma'lumotlar bilan o'qitilishi va mavjudlari bilan solishtirilishi orqali aniqligi va qamrovi

oshiriladi.

Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash va yangilash imkoniyatini beradi, bu esa sentiment leksikonining aniqligi va kengligini oshiradi.

III. Qo'lda izohlangan va avtomatik ravishda kengaytirilgan leksikalarni birlashtirish. Ikki xil yon-dashuvni birlashtirishni anglatadi: inson tomonidan qo'lda tahrirlangan, batafsil izohlar berilgan leksi-kalar va avtomatik dasturlar tomonidan tahlil qilinib, kengaytirilgan leksikalar.

1. Qo'lda izohlangan leksikalar: bunda mutaxas-sislar so'zlarni qo'lda tahlil qilib, ularga izoh va kon-tekstual ma'lumotlar qo'shadilar. Bu jarayon juda aniq va yuqori sifatli ma'lumotlarni beradi, ammo vaqt talab etuvchi va qimmatga tushishi mumkin.

2. Avtomatik kengaytirilgan leksikalar: bu yon-dashuv sun'iy intellekt yoki mashinali o'rganish al-goritmlari yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon tezroq bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ish-lashga imkon beradi, ammo ayrim holatlarda xatolar va noto'g'ri ma'lumotlar paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi raqamli asrda, katta miqdorda matnli ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish va foydali bilimlarga aylantirish uchun sentiment lug'atlari juda muhimdir. Sentiment lug'a-tini ishlab chiqish orqali matndagi so'zlarning hissiy ma'nosini aniqlash va ularni ijobiy, salbiy yoki betaraf sifatida tasniflash osonlashadi. Bu o'z navbatida, matnlar yoki izohlar ustida tahlil qilishni sezilarli da-rajada yaxshilaydi. Sentiment lug'ati matn kontek-stini chuqurroq tushunish va aniqroq tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allanazarova, S.Y., Abduraxmonova, N.Z. (2022) Intellectual matn tahlili. Academic Research in Educational Sciences, 358-364.
<https://ares.uz/storage/app/uploads/public/625/818/184/6258181843991233305004.pdf>
2. Orifjonova Sh, Lug'aviy sinonimiya va graduonimiya munosabati xususida, //O'zbek tili va adabiyoti, 6-son, 2007, 109-b.
3. Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta'riflash masalasi//O'zbek tili va adabiyoti. 1979, 5-son, 55-bet.
4. Hatzivassiloglou, V., & McKeown, K. (1997). Predicting the Semantic Orientation of Adjectives. Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics.
<https://doi.org/10.3115/976909.979640>

Umida XO'JAYEVA,
 Navoiy davlat pedagogika instituti
 Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
 Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida o'qituvchisi

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "HALOLLIK" LEKSEMASINING MA'NODOSHLARI VA ULARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada "Halollik" konseptining o'zbek va ingliz tili lug'atlaridagi izohi tahliliga bag'ishlanadi. Olamning o'zbek va ingliz lisoniy manzarasidagi "Halollik" konseptining lingvomadaniy va lingvoma'naviy xususiyatlari aks ettirilgan. Shuningdek, "Halollik" konseptining o'zbek va ingliz lingvomadaniyatida tutgan o'rni va ahamiyati, o'xshashlik va farqli jihatlari ham ochib beriladi. Mazkur tushunchaning ma'nodoshlari va ularning semantik tahlili izohli va maxsus lug'atlarga va manbalarga tayangan holda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *konsept, halollik lingvoma'naviyat, lingvomadaniyat, madaniyat, milliy madaniyat, qadriyat.*

Annotation: this article is devoted to the analysis of the meanings of the concept of "Honesty" found in Uzbek and English dictionaries. Also, the role and importance of the concept of "Honesty" in Uzbek and English language culture, similarities and differences are revealed. The synonyms of the concept of "honesty" and their semantic analysis are also analyzed based on various dictionaries and sources.


Key words: *concept, honesty, linguistic culture, culture, national culture, value.*

Аннотация: данная статья посвящена анализу значений понятия «Честность», встречающихся в узбекских и английских словарях. Также раскрываются роль и значение понятия «Честность» в узбекской и английской языковой культуре, сходства и различия. Также на основе различных словарей и источников анализируются синонимы понятия «честность» и их семантический анализ.

Ключевые слова: *понятие, честность, языковая культура, культура, национальная культура, ценность.*

Kirish. Kognitiv tilshunoslik – tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini, til va ularning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik kognitiv fan, kognitiv psixologiya, neyropsixologiya va lingvistikadan olingan bilim va tadqiqotlarni birlashtirgan tilshunoslikning fanlararo bo'limidir. Kognitiv tilshunoslikning modellari va nazariy hisoblari, psixologik jihatdan haqiqiy deb hisoblanadi. Kognitiv lingvistikadagi tadqiqotlar umuman bilishni tushunishga yordam berishga qaratilgan va inson ongiga yo'l sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – konseptdir. "Konsept" so'zi lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini anglatadi. "Tushuncha" va "konsept" so'zlari sinonim bo'lib ishlatilishga qaramasdan, ularning turli xil semantik ma'nolari mavjuddir. Tushuncha – umumlashma in'ikos, ya'ni biror bir voqeikdagi narsa hodisalarning inson ongida umumlashgan holda aks etishidir. Demak, tushuncha turli xil odamlarda turlicha bo'ladi. Masalan, mashina haqidagi tushuncha insonlarning yoshi, jinsi, kasbidan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi. Mashina deganda mashinalarning turlari emas, barcha mashinalar uchun umumiy bo'lgan belgilarning aks etishi bu tushunchadir. Demak, yosh bolalar uchun mashina turli xil belgiga ega. Konsept – tushuncha bilan sinonim qo'yilgan o'tgan asrning 80-yillariga qadar, ammo hozirda konsept tushunchadan ham kengroqdir. Boshqacha

qilib aytganda, til barcha kontseptlarga, ular qanday shakllanishidan qat'iy nazar kirish huquqini beradi: hissiy tajriba, ta'limiy, aqliy faoliyat asosida, inson ongida konseptlarni shakllantirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri bo'lib qoladi.



ҲАЛОЛ КАСБ
 ФАРОВОНЛИК ОМИЛИ
 ҲАЛОЛ САВДО
 КАСБЛАРНИНГ ЯХШИСИ

МЕХРОБ - 1 - 2

Konseptning ahamiyati (halollik konsepti misolida)

“Konsept” termini haqida Y.S. Kubryakova quyidagicha takidlagan: tafakkur, anglash, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash singari muammolar bilan shug’ullangan holda kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun “soyabon” vazifasini o’taydi.

“Halollik” tushunchasining “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da keltirilgan ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Halollik so‘zining lug‘aviy ma’nosi: vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish; to‘g‘rilik, soflik. Halollik insonni tarbiyalash orqali shakllantiriladigan go‘zal fazilatdir. To‘g‘ri yo‘ldan yurish, o‘z mehnati bilan kun kechirish va muloqot mobaynida rost so‘zlash, insof bilan ish ko‘rish halollikning muhim xususiyatlari hisoblanadi va lug‘atda quyidagi misollar keltirib o‘tilgan:

Vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish; to‘g‘rilik, soflik. Halollik, to‘g‘rilik, poklik, odamiylikning eng zaruriy mezonidir. (Gazetadan)

Halol ekanlik. Men mavizni tamom shar‘iy qilib tayyorlayman, tunov kuni mahallamizning oxunlari halolligiga fatvo berib ketdilar. (A.Qodiriy, O‘tgan kunlar)

O‘zbek tilida halollik tushunchasining bir necha sinonimlari mavjud bo‘lib, ular ba‘zi o‘rinlarda ma’no jihatidan ma’lum bir farqlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, to‘g‘rilik, soflik, shaffoflik, vafodorlik, rostgo‘ylik halollik tushunchasiga ba‘zi o‘rinlarda leksik va kontekstual sinonim bo‘la oladi.

Ingliz tilida ham “halollik” leksemasiga teng bo‘lgan turli xil tushunchalar mavjuddir. Eng keng qamrovli lug‘atlardan biri hisoblangan “Oxford collocations dictionary for students of English” lug‘atini o‘rganish

chog‘ida “halollik” tushunchasiga ekvivalent sifatida “integrity” so‘zini olish mumkin. Shuningdek, o‘zbek tilida bo‘lgani kabi ingliz tilida ham “integrity” leksemasining turli xil sinonimlari mavjuddir. Masalan, honesty, sincerity, truthfulness, righteousness, probity, veracity so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanilishi mumkin. “Honesty” so‘zining “halollik” ma’nosida qo‘llanilganiga Mark Twain asarlaridan shunday misollarni keltirish mumkin.

“There are people who think that honesty is always the best policy. This is a superstition. There are times when the appearance of it is worth six of it.”

Har ikki leksemani quyidagi lug‘atlardagi qiyosiy tahliliga e’tibor qaratamiz.

	“Halollik” O‘TILda	“Integrity” Oxford collocations dictionary for students of English
Umumiy semalari	Vijdon bilan bog‘liq bo‘lib, insonning axloqiy me‘yorlarga rioya qilishidir	Vijdonli bo‘lish va kuchli axloqiy me‘yorlarga ega bo‘lishlik
Xususiy semalari	To‘g‘rilik, rostgo‘ylik, soflik, vafodorlik	To‘g‘rilik, shaffoflik, soflik, rostgo‘ylik
Farqlari	Vafodorlik ma’nosida qo‘llana oladi va bu so‘zdan halolxo‘r leksemasini yasash mumkin	Vafodorlik ma’nosida uchramaydi va bu so‘zdan ma’noni saqlagan holda yana bir boshqa ot so‘z turkumidagi leksema yasalmaydi
Illyustativ misollardagi qiyosi va farqlari	1. Halollik, to‘g‘rilik, poklik - odamiylikning eng zaruriy mezonidir.	1. The Minister promised to restore the honesty and integrity of the government

	<p>2. Men qalbimda muhabbat bilan yashamoqchi bo'ldim. Lekin bo'lmadi. Chunki muhabbat halollik va kamsuqumlikni taqozo qildi</p> <p>3. Men mavizni tamom shar'iy qilib tayyorlayman, tunov kuni mahallamizning oxunlari halolligiga fatvo berib ketdilar</p> <p>O'TIL da keltirib o'tilgan har uchchala misollar ma'naviy va axloqiy mavzularga oiddir.</p>	<p>2. The country is fighting to serve its territorial integrity.</p> <p>3. She questioned her integrity as a councillor.</p> <p>Yuqorida "Oxford collocations dictionary for students of English" berilgan barcha misollar siyosiy va demokratik mavzularni qamrab olgan.</p>
--	--	--

Xulosa. Tilshunoslikning zamonaviy va yangi yo'nalishlaridan biri hisoblangan kognitiv tilshunoslikning rivoji va bu yo'nalishni chuqurroq anglab, uning ahamiyatini keng miqyosda tahlil qilish uchun, albatta, insonda turli xil konseptlarning yoki tushunchalarning ma'nosini to'laqonli anglash qobiliyatini shakllantirish maqsadida, tilda mavjud bo'lgan konseptlar va tushunchalarning ma'nosini yanada kengroq va chuqurroq tahlil etish zarurdir.

"Halollik" tushunchasini o'zbek va ingliz tillarida chuqur tahlil qilar ekanmiz, bu tushunchaning lingvomadaniyatda va lingvoma'naviyatshunosligimizda tub ildizlari hisoblangan maqol, masal, matal, ertaklar kabi xalq og'zaki ijodining eng qimmatli va keng qamrovga ega bo'lgan janrlari yaratilishida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish mumkin. Shu jumladan, "Halollik" tushunchasining ingliz tili adabiyotida, xalq og'zaki ijodi janrlarining shakllanishida muhim ahamiyatini anglab yetish qiyin emas. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda "integrity" tushunchasi va uning sinonimlaridan foydalanishda qanchalik rang-baranglik va ma'nodorlik mavjud ekanligini kuzatish mumkin. Ushbu maqolada tilimizda asrlar davomida mavjud bo'lgan "Halollik" tushunchasini boshqa tillar, xususan, ingliz tilida mavjud bo'lgan ekvivalenti bilan taqqoslari va mavjud leksemalarning ma'nodoshlari tahlil etildi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, "Halollik" va "integrity" leksemalari izohli, maxsus hamda har bir millatning dunyoqarashida yanada kengroq ma'nolarda qo'llana olinishi mumkin bo'lgan so'zlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. – Toshkent: O'zME, 2022.
2. Колесов В. В. Язык и менталност. – С: пб 2004.19-20-с.
3. Кубрякова, Е. Когнитивный взгляд на природу частей речи. Словарь. Грамматика. Текст. – М: 1996. 331-с.
4. Lea, D. (2009). Oxford Collocations Dictionary for Students of English (2nd ed) Oxford University Press. ISBN: 978-0194325387
5. Mark Twain (1990). "Mark Twain's letters, Volume 2; 1867-1868". Univ of California Press" 357-p.

Aziza ESHDAVLATOVA,
 Qarshi davlat universiteti doktoranti
eshdavlatova1991@mail.ru

VIZUAL SHE'RIYATNING BADIY-TASVIRIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya : jahon adabiyotida vizual she'riyatning paydo bo'lishi miloddan avvalgi III asrdan boshlanadi. Maqolada vizual she'riyatdagi tasvir va uning semantik maydoni o'rtasidagi bog'liqlik, rivojlanish jarayonida tasviriy san'at bilan sintezlashuv hamda takomillashuv xususiyatlari yoritilgan. O'zbek va rus adabiyotida tasviriy she'riyatning rivojlanishi shoirlar ijodi misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Simmiyas, avangardizm, futurism, Faxriyor, shakl.*

Annotation : the emergence of visual poetry in world literature begins in the 3rd century BC. The article describes the relationship between the image in visual poetry and its semantic field, the features of synthesis and improvement with visual art in the course of development. The development of visual poetry in Uzbek and Russian literature is studied on the example of the work of poets.

Key words: *Simmiyas, avant-garde, futurism, Fakhriyor, form.*

Аннотация: появление визуальной поэзии в мировой литературе начинается в III веке до нашей эры. В статье описывается связь образа в визуальной поэзии с его смысловым полем, особенности синтеза и совершенствования с изобразительным искусством в ходе развития. Развитие визуальной поэзии в узбекской и русской литературе изучается на примере творчества поэтов.

Ключевые слова: *Симмиас, авангард, футуризм, Фахриёр, форма.*

Kirish. Dunyo she'riyati xalq og'zaki ijodidan unib, an'anaviy bir o'zanga tushgunga qadar ham umumiy san'at tushunchasining ajralmas qismi bo'lgan. Bu jarayonda turli tizimlar, yo'nalishlar, g'oyaviy-badiiy tadrijlar yuzaga keldi. Davrlar o'tishi bilan olamning yangidan yangi qirralarini muttasil kashf qilib boruvchi ijodkorga anglagan va his etganlarini ifodalash uchun o'zi faoliyat yuritayotgan san'at imkoniyatlari kamlik qilib qolishi mumkin. Shu bois ham u san'at turlari o'rtasidagi chegaralarni "buzib" o'tib, o'z ijodiy niyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishning yangi imkonlarini topishga urinadi. Ayni shu joyda san'atda turlararo sintez hodisasi sodir bo'ladi [1:14]. San'atda turlararo sintezlashuv ildizlari ancha qadimroq bo'lsa-da, qachonki yozma adabiyot rivojlanganda bu madaniyatlararo yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Jahon adabiyotida miloddan avvalgi III asrdan boshlab tasviriy she'riyat namunalari paydo bo'lgan.

Mutaxassislar tasviriy she'riyatning ilk ijodkorlari sifatida Iskandariya shoirlari Simmiyas, Dosiad va Teokritni figurali she'r ixtirochilari deb hisoblaydilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tasviriy she'riyat she'riyat

va tasviriy san'at chorhasida vujudga keldi. Ammo "tasviriy she'riyat", "vizual poeziya" atamallari XX asr boshlariga kelib tilga olinga boshladi. "Vizual she'riyat adabiyot va tasviriy san'at o'rtasidagi ulkan bo'shliqda joylashgan aralash madaniy hodisa sifatida tushuniladi. Tasviriy she'riyatning to'g'ri va qoniqarli ta'rifi hali ishlab chiqilmagan, garchi atama yoki uning tarkibiy qismlari (konkret she'riyat, figurali she'riyat) tavsifini lug'atlarda allaqachon uchratish mumkin" [2:73].

Professor E.Stepanov vizual she'riyat yuqori estetik funksiyalarni bajaradi va she'riy nutqning grafik va og'zaki imkoniyatlarini birlashtiradi [3:6], deb hisoblasa, B.Grinberg tasviriy she'riyatni "she'riyatda yashiringan narsani tasvirlash san'ati [4:12]" deb ta'riflaydi. Akademik W.Bohn XIX asr oxiridan boshlab, she'riyatdagi adabiy va badiiy eksperimentlarning butun gamutini vizual she'riyat tasnifi ostida berishga harakat qiladi. Uning fikricha, vizual elementlar birlashgan holda, nafaqat o'quvchining aql-zakovatini jalb qiladi, balki tasvir orqali uning nigohiga muhrlanadi. Bir tomonlama qaraganda, har bir she'r ko'rish uchun yaratilgan, chunki aql ularni talqin qilishdan oldin ko'z she'r shaklini qayta ishlaydi. Hech bo'lmaganda, bu yozma she'riyatga tegishli bo'lib, u qanchalik qiyin bo'lmasin, o'z mazmun-mohiyatidan o'zib ketishga harakat qilmasin, hech qachon o'zining moddiy shaklidan





qochib qutula olmaydi. Har bir holatda yaxlit vizual ko'rish og'zaki tushunish yoki o'qishdan oldin bo'ladi [5:15]. Tarixiy nuqtayi nazardan kelib chiqqanimizda, vizual she'riyat yunonlarda technopaigneia, rimliklarda

esa carmina figurata deb atalgan. Figurali she'rni birinchi bo'lib, yunon shoiri rodoslik Simmias (miloddan avvalgi IV-III asrlar) ixtiro qilgan.

5-rasm. Rodoslik Simmias. "Tuxum" va "Qanot" she'rlari.

Simmiasning "Tuxum" she'rida satrlar yuqoridan pastga qarab o'qiladi. She'rning asosiy mohiyatini uning shakli ifodalaydi. Tuxum shakli mifopoetik ramz hisoblanib, dunyoning yagona tuxumdan kelib chiqishi haqidagi kosmologik hikoya va Leda bilan birlashgan oqqush shaklida bo'lgan Zevs haqidagi yunon afsonalariga ishora qiladi. Rodoslik Simmias, Kritlik Dosiades va Teokrit ijodidagi figurali she'rlarning vizual grafikasi juda ifodali bo'lib, bu she'riy tajribalar bukolik she'riyatning kanonik an'analariidan tashqarida yaratilgan va o'sha davr uchun yangilik bo'lgan tasviriy she'riyat namunalari edi. Bunda tasviriy nominativlik obyekti sifatida ifodalangan she'r g'oyasi figurali she'rning vizual shakli orqali ochib berildi.

Asosiy qism. XII asrda pasayib ketgan vizual she'riyat Uyg'onish davrida Jorj Gerbert kabi shoirlar tomonidan qayta tiklandi, ular yunon antologiyasidagi qismlarga taqlid qilib, doiralar, piramidalar va ustunlar kabi bir qator yangi shakllarni kiritdilar. Birinchi misollar yunon yoki lotin tillarida yozilgan bo'lsa-da, tasviriy she'riyat tez orada barcha Yevropa xalqlari tillarida paydo bo'ldi. O'rta asrlardan yetmishga yaqin asar saqlanib qolgan bo'lsa, Uyg'onish davrida ikki mingga yaqin asar namunalari yaratildi. Klassik davrning oxirlari va butun o'rta asrlar davomida bu shakllar qo'shimcha harflar va so'zlar bilan ifodalangan to'g'ri chiziqli kompozitsiyalar bilan almashtirildi. Janrning mashhurligiga qaramay, neoklassik asrda tasviriy she'riyat obro'sizlanib ketdi va XX asr boshlariga qadar e'tibordan chetda qoldi. Taxminan 1914-yilda bu janr keskin qayta tug'ildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, san'atda turlararo sintezlashuv XX asr boshlariga kelib, vizual she'riyatni katta bir janr o'laroq rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotimiz davomida vizual she'riyatning asosiy tamoyillarini o'rganar ekanmiz, uning janr sifatida rivojlanishida XIX asr oxirida Yevropa san'atida vujudga kelgan avangard oqimi rivoji va san'at turlarida tarmoqlanishi muhim ahamiyat kasb etganligini aniqladik. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva muallifligidagi "Adabiyotshunolik lug'ati" da avangardizm atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Avangardizm (fr. avant-garde - oldingi otryad, ilg'or) - shartli ravishda





modernistik adabiyotning bir qator oqimlariga xos bo'lgan xususiyatning umumiy nomi sifatida qo'llanuvchi termin. Ya'ni avangardizm adabiy jarayondagi muayyan bir yo'nalish yoki oqim emas, balki bir qator oqimlarga xos xususiyat, yana ham aniqrog'i, modernizmning keskin, radikal qanotidir. Avangardizm adabiyotning reallik bilan aloqasini inkor qilish, adabiyot va san'atni ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lmagan alohida soha deb bilish, adabiy an'analarni inkor qilish va badiiy shaklda mutlaq yangilik yaratish da'vosini olg'a surish kabilarda namoyon bo'ladi" [6:5].



"Новая иллюстрированная энциклопедия" da keltirilgan ta'rif esa quyidagicha: "Avangardizm (fransuzcha avantgardisme), badiiy san'atlarning shartli nomi va ularni birlashtirgan XX asr rassomlarining tafakkur mahsuli ekanligi bilan tavsiflanadi. Badiiy san'atni tubdan yangilashga intilish, uning o'rnatilgan tamoyillari va an'analariidan voz kechish, asarlarning shakli va mazmunini ifodalashning yangi, noodatiy vositalarini izlash. Avangardizm tamoyillari ekspressionizm, kubizm, futurizm, dadaizm,



syurrealizm kabi adabiy-badiiy oqimlar, shuningdek, “ong oqimi”, “yangi roman”, absurd dramaturgiyasi va boshqalarga asos bo'ldi” [7:21]. Ushbu atama 1885-yilda Parijda T.Duret tomonidan ilk bor san'atshunoslik sohasida ishlatilgan bo'lsa-da, bugungi kunda “avangard” sifatida ko'rsatilgan rassomlar bu so'zni deyarli ishlatmaydilar [8:48]. Adabiyotshunos U.Hamdani avangardizmni bir nechta modernistik oqimlarning umumiy nomi sifatida quyidagicha izohlaydi: “Avangardizm esa modernizmdagi o'ta radikal oqimlarning (syurrealizm, dadaizm, futurizm kabi) umumiy nomi sifatida tushuniladi. Avangardizm adabiyotning reallik bilan aloqasini inkor qiladi, an'anani tan olmaydi, butunlay yangi shakllarni yaratish g'oyasini o'rtaga tashlaydi. Avangardizm ba'zan modernizm ma'nosida ham ishlatiladi” [9:22]. Rus adabiyotshunosi N.Grinning fikrlari ham U.Hamdani bilan uyg'un keladi. U “Modernizm ruhdan avangardning tug'ilishi” maqolasida avangard adabiyotining ma'naviyatni aks ettirishi haqida fikr yuritadi. Avangardning asosiy harakatlantiruvchisi kuchli ma'naviy niyat bo'lib, u nafaqat madaniy va ijtimoiy hayotning turli shakllarini yagona vektorda birlashtirgan, balki ularning har biridan ustun turishga qaratilgan, buning natijasida san'at asl mohiyatidan ko'ra, ko'proq hayotning mavjudlik chegarasidan oshib ketganday tuyuldi va inson o'ziga deyarli ilohiy, dunyo yaratuvchisi tabiatini berdi [10:63]. Ko'plab mutaxassislar “modernizm” va “avangard” tushunchalarining semantik sohalari o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratayotgan bir paytda vizual she'riyatdagi tasvir va uning semantik maydoni o'rtasidagi bog'liqlik tobora mukammallashib, yuksalib bordi. Bu rivojlanish jarayonini tasviriy san'at bilan sintezlashuv deb atasak, bir vaqtning o'zida alohida janr sifatida takomillashish ham deya olamiz. Har bir nomdagi “oqimlar” tarafdorlarining badiiy optikasi shundan iboratki, asar qahramoni shaxsiy fazilatlaridan qat'iy nazar, vizual ravishda kengaytirilgan, keng miqyosda ta'kidlangan (masalan, “kichkina odam”) tasvirning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, “katta” bo'lib chiqadi) va uning diqqat markazida bo'lgan hamma narsa unga masofa yoki yaqinlik darajasiga qarab o'z ahamiyatini yo'qotadi yoki oshiradi. Aytishimiz mumkinki, qahramon o'z miqyosini u bilan aloqada bo'lgan hamma narsaga beradi, shuning uchun empirik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgan narsa badiiy makonda sezilarli “vazn” ga ega bo'lishi mumkin. Bu she'rning moddiy detallariga ham tegishli. Barcha “ikkinchi darajali” badiiy tizimlar (uslublar) faktik voqelikni semantik olam bilan aniqlaydi, ya'ni ular unga she'rning xususiyatlarini beradi, uni ifoda tekisligiga va mazmun tekisligiga ajratadi. Taniqli adib Nazar Eshonqul “Geometrik shoir yohud avlodning avangard shoiri ijodiga chizgilar” maqolasida Faxriyorni avangard shoirlar sirasiga kiritadi va shoirning ijodga munosabatini o'ziga baholaydi: “Har qanday

yangi qarash avvalo dunyoqarashning yangiligi bilan o'lchanadi. Dunyoqarash – olamga, odamga, muhitga, o'zigacha bo'lgan tushuncha va qarashlarga, shakllarga munosabat yangilanmay turib, yangi qarash, yangi uslub paydo bo'lmaydi. Ilk taqdimni “Dardning shakli” deya nomlashi bilan oq shoir o'zining adabiy uslubiga tamal toshi qo'yib bo'lgandi. Nomda shoir faqat dardga emas, uning tusiga ham urg'u beradi va uni geometrik o'lchovga aylantirishni istaydi” [11:4]. Yevklid nazariyasiga ko'ra, har qanday fikr o'zining moddiy shakliga ega, shu sababli geometrik o'lchovlar – borliqni tahlil qiluvchi falsafiy o'lchovlar sifatida juda ko'plab ilmiy farazlarda mavjud. Faxriyor ham o'z she'rlarida tasavvurni moddiyilashtirib, unga ma'lum shakllar beradi. Buni shoirning “Geometrik bahor” she'rida ko'ramiz:

Чанг баробарида
 шамол ойни
 осмондан ҳовузга туширади учириб,
 сув теккан  (ой)
 ўчиб қолар ҳовуз тубида – .

Ҳовуз – ойсираган  (бақа) нинг
 (тўртбурчак) қуриллаши.

Қуриллашлар овлоқ кечада
 майсалар орасига кириб кетади
 шамолдан қочиб.

Faxriyorning “Geometrik bahor” she'ri shunisi bilan xarakterliki, shoir mazmun bilan birga shaklda ham asosiy majozga ishora beradi, dardning shamoyilini o'z tasavvuriga ko'ra taklif etadi. Bu shaklga qarab, o'quvchi o'z tafakkur olamidani kelib chiqib, shaklga muhrlangan metaforani o'zi tasavvur qilib oladi. Bu esa she'rni xuddi haykal yoki tasviriy san'at asari kabi anglashga, tasavvurning moddiyilashgan modeli sifatida qayta kashf etishga imkon beradi.

Avangardning realizmga “qaramligi” haqida, aksincha, ikkita tubdan farq qiluvchi badiiy tizimning “tipologik yaqinlashuvi” haqida gapirish qiyin. Ammo birinchi avlod realistlari va avangard rassomlari asarlaridagi mavjudlikka munosabat shu bilan belgilanadiki, bu yaqinlashuv zonasida obyektiv ravishda vizual tasvirdagi hamma narsa hisobga olinadi. Ikkala nuqtayi nazardan ham shakl - bu badiiy tizimlar tarafdorlari dunyoda kashf etadigan eng muhim semantik bog'lanishlar va qarama-qarshiliklarning timsoli, izidir. Tasvir borliqning asosiy xususiyatlarini va uning ziddiyatlarini aks ettiradi, “portret qiladi” [12:175]. Avangard adabiyoti ikkita bir-biriga bog'liq bo'lgan tezislarga asoslanadi: birinchidan, mavjud bo'lgan barcha voqelikning betartibli g'oyasi, mavjudlikning barcha shakllarini timsol (yoki tasvir) orqali metodik ravishda ochib berish, ikkinchidan, nazariy tamoyillarga ko'ra, erishib bo'lmaydigan mavhum, falsafiy uyg'unlik holatiga intilish. Tartibsizlikning faollashuvi yuqori uyg'unlikka olib boradigan ekskluziv yo'l sifatida talqin

etiladi [13:36].

Xulosa. Vizual she'riyat avangard adabiyoti tezislarini shakl va undagi semantik maydon kengligiga ko'ra birlashtiradi. Ya'ni vizual she'riyatdagi tasvir elementlari dastlab diniy miflardan kelib chiqqan bo'lsa-da, avangard oqimning radikal kayfiyatini o'zida aks ettirmaydi. Vizual she'riyatda tasvir va ma'no o'rtasidagi semantik bog'lanish bevosita ijtimoiylashuv tamoyillariga xizmat qilmaydi. Aksincha, individual tafakkurning noodatij kashfi bo'lib, vizual she'r shakli va uning semantikasi shoir hissiy kechinmalarining lahzalik talqini, tuyg'u shiddatining o'ziga xos shakli sifatida vujudga keladi. Har qanday adabiy asar yozma belgilarda moddiylashtirilgan badiiy nutq ekanligi sababli, ushbu belgilar tarkibini alohida muallif matnida o'rganish, ularning funksiyalari va qo'llanilish usullari, ya'ni she'riy grafikani o'rganish badiiy matnini ilmiy tahlil qilish uchun zaruriy shartdir. Matnning tashqi belgilari (ular nafaqat harflar va tinish belgilarini, balki, masalan, she'riy kompozitsiyalardagi interstrofik bo'shliqlarni ham o'z ichiga oladi) uning muallifi alohida e'tibor berishi kerak bo'lgan grafik shaklini ifodalaydi. Shu sababli, she'rni tahlil qilishda grafik vositalarni tanlashda va grafik elementlarning tarkibida yozuvchi tomonidan ijodiy individuallikning ongli ravishda namoyon bo'lish imkoniyatini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov S. Zamonaviy o'zbek adabiyotida sintez muammosi (she'riyat va rang-tasvir san'atlari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – B.14.
2. Юрий ГИК Визуальная поэзия. Теория и практика. Черновик, 19/ 2004. – С.73.
3. Степанов Е. Визуальная поэзия в современной России // «Дети Ра». — 2009. — № 6 (56) (Электронный ресурс) / Е.Степанов. — Режим доступа к ресурсу :<http://magazines.russ.ru/reviews>
4. Гринберг Б. Блиц-интервью (Электронный ресурс) / Б.Гринберг. — Режим доступа к ресурсу :http://www.detira.ru/arhiv/nomer.php?id_pub=921
5. Williard B. Modern visual poetry. Associated University Press, 2001. – P.15.
6. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunolik lug'ati. – Toshkent.: Akademnashr, 2010. – B.5.
7. Новая иллюстрированная энциклопедия. М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – С.21-22.
8. Сироткин Н.С. «Авангард» (Л. Деллюк и др.), на Украине в 1926-1929 гг. действовала литературная группа «Авангард» (Сироткин Н.С. Терминология // <http://www.avantgarde.narod.ru/index.html>).
9. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent.: Akademnashr, 2020. – B.22.
10. Гирин Ю.Н. Рождение авангарда из духа модернизма. Теория литературы. 4/2016, DOI: 10.22455/2500-4247-2016-1-3-4-60-69. – С.63.
11. Eshonqul N. Geometrik shoir yohud avlodning avangard shoiri ijodiga chizgilar. kh-davron.uz
12. Казарина Т.В. Функции вещи в литературе авангарда. Вестник СамГУ 2014. № 5 (116). – С.175-184.
13. Липовецкий М.Н. Русский постмодернизм (Очерки исторической поэтики): Монография / Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 1997. – С.36.

Ma'rifatxon ABDULLAYEVA,
 QDPI 3-kurs tayanch doktoranti
Abdullaevamarifatxon5@gmail.com

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MAQSADLARI

Annotatsiya : maqola oliy ta'lim tizimini boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Boshlang'ich ta'limda tarbiya" fani asosida kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadlari haqida.

Kalit so'zlar: *tarbiya, ta'lim, kasbiy bilim, qobiliyat, maqsad, kompetensiya.*

Аннотация: в статье речь идет о факторах, влияющих на развитие профессиональных знаний, умений, квалификации, а также целях формирования профессиональных компетенций учащихся начальных классов в системе высшего образования на основе предмета «Образование в начальной школе».

Ключевые слова: *воспитание, образование, профессиональные знания, способности, цель, компетентность.*

Annotation: the article is about the factors affecting the development of professional knowledge, skills, qualifications, and the goals of developing professional competencies for students of primary education in the higher education system based on the subject "Education in Primary Education".

Key words: *upbringing, education, professional knowledge, ability, goal, competence.*

Kirish. Hozirgi kunda olimlar tomonidan ta'lim va tarbiya yo'nalishidagi darsliklar, metodik qo'llanmalar, monografiyalari, dars ishlanmalari va test topshiriqlarining yangi zamonaviy usullari yaratilib, mazkur metodik ta'minot ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini yaxshilash, o'qituvchilardagi salbiy xususiyatlarni bartaraf etishda qo'l kelmoqda va bo'lajak o'qituvchilar uchun metodik yordam bo'lib xizmat qilmoqda.

V.A.Suxomilinskiy o'zining "Chin insonni qanday tarbiyalash kerak" nomli asarida "O'qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo'lmaydi... To'quvchi bir soatdan ko'proq vaqtda o'z ishingini hosilini ko'radi; po'lat erituvchi bir necha soatdan so'ng olovda metall oqimidan shodlanadi; yer haydovchi, don sepuvchi g'allakor bir necha oydan keyin dalada o'stirgan boshloqlari va bir qism donidan zavqlanadi. O'qituvchi esa o'z ijodining mahsulini ko'rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O'qituvchi har bir minut, har bir daqiqada o'zining o'ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisining har birini ko'rib turishi, u shu daqiqada nimalar o'ylayotganligini, qanday g'am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak" degan fikrlarni bayon etadi [1]. O'z ishida muvafaqqiyatga ega bo'lishi uchun har bir o'qituvchi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi zarur. Kasbiy kompetentlik egasi katta mehnat va kuch sarf qilib, yuksak natijalarga erishadi. Pedagogik ishga qobiliyatli, intiluvchan, ijodkor va iste'dodli kishida pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Qobiliyatlar esa faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.




Mahoratli va qobiliyatli o'qituvchi oldida turgan asosiy vazifa yosh avlodni bilimli, sog'lom, barkamol, Vatanga sadoqatli va sidqidildan xizmat qiladigan avlod qilib tarbiyalashdir.

Asosiy qism. Kasbiy kompetentlikning asosiy poydevori - kasbiy bilimdir. O'qituvchilarning bilimi bir tomondan o'zi o'qitadigan predmetga qaratilsa, ikkinchi tomondan shu bilimlarni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratiladi. N. A. Muslimov o'qituvchi shaxsini ta'lim va pedagogik, texnik va texnologik, muammoli vaziyatli topshiriqlar negizida tayyorlash jarayonlarini tizimlashtirish hamda tayanch kompetentlikni tarkib toptirishga qaratilgan kasb ta'limi o'qituvchisi modelini ishlab chiqqan. Olimning qarashicha, kompetentlik- talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarni o'zlashtirishni nazarda tutadi [2.30-b]. Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy kompetentligi -bilimlarni "insoniylashtirish"dadir. Shaxsiy o'sish, yangi bilimlarni o'rganish va yaratish ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maqsadlarini quyidagicha tuzib olamiz:

1-rasm



Keng maqsadli asosiy kompetensiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik, didaktik va kasbiy jihatdan malakali;
- pedagogik yechimlarni asoslashni bilish, ta'lim berayotgan fanini va o'qitish bilan bog'liq boshqa ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va barcha yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashni bilish;
- tadqiqot usullarini o'zlashtirish va ulardan ilmiy

tadqiqot ishlarida va dars jarayonida foydalanishni bilish;

-ko'p tarmoqli bilim subyektlarini o'zlashtirishni va o'quvchilarning keng vakolatlarini o'zlashtirishga yordam berish;

-o'quvchilarda jamiyatga bo'lgan munosabatni qanday shakllantirish va qo'llab-quvvatlashni bilish;

-hamkasblar bilan hamkorlikda turli bolalar, o'quvchilar va talabalarning faoliyati va o'quv jarayonini o'rgatish va boshqarishni bilish;

-mintaqaviy, milliy va xalqaro tarmoqlarda qanday harakat qilishni bilish;

-ijtimoiy va madaniy jihatdan faol va malakali bo'lish;

-professional, axloqiy va qadr-qimmatini anglagan holda harakat qilish;

-o'zgarishlarni oldindan bilish va tashabbuskorlik.

2. Innovatsion tajriba va harakat maqsadi.

-yangi innovatsiyalarni amalga oshirish va ijodiy jarayonlarni boshlash va boshqarishni bilish;

-turli xil o'quv muhitlarini qanday ishlatish, birlashtirish, ijodiy rivojlantirish va raqamli vositalarni amalga oshirishni bilish;

-o'quv dasturlari va daraja talablarini ishlab chiqishni bilish;

-ijtimoiy ahamiyatga ega mavzularni o'qitishga integratsiya qilishni bilish;

-o'zgaruvchan operatsion muhitda milliy va xalqaro tarmoqlarda qanday fikrlash, ijodiy harakat qilishni bilish;

-o'quvchilarning ko'nikmalarini va o'z qobiliyatlarini qanday baholashni bilish;

-o'z faoliyati va sharoitlarini qanday o'zgartirishni bilish va o'zgarishlarni boshqarish;

3. O'z qobiliyatlari va jamiyatni doimiy ravishda rivojlantirish maqsadi.

-tadqiqot va baholashlar asosida o'z malakalarini va o'qitishni rivojlantirishni bilish;

-ko'p professional jamoalarda qanday ishlashni bilish;


-o'z mahoratini baholash va o'zini boshqarishni bilish;

-ta'lim muassasasining hamkor tarmoqlarida ishlash usullari va ta'lim muhitini rivojlantirishni bilish;

-o'z pedagogik yechimlari va faoliyat usullari haqida fikr yuritish, mulohaza yuritishni bilish;

-mahalliy va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlik qilish va aloqa o'rnatishni bilish.

Kasbiy o'sish o'qituvchining butun ish faoliyati davomida davom etadigan o'quv jarayonini anglatadi. Bu orqali o'qituvchi o'z faoliyati davomida o'zgaruvchan kasbiy talablarga javob beradigan ko'nikmalarga ega bo'ladi. Axborot, aloqa va avtomatlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, ta'lim va mehnat bozorining globallasuvi kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan talablarning doimiy o'zgarishiga olib keladi.



Masalan, kompyuter va tarmoqdan foydalanish ko'nikmalari, sun'iy intellekt, muloqot qobiliyatlari va ko'p madaniyatli kompetensiya bugungi kunda deyarli barcha kasbiy sohalarga ta'sir qilmoqda. Shuni ham hisobga olish kerakki, bugungi kunda o'qib o'rganilayotgan kasblarning ba'zilari o'n yildan keyin mavjud bo'lmasligi yoki bajariladigan ishining tabiati o'zgargan bo'lishi mumkin.

Xulosa. Bugungi asrimizda o'z mavqeini saqlab qolish uchun o'qituvchilar kasbiy ko'nikmalarini har tomonlama va mustaqil ravishda rivojlantirishlari kerak. O'qituvchining kasbiy rivojlanishi - shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishning bir qismidir. Kasbiy rivojlantirish samaradorligiga hissa qo'shadigan eng muhim omil-bu talabalarda o'qituvchilik faoliyatiga motivatsion va qadriyatlarimizga asoslangan munosabatni shakllantirishdir. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatganidek, talabalarning o'quv faoliyatiga ijobiy munosabati ma'lum bir pedagogik-psixologik sharoitlar to'plamini amalga oshirish orqali shakllanishi mumkin.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish - ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarga moyillikni shakllantirish, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi bevosita o'qituvchining kasbiy darajasiga bog'liq. Samarali kasbiy rivojlanishning pedagogik tamoyillari xilma-xildir. Ba'zilari talabalar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lsa, boshqalari o'qituvchi faoliyatiga

bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bizning fikrimizcha, talabalarning shaxsiy rivojlanishini kasbiy rivojlanishga ta'siri - talabalarning ta'lim va o'quv faoliyatiga motivatsion munosabatini shakllanishi, kognitiv mustaqillik va faollikni shakllantirish, shuningdek, talabalarning kasbiy yutuqlarini aktualashtirish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bilan ifodalanadi. O'qituvchi faoliyatining eng muhim jihati talabalarni kasbiy rivojlantirish uchun individual dasturni yaratish, amalga oshirish va samaradorligini baholashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Xo'jayev, N.Xasanboyev "Iqtisodiy pedagogika" T.: O'qituvchi", 2002.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan. dok. dis. –T.: TDPU. 2007.-30-bet.
3. M.Abdullayeva CLASSIFICATIONS OF TEACHER'S PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT BASED ON "PEDAGOGY" IN PRIMARY EDUCATION. International journal of education. Social Science & Humanities Volume-12| Issue-5| 2024 Published: |22-05-2024|

Gulhayo ORTIQOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
gulhayoortiqova@gmail.com

BADIIY ADABIYOT TARJIMASIDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya : ushbu maqolada badiiy adabiyot tarjimasiga nisbatan xilma-xil nazariy yondashuvlar, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *tarjimashunoslik, yondashuv, ekvivalent, badiiy tarjima, muallif, tarjimon, badiiy asar.*

Annotation: this article discusses various theoretical approaches to the translation of literary works, problems that arise in the translation process, and their solutions.

Key words: *translation studies, approach, equivalent, literary translation, author, translator, literary work*

Аннотация: в данной статье рассматриваются различные теоретические подходы к переводу литературы, проблемы, возникающие в процессе перевода, и пути их решения.

Ключевые слова: *переводоведение, подход, эквивалент, литературное перевод, автор, переводчик, литературное произведение.*

Tarjima jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, tarjimaning turlari ko'p, masalan, asar tarjimasi, ilmiy - sohaviy tarjima, kinolar tarjimasi, sinxron tarjima va hokazo. Tarjima turlari orasida badiiy tarjima san'at darajasiga ko'tarilgan tur hisoblanadi va murakkabligi, nozikligi bilan ajralib turadi. Chunki u tarjimondan nafaqat tarjima qilayotgan asar tilini chuqur bilishni, balki ijodkorlik qobiliyatiga ham ega bo'lishni talab etadi. Biror sohaga tegishli bo'lgan ilmiy matnni yetarlicha bilimga ega bo'lgan har qanday kishi tarjima qilishi mumkin. Ammo badiiy asar tarjimasiga kelganda, bu qarashimiz to'g'ri kelmaydi, bunda bilimning o'zi kamlik qiladi. Chunki badiiy asar matni ya'ni, nasriy, she'riy, dramatik va publitsistik asar matni boshqa matnlardan obrazlilikka, tasvir vositalariga boyligi, turli uslublarda yaratilib, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Bunda tarjimon xuddi asar muallifidek his-tuyg'ularni boshdan kechirib, kechinmalarini so'z gavharlaridan foydalanib, dur kabi terishi kerak. "Demakki, tuyg'u va obrazlar olamini chuqur anglamoq uchun tarjimon

o'zi qalban san'atkor bo'lmog'i zarur". [1:3] Shu sababli ba'zan tarjimon asar muallifining raqibiga ham qiyoslanadi. Chunki tarjimon muallif asarining salohiyatiga teng kela oladigan haqiqiy asar yarata olishi kerak. Demak asar muallifidek yetarli bilimga, tafakkurga, tasavvur va so'z boyligiga ega bo'lishi kerak. Hattoki, ba'zan asarning o'zidan ko'ra uning tarjimasi ko'proq muvaffaqiyat qozonadi va kitobxon qalbidan joy oladi. Bu esa albatta, tarjimonning katta yutug'idir. "Badiiy tarjima original ijoddan tayyor obyektning mavjudligi bilan farq qiladi. Tarjimon mavjud asarga yangi ijtimoiy, adabiy va milliy muhit sharoitida yangi hayot bag'ishlovchidir... Realistik tarjima talablariga ko'ra, tarjimon asl nusxaning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim." [2:97]

Har qanday sohada bo'lgani kabi tarjimashunoslik ham bir qancha yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlar yillar davomida tarjimonlar tomonidan yaratilib, to'ldirib kelingan. Tarjima tarixini o'rganadigan bo'lsak, badiiy tarjimada asosan, 2 xil yondashuv,

ya'ni tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv mavjudligini ko'ramiz. Tilshunoslar tarjimaning asosan leksik, grammatik jihatdan original asar bilan muvofiqligiga e'tibor qaratishsa, adabiyotshunoslar esa asar qanchalik darajada ta'sirchanligini saqlab qolganiga, tarjimonning ijodiy mahoratiga baho berishadi. "Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir." [3:6] Hozirgi paytda tarjimonlar asarga har ikki jihatdan yondashib, uyg'unlashtirishga harakat qilishmoqda. Zero, asarga bir

taraf lama, ya'ni tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashilsa, mukammallikka erishib bo'lmaydi. Tarjimashunos olim M.Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy konsepsiyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va tamaddunlari o'rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligi tarjimaning lingvistik va adabiy aspektlari tarafdorlari o'rtasida e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlaydi. [4:49]

Tarjimaga stilistik jihatdan yondashadigan bo'lsak, asarda qo'llaniladigan tasviriy san'atlar va ifoda vositalari o'sha muallif mansub bo'lgan millatning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan lingvomadaniy so'zlar va iboralardan tuziladi. Demak, tarjimon o'z mahoratini ishga solib, bu madaniy xoslangan so'z va iboralarni hech qanday o'zgarishsiz holatda yoki tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalenti bilan ifodalashi kerak. Hozirgi zamon tilshunosligi stilistik vositalarning tuzilishini o'zgartirmagan holatda ikki tildagi stilistik vositalardan unumli foydalanib, ma'no chiqarib berishni talab etadi. Ya'ni tarjimonning asl maqsadi asar yozilgan tilning go'zal, betakror jihatlarini boshqa tilda ham ko'rsatib bera olish bo'lishi kerak. Albatta asarni bezab turgan tasviriy vositalar o'sha millatning madaniyati bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Shuning uchun tarjimonda bunday so'z va birikmalarni aynan tarjima qilish yoki ularning o'rniga ma'nosini chiqarib bera oladigan boshqa so'zlardan foydalanish bo'yicha ikkilanish paydo bo'ladi. Bunday holatda tarjimon quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:



**Badiiy adabiyot
san'atning
nihoyatda qadimiy
turidir.
Insoniyat paydo
bo'lgandan buyon
badiiy asarlar
yaratilib
kelinmoqda deb
bemalol aytish
mumkin.**

1) lingvistik birikma asosidagi lingvomadaniy so'zlar leksik va grammatik transformatsiya orqali berilishi mumkin;

2) frazeologik iboralar ekvivalentlik metodi orqali berilishi mumkin.

Bunda ham uch holat kuzatilishi mumkin: to'la ekvivalent, ya'ni birikmalar ikkala tilda ham semantik va struktur jihatidan to'la mos keladi; qisman ekvivalent, ya'ni ma'no jihatidan bir-biriga yaqinroq birikmalar tanlanadi; nol ekvivalentda esa ikkala tildagi birikmalar bir-biridan butunlay farq qiladi. Bunda tarjimon lingvistik va ekstralingvistik normalarni hisobga olgan holda, kerakli usulni tanlashi kerak. Masalan, Charlz Dikkensning "Mushkul zamonlar" (Hard Times) asaridagi bir jumla quyidagicha tarjima qilinadi:

The emphasis was helped by the speaker's square wall of a forehead.... [5:3]

Ta'sirchanlikni notiqning chorsi devorga o'xshash peshonasi oshiradi.... [6:8]

Bu yerda "square wall" so'zi "chorsi devor" sifatida tarjima qilinadi. Ma'lumki, "square" so'zi "to'rt tomoni teng to'g'ri to'rtburchak" ni bildiradi. Tarjimon "to'rtburchak devor" birikmasining o'rniga "chorsi devor" birikmasini qo'llab, tarjimaning asliyatini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Shunisi e'tiborliki, "chorsi" so'zi nutqimizdan chiqib borayotgan so'z bo'lib, ko'pchilik uning ma'nosini bilmaydi. "Chorsi" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida "to'rt tomoni teng to'g'ri to'rtburchak" sifatida ta'riflanadi. Bu so'zning qo'llanishi ham tarjimaning aniqligini oshirgan, ham yo'qolib borayotgan so'zni yana nutqimizga kiritgan.

Bunday tarjima to'la ekvivalentga misol bo'la oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, tarjimon asarning asl mohiyatini saqlagan holda, tarjima qilishga urinar ekan, ba'zi leksik, grammatik yoki morfologik qurilmalarni o'zgartirishga majbur bo'ladi. Ammo bu tilshunoslik me'yorlarini butunlay chetlab o'tish mumkin, degani emas. Bunda tarjimaning ekvivalentlik tamoyili buzilib, tarjima o'z maqsadiga erishmaydi.

Tarjima jarayoni original asarning madaniy va badiiy ahamiyatini saqlagan holatda muallifning maqsadi va mahoratini boshqa tilda ifodalashdir. Bunda tarjimondan katta tajriba va salohiyat talab qilinadi. Shu sababli bu jarayonda tarjimon bir qancha muammolarga duch kelishi tabiiydir. Agar tarjimaga madaniy jihatdan yondashadigan bo'lsak, asardagi madaniy nozikliklar va o'ziga xosliklarni boshqa tilda ifoda etish muammoli holatlardan biri hisoblanadi. Chunki aslida adabiyot ma'lum bir millatning madaniyati, e'tiqodlari va odatlarini o'zida aks ettirib, ularni boshqa tilga aynan tarjima qilish ma'no buzilishiga olib kelib, tarjima mukammal chiqmaydi. Shuning uchun tarjimon ikki madaniyat o'rtasida ko'prik bo'lib bog'lay oladigan shunday kerakli so'z va iboralarni topishi kerakki, asarning asl mohiyati saqlanib qolsin. Masalan, Dikkinsning "Hard times" asaridagi II bob "Murdering the innocents" deb nomlanadi va bu o'zbek tiliga "Begunoh norasidalarining kaltaklanishi" deb tarjima qilinadi. Sarlavhada foydalanilgan "murder" so'zi aslida "qotillik, o'ldirish" deb tarjima qilinadi, lekin asarda bu so'z majoziy ma'noda qo'llanilgan va "yosh bolalar tasavvurlarining o'ldirilishi, ularning beg'ubor olamining yo'qotilishi" ma'nolarida kelgan. Asarda bolalar jismonan kaltaklanmaydi, balki ularning rang-barang tasavvurlari yo'q qilinib, faqat "to'g'ri yoki xato" hisoblangan, faktlarga asoslangan ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Ularga orzu qilish, xayol surish ta'qiqlab qo'yilgan. Tarjimon qo'llagan "kaltaklanish" so'zi orqali o'z-o'zidan tayoq bilan kaltaklanish tushuniladi.

Asarda esa aytib o'tilganidek, bu holat bo'lmagan. Shuning uchun sarlavhani "Beg'uborlikning yo'qotilishi" yoki "Beg'uborlikning bo'g'ilishi" deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Tarjimaga frazeologik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, har bir asarda madaniy so'z, birikmalar, tilda chuqur ildiz otgan iboralar va metaforalardan foydalanilishi mumkin. Bunday elementlardan ko'zlangan maqsadni saqlagan holda so'zma-so'z boshqa tilga tarjima qilish qiyin, chunki to'g'ridan to'g'ri tarjima ma'no buzilishiga, yumor va kinoya kabi nozik ma'nolarning yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Uslubiy jihatdan yondashilganda, har bir muallifning o'z uslubi va so'zlar tanlovi bor. Albatta bu uslublar yozuvchining dunyoqarashi, tafakkur doirasi, qiziqishlari, hayotiy faoliyati va ba'zan o'sha davr jamiyatidagi ijtimoiy-madaniy holatga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun asarni tarjima qilishidan oldin nafaqat yozuvchining hayoti va ijodini, balki o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy holatni ham chuqur o'rganish kerak. Yozuvchining uslubini tushunish asarning tilini topish demakdir. Asarning tilini topa olgan tarjimon uni o'z ona tilida ham ko'rsata olishi kerak. Zamon va makon masalasiga kelganda badiiy asar ko'p hollarda tarjimon yashaydigan davrdan butunlay boshqa paytda va boshqa mamlakatda yozilgan bo'lishi mumkin. Lekin tarjimon asardagi zamon va makon ruhiyatini saqlagan holatda hozirgi davr kitobxoniga tushunarli qilib yetkazib bera olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima jarayoni o'ta murakkab jarayon bo'lib, tarjimondan ulkan mahorat hamda har jihatdan yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarni tarjimon lingvistik va ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holatda hal etishi kerak. Zero, tarjimonning oliy maqsadi asarning go'zalligi, muallifning har bir so'zni qo'llashdan maqsadini boshqa tilda ham ko'rsatib berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aznaurova E. Badiiy tarjimaning asosiy problemalari // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Sirojiddinov Sh. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
4. Xolbekov M. Tarjima nazariyasining lingvistik prinsiplari (1980-2000- yillar) Filologiya masalalari, 2009. 1-son.
5. Dickens Ch. "Hard times", Wordsworth Editions, 2000.
6. Dikkins Ch. "Mushkul zamonlar" Xonimqul Tojiyev tarjimasi- Toshkent:Yangi asr avlodi, 2022.

Odinaxon AZAMATOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti katta o'qituvchisi
odinaxonazamatova206@gmail.com

ARTIONIMLARDA SO'Z BIRIKMALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nomlarni o'rinli ishlatish, ularni ishonarli izohlash, etimologik tahlil qilish masalasi shuningdek, artionimlar ideonimlarnig tarkibiy qismi ekanligi, onomastikaning ilmiy yo'nalishi sifatida tilshunoslikning dialektologiya, etimologiya, terminologiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, til tarixi sohalari bilan uzviy aloqadorligi keltirib o'tiladi. Artionimlarda so'z birikmalaridan foydalanishning nazariy va ilmiy asoslari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *onomastika, nomshunoslik, so'z birikmalari, atributiv munosabat, artionimik aniqlagich, artionim, sema, antroponim.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос целесообразности использования имен, их убедительной интерпретации, этимологического анализа, а также того, что артонимы являются компонентом идеонимов, ономастики как научного направления языкознания с областями диалектологии, этимологии, терминологии, морфемики, словообразование, морфология, история языка, выявляется органическая связь. Анализируются теоретические и научные основы употребления словосочетаний в артионимах.

Ключевые слова: *ономастика, номенклатура, словосочетания, атрибутивное отношение, артонимический определитель, артионим, сема, антропоним.*

Annotation: in this article, the issue of appropriate use of names, their convincing interpretation, etymological analysis, as well as the fact that artonyms are a component of ideonyms, onomastics as a scientific direction of linguistics with the fields of dialectology, etymology, terminology, morphemics, word formation, morphology, language history organic connection is brought out. The theoretical and scientific bases of the use of word combinations in artonyms are analyzed.

Key words: *onomastics, nomenclature, word combinations, attributive relation, artonymic determiner, artonym, sema, anthroponym.*

Kirish. Ma'lumki, so'z birikmasi borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ma'lum munosabatlarni bildiruvchi mustaqil so'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy birikuvidan hosil bo'ladi. Demak, so'z birikmasi so'z shakllaridan hosil bo'ladi. O'zbek tili sintaksisiga doir bo'lgan ilmiy adabiyotlarda so'z birikmasi haqida ham, gap haqida ham sintaksisning asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi. So'z birikmasining obyektiv til birligi masalasida tilshunoslarning fikrlari turlicha. Ayrim olimlar jumladan, V.P. Malashenko va Y.P. Bogachevlar "har qanday so'z birikmalari nutq jarayonida vujudga keladi"[1.5] ya'ni, so'z birikmasini mustaqil nutq birligi deb aytalar, ayrimlari, masalan. K. V Fomenko "so'z birikmasi "takrorlanish" -lik belgisiga ega emas. Tilga tayyor holda olib kiritilmaydi, balki nutq jarayonida yaratiladi"[2.6] deb, uni bir necha asoslarda keltiradi va u "so'z birikmasi tilning alohida birligi emas, balki til valentligining nutqiy reallashuvidir"[3.6] deb hisoblaydi. Valentlik va so'z birikmasi haqida I.Qo'chqortoyev quyidagicha munosabatlarni bildiradi: "Mohiyat umumiy, hodisa esa uning aniq ko'rinishlari sanaladi. Valentlik abstrakt tafakkur sathida (mohiyat), so'z birikmasi esa jonli kuzatish sathida (hodisa) mavjuddir. So'zlarning ma'lum til me'yoriga

xos bog'lanish modeli til birligi, bu modelning leksik birliklar bilan to'ldirilishi, aniq reallashuvi, hodisalarda namoyon bo'lishi nutq birligi hisoblanadi. Demak, til va nutq zidligi so'z birikmalariga ham xosdir"[4.7].

Asosiy qism. Hozirgi kunda, so'z birikmasida so'zlar o'zaro grammatik va mazmuniy jihatdan bir-biriga bog'lanib obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi sintaktik birlik hisoblanadi. Artionimlarda ham so'z birikmalarining qo'llanilishi tasvirdagi ifodaning nomlanishidagi tanlangan birikmani ongda aks etgan borliq elementlarining o'zaro munosabatlari orqali ifodalaydi. Tasviriy san'at asarini tushunish his etish uchun artionimlar jarayonni tomoshabinning bilimi, zakovati, hamda dunyoqarashining kengayishi uchun san'at asari bilan teng xizmat qiladi. Masalan, "O'zbekistonda bahor", "Tog'da kuz" (O'rol Tansiqboyev) nomli suratlarda joyning nomi aniq keltirilgani tomoshabin uchun toponimning aniqligini ifodalagan bo'lsa, tasvirdagi daraxtlarning gullashi yoki daraxtlar barglarining sarg'ayishi fasllararo farqlarning birgina o'simliklarning o'zgarishlari asosidagi tasvirlar orqali ham kuzatish mumkin. Shuningdek, so'z birikmalarining sintaktik birliklar sifatida munosabatga kirishuvi inson tafakkuridagi moddiy dunyo haqidagi

bilimlarning ayrim elementlarini o'zaro munosabatlari orqali ifodalanishidir.

Natijalar va muhokama. O'zbek artionimiyasida artionimlar tarkibiy tuzilishiga ko'ra birikma shaklidagi artionimlar salmoqli o'rin tutadi. Masalan, "Ipak yo'li", "Sharq go'zali" (Lekim Ibrohimov), "Keksa odamning portreti", "Honoyim portreti" (Rozi Choriyev), "Tundagi muhabbat", "Layli va Majnun" (Sobirjon Rahmetov) kabi. O'zbek tilida birikma shaklidagi tarkibli artionimlar aniqlovchi-aniqlanmish xarakteriga ega bo'lib, morfologik jihatdan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

Atoqli ot (antroponim) + turdosh ot (artionimik aniqlagich): "Azamat Xotamov portreti", "Abdulqosim Karimov portreti", "Shodimurod Niyozov portreti" (Sobirjon Rahmetov), "Forobiy musiqasi" (Zaynidin Fahridinov), "Abdug'ani portreti" (Abdulhaq Abdullayev), "Umar Xayyom tushlari" (Bahodir Jalolov) kabi;

Atoqli ot + atoqli ot + turdosh ot (artionimik aniqlagich): "Abror Xidoyatov Otello rovida" (Abdulhaq Abdullayev), "Halima Nosirova Shirin rovida" (Chingiz Axmarov). Bunday tipdagi artionimlar ancha kam.

Turdosh ot + atoqli ot (artionimik aniqlagich): "Rassom Rashid Temirov portreti" (Chingiz Axmarov), "Xalq artisti Hasanov", "O'qituvchi M.G'oiyeva", "San'atshunos I.Rahmonqulova" (Malik Nabiyev), "Paxtakor Manzura" (Ortiqali Qozoqov), "Sayohatchi Bobur" (Niyozali Xolmatov) kabi. Bu tipdagi artionimlar, asosan, shaxslarning kasb-kori, faoliyatini ifodalaydi. Ularning tarkibida, asosan, ma'lum kasb doirasidagi mashhur shaxslarning nomlari ifodalanadi.

Turdosh ot + turdosh ot (artionimik aniqlagich): "Ona portreti", "Ota portreti", "Uyga sayohat" (Niyozali Xolmatov), "Qiz portreti" (Sobirjon Rahmetov), "Hayvonlar podshosi" (Baxtiyor Mahkamov), "Merosning o'g'irlanishi" (Tatyana Fadeyeva) kabi.

Fe'l shakllari + ot (artionimik aniqlagich): "Haydali kuyi", "O'tgan kunlar" (Alisher Mirzayev), "Uchish vaqti" (Tatyana Fadeyeva), "Yashnayotgan vodiy" (Nikolay Karaxan) kabi.

Son + turdosh ot (artionimik aniqlagich): "Uch sada", "Ming bir kecha" (Akmal Nur), "Yetti go'zal" (Kamoliddin Behzod), "Birinchi farzand" (Xurshid Ziyaxanov), "Uchta mushuk", "Uch kelin" (Akmal Nur), "Ikki dil ovorasi" (Alisher Mirzayev), "Birinchi qor" (Bobur Ismoilov), "Ikki dugona", "Ikki ixtiro" (Ortiqali Qozoqov) kabi.

Sifat + turdosh ot (artionimik aniqlagich): "Qizil parda" (Sarvinov Qosimova), "Xushbo'y hid" (Furqat Bozorov), "Ma'naviy yo'l" (Tatyana Fadeyeva), "Shum bola" (Bobur Ismoilov), "Qizil olma" (Zaynidin Fahridinov), "Shafqatsiz dunyo" (Yigitali Tursunnazarov), "Yolg'iz masxaraboz", "Xushbo'y tannozi", "Ilohiy falak", "Eski tandir" (Akmal Nur), "Tinch payt" (Nadejda Kashina), "Yashil hovli" (Jolliboy Izantayev), "Ko'k tuya" (Ortiqali Qozoqov), "O'ymakor usta" (Malik Nabiyev), "Oq gullar", "Qora qahva" (Laylo Salimjonov) kabi. Ushbu kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aniqlovchi va aniqlanmish tipdagi, ayniqsa, sifat + ot qo'shilmasidan tarkib topgan tarkibli artionimlar eng sermahsuldir.

Xulosa. Ilmiy izlanishlar istiqbolini o'zbek milliy rassomchilik artionimiyasining lingvistik lug'atini yaratish, tilshunoslikning zamonaviy artionimiyasini shakllanishida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, olamning lisoniy manzarasini suratlarining sarlavhalari asosida anglash, tasvirlarni qunt bilan kuzatish orqali olamni milliy til oynasi ortidan ko'rishdir. Shu sabab rassomlarning chizgan rasmlari uning nomlari, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va tavsiyalar hozirgi o'zbek tilshunosligi, xususan, ideonimlari uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, leksikologiya, onomastika fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan

yordam berishi uchun asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1986
2. Бегматов Е. Ўзбек тили антропонимикаси. — Тошкент, 2013 Б-46
3. Azamatova, O. (2024). The principles of naming artonyms based on nature and history. International Bulletin of Applied Science and Technology (T. 4, Выпуск 3, сс. 64–68).
4. Azamatova, O. O'zbek tilida artionimlarning qo'llanilishi. Mug'allim ham uzluksiz bilimlendiru. Или-ий-методикалык журнал 2024у 3-сан
5. Малашенко В. В., Богачев Ю. П. Словосочетание и членм предложения. – Москва. 1982. –136 с
6. Фоменко К. В. Является ли словосочетание единицей языка. ФН, 1975, № 6.
7. Қўчқортоев И. Сўз валентлиги ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 1973, 3- сон, 35 б.

Shaxribonu RAXIMOVA,
 O'zDJTU 2-kurs tayanch doktoranti

CHET TILI RETSEPTIV KO'NIKMALARINI O'QITISHDA DEDUKTIV VA INDUKTIV YONDASHUVLAR TATBIQI

Annotatsiya: maqolada retseptiv ko'nikmalarni o'qitishda deduktiv va induktiv yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Talaba ona tilisi bo'lmagan tilni o'rganish mobaynida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Xorijiy tilni asosiy yoki ikkinchi chet tili sifatida o'rganish davrida ham, ko'nikmalarni qabul qilishda juda katta xato va qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tilni tez va samarali o'rgatishda yondashuvlarning o'zni ahamiyatlidir. Deduktiv metod yoki deduksiya — bu bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz'iy, qisman bilimlarga kelishdir. Deduktiv usul vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh predmet yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biron xususiyat bir sinf yoki bir jinsdagi hamma predmet yoki hodisalarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir predmet yoki hodisaga ham xos bo'ladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, chet tili, retroseptiv, deduktiv, induktiv, ko'nikma, yondashuv.

Аннотация: в статье рассматриваются сходства и различия дедуктивного и индуктивного подходов к обучению рецептивным навыкам. Студент сталкивается с различными трудностями при изучении языка, который не является его родным. Даже в период изучения иностранного языка как основного или второго иностранного языка возникает множество ошибок и трудностей в приобретении навыков. Подходы играют важную роль в быстром и эффективном изучении языка. Дедуктивный метод или дедукция – это процесс познания в мышлении от общего знания к частичному знанию. Используя дедуктивный метод, исследователь создает конкретные знания о каждом из них из общих знаний о классе, поле, группе предметов или событий. Из опыта человеческого познания известно, что если какой-либо признак свойственен всем предметам или явлениям одного класса или рода, то этот признак свойствен и каждому предмету или явлению, принадлежащему к этому классу или роду.

Ключевые слова: образование, иностранный язык, рецептивный, дедуктивный, индуктивный, навык, подход.

Annotation: the article examines the similarities and differences between deductive and inductive approaches to teaching receptive skills. A student faces various difficulties when learning a language that is not his native language. Even during the period of studying a foreign language as a primary or second foreign language, many errors and difficulties arise in acquiring skills. Approaches play an important role in learning a language quickly and efficiently. The deductive method or deduction is the process of cognition in thinking from general knowledge to partial knowledge. Using the deductive method, the researcher creates specific knowledge about each of them from general knowledge about a class, gender, group of objects or events. From the experience of human knowledge it is known that if any attribute is characteristic of all objects or phenomena of one class or genus, then this attribute is also characteristic of every object or phenomenon belonging to this class or genus.

Key words: education, foreign language, receptive, deductive, inductive, skill, approach.

Darslarga tayyorlanish jarayonida o'qitishning induktiv, deduktiv kabi usullarini tanlash zaruriyati ham tug'iladi. Keyingi yillarda deduktiv o'qitishga talab va e'tibor kuchaydi. Tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat umummehnat xarakteridagi tajribalar orqaligina muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma'lum mantiqini — xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o'tishni tanlashni anglatadi. Deduktiv usul o'quv materialini tezroq o'tishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faolroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o'rganishda, anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarini aniqlashni talab qiluvchi masalalarni yechishda deduktiv usulni qo'llash ayniqsa foydalidir.

Mahalliy va xorijiy usullarda ikkita qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi: deduktiv va induktiv. Deduktiv

yondashuv qoidani tushuntirish va uni amalda qo'llashni o'z ichiga oladi. Umumiydan xususiyga, shakldan uni amalga oshirishgacha bo'lgan yo'l hisoblanadi.

Induktiv yondashuv xususiydan umumiyga, leksik va grammatik hodisadan foydalanishdan uning shaklini tushunishgacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi. Deduktiv yondashuv grammatikaning asosi — tarjima usuli bo'lib, talaba dastlab qoidalarni o'rgansa, so'ngra ularga muvofiq mashq bajaradi. Deduktiv yondashuv vaqtini tejaydi va lingvistik hodisalarning tuzilishi va shakllaridan xabardor bo'lishga yordam beradi. Ammo qoidalarni o'rganish o'z-o'zidan maqsad bo'lishi mumkin, bu esa muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Deduktiv ta'lim — bu til o'qitishga yondashuv bo'lib, unda talabalarga qoidalar o'rgatiladi va til haqida aniq ma'lumotlar beriladi. Bu qoidalar grammatik-tarjima

usuli asosida yotgan til amaliyotida qo'llaniladi. Induktiv ta'limda, aksincha, grammatik qoidalar to'g'ridan-to'g'ri o'rganilmaydi, balki o'quvchilar tomonidan til tajribasiga asoslanib, mustaqil ravishda "kashf qilinadi" yoki induksiya qilinadi. Olimlar G. Saliger, R. Erlam, K. Chastain, F. Voederhof, J. Sherer, M. Vertheimer deduktiv yondashuvni yoqlaydi, K. Harron, M. Tomasello, M. Takimoto, V. induktiv yondashuvning afzalligini, Rezerford, S.Smit, K.Sxeffer esa bu ikki yondashuv o'rtasida sezilarli farqni topmagan, induksiya foydasiga qisman o'z qarashlarini ma'lum qilganlar.

Induksiya predmeti chet tillarini o'qitish sohasigacha kengaydi, bu tilni o'rgatishning induktiv usullarida, nazariyani induktiv tuzilmasida namoyon bo'lib, talaba uchun zarur darajada induktiv fikrlash qobiliyati, chunki busiz o'rganilayotgan fan bo'yicha ta'lim mazmunini o'zlashtirish imkonsiz bo'lib qoladi.

Ta'lim samaradorligining axloqiy tomoni, unga erishishning maqsadi yoki vositalari nuqtayi nazaridan induktiv gipotetik jihatdan deduktivga nisbatan erkinroq va tabiiyroq yo'ldir. Maqsadlilik obyektiv maqsadga bo'ysunish sifatida tilga qiziqish va muhabbatni uyg'otish masalasini chetlab o'tadi. Deduktiv yondashuv o'qituvchining ehtiyojlariga asoslanadi, o'quvchining ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan va tilni o'zlashtirishning tabiiy yo'lga tayanadigan induktiv yondashuvga qaraganda foydalanish osonroq. Induksiya sizni fikrlashga va izlashga undaydi, deduksiya esa tayyor faktlarni beradi. Tilni retseptiv ko'nikmalari asosida o'qitish metodlari bo'yicha olimlarning o'z qarashlari mavjud. M. Uest "o'z tizimini qayta ishlab chiqib, o'qishni o'qib turib o'rgan" deya fikr bildirgan. Darsda o'quvchining asosiy faoliyat turi – o'qishdir, shuning uchun M.Uest matnlarning tuzilishiga asosiy e'tiborni qaratadi, zero o'quv jarayonini boshqarish, uning fikricha, darslik

orqali amalga oshiriladi.

Masalan, nutq faoliyatlaridan o'qishning har xil turlarini shakllantirish—ko'rish, kirish, o'rganish—matnni semantik tahlil qilishda quyidagi yondashuvlardan biri – deduktiv yoki induktiv – ustun bo'lishini talab qiladi. Deduktiv yondashuv o'qishni ko'rish va qisman kirish o'qish uchun xosdir. Tafsilotlarni aniqlamasdan, o'quvchi darhol tashqi tuzilmani tushunadi; matnning xususiydan umumiygacha induktiv tahlili so'zlar va jumladan boshlanadi, so'ngra o'quvchi super iboralar, pastki matn va butun matnni tahlil qilishga o'tadi. Bunday tahlil bo'lajak mutaxassis yo'nalishi talabalar uchun xosdir. Ma'lumki axborotning xotirada mustahkam saqlanib qolishi uchun uni qabul qilishda ishtirok etadigan analizatorlarga ham bog'liq. Masalan, tinglab qilingan axborot, ko'rib qabul qilingan axborotga nisbatan xotirada mustahkamroq saqlanadi. Chunki, axborotni tinglash jarayonida o'quvchi diqqatni jamlashga ko'proq kuch sarflaydi. Fiziologik jihatdan tushuntiradigan bo'lsak, eshitish a'zolari faoliyatidan 16 barobar ko'p asab tolalarining harakatlanishini talab etadi. Tinglab tushunishda ko'p quvvat sarflanishi esa til materialini mustahkam va mukammal o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Til o'rganish sohasida retseptiv qobiliyatlar, ya'ni o'qish va tinglash xorijiy tilni o'zlashtirish va tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu ko'nikmalar yozma yoki og'zaki tilni tushunish va talqin qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi va samarali muloqot uchun asos yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, retseptiv ko'nikmalar til o'rganuvchilar uchun juda muhim, chunki ular lug'at, grammatik tuzilmalar va madaniy nuanslarning keng doirasiga kirish imkonini beradi. Bundan tashqari, retseptiv ko'nikmalarni bilish tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq, chunki u nutq va yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dj.Shabanov. Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: 2009. J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti matbaa ijodiy uyushmasi, 2012.
2. Uest M. Obuchenie angliyskomu yaziku v trudnykh usloviikh pers angl. Prosveshenie. 1966 g. – Moskva:115-s.
3. А.П. Пузанов, "Индуктивный и дедуктивный подходы в обучении иностранному языку". – Россия: 2016.
4. Агишева И. Г. «Развитие индуктивного мышления слушателей языковых курсов». Саратов. 2001.22-с.
5. Волосова А. Н. «Активизация познавательной деятельности студентов при обучении чтению литературы по специальности: английский язык, неязыковой ВУЗ» дис.канд.пед.наук. Минск 1984.236-110 с.
6. Дмитриенко И.Н., "Обучение иноязычной рецептивной лексике студентов психологических факультетов в процессе самостоятельного чтения".2018.
- 7.Карпова Л. И.«Формирование коммуникативной грамматической компетенции в неязыковом вузе», – Волгоград: 2005.18-с.
- Djumali Shabanov. Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2009// J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. – T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyushmasi, 2012.

Gulchiroy MUHIDDINOVA,
 Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va
 adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
 E-mail: gulchiroy.mukhitdinova@bk.ru

YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA NUTQIY KO'NIKMALARNI INTEGRATSIYA QILISH

Annotatsiya: mazkur maqola yozma nutqni rivojlantirishda nutqiy ko'nikmalarni integratsiya qilish haqida. Yozma nutq orfografiya, punktuatsiya qoidalari asosida harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikivi, tinish belgilari, gaplar, xatboshi, murakkab sintaktik butunlikni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro'yobga chiqadi.

Yozma nutqda fikr yozma shaklda bayon qilinadi. Yozma nutq suhbatdoshsiz nutqdir. U oddiy ariza, maktub, qissa va romanga qadar bo'lgan barcha yozma asarlarni o'z ichiga oladi. Yozma nutq og'zaki nutqdan keyin yuzaga kelib, asta-sekin rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: yozma nutq, nutqiy ko'nikma, integratsiya, orfografiya, punktuatsiya, xatboshi, murakkab sintaktik butunlik, og'zaki nutq.

Аннотация: данная статья посвящена интеграции навыков говорения в развитие письменной речи. Письменная речь реализуется путем грамматически четкого и понятного изложения сложного синтаксического целого, знаков препинания, предложений, абзацев с учетом правил орфографии и пунктуации.

В письменной речи мысль выражается в письменной форме. Письменная речь – это речь без собеседника. В него вошли все письменные произведения из простого заявления, письма, рассказа и романа. Письменная речь появляется после устной речи и развивается постепенно.

Ключевые слова: письменная речь, речевые навыки, интеграция, орфография, пунктуация, абзац, сложная синтаксическая целостность, устная речь.

Annotation: this article is about the integration of speaking skills in the development of written speech. Written speech is realized by the grammatically clear and understandable statement of the complex syntactic whole, punctuation marks, sentences, paragraphs based on the rules of orthography and punctuation.

In written speech, the idea is expressed in written form. Written speech is speech without an interlocutor. It includes all written works from a simple application, letter, short story and novel. Written speech appears after oral speech and develops gradually.

Key words: written speech, speaking skills, integration, orthography, punctuation, paragraph, complex syntactic integrity, oral speech.


Kirish: Nutq ikkiga – og'zaki va yozma nutqlarga bo'linadi. Og'zaki nutq so'zlash- eshitishga qaratilgan bo'lsa, yozma nutq yozish-o'qishga qaratilgan bo'ladi.

Yozish jarayoni to'liq loyihalab, ishlab chiqishni talab etadigan jarayon. Chunki bu jarayon doimiy ravishda rivojlantirilib boriladi. Yozish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi.

2.1- jadval

Yozish bosqichlari		
<p>Yozuv oldi bosqichi</p> <p>Bu bosqich o'quvchiga o'qituvchi tomonidan mavzuni e'lon qilinishi (yoki o'zi tomonidan tanlanishi) mavzuga oid nimalarni yozishi haqida o'ylab rejalashtirish bosqichidir.</p>	<p>Yozish bosqichi</p> <p>O'quvchilar o'zlarining rejaları asosida o'qituvchining ko'rsatmalariga muvofiq yozishga kirishadilar</p>	<p>Qayta yozish</p> <p>Bu bosqichda talabalar asosiy yozish bosqichini amalga oshiradilar. Bunda talabalar qayta o'ylashlari, o'z g'oyalarini, rejalarini puxta ishlab chiqishlari mumkin.</p>

Brayne yozuvni o'rgatishda 4ta yondashuvga e'tibor qaratishni aytib o'tadi: aniqlik, ravonlik, matnli va maqsadli. Birinchi yondashuv o'quvchilardan biror bir mavzu bo'yicha yozish so'ralganda, ularning yozma ishlarida xatolik mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarga o'zlari xohlagan narsalarni o'qituvchi yordamisiz bajarish imkoniyatini beradi.



- yozuv ifoda plani, mazmun plani, imlo kabilarga ega. Xorijiy tilni o'qitish jarayonida yozuv alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitilish jarayonida matn texnologik yoki protsessual jihat deb tushuniladi va yozma nutqda fikrlarni yozma ravishda ifoda etishga qaratilgan murakkab ijodiy faoliyat hisoblanadi.

Xorijiy tilni o'qitish jarayonida yozishni o'rganishdan maqsad, o'rganuvchilarga xorijiy tilda savodli kishining o'z ona tilida yozishi mumkin bo'lgan matnlarni yozishni o'rgatishdir.

Til o'qitishda yozish kompetensiyasini rivojlantirishning qiyinchiliklari:

- yozma nutqni o'rganish jarayonida o'rganuvchining fikrlash doirasi va o'z ona tilidagi yozma nutqni o'rganayotgan tilning yozma nutqiga mos kelmasligi kuzatiladi, chunki o'rganuvchi fikrlarini so'zlar bilan ifodalashda o'rganayotgan tilning leksikalarida lakunalar kuzatilishi yozma nutqni doimiy ravishda murakkablashtirib boradi;

- agar til o'rganuvchining so'z boyligi kam bo'lsa, og'zaki nutq paytida yuz ifodalari, imo-ishoralar bilan ifodalanadigan hissiyotlarni yozma nutqda so'zlar bilan ifodalanishi zarur bo'lgan paytda o'rganuvchi uchun qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki yozma nutq lug'atlarning va grammatik bilimning natijasi sifatida yuzaga chiqadi.

- grammatik yozuvning o'zgaruvchan shakllari, ya'ni imlo, grafik tizim (alifbo) va leksikalar o'zgarib

borishi natijasida yozma nutqning qoidalariga ham ta'sir o'tkazadi va buning natijasida qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Ikkinchi tilni o'zlashtirishning yakuniy boshqichida o'quvchilar o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashlari eng muhim vazifalardan sanaladi. Boshlang'ich aloqa qobiliyatiga erishish uchun yozish malakasini o'zlashtirishni, yozma ishning mazmunini va shaklini

o'z ichiga olgan va yozma kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Asosiy kurs (boshlang'ich daraja) ni tugatgandan so'ng o'rganuvchi quyidagilarni bilishi kerak:

- harflarni to'g'ri yoza olishi;
- o'qigan va tinglagan matnidan kelib chiqib ularga reja tuza olish;
- qisqa tabriklar, taklifnomalar, xatlar yoza olishi;

- rezyume, o'zi haqida qisqa ma'lumotnomalar va blankalarni to'ldira olishi;

- hikoyalar asosida qisqa insho yoza olishi;
- og'zaki nutqdagi suhbatlarni yozma nutqda ham qo'llay olishi.

Yozishni o'rganish uchun shart-sharoit yaratish kerak, o'rganuvchilarda grafik avtomatizmga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, so'z qobiliyatlari va fikrini kengaytirish, madaniyat va intellektual tayyorgarlikni egallashga qaratilgan nutqni shakllantirish yozma ishning mazmunini kasb etadi. Yozish texnikasini o'rganish alifboni o'zlashtirishni, grafik matn terish va punktuatsiyani o'rganishni talab etadi. Yozish texnikasi chet tilini o'rganish vositasi sanalib, dastlabki bosqichda samarali hisoblanadi.

Yozma nutqni takomillashtirishda, tillarning xususiyatiga va shakliga ko'ra nutq mashqlaridan foydalaniladi, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan muloqot qobiliyatlarini mashqlar yordamida rivojlantirishda yozuv nafaqat foydalidir, balki eng samarali nazorat vositasi ham sanaladi. Insho, bayon, diktant, taqdimot ta'limiy yozuv jarayoni iyerarxiyasida eng yuqori darajadir. Bu usullar an'anaviy usuldir. Kommunikatsion yozma nutq xabarlarini qisqa va so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan ma'lumotlar orqali yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Yozma fikrlarni ifodalash qobiliyatini rivojlantirish yozma texnika asosida qurilgan grafik va imlo qobiliyatlari

orqali amalga oshiriladi. Buning asosiy maqsadi kommunikativ yozish qobiliyatini rivojlantirishdir. Yozma xabarlarining turlari (janrlari) va funksiyalariga kommunikativ yo'nalish tartibiga qarab, T.Hadge quyidagi tavsifni beradi:

1. maqsadga yo'naltirilgan yozuv;
2. ifodali yozuv turlari;
3. ish joylari uchun;
4. ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar;

Bu turlarning har biriga mos keladigan matnlarni o'rganuvchining darajasiga qarab o'rgatish lozim.

Ta'lim yozuvi	Mutaxassislikka oid yozuv	Ijtimoiy yozuv	Shaxsiy yozuv	Ijodiy yozuv
Insholar, qisqa bayon, tadqiqot hisobotlari maqolalar, annotatsiyalar, abstrakt	Biznes xatlari, umumiy hisobot, rezyume, tarjimai hol, ariza, ijtimoiy xabarlar, shartnomalar, memorandum (buyruq),	Eslatmalar, xatlar, taklifnoma, xabarnomalar (shikoyat), yo'riqnoma	Jurnallar, kunlik rejalar, eslatmalar, manzillar murojaatlar, retseptlar, xarid ro'yxati	She'r, roman, hikoya, drama ssenariy, musiqa matni
	diplomatik notalar, majlis bayonnomasi, reklama			

Ushbu turdagi matnlarda uning strukturaviy tarkibiga alohida e'tibor beriladi. O'rganuvchi ushbu matnlardan maqsadni to'liq anglashi kerak, shuning uchun til vositalarini to'g'ri tanlashda auditoriyaning xususiyati e'tiborga olinadi.

Xorijiy til o'qitish metodikasida yozuvni o'qitishning lingvistik, psixologik, metodologik komponentlari mavjud. Lingvistik tarkib xorijiy tilni o'rganish va o'rgatish vositasi sifatida yozishdan foydalanish imkoniyatini beradi. Yozma shriftlarning yozuv turlarini taqqoslash ba'zi grafikalarining bir-biridan keskin farq qiladigan bosma va qo'lyozma nusxalari borligini ko'rsatadi. Chunki nutq grafikaga qaraganda boyroq.

Normativ hujjatlar va metodologik adabiyotlar tahlili

yo'zma malakani rivojlantirish ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. yozma muloqotni amalga oshirishning muvaffaqiyati;
2. ishlab chiqarilgan yozma matn mazmunining sifati;
3. yozma topshiriqlarni bajarishda mustaqillik darajasi.

Eng tipik imlo xatolarini xorijiy tilni o'rganayotganlarning yozma nutqida uchratish mumkin, xorijiy va rus tillarida o'rganuvchilar harflarning farqlarini ko'rmaydilar. Shuning oqibatida ular bir-biriga yaqin harflarni tez-tez adashtiradilar: b va d, d va g. Vizual turdagi xatolar o'rganuvchilarning

harflardagi o'xshash elementlarning yo'nalishini farqlash qobiliyatiga bog'liq emas. O'rganuvchilar o'rganilayotgan tilning grafik-fonemik tizimini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa shu tilda tovushlar va fonemalar orasida sodda yozishmalarning yetishmasligi tufayli imlo xatolarida namoyon bo'ladi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida yozish jarayoni til o'rganuvchida asosan, h, j, q, g, f, o', g' tovushlarining yozma shaklini yozishda qiyinchilik tug'diradi, shuning uchun ham aksariyat o'zbek tilini o'rganuvchilar bu tovushlarning bosma shaklidan foydalanishni afzal deb bilishadi. Qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun grafik-fonemik yozishmalarning maqsadini tushunish talab qilinadi. Tinglab yozish jarayonida esa eng katta muammo x va h, q va k, j va z, o' va u fonemalari orasida kuzatiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun o'rganuvchini yozuv prinsiplari va tamoyillaridan xabardor etish zarur.

Yozishni o'rganishning psixologik mazmuni – bu yozma topshiriqlarni bajarish uchun grafik va imlo

qobiliyatlarini shakllantirishdir. Dastlabki bosqichda og'zaki nutq qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish va tildagi o'qish uchun zarur bo'lgan materiallarni yanada yaxshiroq egallashga yordam beradigan alifbo tizimi o'rgatiladi. Bu bosqichda tilning grafik va orfografik hamda grammatik jihatidan yozma nutq shakllantiriladi. Bunda o'rganuvchi grafik komplekslar, grafik belgilarni o'rganishi bilan bir qatorda, vizual xotiradan foydalanish natijasida so'zlarning yozilishi miyada kodlashib boradi va vosita analizatorlari faol ishlaydi. O'rta bosqichda imlo qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Nutqimizda faol qo'llaniladigan murojaat so'zlarni o'rganayotganda ularning omonimlaridan keng foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, u shu asosda suhbatga mos keladigan so'zlarni tanlab ishlatishi kerak, lekin ularga diqqat bilan e'tibor berishlari va xotirada eslab qolib, yozishlari foydalidir. Bu usul vizual (orfografik) xotirani ishlab chiqishga va shakllantirishga imkon beradi va o'rganuvchining yozish tezligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adriana Maritza Rivera Barreto. Improving Writing through Stages. Columbia.2011. 15.
2. Mavlonova K. "Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi" DSc - Toshkent, 2023
3. Yo'ldoshev M. Matn birliklari haqida mulohazalar. Til ta'limi va adabiyoti. Toshkent, 2008-yil 7-son. – 80–85-betlar.
4. Maritza A. Barreto R. Improving Writing through Stages. Colombia 2011. P.19
5. Алавуудинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф. ТДПУ. – Тошкент: 2008.
6. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma.
7. Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.

Maxbuba MARDIYEVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti assistenti

e-mail: mamirova.d@bk.ru

FRAZELOGIZMLARDA SO'ZLARNING BIRIKISHI VA ULARNING TARJIMASI

Annotatsiya: frazeologizmlar maqsadli modellashtirilmagan birlik bo'lib, u ichki qurilish tartibidan ko'ra ko'proq semantik birlik sifatida amal qiladi. Ya'ni til voqeligida bunday birliklar ma'lum modellar asosida yaratilmaydi, balki tayyor holda har doim qayta-qayta ishlatiladi hamda yaxlit lingvistik birlik sifatida gap bo'lagi mavqaida amal qiladi. Ushbu maqolada frazeologizmlarni tashkil etgan leksik birliklarning frazeologizmlarning o'zaro munosabati va birikishi haqida so'z boradi va misollar bilan yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: *frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik kombinatsiya, so'z, ibora, sintaktik qurilish, semantik ma'no, adekvat tarjima.*

Аннотация: фразеологизмы – это целенаправленно немодифицированная единица, которая действует скорее как семантическая единица, чем как внутренний порядок построения. То есть в языковой действительности такие единицы не создаются на основе определенных моделей, а используются в готовом виде всегда многократно и действительны в положении части предложения как целостной языковой единицы. В данной статье речь пойдет о взаимосвязи и сочетании лексических единиц, составляющих фразеологизмы, и будет освещена на примерах.

Ключевые слова: *фразеологизм, фразеологизм, фразеологическое сочетание, слово, словосочетание, синтаксическое построение, смысловое значение, адекватный перевод.*

Annotation : phraseologisms are a unit that is not purposefully modeled, and are more valid as a semantic unit than an internal construction order. That is, in linguistic reality, such units are not created on the basis of certain models, but are always used repeatedly in a ready-made way and are valid in the position of a sentence fragment as a holistic linguistic unit. This article will talk about the relationship and conjugation of phraseologisms of the lexical units that made up phraseologisms and will be covered with examples.

Keywords: *phraseologism, phraseological unit, phraseological combination, word, phrase, syntactic construction, semantic meaning, adequate translation.*

Ma'lumki, badiiy tarjima, xususan, nasriy asarlar tarjimasida lug'aviy birlik emas, balki ular vositasida ifodalangan ma'no, obraz, ifodaviy tarz, ohangni berish muhim. Har bir badiiy asar esa muayyan adabiy-estetik muhitda tug'iladi, unda tasvirlangan jamiki narsalar, ya'ni faqat insonlar timsoligina emas, balki tabiat: osmon, zamin, suv, o'rmon, hayvonlargacha ya'ni umuminsoniy tushunchalar ham milliylik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Odatda, bir tildan boshqasiga tarjima qilib bo'lmasligini isbotlaganda, ular o'rtasidagi leksik-grammatik farqlar bilan birgalikda o'sha tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozosi bilan tug'ilgan tasavvur, tushuncha, e'tiqodlar o'rtasidagi katta tafovutlar dalil keltiriladi [9, 112].

Original asarda ifodalangan muallif g'oyasini teran his etish tarjimonning asarni to'g'ri tushinishiga ko'mak beruvchi barcha faktlardan voqifligiga bog'liq. Tarjimonning originaldan shunchaki nusxa ko'chirmay, uning ich-ichiga kirib, uni o'rganib va chuqur tahlil qilgani unga qadimgi madaniyatning bu obidasini qayta mujassamlashtirish imkonini beradi.

Ushbu maqolada G'.G'ulomning "Shum bola" asarining ingliz tiliga tarjimasida iboralarning qay tarzda bir tildan ikkinchi tilga o'g'irilgani xususida fikr yuritiladi.

Ma'lumki, iboralar tarkibidagi ba'zi bir so'zlar har doim ham o'z ma'nosida qo'llanilavermaydi. Bunday holat har ikkala til doirasida ham keng tarzda uchraydi [2, 64]. Masalan, o'zbek tilidagi "esdan chiqmoq" iborasi va "tashqariga chiqmoq" iboralari o'rtasida semantik jihatdan katta tafovut bo'lgani kabi ingliz tilidagi "slip someone's mind" hamda "slip the mountain" iboralarning ham o'rtasida ko'p ma'no farqlanadi, ya'ni ular boshqa-boshqa ma'no anglatadi. Shundan ma'lum bo'ladiki, frazemalar tarkibidagi so'zlar ko'pincha iboraning semantik ma'nosini yoritishga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi collocation bir so'zni boshqasi o'rnida qo'llanilishini bildiradi. Ba'zan ibora tarkibidagi so'zlar ketma-ket tarzda keladi va ba'zi so'zlar ko'pincha birga kelavermaydi, chunki ular asliyatda ham ma'no jihatdan mutanosib emas: "As the apple of one's eye" iborasi o'zbek tilidagi "nuridiyda" so'ziga yoki "ko'zining oq-u qorasi" iborasiga ma'nodosh hisoblanadi. Ibora tarkibidagi "apple" so'zi "ko'z qorachig'i" ma'nosini bildiradi. Ammo apple so'zini "mind" yoki boshqa

so'z bilan qo'llanilganda ma'no jihatidan umuman mos kelmaydi: "apple of mind". Chunki ushbu so'zlar haqiqatda ham bir-biri bilan umuman ketma-ket qo'llanilishi to'g'ri kelmaydi. "Shum bola" qissasida mazkur ibora ma'nosiga mos keluvchi "nuri diyda" izofali birikmasi va "ko'z qorachig'iday" iborasi bir necha o'rinda qo'llangan: Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonlarning har bittasini nuri diydalariday parvarish qiladilar [10,16] – My brother-in-law and aunt cared for these flowers and animals as if they were the apples of their eyes. Yoki Bu qushlarning har bittasini u ko'zining qorachig'iday ko'rar edi-ku [10,14] – He held these birds dear, as the apple of his eye, did he not?

So'zlarning birikishi turli tillarda turlicha bo'lishi mumkin, masalan: ingliz tilidagi "have" so'zi o'zidan keyin kelgan so'zga ko'ra turlicha ma'no anglatishi mumkin. I have a breakfast, biroq o'zbek tilida Men nonushta qildim, men nonushta yedim tarzida aytiladi. Agar biz tarjimada iboraning so'zma-so'z ma'nosini aytadigan bo'lsak, unda tarjimamiz uslubiy va ma'noviy jihatdan g'alizroq chiqishi mumkin. Masalan, ichim achishadi - to have a heavy heart. Beva onamni, yetimcha singillarimni ko'p o'ylayman, ichim achishadi [10,115] – I had a heavy heart for my poor mother and orphan sisters.

Har qaysi tilda ham birikmalar aniq va ular ko'pincha ma'no va shakl jihatdan qotib qolgan va biri ikkinchisini albatta talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi: Now and then, day and night, neat and tidy kabi iboralar mavjudki, ularning biri ikkinchisiz kelishi dargumon, ya'ni ular ma'no jihatidan doim biri ikkinchisini talab etadi, agar ushbu iboralarning tarkibidagi so'zlarni almashtiradigan bo'lsak, ularning ma'nosi chiqmaydi va butunlay boshqa bir tushunchani ifodalashi mumkin bo'lib qoladi.

Ko'pchilik tillardagi ibora va frazeologik birliklarning ma'nosi ham hamisha bir so'zga teng bo'lavermaydi, ular yana boshqa madaniy ma'no ham anglatishi mumkin: "Shum bola" asarida qo'llanilgan "jon bermoq" iborasi ingliz tilida quyidagi ko'rinishda uchraydi: "depart this life". Bunday vaziyatda iboraning ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri o'ldi, demasdan "vafot etmoq", "jon taslim qilmoq" kabi qator madaniy ma'noni anglatishi mumkin: Qarchig'ay ham jon beray deb turibdi. [10,16] – Qarchighay is also going to depart this life.

O'zbek tilidagi "nasibasi uzildi" iborasi ingliz

tilidagi “run its course” tarzida uchraydi. Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko‘rinib ketdi. [10, 16] – Then I was the odd one out, which led to the realization that my time here had run its course.

G‘afur G‘ulom leksikasida ko‘plab uchraydigan “yaxshi ko‘rmoq” iborasi ingliz tilida “take a shine” iborasi bilan ma‘nodosh hisoblanadi: Yo‘lakning tepasiga qafasda osib qo‘yilgan bir juft qumrini juda ham yaxshi ko‘rar edim [10, 17] – In the cage at the corner of the yard, a pair of sparrows used to take a shine to me.

O‘zbek tilida yozilgan badiiy asarlarda yoki bo‘lmasa xalq orasida ko‘pincha biror sharpaga yoki uzoqdan ko‘ringan biror narsaga nisbatan “qorasi ko‘rindi” deb aytamiz, ingliz tilida ushbu iboraning tarjimasini quyidagi ko‘rinishda berilishi mumkin: Uzoqdan bir kishining qorasi ko‘rina boshladi [10, 17] – “To catch sight of a figure on the horizon”.

Yoki bo‘lmasa “ko‘zi tushib qolmoq” iborasi o‘zbek tilida “ko‘rib qolmoq” ma‘nosini anglatadi, ushbu iboraning ingliz tilidagi ekvivalenti sifatida “to lay eyes on” iborasini keltirish mumkin: Birdaniga men bilan Omonga ko‘zi tushib qoldi (22-bet) – Suddenly he said to lay eyes on Omon and me.

Ko‘rib turganimizdek, iboralar tarkibidagi so‘zlar turli xil ma‘nolarni anglatishi mumkin, bunday vaziyatda tarjimon, avvalo, iboraning asl mohiyatini yaxshi tushunib olishi talab etiladi. Iborani to‘liq ifoda etishi uchun har ikkala tilda ham iboraning tabiiy ekvivalentini topish joizdir. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, iboralar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Quyida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga moslashishi va ekvivalentlari har xil bo‘lishiga misollar berilgan.

1. Luckily, your brother-in-law came and steadied your mother’s nerves – Haytovur, pochchang kelib onangni tinchitib ketibdi.

2. It seems because of continuing my father’s

job I struck gold – Ota kasbida gap ko‘p ekan, birim ikki bo‘lib boryapti.

3. We arrived there at twilight – Kun qiyomdan oqqanda yetib bordik.

4. Mening oldimda ketayotgan Omon to‘satdan o‘zini orqaga tashlab «g‘iyq» degan ovoz chiqardi-yu o‘zidan ketib qoldi – Omon, who was walking ahead of me, said g‘iyq and lost consciousness.

5. The Grace said, “Stop, brother, stop. I will pray for him for faith healing, and he will soon back on his feet” – To‘xtang, ukam, to‘xtang, o‘zim bir dam solib qo‘yay, ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, - dedi hazrat.

6. Omon was scared to death – Omonning rangi yana quv o‘chib ketdi [10, 192].

Xulosa qilib aytganda, tilning lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi hamda fonetik strukturasi barcha kishilar uchun umumiy bo‘lsa-da, har bir shaxs fikrini o‘ziga xos tarzda ifoda etishi bilan ajralib turadi. Ammo bu hol umumiy til qoidasidan yiroqlashib ketish hisobiga yuz bermaydi. Aks holda kishilar bir-birlarining nutqini tushunmagan bo‘lar edilar. Tilning umumiy qoidasi bilan alohida shaxslar nutqiga xos individual xususiyatlar orasida dialektik birlik mavjud bo‘lib, badiiy ijod tarkibiga nazar tashlanadigan bo‘lsa, ayni munosabat personajlar xarakteridagi tipik va individual xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Badiiy so‘z san‘atkori bir asarni tarjima qilar ekan, o‘z qahramoni xarakterini yaratishda tipik xususiyatlar bilan birga, individual xislatlar ham baxsh etadi. Chunki realistik ijod tarkibidagi “har bir kishi - tipdir. Shuning bilan birga, muayyan shaxs hamdir”. Tipik obrazga (shaxsga) individual xususiyat baxsh etish yozuvchi zimmasiga yuklanadigan murakkab vazifa bo‘lib, uning hal etilishi asosan personaj nutqi tasvirini yaratish bilan bog‘liqdir. Bu yo‘lda tarjimonga so‘zlar bilan bir qatorda frazeologik birliklar, paremiologik birliklarning ham mohiyatini anglash va tarjima qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M., Rashidova U., Abdumovminov B. MATNLARNI QAYTA ISHLASH MANBALARI //COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS. – 2022. – T. 1. – №. 1.
2. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKİAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.
3. Berdiyev H, Rasulov R, Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. – Samarqand, 1978.
4. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa, 2022. -636-bet.
5. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko‘rki. –T.: Fan, 1968.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. - T.: Qomuslar yosh tahririyati. –T., 1992.
7. Rashidova U. M. MULTI-MEANING SOMATIC PHRASEOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR STYLISTIC COLORING //Thematics Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 7. – №. 5.
8. Rashidova U. M. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili //Fil. fan. diss. avtoreferati, Samarqand, 2018.
9. Tarjima san‘ati. Maqolalar to‘plami. 5-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 1980. 302- bet.
10. G‘.G‘ulom. Shum bola. –Toshkent : Adabiyot uchunlari, 2018. – 192-bet.

Madina MUHAMMADIYEVA,
 Alisher Navoiy nomidagi
 ToshDO'TAU tadqiqotchisi
muhammadiyevamadina495@gmail.com

FRAZELOGIZMLARIDA LINGVOMADANIY KODLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: maqolada frazeologizmlarida lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi xususida so'z yuritiladi. Tadqiqot uchun obyekt sifatida o'zbek yozuvchilarining asarlari va xalq og'zaki ijodi namunalari uchraydigan frazeologik birliklar bayon qilinib, ularning qanday lingvomadaniy kodlarni ifodalashi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kod, subkod, adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar, shahar (Toshkent) koynesi, frazeologizm, ma'no yaxliligi, ko'chma ma'noli, nutqqa qadar tayyor, ikki va undan ortiq so'zlar birikuvi

Annotation: the article discusses the expression of linguistic codes in their phraseology. As an object for the study, the works of Uzbek writers and the phraseological units found in folk artifacts are outlined, demonstrating what linguistic codes they represent.


Key words: code, subcode, literary language, regional dialects, social jargon, city (Tashkent) coyne, phraseology, meaning integrity, moving meaning, ready for speech, two or more words.

Аннотация: в статье рассматривается выражение языковых кодов в их фразеологии. В качестве объекта для исследования намечены произведения узбекских писателей и фразеологические единицы, найденные в народных артефактах, демонстрирующие, какие языковые коды они представляют.


Ключевые слова: код, подкод, литературный язык, региональные диалекты, социальный жаргон, городская (Ташкентская) монета, фразеология, смысловая целостность, движущийся смысл, готовый к речи, два и более слова.

Muayyan lisoniy hamjamiyatda qo'llaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan, o'zaro aloqada bo'lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil qiladi. Har bir lisoniy hamjamiyatda muayyan muloqot vositalari: til, dialekt, jargon va tilning uslubiy ko'rinishlaridan foydalaniladi. Har qanday muloqot vositasini kod deb atash mumkin.

Demak, kod muloqot vositasi bo'lib, u tabiiy tillar (o'zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun'iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.



"Kod" termini bilan bir qatorda "subkod" termini ham ishlatiladi. Masalan, hozirgi o'zbek milliy tilining subkodlari bu – adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar, shahar (Toshkent) koynesi hisoblanadi.



Subkodlar ham o'z navbatida turlarga bo'linib, tarkibiga quyi darajadagi subkodlarni kiritishi mumkin. Masalan, rus adabiy tili milliy tilga nisbatan subkod bo'lgani holda, ikki turga: kodlashgan va so'zlashuv tillariga ajraladi. Bulardan har biri o'ziga yarasha vazifalariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: kodlashgan til nutqning adabiy shaklida, so'zlashuv tili esa nutqning kundalik og'zaki shaklida qo'llaniladi. O'z navbatida kodlashgan adabiy til ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy va h.k. uslublarga bo'linadi. Bunga o'xshash holat so'zlashuv tilida ham kuzatiladi.

Rus sotsiolingvistikasida subkodlar ko'pincha til mavjudligi shakllari, G'arb sotsiolingvistikasida registrlar, deb ham yuritiladi.

Inson faoliyatining turli sohalariga: ishlab chiqarish, ta'lim, ilm-fan, tijorat, maishiy turmush va boshqalarga muvofiq til (agar gap ko'p tilli jamiyat haqida borayotgan bo'lsa, u holda, tillar) qo'llashning turli sohaları ajratiladi.

Til qo'llash sohasi so'zlashuvchilarning muayyan til vositalari va ularning bir-biri bilan birikuv qoidalarini tanlab olib amalga oshirishini qondiradigan, bir xil kommunikativ ehtiyojlarni xarakterlaydigan til tashqarisidagi muhitdir.

Til vositalari va ularni bir-biri bilan birikuv qoidalarini tanlab olish natijasida inson faoliyatining muayyan sohasi bilan ma'lum lisoniy kod (subkod)ga bog'liq holda, ko'proq yoki kamroq barqaror (mazkur til hamjamiyati uchun) bo'lgan an'ana shakllanadi. Masalan, o'rta asrlarda Yevropada ibodatda va ilmiy

sohada qo'llanilgan lotin tili kommunikativ vosita vazifasini o'tagan. Rossiyada uzoq vaqt davomida cherkov-slavyan tili madaniy-kommunikativ vosita rolini bajargan.

Nutqiy muloqot jarayonida frazeologizmlardan foydalanish so'zlovchi nutqini ta'sirchanligini oshiradi. Bu jarayonda u bevosita lingvomadaniy kodlardan koydalanadi. Har bir xalqning nutqida o'sha xalq uchungina tushunarli bo'lgan kodlar mavjud bo'lib, bu ham o'z navbatida bir qancha ichki bo'linishlarni yuzaga keltiradi. Bu bo'linishlar ijtimoiy qatlam, yosh va gender jihatdan tarmoqlanib ketishini ko'rishimiz mumkin. Bir jamiyat ichida turlicha kodlar ham uchrab turadi va bu kodlar boshqa bir qatlam uchun mutlaqo notanish bo'lishi ham mumkin. Nutqiy muloqot jarayonida kodlardan foydalanish kommunikativ holatning to'g'ri qo'llanilishigina emas, balki xarakteriga ham e'tibor berishni nazarda tutadi.

Masalan, amerikalik tadqiqotchi S. Ervin-Tripp tomonidan nutqiy muloqotning quyidagi qoidalari taklif qilingan :

1. Lisoniy vositalarni tanlash qoidasi:


a) barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy bo'lgan;

b) turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar uchun maxsus bo'lgan. Misol: murojaat shaklini tanlash, ushbu tanlovdagi milliy va ijtimoiy farqlar.

2. Rioya qilish qoidasi, ya'ni kommunikatsiyada nutqiy harakatlar ketma-ketligiga rioya qilish: salomlashish, minnatdorchiilik, xayrlashish va h.k. Mazkur qoidalar doirasida xayrlashish, taklif qilish, telefonga chaqirish, kommunikativ aloqani yo'lga qo'yish formulalari ko'rib chiqiladi.

3. Birgalik qoidasi; bunda bir kontekstda u yoki bu leksik, fonetik, intonatsion, sintaktik va h.k. birliklar va xususiyatlarning birlashish qoidasi nazarda tutiladi.

Shuningdek, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati qoidasi alohida o'rganiladi. Bunda so'zlovchi mazkur ijtimoiy yoki kasbiy guruhga kiruvchi suhbatdoshlar uni "o'ziniki" deb qabul qilishlariga, uning nutqiy muomalasi hamda vaziyatini va ijtimoiy rolini o'zgartirishda bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tishini ma'qul ko'rishlariga harakat qiladi.



Kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish jarayoni ham murakkablasha bordi. Boshqa predmetlarda bo'lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoq, yangi tadqiqot obyekti yuzaga kela boshladi. Anglash tushunchasi bilan bog'liq holda "his qilish" yo'nalishi ham lingvistika ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. "Forobiy narsaning obyektivligini, uning mavjudligi bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etishini e'tirof etadi. Biz faqat o'zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi a'zolarimiz orqali bilib olamiz. Ushlash, qo'l tegizish

yo'li bilan olingan bilimga quvvai lomisa, ko'rish orqali olingan bilimga esa quvvai nigohiy atamalarini qo'llaydi. Shu bilan birgalikda eshitish sezgisi orqali, nutq vositasida ham bilimga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday bilim quvvai notiqqa sanaladi .

Ma'lumki, aloqa-aralashuv jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, uqish bilan uzviy aloqador ifoda formalarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ifoda formalarining qo'llana boshlanishining o'zidayoq munosabat tushunchasi namoyon bo'la boshlaydi.

/r	Frazeologizmlar	Lingvomadaniy kodlar	Izohi
	Do'ppisi tor keldi	Do'ppi (milliy bosh kiyim)	Ushbu ibora qo'li kalta iborasi bilan sinonimlik hosil qiladi. Shu bilan birgalikda imkoniyatning yetmasligini ham anglatadi.
	Belni bog'lamoq	Belni bog'lash	Odatda bel bog'lamoq deganda biror ishga kirishmoq nazarda tutiladi. Belni bog'lash ham
			mentalitetimiz bilan bog'liq deb ayta olamiz. Buning sababi ota-bobolarimiz biror ishga kirishishdan avval belbog' yordamida belni mahkam bog'lashgan.

	Do'ppisini osmonga otmoq	Do'ppi	Hursandchilikni ifodalaydigan ushbu iborada ham milliy bosh kiyimiga ishora borligi ko'rinib turibdi.
	Kalavanning uchi topildi	Kalava	Ushbu iborada xalqimizning yaqin tarixida mavjud bo'lgan turmush tarziga ishora qiluvchi kalava so'zi qo'llanilgan. Momolarimiz aynan chorva hayvonlari yungidan kalava iplar olishgan va ushbu iplar yordamida palos, gilam olacha va kiygizlar tayyorlashgan.

Mashhur tilshunos olim T.V.Kolshanskiyning ta'kidlashicha, so'zlovchi subyekt his-tuyg'ulariga xos xususi-yat belgilardan ajralgan ma'lum bir axborotni ifoda etish mumkin emas. Nutq mazmuniga hamohang his-tuyg'u va barcha baholar konkret tinglovchiga qaratilgan bo'ladi. Ana shu tinglovchi uchun qaratilgan subyekt nutqiga xos munosabat belgilari - nutqdagi barcha bo'yoqlar yaxlit tarzda pragmatika deb nomlanadi. Bu ularning pragmatik tayinlanishi deb qaraladi. Frazologik birliklar ham o'z navbatida pressupozitsiya ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беликов В.И. Крысин Л. П. Социоллингвистика. – М.: 2001. 14-с.
2. Ervin-Tripp S. Sociolinguistics // Advances in the Sociology of Language / Ed. by J. Fishman. Vol.1. The Hague; – Paris: 1971.
3. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т.:2000. 7-8-б.
4. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. – М.: Наука, 1990.108- с.

Iroda XOJIYEVA,
ToshDO'TAU mustaqil izlanuvchisi

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA O'ZBEK TILI (DAVLAT TILI) FANIDAN MORFOLOGIYA MAVZUSINING DARSLIKlarda BERILISHI (5-sinf darsligi misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining 5-sinf o'zbek tili (davlat tili) darsligida o'zbek tili morfologiyasining berilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim rus va qardosh tilda olib boriladigan maktablar, ta'lim o'zga (yoki boshqa) tilda olib boriladigan maktablar, ikkinchi til ta'limi, morfologiya, o'zbek tili (davlat tili) fanidan amaldagi 5-sinf darsligi.

Аннотация: в данной статье анализируется изложение морфологии узбекского языка в учебнике узбекского языка (государственного языка) для 5-го класса общеобразовательных школ, где обучение ведется на русском и родственных языках.

Ключевые слова: школы, где обучение ведется на русском и родственных языках, школы, где обучение ведется на иностранном (или другом) языке, второе языковое образование, морфология, действующий учебник узбекского языка (государственного языка) для 5 класса.

Annotation: this article analyzes the presentation of the morphology of the Uzbek language in the 5th grade Uzbek language (state language) textbook of general schools where education is conducted in Russian and related languages.

Key words: schools where education is conducted in Russian and related languages, schools where education is conducted in a foreign (or other) language, second language education, morphology, current textbook of the Uzbek language (state language) for grade 5.

Kirish.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Davlat tili to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumta'lim muassasalari o'quvchilarining asosiy qismi o'zbek millatiga mansub o'quvchilar, ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta'lim muassasalari o'quvchilari esa rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman tojik kabi millatlardan biriga mansub sanaladi. Shu asosga ko'ra, mamlakatimizda ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik tillarida olib boriladi. "umumiy o'rta ta'lim bosqichi o'quv dasturlarida milliy maktablarda o'zbek tilini o'qitishga nisbatan ona tili atamasi, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili atamasi qo'llana boshlandi. Shunga mos holda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun chop etilayotgan darsliklar ham "O'zbek tili"deb, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'qitish "davlat tili ta'limi" deb nomlanmoqda"[1]. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ta'lim muassasasi o'quvchilari uchun o'quv fanlari qatorida O'zbek tili fani davlat tili sifatida 2-sinf dan 11-sinf gacha o'qitiladi. Davlat tili ta'limi ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan, ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan ta'lim o'zga tilda olib boriladigan, ta'lim boshqa tilda olib boriladigan, (tojik, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq) kabi tushunchalar orqali ham ifodalanadi. "...o'zbek tilini boshqa millatlar vakillariga o'qitish 1906-yildan, o'zbek tili ta'limi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqot ishlari esa 30-yillardan boshlanganligini ko'rish mumkin. O'zbek tilini boshqa millat vakillariga o'rgatish Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi bilan

bog'liq bo'lib, Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatishga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishi aynan shu maktablarning faoliyati bilan bog'liqdir [2.1]. Keyinchalik bu yo'nalish mamlakatimizda ikkinchi til ta'limi sifatida, ya'ni tilni til muhitida bo'lgan o'rganuvchilarga o'rgatish asosida rivojlana boshladi. Bu o'rinda tilni ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'rganish va o'rgatish farqlanishini hisobga olish zarur [3].

Asosiy qism.Darslik va adabiyotlar tahlili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinf darsligidagi [4] mavzular o'quv dasturiga asosan: "...leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy o'qish qismlariga ajratib berilgan" [2.2]. Darslik grammatikasi morfologiya bo'limiga bag'ishlangan bo'lib, ot so'z turkumi mavzusi doirasida: atoqli va turdosh, shaxs otlari, kasb-hunar, o'rin-joy, narsa-buyum otlari, egalik, kelishik, va -lar ko'plik qo'shimchalari haqida ma'lumot beriladi. Har bir kelishik alohida mavzularga ajratilgan. Ot mavzusi yakunlangach, sifat so'z turkumi boshlanadi va rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, xarakter-xususiyat, shakl-ko'rinish kabi sifatning turlari bilan mavzular yakunlanadi. Mazkur darslikda berilgan Grammatik mavzular o'quv fani yuzasidan grammatik bo'limlarning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida tuzilgan bo'lib, 6-7-8-9-10-11-sinflarning darsliklarida bo'limlar bosqichma-bosqich rivojlantirilib borilishi ko'zda tutilgan edi. Sababi "Grammatik mavzular va nutq mavzularini tarqoq holda berilishdan saqlanish o'zbek tilini faqat og'zaki muloqot uchungina emas, balki davlat tili sifatida puxta o'rganilishiga ham olib keladi"[2.3]. 5-sinf darsligida grammatik

mavzularning berilishida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish tamoyiliga amal qilingan bo'lsa, keyinchalik amaldagi 6-sinf darsligida [5] o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish tamoyiliga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin til muhitidagi o'quvchilar uchun davlat tilini xorijiy til o'qitish metodikasi asosidan foydalanish nisbatan o'zini oqlamasligini ham qayd etish lozim, chunki til muhitida yashaydigan o'rganuvchilar o'z-o'zidan boshlang'ich darajadan (beginner) o'tgan bo'ladi.

Xulosa. Umuman olganda, mazkur fanni bugungi kunda o'quvchilar uchun eng muhim amaliy, hayotiy ko'nikmalarni bera oladigan darajada takomillashtirish, o'quv dasturi, darslik, metodik qo'llanmalar mazmunini yangicha yondashuv va usullar asosida boyitish, asosiysi o'quvchi – ta'lim o'zga tilda olib boriladigan maktab o'quvchilarining til orqali egallashi zarur bo'lgan barcha malakalarni singdirish zarur sanaladi. Biroq shu o'rinda biz qaysi yangi yondashuvlarga tayanmaylik, eng avvalo, ulardan foydalanish prinsiplarini belgilab olish, qanday qilsak o'quvchining dars davomida diqqati fanda berilayotgan ma'lumotni o'rganish, katta qiziqish bilan qabul qilishiga erisha olamiz, degan

savolga javob topishimiz lozim. Bilamizki, o'zbek tilidan tashqari barcha millat va elatlarning o'zbek tilini bilish, undan kundalik hayotda foydalanish darajasi bir xil emas, masalan, tojik millatiga mansub o'quvchilarda o'zbek tili nutqi nisbatan yaxshiroq shakllangan bo'lsa, rus millatiga mansub o'quvchilarda nutq ancha passiv holda ekanligini, qozoqlarda esa yozma nutqda o'zbek va qozoq tilini aralashtirish holatlari, imlo bilan bog'liq muammolar borligini ko'rishimiz mumkin. Demak, biz bu holda o'quv dasturida tanlayotgan mavzuni ham, darslikda berilayotgan mashq va topshiriqlarni ham o'rta me'yorda, barcha uchun qiziqarli va diqqatni jalb qila oladigan tarzda taqdim qilishga erishishimiz kerak. Sababi darslikdagi ma'lumotdan tojik millatiga mansub o'quvchilar zerikib qolmasliklari, rus millatiga mansub o'quvchilar tushunmaslik natijasida bajarishdan voz kechmasliklari maqsadga muvofiq. Qolaversa, o'zbek tili (davlat tili) fanidan amaldagi yangi nashr darsliklar spiralsimon yondashuvga asoslangan bo'lsa-da, grammatik mavzularning berilishida barcha sinflarda uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilish hamda grammatik mavzuni mustahkamlovchi mashq va topshiriqlar bilan to'ldirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxitdinova X. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss. TDP I –Toshkent, 2011.270-b.
2. Muxitdinova X. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi.O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2023.12-20-betlar. [2.1, 2.2, 2.3]
3. Xojiyeva I. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, Impact Factor: 8.2 [2181-3035]№ 12(49) DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.12169210>.
4. Rafiyev A.va b. O'zbek tili (ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 5- sinfi uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Xidoyatova D. va b. O'zbek tili (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik) – Toshkent: RTM, 2022.

Malika ESHONQULOVA,

BuxDU tadqiqotchisi

malikaeshonqulova4450@gmail.com

PSIXOLINGVISTIKA ORQALI BOLALARDA TIL TIZIMI UYG'UNLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalardagi til tizimi uyg'unligida psixolingvistikaning o'rni, undan foydalanish strukturasi, nutqining shakllanishida psixolingvistik omillarga oid asosiy tushunchalar, so'zning assotsiativ potentsiyali, bolaning ongida kattalar ona tilida so'zlashuvchilarning odatiy qo'llanilishida so'zning farqi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *identifikatsiya, reflektor nazariyasi, nutq ontogenezi, nutq portreti, ichki diologizm, til tizimi, bolalar nutqi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются роль психолингвистики в гармоничности языковой системы у детей, структура ее употребления, основные понятия о психолингвистических факторах формирования речи, ассоциативный потенциал слова, отличие обычного использование слова взрослыми носителями языка в сознании ребенка прошло.

Ключевые слова: индификация, рефлекторная теория, онтогенез речи, речевой портрет, внутренний диалогизм, языковая система, детская речь.

Annotation: in this article, the role of psycholinguistics in the harmony of the language system in children, the structure of its use, the basic concepts of psycholinguistic factors in the formation of speech, the associative

potential of the word, the difference in the usual use of the word by adult native speakers in the child's mind. passed.

Key words: *indification, reflector theory, speech ontogeny, speech portrait, internal dialogism, language system, children's speech*

Psixolingvistika nazariyasi nutq identifikatsiyasi (aynan o'xshatish, tenglashtirish) ni darajalangan tizim natijasi sifatida qaraydi. Bizning nuqtayi nazarimizda, nutqning idroki va tushunulishi darajalanishning natijasi emas, aksincha, vujudga kelgan darajalanish faol o'xshatish mexanizmining harakati natijasidir.

Psixolingvistikada shaxsning lingvistik qobiliyatini shakllantirish hodisasini muloqotning kommunikativ, nutqqa asoslangan xususiyatini hisobga olmasdan ko'rib chiqish mumkin emas. Atrof-muhit va jamiyat bilan doimiy va cheksiz xilma-xil aloqalarga kirishib, inson nafaqat ijtimoiy, amaliy, balki nutq va kommunikativ tajribasini ham boyitadi va takomillashtiradi, bu unga kundalik, shaxsiy va kasbiy ishbilarmonlik aloqalarida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Albatta, kommunikativ kompetensiyaning ushbu jihatlarini shakllantirish insonning tug'ilishidan boshlanadi va uning kattalar hayoti davomida davom etadi.

Psixolingvistika idrokning "reflektor" nazariyasiga tayanib, nutqni idrok etishni miyaga informatsiyalashning bir tomonlama jarayoni sifatida qaraydi. Biz, reflektor nazariyasiga muvofiq, nutq idrok qilinishini xuddi nutqni harakatga keltiruvchi motor zvenosining majburiy ishtirokida sodir bo'ladigan faol dinamik jarayon sifatida qaraymiz.

Nutq ontogenezi jarayonida erishilgan lingvistik kompetensiya shaxsning "nutq portreti" yoki "idiostyle" ning asosini tashkil etuvchi nutqiy xatti-harakatlarning afzalliklari va stereotiplarining ko'p qirrali va sof individual dasturida "natija" qiladi. Bunday muvaffaqiyatli va samarali muloqotning asosiy jihatlaridan biri bu odamlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tipik vaziyatlarini janr dizayni me'yorlari va qoidalariga rioya qilgan holda, o'z nutqini hamkorlikda, "do'stona" tarzda qurish qobiliyatidir. Ushbu tadqiqot maktabgacha (4-5 yosh) va boshlang'ich maktab (10-11 yosh) bolalar nutqi misollaridan foydalangan holda ontogenezda salbiy faktik yo'nalish janrlarida strategik imtiyozlarni shakllantirishning asosiy qonuniyatlarini aniqlash va aniqlashga urinishdir. Tadqiqot K. F. Sedovning nutqiy xatti-harakatlarda hamkorlik qilish qobiliyatiga ko'ra lingvistik shaxslarning turlari to'g'risidagi konsepsiyasiga asoslanadi. Olimning fikricha, insonning muloqotdagi xarakteri uning muloqot sherigi bilan munosabatlarini qanday qurayotgani, "muayyan kommunikativ maqsadga erishish uchun qanday yo'lni tanlaganligi"da yaqqol namoyon bo'ladi.

So'zning assotsiativ potentsiyali, bolaning ongida kattalar ona tilida so'zlashuvchilarning odatiy

qo'llanilishida so'zning ifodalanishidan sezilarli darajada farq qiladi, tilning o'z-o'zidan yoki ongli ravishda buzilishi sifatida til o'yinlari uchun potentsiyal maydon yaratadi. Bolalarning tayyor so'z va ma'nolardan foydalanish va yangilarini yaratish jarayonlari ijodiy xususiyatga ega bo'lib, til yetishmovchiligi sharoitida bolaning kommunikativ va nominativ ehtiyojlarini amalga oshirish uchun imkoniyatni ochib beradi. Bolalar innovatsiyalari (birinchi navbatda semantik, so'z shakllantiruvchi, motivatsion) bolaning lingvistik ongidagi dunyo tasvirining proyeksiyasi sifatida og'zaki belgilarning shakli va mazmuni bilan ishlashning amalga oshirilmagan imkoniyatlarini aniq ko'rsatib beradi.

Psixolingvistika ta'limotida lingvistik ong voqelikni og'zaki aks ettirish va nutqni o'zini o'zi boshqarishning eng yuqori darajasidir. Uning xususiyatlari:

- belgi (lingvistik) tuzilmalar vositasida ijtimoiy xarakter;
- til va nutqni aks ettirish qobiliyati;
- ichki dialogizm (so'zlashda o'zini tinglash qobiliyati va ma'noni aniqroq shakllantirish uchun,



o'z bayonotini o'zgartirish; ichki nutqda o'z-o'zidan gaplashish); d) obyektivlik - bu holda ideal obyekt ma'no shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistika orqali bolada til uyg'unligini takomillashtirish bir muncha samaralidir. Tayyor so'z va ma'nolardan foydalanish, yangilarini yaratish jarayonlari ijodiy xususiyatga ega bo'lib, til yetishmovchiligi sharoitida bolaning kommunikativ va nominativ ehtiyojlarini amalga oshirish uchun imkoniyatni yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кары Ниязова и проф. А. К. Боровкова “Русско –узбекский словарь” –Ташкент: 1942. 371-с.
2. Калмыкова Л.А. Развитие речевой личности дошкольника. – Санкт-Петербург: 2011. 434-с.
3. Пузанова.Ю.С.Психолингвистические основы освоения детьми парадигматических отношений на материале параметрических прилагательных русского языка. Автореф.диссерт.канд.фил.наук. –Санкт-Петербург: 2019.15-с.
4. Доброва.Ф.Г. Детская речь.универсальное – общее – дифференциальное – индивидуальное. – Санкт-Петербург:2011. 36-с.
5. X.A.Xaitov “Boshlang‘ich yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda ontogenez-psixolingvistikaning ahamiyati” <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/issue/view/155>.
6. M.Z.Eshonqulova. “Ontolingvistikaning tarixi va uning rivojlanish bosqichlari” Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti UO‘K 81 Ilmiy – nazariy jurnal. 2024. №2 fevral.
7. M.Z.Eshonkulova. “History of the origin of psycholinguistics and ontolinguistics, development stages” INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY JOURNAL FOR RESEARCH&DEVELOPMENT. 2394-6334 [https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd Volume 11, issue 06 \(2024\)](https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd Volume 11, issue 06 (2024))

Abera QAHHOROVA,
BuxDPI I bosqich tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BADIY MATNLARNI TAHLIL QILISH ORQALI IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni innovatsion tahlil qilish orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga oid mulohazalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, tarixiy genezis, tamoyillar, milliy adabiyot, badiiy estetik ta‘sir, yutuqlar, saralash, yangicha mafkura, yangi nuqtayi nazar, baholash, zarurat.

Аннотация: в данной статье анализируются мнения о формировании творческих способностей учащихся посредством инновационного анализа художественных текстов на уроках родного языка начального образования и читательской грамотности.

Ключевые слова: развитие, исторический генезис, принципы, национальная литература, художественно-эстетический эффект, достижения, отбор, новая идеология, новый взгляд, оценка, необходимость.

Annotation: in this article, the opinions on the formation of creative abilities of students through the innovative analysis of artistic texts in primary education mother tongue and reading literacy classes are analyzed.

Key words: development, historical genesis, principles, national literature, artistic aesthetic effect, achievements, selection, new ideology, new perspective, assessment, necessity.

Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalq va elatlarni yaxlit sistema deb hisoblasak, bu makrosistema tarkibidagi alohida millatlar muayyan belgilari bilan, xususan, tili, adabiyoti, kelib chiqishi, moddiy va ma‘naviy madaniyati, maishiy turmush tarzi va psixologiyasi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Mana shu o‘ziga xos psixologiya, milliy urf-odatlar ta‘lim-tarbiya madaniyatining turlicha taraqqiyoti, tarixiy genezisi, tamoyillari va milliy adabiyotga badiiy estetik ta‘sirini belgilab beradi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Gap madaniy qadriyatlar, ma‘naviy meros haqida

ketar ekan, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma‘naviy merosni o‘rganish va asrab-avaylashga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish zarurligi oydinlashadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida bo‘lgani kabi adabiyotshunoslikda ham jumladan, askiya, lof, latifa janrlarining yozma adabiyotga ta‘sirini o‘rganish masalasida bosib o‘tilgan yo‘lni kuzatish, erishilgan yutuqlarni saralash, ularni yangicha mafkura, yangi nuqtayi nazardan baholash zarurati yuzaga keladi. Zero, “Jahon madaniy merosining, jumladan, o‘zbek adabiyotining o‘lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, oliyjanob ideallari bir ekanini “ ,xalqimizning xohish-irodasi asosida dunyoga kelgan adabiy asarlarni chuqur mantiqiy mushohada qilish

mas'uliyatini yuklaydi.

E'tiqodi, dunyoqarashi, kayfiyati, qalb intilishlari turlicha bo'lib kelgan millionlab insonlarning sezgilari, fikr-mulohazalari ularning o'zlari o'ylab topmagan, ajdodlaridan meros bo'lib kelayotgan behisob so'zlarning o'zanidan erkin oqishga majbur bo'ladi.

Ana shundan kelib chiqib, ona tili ta'limining asosiy maqsadi: ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog'i darkor. Ayni fursatda, mazkur murakkab, mas'uliyatli vazifani bajarishda ona tili darsliklarining ahamiyati muhim.

O'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari o'rta maktabning o'zbek tili darsliklarida berilgan. Mazkur topshiriqlar turli usullar bilan o'qituvchi hamkorligida o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi lozim. Ijodiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o'yin-topshiriqlardir. Bu turdagi topshiriqlar o'quvchilardan zukkolikni, bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi.

Ona tili darslarining qiziqarli o'tishida o'yin-topshiriqlarning ahamiyati juda katta. Biroq "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da grammatik o'yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlanmagan. O'yin-topshiriqlarga xos bo'lgan jihat shundan iboratki, u ko'pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunida, o'quvchi va guruhlariga rag'bat yoki ballar berilishi, shubhasiz, o'quvchilarda topshiriqni bajarishga ishtiyoqning oshishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha oshadi.

Shu bilan birga, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug'ullanish ehtiyojini tug'diradi. Shuni inobatga olgan holda, o'qituvchi darslarining samarali bo'lishi uchun turli o'yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi davr talabi ham, fan o'qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng

asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, ona tili darslarini o'tishda ishlatish mumkin bo'lgan ayrim grammatik o'yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini ko'rib chiqamiz.

Bunday grammatik o'yinlarni yanada ko'plab o'ylab



Ijodiy fikrlang! Bu qorong'u muammolarga yorug' yechim topishning eng yaxshi usuli!

topish va ulardan dars jarayonida foydalanish mumkin. Bu esa yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog'liq. Ma'lumki, o'yin-topshiriqlar o'quvchilar malaka va ko'nikmalariga ko'ra, murakkablik darajasiga ko'ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

Yangilangan ta'lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo'limlariga mo'ljallangan mashg'ulotlarda darslar ta'rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya'ni o'quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmasdan har bir mavzu uchun mo'ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o'rinda o'qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o'tishi, ya'ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Folklor san'ati insoniyatning bolalik qo'shig'i". Xalq baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan nutq. 2019-yil 6-aprel.
2. Xayitov X.A. Zamonaviy o'zbek adabiyoti badiiy taraqqiyotiga xalq kulgi san'atining ta'siri. Fil.fan.dokt.dissert. Buxoro. 2024-yil.
3. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutq madaniyati ocherklari. – Toshkent, 1998-yil.

Dilnura MADAMINOVA,
Urganch davlat universiteti talabasi
Email: madaminovadilnura56@gmail.com

ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDA BERUNIY OBRAZI

Annotatsiya: ushbu maqolada Beruniy obrazi yozuvchi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani misolida tahlil qilingan, shuningdek, asarning mohiyati, yozuvchi mahorati, tarixiy voqealar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: Beruniy siymosi, tarixiy-biografik roman, kishilik siymosi, bilimdagi siymosi, ibodatdagi siymosi, qomusiy olim.

Аннотация: в данной статье анализируется образ Беруни на примере романа писателя Исаджана Султана “Абу Райхан Беруни”, а также рассказывается о характере произведения, мастерстве писателя, исторических событиях.

Ключевые слова: образ Беруни, историко-биографический роман, образ личности, образ в знании, образ в молитве, образ ученого.

Annotation: this article analyzes the image of Beruniy on the example of the novel “Abu Rayhon Beruniy” by the writer Isajon Sultan, and also talks about the essence of the work, the skill of the writer, historical events.

Key words: Beruniy urimasi, historical-biographical novel, personality urameshi, urameshi in knowledge, qomusiy scientist.

Oʻzbek adabiy tafakkurining barcha bosqichlarida buyuk tarixiy siymolar, jumladan, ijodkor shaxslar haqida turli asarlar maydonga kelgan. Yozma adabiyotda ularning turli janr va uslubdagi namunalar mavjud. Chunonchi, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulugʻbek, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi alloma va adiblar toʻgʻrisida turli davr va janrlarda vujudga kelgan asarlar buning dalilidir. Bu asarlarning oʻziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlar faoliyati oʻzlari mansub davr voqeligi bilan uygʻunlikda tasvirlanadi. Shu bois ular, bir tomondan, oʻz davrining farzandi, ikkinchi tomondan, ilgʻor dunyoqarashlari va yuksak ideallari bilan tarixan oʻz zamonasidan ilgarilab ketgan siymolar sifatida gavdalanadilar. Binobarin,

qiladi. Zero, “Tarixiy mavzuda yozish – oʻtmish voqeahodisalarini haqqoniy gavdalanitirishga emas, ularning hozirgi hayot bilan bogʻliq va zarur tomonlarini ham topib badiiy talqin etish demakdir”.[3,22]

Abu Rayhon Beruniy jahon fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan qomusiy olim. Uning oʻlmas ilmiy asarlari jahon fani taraqqiyotida benihoyat yuksak ahamiyatga molikdir. Adabiyotimizda Beruniy siymosiga bagʻishlangan Odil Yoqubovning “Koʻhna dunyo” romani, Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” qissasi bor. Bu asarlar qatoriga Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani ham qoʻshildi. Bu asar Birinchi Sharq Renessansi yuzaga kelganida tamal toshini oʻtagan Xorazm “Dorul-hikma val-maorif” akademiyasida tadqiqotlar olib borgan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy va sulton Mahmud Gʻaznaviy haqidagi tarixiy-biografik romandir. Bu asar Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligiga bagʻishlangan.

Abu Rayhon Beruniy – qomusiy olim, romanda Beruniy siymosi uch yoʻnalishda tasvirlangan. Bulardan birinchisi – olimning kishilik siymosi. U oʻta toʻgʻrisoʻz, fidoyi va qaysar kishi boʻlgan. Beruniyning kishilik siymosi haqida Abu Fazl shunday deydi: “Doimo ogʻirbosiq, vazmin, yurganida ham tez yurmasdi. Buning sababi oyoq ogʻrigʻi boʻlib, bilmaganlar salobat uchun shunday qadam tashlaydi, deb oʻylashardi. Biroq oʻzim shohidman, salobat yoki havolanish uning xayoliga ham kelmasdi.”[5;326]. Shuningdek, asarda Beruniy suhbatdoshiga diqqat bilan quloq solishi, uning fikrini rad etmay, mulohazasini odob bilan bayon qilishi, oʻta toʻgʻri soʻz ekanligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, Beruniyning sultonlar qoshida faqat toʻgʻri soʻzni aytish haqida bitiklari uning hayot



ular xarakterida milliy va umumbashariy jihatlar uygʻunlashadi. Tarixiy mavzuda asar yozish muallifdan alohida tayyorgarlik, chuqur bilim? Alohida iqtidor talab

qoidalarini yaqqol ifodalaydi. Allomaning bilimdagi siymosiga kelsak, u juda rang-barang va yanada yorqin. Uning zakosi insoniyat tarixidan yulduzlar ilmigacha, o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan mineralogiya – qimmatbaho toshlarning tasnifigacha, antropologiyadan falsafagacha, kimyo, fizika, biologiyadan geografiya va geodeziyagacha bo'lgan bilimlarni jamlagan. Asarda keltirilgan quyidagi ta'riflar fikrimiz isbotidir: “Ko'rilgan hodisaning mohiyatiga yetmaguncha yoki muammoning yechimini topmaguncha tinchimasdi. Bu ishda hamma narsaga, hatto xalq orasidagi tushunchalarga ham diqqat qaratardi, pirovardida, o'zi aytganidek, to'plangan xabarlarini botil, noto'g'ri, xurofiy tushunchalardan tozalab chiqardi.”[5;328-329-b] Bir ming ellik yil avval Qiyot yaqinidagi qishloqlardan birida o'sib-ulg'aygan, o'zining ta'rificha, otasini eslay olmaydigan, onasi esa o'tin terib tirikchilik qilgan bir bolakayning ilm va san'atda bunchalar yuksak darajaga erishganiga hayron qolmay iloj yo'q. Beruniy siymosini yana bir voqea yorqinlashtirib beradi. U umrining so'nggi yillarida xorazmlik do'sti, Sohibdevon Abulhasanning qizi Rayhona uchun “Kitob-ut-tafhimli avoili sanoat-it-tanjim” asarini yozadi. Bu ham olimning yuksak insoniy fazilatlaridan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniyning ibodatdagi siymosi romanni yakunlab beradi. Yozuvchi buni asar so'ngida keltirib o'tadi. Abu Rayhon Beruniyning so'zlaridayoq uning e'tiqodda qanchalar sobit ekanini ko'rishimiz mumkin: “Ibodat yaxshilik miyasi, jahon farovonligidir, zero haqiqiy odamlargina sidqidildan shunday ibodat qiladilar. Haq bilan botilni ajrata oladigan ma'rifatli kimsalar dunyo to'g'risida ko'proq o'ylaydilar, bu dunyo azaldan bor edimi, yoki keyinchalik paydo bo'ldimi, deya fikr qiladilar.”[5-331-334-b.] Yoqtirgan duosi – “Tangri muyassar aylasin” bo'lgan. Ushbu asarda yuzdan oshiq kishilar bor va ularning barchasi Beruniy haqida so'z aytishadi.

Abu Rayhon Beruniy O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi bo'lgan. U bir vaqtning o'zida astronom, astrolog, matematik, geolog, geograf, etnograf, biolog, o'simlikshunos, ma'danshunos, tarixchi, dinshunos, adabiyotshunos, faylasuf, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy dunyo fani tarixida yorqin iz qoldirgan ulug' mutafakkir va qomusiy olimdir. Asarda o'nlab hukmdorlar, amirlar, sipohsolor, sarhang va martabadorlardan tashqari, yer yuzidagi mamlakatlarning iqlimi, urf-odatlarini, kishilari haqida hikoya qilinadi. Ushbu romanda turli kishilar haqida hikoya qilingan bo'lsa ham, ularning barchasi Abu Rayhon Beruniy va g'oziy sulton Mahmud G'aznaviy obrazlarini ochib berishda xizmat qilgan. Bu ikki qahramonning bashariyatga qilgan xizmatlari naqadar yuksak ekanligini “Abu Rayhon Beruniy” romani orqali guvoh bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, bu roman, avvalo, ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy taqdiri, u yashagan davr haqida bahs etadi. Ammo u bizdagi mavjud tarixiy-biografik romanlardan, jumladan, “Ko'hna dunyo”, “Yulduzli tunlar” poetikasidan farq qiladi. Isajon Sulton “Abu Rayhon Beruniy” romani orqali tarixiy haqiqatni, ajdodlarimiz tarixini, davrning ko'p qirrali ziddiyatlarini, o'tmish saboqlarini yangicha badiiy kashf etishga muvaffaq bo'ldi. Ko'pchilik o'zbek tarixiy romanlaridagidan yozuvchi bu asari markaziga Abu Rayhon Beruniy va Mahmud G'aznaviy obrazlarini qo'yib, ularni deyarli bir xil, bosh qahramonlardek yonma-yon tarzda tasvirlab boradi. “Abu Rayhon Beruniy” asarini mutolaa qilar ekanmiz, Beruniyning teran aqli, iste'dodi, dadilligi va mardligiga, tabiat hamda uning hodisalarini tushunish va tushuntirishda dialektika elementlariga boy tafakkur yuritishiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q. Bu asar yoshlarni bilim o'rganishga va yangidan-yangi kashfiyotlarni maqsad qilib olishga ruhlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Badiiyat uflari. – Toshkent: Universitet, 2008.
3. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. –Toshkent: Fan, 2009.22-b.
4. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
5. Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023.
6. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar to'plab nashrga tayyorlovchilar: G.Sattorova, M.Qo'chqorova. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
7. U Normatov. Ijod sehri. –Toshkent: Sharq, 2007.
8. Q.Yo'ldoshev. So'z yolqini. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 265-b.
9. www.oyina.uz. “Osorul-boqiy” degan dasturxon yozaman, uning ne'matlarini bironta zodagon yoki davlatmand huzuridan topolmaysan”. Beruniy siymosiga yangi chizgilar.

Marjona SUYUNOVA,
 Jizzax davlat pedagogika
 universiteti 2-kurs talabasi

NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari va maktabgacha va maktab ta'limi yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish haqida va olimlarning nutq haqida aytilgan so'zlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: nazariy metodika, til, "ilk start", nutqiy faoliyat, muloqot, ko'nikma, pedagog, tafakkur.

Аннотация: в данной статье изложены теоретические основы методики развития речи и речевого развития детей дошкольного и школьного возраста, а также слова ученых о речи.

Ключевые слова: теоретическая методика, язык, «первый старт», речевая деятельность, общие, умения, педагогика, мышление.

Annotation: this article describes the theoretical foundations of the speech development methodology and the speech development of children of preschool and school age, as well as the words of scientists about speech.

Key words: theoretical methodology, language, "first start", speech activity, communication, skills, pedagogy, thinking.

KIRISH. Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari: til, nutq, nutqiy faoliyat. Til – bu ijtimoiy hodisadir. O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o'ziga xosligi va ma'naviy madaniyatining yorqin ko'rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog'langani holda ongni shakllantiradi. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat psixologik jarayonlarning chuqur bosqichlarida, balki ijtimoiy hodisalar darajasida ham namoyon bo'ladi. So'zning insonga, uning xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri barchaga yaxshi ma'lum. "Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalaymaydi. Tafakkur – obyektiv borliqning intihosi, til esa – ifoda usuli, fikrni boshqa kishilarga berish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo

etadi"

Hozirgi paytda mamlakatimizda tillar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ikki tamoyil mavjud: bir tomondan, milliy tillarning yanada rivojlanishi va takomillashuvi, o'zga tomondan esa – o'zbek tilining davlat tili sifatidagi ahamiyatining oshishi ro'y bermoqda.

Y.I.Tixeyeva nutqni rivojlantirish mashg'ulotlariga nisbatan qo'yadigan asosiy talablari qatorida bolalar qiziqishlari va tajribalari, ularni jonli o'tkazish, harakatlanish va sinab ko'rish imkoniyatlari bilan aloqasini olg'a suradi. 1956-yili maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun birinchi marta "Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o'qitish" nomli o'quv qo'llanmasi dunyo yuzini ko'rdi. Mazkur qo'llanma muallifi

O.I.Soloveva edi. 50–60-yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo'lim – grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ushbu masalani yoritishga professor A.N.Gvozdev ulkan hissa qo'shdi, u o'zining "Bolalar nutqni o'rganish masalalari" nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan. Y.A.Flerina "maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish muammosini tor darajada hal etish"ning xavfliligi haqida ogohlantirgan, maktabgacha yoshdagi bolani o'qitishning o'ziga xosligini ta'kidlagan: "Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda mashg'ulotlar va maxsus mashg'ulotlarda tarbiyachining

Maktabgacha bo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jixatidan oson talaffuz etiladigan: lab-til undoshlari (p, b, m, f, v) va boshqalarni o'rgana boshlaydilar.



Artikulyatsion jixatidan talaffuz etish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch) va sonor (r, l)til orqa (k, g) tovushlarni talaffuzini egallashga qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz etmaydilar.

ko'rsatib o'tishi orqali o'qib o'rganadilar". U o'zining tarbiya tizimida san'atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy o'rinni bergan. A.P.Usova maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitishning umumiy nazariyasini ishlab chiqqani holda ona tilini o'qitishga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining o'zi to'g'ri nutqiy rivojlanish kafolati bo'lib xizmat qiladi, chunki "bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarini kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar". Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlari to'g'ri hisobga olingan taqdirda u barcha bolalar nutqining maqbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi, hisoblaydi A.P.Usova. U bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari qiyin bo'lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat bergan. A.P.Usova ona tili bo'yicha dasturni o'zlashtirish uchun barcha bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish lozim, deb hisoblagan. Ayni paytda u mashg'ulot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish uchun ham ko'p ishlarni amalga oshirgan. Tadqiqotchilarning asosiy e'tibori nutqiy mashg'ulotlar mazmuni va metodikasiga qaratildi, bu asastein Ye.A.Flerina ogohlantirgan "nutqni o'rgatish" tushunchasining torayishiga, amaliyotda esa – nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg'ulotlar ahamiyatining oshishiga olib keldi. 60–70-yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Nazariy va

Bola avval unli va undoshlarni, so'ng sonor, shovqinli va sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo'lishi lozim. Bu vaqtga kelib, tovushlarni to'g'ri talaffuz o'zining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama to'g'ri aniq gapira oladi.



amaliy tadqiqotlarda bunday o'quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi. Mana shunday olimlarimiz nutqiy faoliyatga juda katta hissalarini qo'shgan va bu faoliyat hali hamon biz yoshlarga asqotib kelmoqda. Buyuk rus yozuvchisi va metodisti Lev Tolstoy "Bolalarni o'qitishni bas qiling" deganda, aslida, ularning o'zlari ustida ishlashlari uchun imkoniyat qilib berishlik, ularning o'zlarini o'z ustlarida ishlashga o'rgatishni nazarda tutgan edi. Bugun ta'lim tizimidagi hayotiy kompetensiyaviylikning ham mohiyati bolalarni jonsiz dars jihozlaridan ko'ra hayotiy faoliyatga olib chiqishni, dars jarayonini hayot bilan bog'lashni pirovard maqsad qilib qo'yadi.

Xulosa. Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o'zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o'simliklar olami, suv osti dunyosi) to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytirib borish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018. 432-b.10-12-14-15-b.
2. T.Jabborova. X.G'ulomova. G.Eshurdiyeva. 1-sinfda savod darslari. Ona tili o'qitish metodikasi.
3. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. S.Matchanov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Sh.Sariyev. –Toshkent: Bayoz, 2022. 241-304-b.

Azizbek IBRAGIMOV,
 Urganch davlat universiteti talabasi

ORZU URGANJIY LIRIKASIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNINI

Annotatsiya: xalq og'zaki ijodi o'zining ming yillik tarixiga ega bo'lib, yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo'lgani bilan xarakterlanadi. Shuningdek, asrlar mobaynida xalq ijodining mavzu va g'oyalari yozma adabiyot vakillari uchun o'ziga xos manba bo'lib kelmoqda. Xususan, Orzu Urganjiy ijodida ham og'zaki ijodan ilhomlanishning guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqolada Urganjiy lirikasida xalq hikmatlarining aks etishi chuqur o'rganilgan va muayyan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: maqol, xalq og'zaki ijodi, ijodiy meros, lirika, janr, hikmat, didaktika, novatorlik, an'ana.

Annotation: folklore has a thousand-year history and is characterized by the fact that it arose much earlier than written literature. Also, for centuries, themes and ideas of folklore have been a unique source for representatives of written literature. In particular, we can witness the inspiration of oral poetry in the work of Orzu Urganzhiya. This article deeply explores the reflection of folk wisdom in the lyrics of Urganji and draws certain conclusions.

Key words: proverb, folklore, creative heritage, lyrics, genre, wise words, didactics, innovation, tradition.

Аннотация: фольклор имеет тысячелетнюю историю и характеризуется тем, что возник гораздо раньше письменной литературы. Также на протяжении веков темы и идеи народного творчества были уникальным источником для представителей письменной литературы. В частности, мы можем стать свидетелями вдохновения устного творчества в творчестве Орзу Урганжия. В данной статье глубоко исследовано отражение народной мудрости в лирике Урганжи и сделаны определенные выводы.

Ключевые слова: пословица, фольклор, творческое наследие, лирика, жанр, мудрые слова, дидактика, новаторство, традиция.

O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning paydo bo'lishi bir necha asrlar uzoqroqqa borib taqaladi. Xususan, biz ming yilligini nishonlagan ko'plab dostonlarning haqiqiy paydo bo'lish sanasi ham aniq emas. "Xalq og'zaki ijodining paydo bo'lishi og'zaki nutqning rivojlanishi natijasida, xalq turmush tarzi, orzu va xayollarini aks ettirish manbasi sifatida paydo bo'lgan. Azaldan insonlar o'z mehnat faoliyatlari davomida ishning unumli bo'lishi va zerikish va charchoqning oldini olish maqsadida turli qo'shiqlarni o'ylab topganlar. Bular mehnat qo'shiqlari turkumini hosil qiladi va ularga "Xo'p hayda", "Churey-churey" kabilarni misol qilish mumkin"[1,3]. Qolaversa, telefon va ijtimoiy tarmoqlar bo'lmagan, kitob nashr etish va umuman, yozuv hali yaxshi rivojlanmagan paytlarda oqshomlari to'qilgan voqealar asosida epik dostonlar ham yuzaga kelgan. Baxshilar tomonidan necha asrlardan beri og'izdan og'izga o'tib kelayotgan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Dada Qo'rqu" dostonlari shular jumlasidan. O'zbek xalqining donishmandligi "O'zbek xalq maqollari" to'plamidan joy olgan minglab maqollar qatiga yashiringan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimiz o'zining hayot yo'li mobaynida kelgan xulosalarini misralar, ikkiliklar, ba'zan to'rtliklar qatorida aks ettirgan. Bu kabi keng qamrovli og'zaki ijod merosining yozma adabiyot uchun manba sifatida xizmat qilmasligi mumkin emas edi. Shu tufayli turkiy adabiyot vakillari Atoyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Feruz, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar va boshqalar ijodida tez-tez xalq ijodiga murojaatiga guvoh bo'lamiz. Orzu Urganjiy ham bundan mustasno emas.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida yashab o'tgan Yangiboy Qurboniyoz o'g'li – Orzu Urganjiy ijodining uchdan bir qismini hikmatlar qamrab oladi. Bu hikmatlar

shoirning umri davomida chiqargan xulosalari va xalq o'g'itlari omuxtaligida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Chunki shoir ijodida bir necha o'rinlarda ayni xalq maqollarida ifoda etilgan fikrlarning berilishi, misol sifatida keltirilishi, yoki misollar bilan izohlanishi holatlari uchraydi. Urganjiy lirikasida didaktikaning ustunligi undagi ta'magirlik va qanoat, so'z so'zlash madaniyati, oqillik va nodonlik, ilm o'rganish va xulosa chiqarish, mehnatkashlik, mardlik, va'daga vafo kabi mavzularning ustunligi bilan xarakterlanadi. Quyida uning ijodidan bir qancha namunalarni ko'rib o'tamiz:

*Bo'lur sihat jarohat qilsa tig', marham bila shaksiz,
 Jarohat qilsa tig', bitmas mudom ozor deb angla.* [2,11]

Xalqimizda "Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi", degan maqol bor. Ya'ni tananing jarohati organizmdagi tabiiy regeneratsiya xususiyati tufayli bitishi mumkin. Bunda yordam sifatida tabiblar malhamdan foydalanishni maslahat beradilar. Ammo ko'ngilga tegadigan gap gapirilsa, uning kechirilishi, unutilishi qiyin kechadi. Urganjiy g'azalida buning badiiy ifodasini ko'ramiz.

Yuqoridagi g'azalning davomida shunday bayt ham uchraydi:

*Hamisha mard yigitlar el uchun xizmatga bel bog'lar,
 Erur ul xalq do'sti, hurmati bisyor deb angla.* [2,11]

"Elga xizmat – oliy himmat" maqolining paydo bo'lishi bejiz emas. Qadimdan yigitning mardligi xalq boshiga qiyin kun kelganida, ocharchiliklar, urushlar davrida yuzaga chiqqan. O'z xalqiga sidqidildan xizmat qilib, xalqining har bir vakilini o'z yaqiniday bilib, og'ir kunida yonida tura olganlarni haqiqiy er yigit deb hisoblashgan. Ana shunday yigitlarga xalqning hurmati va e'tirofiga

sazovor bo'lishgan. Baytda ham mardlikka va el xizmatiga chorlov aks etgan.

“Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin” maqolini deyarli har bir o'zbek yod olgan, desak yanglishmagan bo'lamiz. Ya'nikim, ilmni o'zlashtirishdan ko'ra butun umr chin insoniylikni saqlagan holda umr kechirish qiyinroq ishdir. Urganjiyda bu g'oyaning ham badiiy shaklini uchramiz:

Necha yil dorilfununda o'qisang har turli fan,

Kirmasa ma'ni quloqqa, so'ng pushaymondin ne sud. [2,15]

“O'qish boshqa, uqish boshqa” maqolining o'zgacha usulda berilishi o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Ya'ni ilmni o'rganish, yod olish oson, unga amal qilinmasa, bu to'plangan xazinadan egasiga ham, boshqalarga ham zarracha foyda yo'q. Xuddi ko'milgan xazinaning hech kimga nafi tegmagani kabi.

Bolaligimizdan qulog'imizga singdirilgan “Mehnatning tagi rohat” maqoli tagida qanchalik kuchli tarbiyaviy ahamiyat yashirin ekanligini ulg'aygach anglaymiz. Buni teran tushungan Orzu Urganjiy ham o'z misralarida shunga o'xshash fikrlarni bot-bot takrorlashdan charchamaydi:

1) *Mehnat etmay, avvalo, rohatni hech kim ko'rmadi,*

Ul halol mehnat tufayli peshvoga aylanur. [2, 18]

2) Tinmay halol mehnat etib, bois bu rohatga yetib, Mehnatda rohat bir taraf, ham lazzati jon bir taraf. [2, 33]

3) Mehnatingdin parcha non shirin g'aniy halvosidin, Minnati tish sindirur, sen qilma dandondin tama.

Istasang rohatni, avval ishda ko'rsatgil o'zing, Etmayin mehnatni, qilma la'lini kondin tama. [2,6]

Misralarda takrorlanganidek, mehnatsiz, oson keladigan rohatning o'zi yo'q. Faqat halol mehnatgina insonni kamolotga, farovonlikka eltadi. Vijdon ham halol luqmadangina orom topadi. Go'zal misol bilan izohlanganidek, mehnat qilmasdan kondan la'l chiqishini umid ham qilmaslik kerak.


Bu kabi azaliy va abadiy mavzularga murojaatlar Urganjiyda yana ko'plab aks etgan. Zero, mumtoz adabiyot namunalarini an'anaviylik tamoyilisiz tasavvur etish ham mumkin emas.

Orzu Urganjiyning “Andishasiz” she'ri ham hikmat sifatida berib o'tilgan va shaklan g'azal janriga mansub. Bunda andishasizlik illati ortida yotgan, uning tufayli

kelib chiqadigan yana ko'plab illatlar ham sanab o'tilgan. Shulardan biri so'zni o'ylamay gapirmoq, aniqrog'i, so'z so'zlashdagi andishasizlikdir:

*Fikr qilmay, oqilu dono kishi so'zni demas,
O'ylamay aytgan so'zing ozor bo'lur andishasiz.
Chiqsa har bir so'z og'izdin, misoli otilgan o'q,*

XALQ OG'ZAKI IJODI



Xalqimiz ma'naviy va milliy qadriyatlarga nihoyatda boy. Birgina nikoh to'yidan keyingi marosim hisoblangan kelin salomning o'zi har bir hududda o'ziga xos tarzda o'tkaziladi. Aslida kelin salom ham xalq og'zaki ijodining yorqin bir ko'ri-nishidir. Biz ertaklar, laparlar, ayti-shuvlar, topishmoqlar, allalar va maqol-larni eshitib ulg'ayganmiz.

Xalqimizning xayoliy dunyosi, —yuksak— tafakkuri mahsuli bo'lgan bu yanglig' xalq og'zaki ijodi namunalarini

Mumkin ermas qaytarish, badkor bo'lur andishasiz. [2,16]

“Aytilgan so'z – otilgan o'q” maqoliga muvofiq tarzda yozilgan baytlardan o'ylamasdan aytilgan har jumlaning natijasida inson boshiga qanchalik og'ir kulfatlar yog'ilishi mumkinligini anglash qiyin ish emas. Urganjiy o'z usuliga sodiq qolgan holda dastlab o'z fikrini bildiradi va uni maqol yordamida dalillaydi. Boshga balo tildan keladi. Shu o'rinda o'zbek ma'rifatparvari, birinchi o'zbek romani “O'tkan kunlar”ning muallifi Abdulla Qodiriyning ushbu fikrini eslamaslikning iloji yo'q: “So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”. Deyarli bir davrda ijod qilgan Urganjiy bilan Qodiriyning fikrlaridagi o'xshashlik tasodif emas. Chunki ularning ikkalasi ham bir xalqning chin farzandi sifatida kamol topib, o'z xalqi uchun xizmat qilgan ijodkorlardir.

Orzu Urganjiy ijodini o'zbek xalq og'zaki ijodisiz tasavvur qilish mumkin emas. Yuqorida buning isboti sifatida bir necha namunalarni ham ko'rib o'tdik. Ming yillar davomida yashab kelayotgan xalq ijodining mahsuli – maqollar hali ko'plab shoir va yozuvchilarni ilhomlantiradi va avlodlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish vositasi bo'lishiga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: “Mumtoz so'z”, 2010.
2. Orzu. Hikmatlar gulistoni. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.
3. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. –Toshkent: O'zbekiston, 2014.